

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

Trigulova Adelya Xusainovna  
Urmanova Lola Akbarovna  
Ibraximjanova Gavhar Amanbaevna

**MUSIQA NAZARIYASI**  
**(Musiqa nazariyasi asoslari.**  
**Garmoniya.**  
**Musiqa asarlari taxlili)**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi tomonidan oliy ta'lif muassasalari  
5111100 - musiqa ta'limi yonalishi talabalari uchun  
o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan.

Taqrizchilar:

A.D. Karimova – Nizomiy nomidagi TDPU dosenti  
Q.M.Mamirov – TDSMI professori

Mas`ul muharrir:

M.H.Xodjayeva - TDSMI katta o`qituvchisi

## ANNOTATSIYA

O’quv qo’llanma O‘zbekiston Respublikasining Davlat ta’lim standarti talablariga muvofiq va pedagogik OTM “Musiqa ta’limi” yo‘nalishi uchun mo‘ljallangan “Musiqa nazariyasi” na’munaviy fan dasturi asosida tayyorlandi. O’quv qo’llanmada musiqashunoslik nazariy majmuasiga kiradigan boshlang‘ich fani “Musiqa nazariyasi asoslari”ga oid baza bilimlari taqdim etilgan, “Garmoniya” fanidan ohangdoshliklar va ular izchiliklari bilan bog‘liq asosiy ma’lumotlar bayon qilingan, “Musiqa asarlari tahlili” fani – musiqiy asarlarda shakl hosil bo‘lishi va rivojlanish qonuniyatlari haqidagi ta’limning mavzulari yoritilgan.

O’quv qo’llanma pedagogik OTM musiqa ta’limi yo‘nalishi bakalavrlari uchun mo‘ljallangan. O’quv qo’llanma boshqa musiqa o‘quv muassasalarida ham qo’llanilishi mumkin

## KIRISH

Birorta musiqa asarining mazmunini «o‘qiy olish», uni tushunib yetish, hamda qanday tuzilganligini “ko‘ra bilish” uchun, avvalom, musiqa tilini bilish, musiqiy fikrlay olish qobiliyatni rivojlantirish lozim.

«Musiqa tili» degani bu musiqiy ifodalilik va tasvirlilik vositalaridan tashkil topgan tizim demakdir. Musiqiy tilning vositalari musiqaning tarkibiy elementlari hisoblanadi. Bular tovush balandligi, cho‘zim, metr, ritm, interval,akkord, lad, tonallik, kuy kabi vositalardir. Musiqa elementlari va ularning o‘zaro bog‘liqligi haqidagi ta’lim musiqa nazariyasiga oid fanlarda bayon qilingan.

San’atshunoslikning bir sohasi musiqashunoslikdir. U o‘z navbatida quyidagi bilim sohalarini qamrab oladi: musiqa nazariyasi, musiqa tarixi, musiqiy etnografiya, musiqiy tanqid, musiqiy akustika, musiqiy psixologiya va boshqa sohalar. Musiqa nazariyasi ilmiy va o‘quv fanlarning majmuasi bo‘lib, musiqaning elementar nazariyasi, garmoniya, musiqiy shakl, polifoniya, solfedjio, cholg‘ulashtirish kabi fanlardan iborat va musiqani nazariy nuqtai nazardan o‘rganadi. Mazkur fanlarning umumiy vazifasi – musiqani idrok etish, uni tushunish, uning tabiatini, imkoniyatlari va tinglovchilarga ta’sir qilish mexanizmini anglashga yordam berishdir. Ushbu fanlar bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarni tayyorlashda muhim rol o‘ynaydi. Ular musiqa sirlarini nafaqat o‘z musiqiy ehtiyojlari uchun, balki kerakli bilim va ko‘nikmalarini kelajakdagi o‘quvchilari ongiga singdirish uchun o‘zlashtirishi zarur.

Musiqa nazariyasi haqidagi fanlar tizimining boshlang‘ich qismi - Musiqa nazariyasi asoslari – musiqaning asosiy elementlari va ayniqsa, kuy va uning xususiyatlarini o‘rganishni o‘z oldiga vazifa qilib qo‘yadi. Olinadigan bilimlarni umumlashtirish maqsadida har bir musiqa elementi haqidagi ma’lumot o‘quv qo‘llanmaning alohida boblariga kiritilganligiga qaramay, o‘quvchi shuni yodda tutish kerakki, musiqa elementlari faqat bir-biri bilan bog‘liqligidagina o‘zining ifodali xususiyatlarini namoyon qilishi mumkin.

Fanni chuqur o‘rganish, bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlashda muntazam mashqlar yordam beradi. Kursning har bir mavzusi yuzasidan og‘zaki, yozma,

fortepianoda chalib bajariladigan topshiriqlar berilgan. Bundan tashqari, Q.Rahimov “Musiqaning elementar nazariyasi bo‘yicha mashq va topshiriqlari” o‘quv qo‘llanmasiga murojaat qilish tavsiya etiladi.

Musiqqa elementar nazariyasi kursi o‘quvchilarga nazariy fanlarning keyingi kurslarini o‘rganish uchun mustahkam zamin yartib beradi va mustaqil musiqiy fikrlay olish ko‘nikmaning rivojlanishiga asos soladi. Bunga tarixiy nuqtai nazardan yoritilgan lad, ritm, kuy, xromatizm kabi mavzular imkon tug‘diradi.

Bu asosiy vazifalardan tashqari mazkur fan kursi o‘quvchilarga boshqa musiqiy fanlar (cholg‘u va vokal ijrochiligi, xor dirijyorligi, musiqqa o‘qitish metodikasi) bo‘yicha o‘tiladigan musiqiy asarlar matnini ongli o‘zlashtirishda yordam beradi. Nihoyat, musiqqa elementar nazariyasi boshqa fanlari bilan baravar o‘quvchilarning umumiy musiqiy va madaniy saviyasini o‘sishiga ko‘maklashadi.

Garmoniya fanini o‘zlashtirish jarayonida o‘quvchilar rang-barang ohangdoshliklarni qollab, musiqiy fikr rivojlanishini ko‘rsata olishni o‘rganadi. Garmoniya fani o‘qituvchining vazifasi – o‘quvchilarga mazkur fanning asosiy qonuniyatları haqida bilimlar berish, yozma ishlar orqali amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish va musiqada garmonyaning o‘zi ifodaviy vositalardan biri ekanligi haqida tushuncha berishdan iborat.

Garmoniya kursida diatonikakkordlar, shu qatorda hilma xil septakkordlar, ularni qo‘llash sharoitlar o‘rganiladi. Garmoniya kursi badiiy ijodning asosida yotgan asosiy oddiy garmonik vositalarni nazariy va amaliy jihatdan o‘zlashtirish jarayoniga bag‘ishlangan. Garmonik vositalar, hattoki oddiyakkordlarni qo‘lash imkoniyatlarning ko‘p xilagini ko‘rsatish uchun har taraflama ko‘rib chiqiladi.

“Musiqiy asar tahlili” bo‘limi umumta’lim maktabi musiqqa o‘qituvchisini tayyorlash tizimining musiqiy-nazariy fanlar kursida yakunlovchi muhim tarkibiy qismi sanaladi. Fanni o‘rganish talabalarda tahliliy fikrlashni rivojlantirishni, badiiy did va uslub hissini tarbiyalashni ko‘zda tutadi.

Mazkur fanni o‘rganish jarayonida talabalar musiqiy asarlarni shakl va mazmun birligida tahlil qilishga oid amaliy ko‘nikmalar, kompozitsiya

xususiyatlarini baholash malakalarini egallaydi. Ular musiqiy nutq elementlarining obrazli-mazmunli va kompozitsion birligida ifoda imkoniyatlarini tushunishni o‘rganadi.

Ushbu o‘quv qollanmada keltirilgan nazariy material bayonning lo‘ndaligi, jumlalarning ravonligi bilan ajralib turadi.

O‘quv qo‘llanmaning amaliy yo‘nalganligi, materialning ixcham va aniqligi uning umumta’lim maktabi musiqa o‘qituvchisini tayyorlash samaradorligiga qaratilganili bilan belgilanadi.

O‘quv qo‘llanmaning har bir mavzusi garmonik misollari, shuningdek o‘zbek va xorijiy musiqiy asarlar parchalari bilan tasdiqlanadi va bilimlarni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar bilan yakunlanadi.

Mualliflar tomonidan o‘quv qollanma tayyorlanishida mashhur musiqashunoslar V.Vaxromeev, I.Cposobin, I.Dubovskiy, Yu.Tyulin, O.Azimova va boshqalarning ilmiy-nazariy ishlar foydalanildi.

Ushbu o‘quv qo‘llanma OTM musiqa yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan. Boshqa musiqiy bilim yurtlarida ham qo‘llanilishi mumkin.

## I QISM. MUSIQA NAZARIYASI ASOSLARI

### 1- mavzu. MUSIQIY TIZIM.

#### 1-§. Musiqa san'ati va uning o'ziga xos xususiyatlari. Musiqaning asosiy ifodalni vositalari. Badiiy obraz.

San'at mazmuni – hayot, atrofimizdagi voqelik, inson va uning ichki dunyosi – o'y-fikrlari, his-tuyg'ularidir. San'at inson faoliyatining boshqa turlaridan ko'ra badiiy obrazlarni yaratish orqali voqelikni o'zlashtiradi. U kishining hissiyoti va onggiga bevosita ta'sir qiluvchi shaklda olamni guyoki yangidan yaratadi. Lekin, san'atkor hayotni, xodisalar va narsalarni nusha qilib ko'chirmaydi. U biror obrazga xos bo'lgan eng umumiy, tipik xususiyatlarni saralab olib, ularning hammasini tushunib olib, obraz qiuofasini o'zgartiradi, so'ng uni rasm, she'r, musiqa asari shaklida gavdalantiradi. Albatta, har qanday san'atkorning asari muallifning shahs asoratini o'z ichida saqlab qoladi. Chunki, tashqi dunyoning ob'ektiv materiali san'atkorning ongida alohida qayta ishlab chiqilib, original, o'ziga xos ijod bo'lib qayta vujudga keladi. Biroq, shu bilan birga har bir ijodiy asar jamoat ongingin mahsuloti deb ham hisoblanadi. Negaki, u muayyan bir ijtimoiy psixologiya, mamlakat, tarixiy hodisa bilan bog'liq bo'ladi. Badiiy ijodiyotning ijtimoiy tomoni shunda namoyon bo'ladiki, inson o'z zamondoshlari hamda xalqi o'tmishi va odamzod bilan aloqadorligini badiiy obrazlar orqali his etadi. Haqiqiy san'at abadiy badiiy qadriyatlar ijod qilar ekan, huddi avlodlarning uzluksiz bog'liqligini amalga oshiradi.

Shunday qhilib, san'at asarlari ham hayot, ham ijodning rasmidir. Ammo san'at turlari hayotning turli-tuman tomonlarini bir xil darajada tasvirlashga qodir emas. San'atning har bir turi o'ziga hos vositalar va ifodalash tamoyillari bilan ajralib turadi. Ho'sh, musiqa san'ati o'zi nima? Uning maqsadi, vazifalari nimadan iborat?

Musiqa<sup>1</sup> - ohang (intonatsiya) san'ati, sadolarda ifodalangan voqelikning badiiy aksidir. U borliqni o'ziga xos tarzda aks etib, uni boyitadi, hamda uni tushunib olish va o'zgartirishda yordam beradi. Malumki, musiqa jamiyat hayotida muhim rol

<sup>1</sup> Musiqa – (yunoncha - μουσική ) – ilhom parilari san'ati.

o‘ynaydi. Musiqa – insonning turmush tarzi va ijtimoy hayotida, mehnat va dam olish chog’larida albatta ishtiroq etadigan alomat sifatida xizmat qilib, odamni ma’naviy qadriyatlarga erishtiradigan noyob vositadir. U shahsning ma’naviy olamini, ahloqiy maqsadlarini shakllantiruvchi estetik tarbiya’ning samarali quroli deb odilona hisoblanadi. Musiqaning o‘zi, uning yaratuvchilari, ijrochilar, tinglovchilaridan iborat musiqa madaniyati jamiyat madaniyatidagi muhim bir sohadir.

Musiqa boshqa san’at turlari bilan yaqin munosabatlarda bo‘lishi shubhasizdir. Ularning jonli aloqalari musiqaga hos intonatsion asosi adabiyot bilan yaqinligi, ritmik uyushqoqligi she’riyat va raqs san’atiga o‘xshashligi, asarlarining mutanosib tuzilishi arxitektura shakllariga muvofiqligida ko‘rinadi. Bunga qo‘sib aytish lozimki, adabiyot, tasviriy san’at, xaykaltaroshlik asarlari ko‘pincha musiqiy asarlar uchun asos sifatida hizmat qiladi.

Musiqa musiqiy obrazlar orqali ochib beriladigan u yoki bu mazmunga ega bo‘ladi. Bu tabiat manzaralari, ijtimoiy hayotdagi hodisalar va vaziyatlar, insonning ichki ma’naviy olamidir. Musiqa kishining hissiyoti, kayfiyatini ifodalashga qodir. Shu bilan birga uning tabiat manzaralarini tasvirlash, harakat obrazlarini gavdalantirish, hayotning samimiyo ovozlari (qushlarning sayrashi, momaqaldiroqning guldirashi)ga taqlid qilishga ham layoqati bor.

## **2-§. Musiqiy tovush va uning xususiyatlari.**

Tovush fizik hodisadir. O‘z navbatida “tovush” tushunchasi yana bir necha uzviy bog‘langan turli hodisalar zanjirini o‘z ichiga oladi. Tovush manbai birorta jism (masalan, simli tor)ning tebranish harakatlaridir. Bunday harakatlar natijasida, havoda to‘lqinsimon tebranishlar, ya’ni *tovush to lqinlari* yuzaga keladi. Ular esa eshitish organga ta’sir qilib, eshitish nervi orqali bosh miyaga o‘tadi va tovush sezgisini vujudga keltiradi.

Tabiatda odam qulog‘iga chalinadigan tovushlar cheksizdir. Ular *shovqinli*<sup>2</sup> - taqillagan, shitiragan, g‘ichirlagan kabi tabiiy tovushlar, va *musiqiy* – kuylayotgan

---

<sup>2</sup> Shovqinli tovushlar musiqiy asarlarda ham qo‘llaniladi. Masalan: doyra, nog`ora, baraban, tarelka, qoshiqlar tovushlari.

odam ovozi, yangrayotgan cholg‘u asbobning sadolari kabi sun’iy tovushlarga ajratiladi. *Musiqiy* tovushlar musiqa san’atining asosiy vositasi bo‘lib, atrofdagi vokelikni aks ettirishda xizmat qiladi. Ular musiqa madaniyatining ko‘p asrli taraqqiyot jarayonida saralab olinib, muayyan tizimga uyushtirlandi.

Musiqiy ifodalilik elementlarining negizi musiqiy tovush o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Ushbu xususiyatlar tebranilayotgan jismning tebranish tezligi, tebranish kengligi, tebranish davomiyligi va tarkibiy qismlari son va sifatidan kelib chiqadi.

Tebranish tezligiga tovushning *balandligi* bo‘g‘liq. Tebranish tezligi qancha katta bo‘lsa, shuncha tovush balandligi yuqoriroq, va aksincha, tebranish tezligi qancha kichik bo‘lsa, shuncha tovush balandligi pastroq bo‘ladi. Shuning uchun, tovushlar ikki xil guruhg‘a ajratiladi:


- 1) balandligi aniq belgilangan tovushlar - *musiqiy* tovushlar;
- 2) noaniq balandlikdagi tovushlar - *shovqinli* tovushlar.

Tebranish harakatining kuch-quvvati tebranish kengligi (amplituda)da ifodalanadi va tovush *qattiqligini* (forte–piano jarangini) ta’minlaydi. Tebranishlar amplitudasi qancha keng bo‘lsa, shuncha tovush qattiq bo‘ladi.

Tebranishning davom etish muddati tovushning *cho‘zimi* bilan bogliqdir. Tebranishlar amplitudasi qancha keng bo‘lsa, shuncha tovush yangrashi uzoq vaqt davom etadi.

Tovush manbai tebranishlarining tarkibi deganda quyidagini tushunish lozim. Tovush manbai bir vaqtning o‘zida nafaqat butunligicha, balki bo‘limlari bo‘yicha ham tebranadi. Uning butunligicha tebranishi asosiy tebranish hisoblanib, eng yaxshi eshitiladigan tovushni xosil qiladi. Bu tovush asosiy ton deb ataladi. Har bir bo‘lim (jismning umumiyligidan teng yarimi, uch qismidan biri, to‘rtadan biri, beshdan biri va h.k)ning tebranish tezligi o‘z uzunligiga mos tovushni yaratadi. Bunday qo‘sishimcha tovushlar asosiy tondan ko‘ra ikki, uch marta balandroq eshitiladi. Chunki, tovush manbaining uzunligi qancha qisqa bo‘lsa, uning tebranish tezligi

shuncha oshadi va undan xosil bo‘lgan tovush balandligi shuncha yuqorilashadi. Ushbu qo‘sishimcha, tarkibiy tonlar *oberton*<sup>3</sup> yoki garmoniklar deb ataladi.



Xullas, tovush tarkibiga kirgan obertonlar tovushning rang-barangligini, ya’ni *tembr* xususiyatini vujudga keltiradi. Tembr tovushning individual sifatini, boshqa tovushlarga o‘xshamasligini ta’kidlaydi.

Mazkur to‘rtta xususiyat har bir musiqiy tovushda albatta namoyon bo‘ladi.

### 3-§. Musiqiy tizim. Tovushqator.

*Musiqiy tizim* balandlik bo‘yicha muayan o‘zaro munosabatlarda bo‘lgan tovushlar qatoridan iborat. Tovushlarning balandligi bo‘yicha yuqorilama yoki pastlama tartibda ketma-ket joylashuvi *musiqiy tizim tovushqatori* deyiladi. Tovushqatorning har bir tovushiga esa uning *pog‘onasi* aytiladi. (*Pog‘onaning tartib raqami rim raqami bilan ifodalanadi*).

Musiqiy tizim tovushqatorining *pog‘onalari* asosiy va hosila *pog‘onalarga* ajraladi. *Asosiy pog‘onalar yettita* bo‘lib, mustaqil nom va lotincha alifboning harfiga egadir. Asosiy *pog‘onalarning nomlari* butun tovushqatorning barcha asosiy *pog‘onalarini* qamrab olish uchun davriy tariqada takrorlanadi. Bunday holat har sakkizinch tovush asosiy tonning bиринчи обертона bo‘lib chiqishiga bog‘liq. Birinchi oberton balandligi (tebranish tezligi) asosiy ton balandligidan ikki marta yuqori bo‘lib, sadolanishda u bilan uyg‘unlashib ketadi. (Jadvalda asosiy *pog‘onalar qatorini Do* tovushdan boshlab aytish odatlanganligi sababli unga I raqam berildi).

<sup>3</sup> *Oberton* – yuqori ton demakdir.

2

Pog'onganing nomi	<i>do</i>	<i>re</i>	<i>mi</i>	<i>fa</i>	<i>sol</i>	<i>lyा</i>	<i>si</i>	<i>do</i>	<i>re</i>	<i>mi</i>	<i>fa</i>	<i>sol</i>	<i>lyा</i>	<i>si</i>
Harfiy belgisi	<i>C</i>	<i>D</i>	<i>E</i>	<i>F</i>	<i>G</i>	<i>A</i>	<i>H</i>	<i>C</i>	<i>D</i>	<i>E</i>	<i>F</i>	<i>G</i>	<i>A</i>	<i>H</i>
Raqami	<i>I</i>	<i>II</i>	<i>II</i>	<i>IV</i>	<i>V</i>	<i>VI</i>	<i>VII</i>	<i>I</i>	<i>II</i>	<i>II</i>	<i>IV</i>	<i>V</i>	<i>VI</i>	<i>VII</i>

Bir hil pog'onalar orasiga ***oktava*** deyiladi. Hamma yettila asosiy pog'onalarini o'z ichiga oladigan tovushqatorning qismi ham ***oktava*** deyiladi. Shunday qilib, butun musiqiy tovushqator yettila to'liq va ikkita to'liqsiz oktavadan iborat.

To'liq oktavalar – *kontroktava*, *katta oktava*, *kichik oktava*, *birinchi oktava*, *ikkinchchi oktava*, *uchinchchi oktava*, *turtinchchi oktava*; to'liqsiz oktava – *subkontroktava* (uchta tovushdan iborat) va *beshinchchi oktava* (bitta tovushdan iborat).

Musiqiy tovushqatorning hamma 88 ta tovushi fortepiano yoki royal *klaviaturasi*<sup>4</sup>da mujassamlangan. Ular oq (52 ta asosiy pog'ona) va qora (36 ta hosila pog'ona) klavishlarga ajratilgan. (3- misol)

**Asosiy tushunchalar:** *balandlik*, *qattiqlik*, *cho'zim*, *tembr*, *musiqiy tizim*, *tovushqator*, *asosiy pog'onalar*, *oktava*.


### Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Tovush xususiyatlarini yoritib bering.
2. Musiqiy tizim deganda nimani tushunasiz?

---

<sup>4</sup> *Klaviatura* – (lotincha) – kalit; muayyan tartibda joylasgan klavishlar tizimi.

### **3      fortepiano klaviaturası**



## 2- mavzu. NOTA YO‘ZUVI. ASOSIY CHO‘ZIMLAR


### 1-§. Nota yo‘li. Akkolada. Nota belgisi.

**Nota yo‘zuvı** – bu tovushlarni **nota**<sup>5</sup> deb ataluvchi yo‘zma belgilar yordamida ifodalashga qaratilgan tizimdir.

Nota belgisi ichi oq yoki bo‘yalgan oval shaklida yoziladi. Tovushning cho‘zimini ko‘rsatish uchun notaga vertikal tayoqcha (shtil), dumcha, nuqta qo‘shilishi mumrin. Notalar beshta gorizontal parallel chiziqlar tizimi deyiladigan **nota yo‘liga** joylashadi – chiziqlar ustiga yoki ular orasiga yoziladi.

Nota yo‘lining chiziqlari pastdan yuqoriga tomon sanaladi.

4



Asosiy chiziqlardan tashqari qisqa ham ishlatilishi mumkin. Ular nota yo‘lining tepasidan yozilsa, pastdan yuqoriga tomon, yoki nota yo‘lining pastidan yozilsa, yuqoridan pastga tomon sanaladi.

Odatda nota yo‘li boshida beshta chiziqni birlashtiradigan vertikal **boshlang‘ich chiziq** qo‘yiladi. Ko‘p xollarda musiqiy asar matni bir vaqtning o‘zida ikkita, uchta va undan ortiq nota yo‘lida bayon etilishi zarur bo‘ladi. Shunda, barcha nota yo‘llari umumiy boshlang‘ich chiziq bilan birlashtiriladi. Unga qo‘shilib yana **akkolada**<sup>6</sup> deyiladigan kavs ham yoziladi.

5



<sup>5</sup> Nota - (lotincha *nota*) – yozuv belgisi, belgi. Tovushning grafik ishorasi.

<sup>6</sup> Akkolada – (frfntsuzcha *accolade*) – quchoqamoq, qavs bilan birlashtirmoq.

*Figuraliakkolada* fortepiano, organ, arfa, bayan uchun yozilgan asarlar, *to'g'riakkolada* ansambl, xor yoki orkestr uchun yaratilgan asarlarning yozuvida qo'llaniladi.

## 2-§. Kalitlar tizimi. Tovushlar cho'zimlari.

Qo'shimcha chiziqlarda yozilgan notalarni tez o'qish qiyindir. Shu sababdan nota yozuvida kalitlar qo'llanila boshlaydi. Xozirki kunda uchta kalit keng tarqalgan. Har kalitning nomi unga biriktirilgan tovush nomidan kelib chiqdi. Kalit belgisi albatta har nota yo'lining boshida qaysidir chizig'iga qo'yiladi va unga biriktirilgan tovush notasining o'rashgan joyini aniqlab beradi.

Bular: *Sol* kaliti (skripka yoki soprano kaliti ham deyiladi) – birinchi oktavadagi *sol* tovush notasi ikkinchi chiziqdagi, *Fa* kaliti (bas kaliti) – kichik oktavadagi *fa* tovush notasi to'rtinchi chiziqdagi, *Do* kaliti (alt va tenor kalitlari) – birinchi oktavadagi *do* tovush notasi uchinchi va to'rtichi chiziqdagi yozilishini ko'rsatib turadi. Demak, yozilgan tovishning balandligini kalit turiga qarab bilib olish mumkin.

XIV-XVI asrlarda ko'p ovozli vokal asarlar asosan *Do* kalitlarda yozilar edi.

### 6 *Do* kalitlari tizimi




Cholg'u musikaning rivojlanishi bilan, nota yo'li katta diapazondagi asarlar tovushkatorini o'z ichiga sig'dira olmaganda, yangi kalit, ya'ni *Sol* kaliti ishlatilishi boshlaydi.

Bugungi kunda *Sol* bilan *Fa* kalitlar zamonaviy *kalitlar tizimini* tashkil etadi. Bu tizim bitta nota yo'lida musiqiy tizimning butun tovushqatorini qamrab oladigan imkonga qodir bo'ldi (3- misolga qarang).

Skripka bilan bas kalitlari asosiy kalitlarga aylandi. Kalitlar tizimi birligi yana shu bilan ta'kidlanadiki, birinchi oktavani *do* tovush notasi, musiqiy tovushqatorning

markazi sifatida, nota yo'llari o'rtasida faraz qilinadigan chiziqda joylashadi. Undan qarama-qarshi tomonlarga qarab joylashgan notalar esa bir-birining kuzguli aksidir. Qiziq narsa, kalitlarning yozilishida ham ularning o'zaro aksi ko'rindi.

## 7 Kalitlar va notalar joylashuvlari kuzguli aksi



*Tovushlarning asosiy chozimlari* quyidagi notalar bilan tasvirlanadi:

Bo'yalmagan oval eng katta cho'zimidir – **butun** cho'zimdagi nota



Butun cho'zimning teng yarimi (1/2) –



**yarimalik cho'zimidir.**

Yarimalik cho'zimning teng yarimi (1/2)



yoxud butun cho'zimning choragi (1/4) –

**choraktalik cho'zimidir.**

Choraktalik cho'zimning teng yarimi (1/2),



yoki yarimalik cho'zimning choragi (1/4),

yoki butun cho'zimning sakkizdan bir qismi (1/8) –

**sakkiztalik cho'zim, yoki nimchorakdir.**

Sakkiztalik cho'zimning teng yarimi (1/2),



yoki chorakning to'rtdan bir qismi (1/4),

yoki yarimalik cho'zimning sakkizdan bir qismi (1/8),

yoki butun cho'zimning o'n oltidan bir qismi (1/16) –

**o'n oltitalik cho'zimidir.**

O'n oltitalik cho'zim, o'z navbatida,



ikkita o'ttiz ikkitalik cho'zimdan iboratdir.

*Eslatma*: shtillar notaning o‘ng tomonidan yuqoriga, chap tomonidan pastga qarab yozilishi lozim. Nota yo‘lining o‘rta chizig‘idan pastroq joylashgan notalar shtillari yuqoriga qarab, o‘rta chiziqdan teparoq joylashgan notalar shtillari pastga qarab yoziladi. Bayroqchalar har doim shtilga o‘ng tomonidan qo‘shiladi.



*Cho‘zimlarning asosiy bo‘linishi* deganda, har qanday cho‘zimning ikkita teng maydarоq chozimga bo‘linishi nazarda tutiladi.

#### 9 Cho‘zimlarning asosiy bo‘linishi jadvali.

Cho‘zimlar soni	Tovush cho‘zimlarning notali ishorasi				
1 ta	○	↓	↑	↓	↑
2 ta	↓	↑	↓	↓	↑
4 ta	↓	↓	↑	↓	
8 ta	↓	↑	↓		
16 ta	↓	↑			
32 ta	↑				

#### 3-§. Cho‘zimlarni uzaytiruvchi qo‘shimcha belgilar. Pauzalar

Nota yozuvida asosiy cho‘zimlarni uzaytiruvchi qo‘shimcha belgilar ham tez-tez qo‘llaniladi. Bularning qatoriga nota yoniga (hamisha o‘ng tomonidan) qo‘yiladigan *nuqta*, yonma-yon turgan bir xil balandlikdagi notalarni birlashtiruvchi *liga*<sup>7</sup>, nota tepasidan yoki ostidan qo‘yiladigan *fermata* kiradi.

*Nuqta* – tovush cho‘zimini teng yarimiga uzaytiradi:

- |    |   |  |
|----|---|--|
| 10 | $\text{---} = \frac{3}{2}$ ( $\text{o} + \downarrow$ );   | Butun cho‘zim nuktasi bilan o‘z ichiga uchta yarimtalik cho‘zimni oladi; |
|    | $\downarrow = \frac{3}{2}$ ( $\downarrow + \downarrow$ ); |  |
|    | $\downarrow = \frac{3}{2}$ ( $\downarrow + \uparrow$ );   | Nuktali chorak cho‘zim uchta nimchorakning                               |
|    | $\uparrow = \frac{3}{16}$ ( $\uparrow + \uparrow$ )       | umumiy cho‘zimiga teng bo‘ladi; va hokazo.                               |

<sup>7</sup> *Liga* – (eski italiyancha *liga*) – aloqa, bog‘liqlik.

**Liga** – bog'lab turgan notalar cho'zimlarining umumiyligi miqdoriga teng

11  cho'zimni hosil qiladi. Masalan: butun bilan yarimalik liga orqali qo'shilishi natijasida uchta yarimalikning umumiyligi miqdoriga teng cho'zim hosil bo'ladi;

**Fermata** - tovush cho'zimini cheklanmagan vaqtga uzaytiradi. Bunday tovushning uzunligi asarning xarakteri hamda ijrochining dididan kelib chiqadi.


12



13



*butun chozimdag'i pauza*



*yarimalik pauza*



*choraktalik pauza*



*nimchorak pauzasi*



*on oltitalik pauza*



*ottiz iktalik pauza*

**Pauza**<sup>8</sup> deb musiqiy asardagi bitta, ikkita yoki barcha ovozlar yangrashining muayyan vaqtga to'xtalishiga va uning belgisiga aytildi.


Pauza cho'zimlari xuddi tovush cho'zimlaridek o'lchanadi hamda faqat nukta yordamida uzaytiriladi.

#### 4-§. Nota yozuvini qisqartirish belgilar

Nota yozuvini soddalashtirish va qisqartirish uchun bir necha maxsus belgilar qo'llaniladi.


1) Musiqa asarining ma'lum qismida qo'shimcha chiziklar sonini kamaytirish maqsadida *bir oktava yukori yoki pastga ko'chirish* belgisi qo'yiladi.

14



<sup>8</sup> Pauza – (lotincha pausa) – to`xtalish, tugatish.

2) *Repriza*<sup>9</sup> – qaytarish belgisi – asarning ma'lum bir qismini yoki uning o'zini



boshdan ohirigacha qayta ijro etish uchun  
qo‘yiladi:

3) *Volta-* asardagi qaytariladigan qismning ohirida o‘zgaradigan taktlari ustiga qo‘iladigan kvadrat kavsdir. Birinchi voltadagi taktlar - asar parchasi birinchi marta ijro etilishi uchun, ikkinchi voltadagi taktlar – asar parchasining takroriy ijrosi uchun ko‘rsatiladi.

4) *Da capo al Fine* – ya’ni «boshdan to Oxiri (Fine) so‘zigacha» - uch kismli shaklda yozilgan asarda ikkinchi qismidan co‘ng, birinchi kismni notama-nota takrorlashni talab qiladi; shunda, uchinchi qismning nota matni qaytadan yozilmaydi.

5) *Segno* – (senio) takt ustiga kuyiladigan belgi – asarda qaytarish boshlanadigan yoki tamom bo‘ladigan joyini ko‘rstuvchi belgidir - §

*Dal segno al capo* – ya’ni «senio belgisidan to oxirigacha» qayta ijro etish demakdir. *Da capo al Segno poi Coda* – ya’ni «boshdan to senio belgisigacha qayta ijro etish, so‘ngra xotima (koda) ga o‘tilsin» demakdir.

6) ⋯ – biron-bir taktni bir necha marta ketma-ket qaytarishda ishlataladigan belgi.

7) *tremolo* – ikki tovush yoki tovushlar yig‘indisi tez, tekis va ko‘p marta almashib takrorlanishiga deyiladi.

16      *yuzilishi ijro etilishi*      *yuzilishi ijro etilishi*

<sup>9</sup> Repiza – (fransuzcha reprise) – qaytadan boshlamoq.

- 8) *Con oktava* -muayyan tovushni ikki oktavada juftlab ijro etish. Nota ustiga 8 rakami yozilganda ko‘rstilgan tovush yuqori oktavadagi tovush, nota tagiga 8 raqami yozilganda tovush pastki oktavadagi tovush bilan birga ijro etiladi.

17



**Asosiy tushunchalar:** nota yo‘zuvi, nota, nota yo‘li, kalit, tovushlarning asosiy chozimlari, cho‘zimlarning asosiy bo‘linishi, pauza.

### Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Nota yozuvi elementlarini ta’riflab bering.
2. Har xil cho‘zimlardagi nota va pauzalarni yozing.
3. Cho‘zim uzaytiruvchi belgilarni qo‘llab nota va pauzalarni yozing.
4. Musiqiy adabiyotda nota yozuvini qisqartirish belgilarni toping.

## 3- mavzu. TOVUSHLAR ENGARMONIZMI. TOVUSHLARNI BELGILASH HARFIY TIZIMI

### 1-§. Temperatsiyalangan soz. Alteratsiya belgilari.

XVIII- asr 1- yarmida Yevropa musiqa amaliyotida 12 ta pog‘onali bir tekis *temperatsiya*<sup>10</sup> *langan soz* mustahkam o‘rnashadi<sup>11</sup>. Bu sozning “yashashga huquqini” I.S.Bax amaliy faoliyati orqali tasdiqladi. Uning «Das wohltemperierte Klavir» («Yaxshi temperatsiyalangan klavir» (1722 yil, 1744 yil.)) nomli asari barcha tonalliklarda yozilgan 48 ta prelyudiya bilan fugadan iborat bo‘lib, yaqinda shakllangan sozni tatbiq qilishda musiqa tarixidagi birinchi badiiy tajribadir.

Zamonaviy musiqa tizimining har bir oktavasi 12 ta tovushni qamrab oladi, tovushlar esa balandlik bo‘yicha bir biridan teng yarim tonliklar bilan ajratilgan. Bu


<sup>10</sup> Temperatsiya – (lotincha *temperatio*) – to‘g`ri nisbatlar, bir tekialik.

<sup>11</sup> Yevropa musiqasining tarixiy taraqqiyotida joriy musiqa madaniyati va tafakkurining ifodachisi bo‘lib, bir necha musiqiy soz xizmat qilib o‘tgani. Chunonchi, pentatonika tizimi (oktava bilan chegaralangan 5 pog‘onali tovushqator), qadim Yunoniston ladlari tizimi (7 ta pog‘onali ladlar), Pifagor sozi, tabiiy soz, geksaxordlar tizimi (6 ta pog‘onali ladlar) va boshqalar.

xildagi **sozga** 12 ta pog‘onali ***bir tekis temperatsiyalangan soz*** deb aytildi (Taqqoslash uchun: tabiiy sozning yarim tonliklari bir xil emasligi tufayli ko‘p belgili tonalliklar qo‘llanilmasdi. Sababi – ushbu tonallikkarda yozilgan musiqa noohangliklar (falsh)ga to‘la edi).

Oktavaning 12 ta pog‘onasidan 7 tasi (oq klavishlar) asosiylaridir. Ular orasidagi ikkita yarim tonlik va beshta butun (bir) tonliklar quyidagicha joylashtirilgan:

18



Oktavaning qolgan 5 ta pog‘onasi (qora klavishlar) ***hosila pog‘onalar*** deb aytildi. Albatta, tovushqatorning har bir pog‘onasi yangi mustaqil tovushdir. Lekin, tarixan shunday odatlanib qolganki, ular yaqin joylashgan asosiy pog‘onadan hosil bo‘lgan deb hisoblanadi. ***Hosila pog‘ona*** – bu asosiy pog‘onaning balandligini ko‘tarish yoki pasaytirish yo‘li bilan hosil bo‘lgan pog‘ona.

Pog‘onaning balandligini ko‘tarish va pasaytirish jarayoniga ***alteratsiya***<sup>12</sup> deyiladi. Pog‘onaning alteratsiyasi maxsus belgilar – *alteratsiya belgilari* – yordamida amalga oshiriladi. **Diez** - # - asosiy pog‘onani yarim tonga ko‘taradi (klaviaturada oq klavishga yakin joylashgan o‘ng tomonidagi klavisha), **dubl diez** – x – ikkita yarim tonga (1 tonga) ko‘taradi. **Bemol** - ♭ - asosiy pog‘onani yarim tonga pasaytiradi (klaviaturada oq klavishga yaqin joylashgan chap tomonidagi klavisha), **dubl bemol** - ♭� - ikkita yarim tonga (1 tonga) pasaytiradi.

**Bekar-** ♯ - diez va bemol ta’sirini bekor qiladi.

Hosila pog‘onaning nomi asosiy pog‘ona nomiga muayyan altertsiya belgisi qo‘shilishidan kelib chiqadi. Masalan: *si-bemol*, *re-diyez*.

<sup>12</sup> Alteratsiya – (lotinchcha *Alteratio*) – o‘zgarish.


Alteratsiya belgilari nota yo‘lida qo‘llanishi bo‘yicha ikki xilga ajratiladi. **Tasodifiy alteratsiya belgilari** nota yoniga o‘ng tomonidan, **kalit alteratsiya belgilari** asarning har qatorida kalit yoniga chap tomonidan qo‘yiladi .

## 2-§. Tovushlar engarmonizmi. Diatonik va xromatik ton va yarim tonliklar.

Yuqorida aytildandek, oktavaning yarim tonliklari teng ekan, demak qaysdir bir tovushning nomi ikkita yoki uchta asosiy pog‘onadan hosil bo‘lishi mumkin.

Balandligi bir xil, lekin nomi va yozilishi har xil bo‘lgan tovushlar tengligiga **tovushlar engarmonizmi**<sup>13</sup> deyiladi. Masalan, *do-diyez* bilan *re-bemol*; *fa* tovushga *mi-diyez* va *sol-dubl bemol* tovushlarning balandligi teng bo‘ladi.

19 Engarmonik teng pogonalar



*Diatonik ton va yarim tonliklar* tovushqatorning ikkita qo‘shni pog‘onalar orasida hosil bo‘ladi. Masalan, *do-diyez* bilan *re-diyez*, *fa* bilan *sol-bemol*.

*Xromatik*<sup>14</sup> ton va yarim tonliklar tovushqatorning bitta pog‘onasidan hosil bo‘lgan ikkita tovush oralig‘iga aytildadi. Masalan, *do-diyez* bilan *do-bemol*, *fa* bilan *fa-diyez*.

## 3-§. Tovushlarni belgilash harfiy tizimi

Yettita asosiy pog‘onalarga lotin alifbosi harflari biriktirilganligi haqida gap yuritilgan edi. Tovushlarni harflar bilan belgilash ilgari paydo bo‘lgan musiqani

<sup>13</sup> Engarmonizm – (yunoncha *en* – ichidagi, *harmoniya* – ohangdoshlik).

<sup>14</sup> Xromatik – (grekcha *χρώμα*) – rang, bo`yoq.

qog'ozga tushurish uslublardan biridir. Bunga tovushlarni belgilash harfiy tizimi deyiladi.

Harfiy belgilashda musiqiy tovushqatorning oktavalarini ajrata olish uchun katta va kichik harflardan foydalaniladi. Subkontroktava, kontroktava va katta oktavaning tovushlari katta harflar bilan, kichik oktavadan beshinchi oktavagacha tovushlar kichik harflar bilan yoziladi. Bundan tashqari, harflar ustiga yoki ostiga arabcha raqam qoshilib yoziladi. Birinchi oktavadan beshinchisigacha raqam harf ustiga qo'yiladi, masalan: birinchi oktavaning raqami – «1»: *re* tovushi – **d<sup>1</sup>**, *la* – **a<sup>1</sup>**; ikkinchi oktavaning raqami – «2»: **d<sup>2</sup>**, **g<sup>2</sup>**; uchinchi oktava – «3», to'rtinchi – «4», beshinchi – «5» raqam bilan belgilanadi. Kontroktavaning ham raqam ko'rsatkichi – «1», subkontroktavaning – «2». Biroq, bu oktavalar raqamlari harflarining ostiga yoziladi, masalan: **A<sub>1</sub>**, **B<sub>1</sub>**, **E<sub>1</sub>**, **A<sub>2</sub>**, **H<sub>2</sub>**.

Harfiy belgilashda alteratsiya qilingan pog'onaning harfiy ishorasiga

*diez – is,*

*dubl diez – isis,*

*bemol – es,*

*dubl bemol – eses*

so'z bog'lnlari qo'shib o'qiladi va yoziladi. Masalan,

**f + is = fis** – fa-diez;      **d + es = des** – re-bemol;

**c + isis = cisis** – do-dubl diez;    **g + eses = geses** – sol-dubl bemol.

Istisno tariqasida: **mi-bemolning** harfiy belgisi *eis* emas *es* *qilib*,

*la-bemol – aes* o'rniga **as**,

*si-bemol – hes* o'rniga **b** yoziladi.

## 20 Alterasiyalangan pogonalar xarfiy ishoralari jadvali

Alterasiya belgisi	xarfiy ishorasi	c	d	e	f	g	a	h
#	is	cis	dis	eis	fis	gis	ais	his
x	isis	cisis	disis	eisis	fisis	gisis	asis	hisis
►	es	ces	des	es	fes	ges	as	b
▼	eses	ceses	deses	eses	feses	geses	ases	bb,(bes),(heses)

**Asosiy tushunchalar:** *bir tekis temperatsiyalangan soz, hosila pog‘onalar, alteratsiya, yarim tonlik, kalit alteratsiya belgilari, tovushlar engarmonizmi, diatonik ton va yarim tonliklar, xromatik ton va yarim tonliklar,*

### Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Bir tekis temperatsiyalangan soz nimaga aytildi?
2. Alteratsiya belgilarini qo‘llab hamma hosila pog‘onalarni nota bilan yozing.
3. Har qanday tovushga engarmonik teng tovushlarni topib yozing.
4. Diatonik va xromatik ton va yarim tonliklarni turli tovushlardan tuzing.

## 4- mavzu. METR VA RITM

### 1-§. Metr. Takt. O‘lchov.

Musiqani tinglayotganimizda biz, beixtiyor yoki ongli ravihda, bir maromda boshimizni boshlaymiz. Bunday xarakatlarni o‘ziga jalb etadigan, bizga “buyruq” beradigan, musiqaning chayqash, qo‘limzni silkitish, oyog‘imiz bilan erni tepkilashni *pulsatsiyasi* (tomirning bir tekis urishi) undaydi. Pulsatsiya – bu bir tekis ravishda urib turadigan zarblardan iborat jarayondir.

Musiqada pulsatsiya zarblariga *hissa* deyiladi. Hissa vaqtga bog‘liq sanash birligidir. Bu birlik tovush cho‘zimlari bilan o‘lchanadi. Masalan, 21- misoldagi kuyning hissalari sakkiztaliklarga тенг,

21

*Allegro*

*D.Ober. Ayol vakil.*

22-misolda har bir hissaning cho‘zimi chorakka barobar

22

*Alla marcia y molto marcato*

*E.Grig. "Per Gunt" suitasi  
"Tog' qiroli g'orida"*

Musiqada *hissalarning bir tekis kelishi* metr<sup>15</sup> jarayonini hosil qiladi.

Hammaga ma'lumki, har bir so'zda urg‘u berilgan va urg‘udan xoli bo‘lgan bo‘g‘inlar mavjud. So‘zlar ketma-ketligida urg‘uli va urg‘usiz so‘z bo‘g‘inlarining qay vaqtida kelishi ahamiyatga ega emas. She’r tuzilishida, aksincha, bunga katta e’tibor berilib, urg‘uli va urg‘usiz so‘z bo‘g‘inlarini muayyan bir tartibga keltirish talab qilinadi. Bu tarzdagi tartib metr deb ataladi.

Kuy yangrashida ham ayrim hissalar urg‘usi bilan, ya’ni qattiqlik xususiyati bilan ajralib turadi. Musiqada urg‘uning o‘zini **aktsent**<sup>16</sup> (>), aktsentga ega hissani **kuchli**, aktsent tushmaydigan hissani **kuchsiz hissa** deb ataydi. Shundan kelib chiqadiki, musikiy **metr** – bu kuchli va kuchsiz hissalarning bir tekis almashinib turishidir.

Aktsentning roli birorta tovushni boshqa tovushlardan ajratib ko‘rsatishdir. Kuchli hissaga tushgan aktsent uning og‘ir hissالigini yanada ta’kidlaydi. Metrni aniq his qildiradigan ana shunday aktsent **metrik aktsent** deb ataladi. Muntazam ravishda keladigan aktsent kuy xarakatlarini tartibga soladi. Metrik aktsent osongina va samimiy ravishda idrok qilinadigan raqs, marsh, ommaviy va ommabob qo‘sinq janrlari, klassik musiqa asarlariga xosdir.

Odatda, kuchli hissa bir necha kuchsiz hissalardan so‘ng qaytariladi. Masalan:

Agar kuchli hissa bitta kuchsiz hissadan keyin kaytarilsa – **ikki hissali metr**, ikkita kuchsiz hissalardan so‘ng qaytarilsa – **uch hissali metr** hosil bo‘ladi.

23



Ikkita kuchli hissaning oralig‘iga **takt** deyiladi. Takt metrning o‘lchov birligi hisoblanib, hamisha kuchli hissadan boshlanadi. Nota yozuvida taktlar nota yo‘lini ko‘ndalangiga kesib o‘tadigan **takt chizig‘i** bilan ajratiladi. Takt chizig‘idan so‘ng yoziladigan birinchi nota yoki pauza kuchli hissadir.

<sup>15</sup> Metr – (yunoncha metron) – me'yor, o‘lchov

<sup>16</sup> Aktsent – (lotincha accentus: ad –birorta narsaga ya?inligini bildiradigan old ?o`shimcha, cantus - ashula aytish)

Har bir taktni tashkil qiladigan hissalar soni va ularning cho‘zimi nota yozuvida kasrsimon raqam bilan ifodalanadi. Unga *o‘lchov* deb nom berilgan. O‘lchovning ustki raqami takt (metr)dagi hissalar sonini, pastki raqami har hissaning cho‘zimini ko‘rsatadi. Masalan: 2/4 o‘lchov – har bir takt ikkita hissaga ega, har bir hissa choraktalik cho‘zimi bilan o‘lchanadi. O‘lchov asarning faqat birinchi qatorida kalit va kalit belgilaridan so‘ng qo‘yiladi. Kuchli hissadan boshlanadigan takt to‘liq taktdir. Ba’zi asar *to‘liqsiz taktdan*, ya’ni *kuchsiz hissadan boshlanuvchi taktoldi* dan boshlanadi. Bunday asarlarning ohirgi takti ham to‘liqsiz bo‘lib, taktoldi bilan birga to‘liq taktni tashkil etadi.

*Alla. O‘zbek xalq qo‘shig‘i*

**24**

Al - la ay - tay jo - nim bo - lam  
qu - loq sol - gin al - la

## 2-§. Metr turlari. Oddiy metrlar. Oddiy taktlarda cho‘zimlarning guruhlenishi

Metr turlarini takt ichidagi kuchli hissalarining soniga qarab ajratadi. *Bitta kuchli hissaga ega takt oddiy metrning* ko‘rsatkichidir. *Ikkita, uchta va undan ortiq kuchli hissani o‘z ichiga olgan takt murakkab metr* hisoblanadi.

**Oddiy metr** (yoki oddiy takt, yoki oddiy o‘lchov) deb bita kuchli hissani o‘z ichiga olgan metrga deyiladi.

Oddiy metrlar ikki yoki uch hissadan tashkil topgan metrlarga ajraladi va quyidagi o‘lchovlarda o‘z ifodasini topadi:

- 1) *oddiy ikki hissali o‘lchovlar* – 2/2, 2/4, kamdan-kam 2/8, 2/16.
- 2/2 o‘lchov *alla breve* deyiladi va uni o‘rniga  $\frac{1}{2}$  belgi qo‘llaniladi;
- 2) *oddiy uch hissali o‘lchovlar* – 3/2, 3/4, 3/8, kamdan-kam 3/16.

Nota yozuvini o‘qish jarayonini osonlashtirish maqsadida taktdagi mayda (bayroqchali) cho‘zimlari takt hissalari cho‘zimiga teng bo‘ladigan alohida guruhlarga birlashtiriladi. Shunday qilib, takt hissalari soniga qarab, oddiy o‘lchovli taktlarda bitta, ikkita yohud uchta cho‘zimlar guruhi hosil bo‘lishi mumkin.

25

Pauzalar nota cho‘zimlaridek hissalarga bo‘ysunib guruhlanadi.

### **3-§. Murakkab metrlar. Murakkab taktlarda cho‘zimlarning guruhlanishi**

**Murakkab metr** ikkita va undan ortiq oddiy taktlarni birlashtirish natijasida hosil bo‘ladi.

Murakkab taktdagi kuchli hissalarining soni uni tashkil etuvchi oddiy metrlar sonidan kelib chiqadi. Masalan:  $2/4+2/4+2/4=6/4$  – bu degani, oltita chorakdan iborat taktda uchta aktsentli hissa mavjud. Bilamizki, to‘liq takt faqat kuchli hissadan boshlanadi. Shunday ekan, keltirilgan misoldagi aktsentli hissalaridan birinchisi eng kuchli hissadir. Qolgan ikkitasi unga nisbatan sal kuchsizroq bo‘ladi. Shuning uchun ular **nisbatan kuchli hissalar** deb ataladi.

Murakkab metrlar uch xilda bo‘ladi: ***bir turdagি murakkab metrlar, aralash metrlar*** va ***o‘zgaruvchan metrlar***.

**Bir turdagи murakkab metrlar**, o‘z navbatida, ikki hissali va uch hissali metrlarga ajraladi.

**Murakkab ikki hissali metrlar** oddiy ikki hissali metrlar qo‘silishi natijasida hosil bo‘ladi. Ulardan to‘rt hissali metr (2ta hissa+2ta hissa) ko‘p qo‘llaniladi – 4/4,

26     

4/2, 4/8. 4/4 o‘lchovi C belgi bilan ham belgilanishi ham mumkin.


4/2=2/2+2/2

4/4=2/4+2/4


4/8=2/8+2/8

**Murakkab uch hissali metrlar** oddiy uch hissali metrlar qo'shilishi natijasida hosil bo'ladi. Ulardan olti hissali (3+3) va to'qqiz hissali (3+3+3) metrlar keng tarqalgan : 6/4, 6/8; 9/4, 9/8.

27



6/4=3/4+3/4.




6/8=3/8+3/8


**Aralash metrlar** ikki va uch hissali metrlar qo'shilishi natijasida hosil bo'ladi. Ulardan besh hissali metrlar (3+2 yoki 2+3) ko'proq uchrab turadi:

28

5/4=2/4+3/4; 5/8=2/8+3/8



5/4=3/4+2/4; 5/8=3/8+2/8



Yetti hissali metrlar (2+2+3; 2+3+2; 3+2+2) kamdan kam uchraydi.

29

### O'zbek xalq qo'shig'i "Bilaguzuk"


Soy bo` - yi - da - (yo) tur - gan yi - git

**O'zgaruvchan metr** musiqa asari davomida o'zgarib turadigan metrga aytiladi. O'zgaruvchan metr tekis va notekis almashinadilar. Tekis, ya'ni vaqt-i-vaqti bilan almashinadigan metrning o'lchovlari kalit yonida ketma-ket joylashgan ikkita kasr raqam bilan ifodalanadi.

30 Latish

xalq qo'shig'i

Notekis almashinadigan metrning o'lchovlari har bir o'zgarish yuz berganda takt boshida qo'yiladi.




Murakkab taktda cho‘zimlarning guruhanishida uni tashkil qiladigan oddiy o‘lchovlar alohida guruh bo‘lib, bir biridan ravshan ayrilishi zarur. Oddiy o‘lchovli guruhchalarda, yuqorida aytilgandek, mayda cho‘zimlarni guruhlash qoidalariga riosa qilish lozim.

#### 4-§. Ritm. Sinkopa. Cho‘zimlarning erkin ravishda bo‘linishi

**Ritm**<sup>17</sup> – bu metr asosida uyushtirilgan tovush cho‘zimlarining izchilligi.

«Ritm» so‘zi tartibga solingan, to‘g‘ri uyushtirilgan harakatni bildiradi. Bunday harakatnining tashkillashtirish vositasi sifatida metrik aktsentlari xizmat qiladi. Demak, metr ritmnинг asosidir. Masalan: quyida 21- misolda keltirilgan kuyning ritm, metr va metrik aktsentlarining o‘zaro ta’siri quyidagicha sxematik tasvirda ko‘rsatilgan:



Ritmik harakat jarayonida metrik aktsentlardan tashqari tayanch rolini **ritmik aktsentlar** xam bajo keltirishi mumkin. Ritmik aktsentlar takt cho‘zimlari orsida eng yirik cho‘zimli tovushda paydo bo‘ladi. Chunki davomli tovushlar og‘ir, aktsenti bor, tayanch tovush sifatida his etiladi. Mayda cho‘zimdagi tovushlar esa qisqa, engil bo‘lib yirik cho‘zimli tovushlarga tomon intiladi.

<sup>17</sup> Ritm – (grekcha ρυθμός) – oqim

Takt kuchli hissasidagi tovushning cho‘zimi yirikroq bo‘lishi samimiy holatdir. Bunday holda metr (kuchli hissa) va ritm (yirik cho‘zim) aktsentlari bir-biriga to‘g‘ri keladi.

Metr va ritm aktsentlarining bir-biriga to‘g‘ri kelmasligiga ***sinkopa*** deyiladi.

Sinkopaning yaqqol jihatlari – 1) kuchsiz hissada olingan tovushning yangrashi keyingi kuchli hissada ham davom etilishi; 2) kuchli hissaga pauzaning to‘g‘ri kelishi; 3) kuchsiz xissalarga ataylab aktsent berilishi.

Sinkopalar o‘rnashgan loyi bo‘yicha *taktaro*, *takt ichida* va *hissa ichidagi* sinkopalarga ajraladi.

Taktaro sinkopa – bir taktning kuchsiz hissasida yozilgan nota ikkinchi bir taktning kuchli hissasidagi xuddi shunday nota bilan liga orqali bog‘lanadi:

33

*O‘zbek xalq qo’shig‘i “Olma amar”*

J=152

Ol - ma a - no ring - ga ball - li

Takt ichidagi sinkopa – taktning kuchsiz va kuchli hissalardagi notalar liga bilan bog‘lanadi yoki ularning qo‘shilishidan hosil bo‘lgan bitta umumiyligi chuzimdagagi nota bilan yoziladi:

34

*O‘zbek xalq qo’shig‘i “Cho'yandi”*

J=80-84

Yor de - dim a - do bo'l - di - m(a)

Hissa ichidagi sinkopa – hissaning kuchli kismi cho‘zimi bo‘yicha kuchsiz qismidan qisqaroq bo‘ladi:

35

*O‘zbek xalq qo’shig‘i “Chamanor”*

Andante J=116

Xo'b yi - git - san yo - ring yo - q(a)

Kechikib qoluvchi sinkopa – taktning kuchli hissasida pauza qo‘yiladi:

36

*O‘zbek xalq qo’shig‘i “Qari naro”*

J=196

Qari naro

28

Kuchsiz xissalarga ataylab aksent berilishi – asarning janri yoki mazmuniga bog‘liq bo‘ladi.

37 N.Rimskiy-Rorsakov.  
“Shahrizoda” III- qism

*Pochissimo piu mosso*

Musiqada asosiy cho‘zimlarining ikkita teng maydaroq cho‘zimga bo‘linishi cho‘zimlarning ***asosiy bo‘linishi*** deb aytiladi. Asosiy cho‘zimlarning istalgan (ikkitaga emas) teng qismlarga bo‘linishi ***erkin bo‘linishidir***.

Birorta asosiy cho‘zimning uchta teng maydaroq cho‘zimga bo‘linishi natijasida ***triol*** hosil bo‘ladi.

38

39 L.vanBetxoven.  
Sonata op.2, №2  
("Oydin sonata")

*Adagio sostenuto*

Piano

To‘rtta qismga bo‘linadigan cho‘zim beshta teng qismga bo‘linsa – ***kvintol***, oltitaga – ***sekstol***, ettitaga – ***septol*** hosil bo‘ladi.


40



Sakkizta qismga  
bo'linadigan cho'zim  
to'qqizta teng qimsga  
bo'linsa – ***novemol***, o'ntaga  
– ***detsimol*** paydo bo'ladi.

Nuqtasi bor cho'zimlar asosan uchta teng maydarоq cho'zimlarga bo'linadi. Agar nuktali cho'zim uchta emas, ikkita teng qismga bo'linsa – ***duol***, to'rttaga – ***kvartol*** hosil bo'ladi.

41



***Bir tekis ritm*** – bir hil cho'zimlardan iborat ritmik shakl.

42 P.Chaykovskiy  
"Bolalar albomi"



***Punktirli ritm***<sup>18</sup> – nuqtali cho'zimlarni o'z ichiga olgan ritmik shakl.

43 S. Prokofyev.  
"Rmeo va Julyetta"



***Sinkopali ritm*** – sinkopasi mavjud ritmik shakl.

Ritm musiqaning asosiy ifodalari vositalardan biri bo'lib (kuy va garmoniya bilan baravar), uning jonli sur'atidir. Ritmnning ifodaliligi turli xarakterdagi harakatlar bilan bog'liq. Tantanali yurish, jizzaki raqs, xotirjamlik yoki ehtirosli hayajonlik musiqasi ahamiyatli darajada ritm vositalari yordamida yaratiladi. Ritm metr bilan

<sup>18</sup> Punkt –(lotincha *punktum*) – nuqta.

birgalikda har qanday kuyning janr xususiyatlarini aniqlaydi. Shuning uchun, valsni polkadan, marshni alla kuyidan ajrata olish qiyin ish emas.

**Asosiy tushunchalar:** *Metr, takt, ulchov, hissa, aktsent, taktoldi, oddiy metr, murakkab metr, aralash metr, o‘zgaruvchan metr, ritm, sinkopa, cho‘zimlarning asosiy va erkin bo‘linishi, triol, kvintol, sekstol, septol, duol, kvartol, bir tekis ritm, punktirli ritm, sinkopali ritm.*

### **Nazorat savollari va topshiriqlar:**

1. Asosiy tushunchalar har birini batafsil yoritib bering.
2. Oddiy, murakkab, aralash, o‘zgaruvchan metrlarga musiqiy adabiyotdan misol topib, ularni dirijorlik uslubida hisoblab ko‘rsating
3. Chap qolda metr pulsini, o‘ng qolda bir tekis ritm, punktirli, sinkopali ritm misollarini urib chiqing.
4. Asosiy cho‘zimlarni triol, kvintol, sekstol, septollarga hamda nuqtali cho‘zimlarni duol, kvartollarga bo‘lib, nota bilan yozing.
5. Turli xil ritmni qo‘llab bir necha kuy iboralarini bastalab, notaga tushirib chaling.

## **5- mavzu. INTERVALLAR**

### **1-§. Interval. Pog‘onalar va tonlar miqdori**

**Interval**<sup>19</sup> ikki tovushning balandlik bo‘yicha uyg‘unlashuvidir.

Interval tovushlari birin-ketin chalinsa **melodik interval**, bir vaqtning o‘zida chalinsa **garmonik intervalni** hosil qiladi. Intervalning pastki tovushi uning *asosi*, yuqorigi tovushi esa *cho‘qqisi* deyiladi.

Intervallar pastdan yuqoriga qarab o‘qiladi, faqat pasayuvchi melodik interval uning yo‘nalishi aytilib, pastga qarab o‘qiladi.

Interval pog‘onalar miqdori va tonlar miqdori bilan o‘lchanadi. **Pog‘onalar miqdori**, ya’ni *miqdoriy kattaligi*, interval hajmidan darak berib, u qamrab olgan pog‘onalar sonini raqam bilan ko‘rsatadi hamda interval o‘ziga uning pog‘onalar

---

<sup>19</sup> *Interval* – (lotincha *intervallum*) – oraliq.

soniga muvofiq lotincha nom beradi. **Tonlar miqdori**, ya’ni *sifat kattaligi*, intervalning asosidan cho‘qqisigacha ton va yarim tonlikar yig‘indisini aytadi.

44



Intervallar o‘z hajmi (zich-kengligi) bo‘yicha ikkita guruhga ajraladi:

- 1) oktava chegarasida hosil bo‘lgan ***oddiy intervallar***.
- 2) oktavadan keng bo‘lgan ***tarkibli intervallar***.

***Oddiy intervallar*** quyidagicha nomlanadi:

*Prima* yoki unison<sup>20</sup> – 1 – bitta pog‘ona;

*Sekunda* – 2 – ikkita pog‘ona;

*Tertiya* – 3 – uchta pog‘ona;

*Kvarta* – 4 - to‘rtta pog‘ona;

*Kvinta* – 5 – beshta pog‘ona;

*Seksta* – 6 – oltita pog‘ona;

*Septima* – 7 – ettita pog‘ona;

*Oktava* – 8 – sakkizta pog‘ona.

***Tarkibli intervallar:***

*Nona* – 9 – to‘qqizta pog‘ona, oktava oralab sekunda

*Detsima* – 10 – o‘nta pog‘ona, oktava oralab tertsiya

*Undetsima* – 11 – o‘n bitta pog‘ona ---//--- kvarta

*Duodetsima* – 12 – o‘n ikkita pog‘ona --// kvinta

*Tertsdetsima* – 13 – o‘n uchta pog‘ona --//-- seksta

*Kvartdetsima* – 14 – o‘n to‘rta pog‘ona -/- septima

*Kvintdetsima* – 15 – o‘n beshta pog‘ona -/- oktava

Ayrim hollarda pog‘onalar miqdori bir xil bo‘lgan intervallrning tonlar miqdori har xil chiqadi. Interval sifatini aniqroq atash uchun qo‘sishimcha atamalar

<sup>20</sup> *Unison* – (italiyancha *unisono*: *unus* – bitta, *sonus* - tovush) – ikkita ovozning bitta tovushda qo`shilishi.

qo'llaniladi. Bular: *sof* (s. bilan belgilanadi), *katta* (*kat.*), *kichik* (*kich.*), *orttirilgan* (*ort.*), *kamaytirilgan* (*kam.*) kabi yordamchi so'zlar.

45

2 ton      1,5 ton      3 ton      3 ton

kat.3      kich.3      kam.5      ort.4

## 2-§. Diatonik intervallar

Diatonik lad pog'onalarini o'rasida hosil bo'lган intervallar ***diatonik intervallar*** deyiladi. Diatonik intervallar o'z ichida ikkita guruh – *asosiy* va *xarakterli* intervallarga ajraladi. *Asosiy* intervallar tabiiy major va tabiiy minorning pog'onalarida, *xarakterli* intervallar esa garmonik ko major va garmonik minorning pog'onalarida tuziladi.

Oddiy asosiy (14 ta) intervallarning tonlar miqdori ko'payishi bo'yicha ketma-ket joylashuvi quyidagi jadvalda ko'rsatilgan.

46

Nº	Interval sifati	Interval nomi	Pog'ona lar miqdori	Tonlar miqdori	misollar
1	sof	<i>prima</i>	1	0	
2	kicchik	<i>sekunda</i>	2	0,5	
3	katta			1	
4	kicchik	<i>tersiya</i>	3	1,5	
5	katta			2	
6	Sof	<i>kvarta</i>	4	2,5	

7	orttirilgan			3	
8	kamaytirilgan	<i>kvinta</i>	5	3	
9	sof			3,5	
10	kichik	<i>seksta</i>	6	4	
11	katta			4,5	
12	kichik	<i>septima</i>	7	5	
13	katta			5,5	
14	sof	<i>oktava</i>	8	6	

Asosiy intervallarni musiqiy tovushqatorning asosiy yoki hosila pog‘onasidan yuqoriga yoki pastga tuzish mumkin.

46 a

s.1                    kich.2            kat.2            kich.3            kat.3            s.4            ort.4  
 kam.5                s.5                kich.6            kat.6            kich.7            kat.7            s.8

### 3-§. Xromatik intervallar. Intervallar engarmonizmi.

**Xromatik interval** orttirilgan va kamaytirilgan intervallarga deyiladi ( bular qatoriga uchtonliklar – ort.4 va kam.5, hamda xarakterli – ort.2, kam.7, ort.5, kam.4 intervallar kirmaydi).

+ 0.5 t - + 0.5 t -  
kam. ↔ Sof ↔ ort.

Sof intervallar yarim tonga kengayishi natijasida orttirilgan, yarim tonga qisqarishi natijasida kamaytirilgan interval hosil bo‘laldi.

Kichik intervalning yarim tonga qisqarishi natijasida kamaytirilgan, katta

+ 0.5 t - + 0.5 t - + 0.5 t  
kam. ↔ kich. ↔ kat. ↔ ort.


intervalning yarim tonga kengayishi natijasida orttirilgan interval tuziladi.

Agar katta interval butun tonga

qisqaradigan bo‘lsa, kamaytirilgan interval hosil bo‘ladi, va aksincha kichik interval butun tonga kengaysa, orttirilgan interval vujudga keladi.

Xromatik interval tonlar miqdori bo‘yicha albatta birorta asosiy intervalga teng keladi. *Tonlar miqdori bir xil bo‘lgan intervallarning eshitilishi ham bir xil bo‘ladi.*

47



Bunday intervallarga ***engarmonik teng intervallar deyiladi***. Engarmonik teng intervallarning pog‘onalar miqdori esa bir xil yoki har xil bo‘lishi mumkin.

#### 4-§. Konsonans va dissonans intervallari

Diatonik intervallar o‘zining *garmonik yangrashi* sifati bo‘yicha ***konsonans***<sup>21</sup> (ohangdosh) va ***dissonans***<sup>22</sup> (noohangdosh) intervallarga ajraladi.

Musika nazariyasida ***dissonans*** bo‘lib ***sekunda, septima va uchtonliklar*** (ort.4, kam.5) hisoblanadi. (bularga muvofiq tarkibli intervallar ham nazarda tutiladi). *Keskin dissonanslar* deb kichik sekunda (kich.2q0.5t), katta septima (kat.7q4.5t) va uchtonliklar (ort.4, kam.5) nazarda tutiladi.

*Yumshoq dissonanslar* – katta sekunda (kat.2q1t), kichik septima (kich.7q5t.)


***Konsonanslarga*** qolganlari - ***prima, oktava, kvarta, kvinta, tertsiya, seksta*** lar mansub. *Qattik konsonanslar* – ***sof intervallar***: prima bilan oktava – nihoyat mukammal konsonanslar, hamda kvarta bilan kvinta – mukammal konsonanslar deb hisoblanadi. *Yumshoq konsonanslar* – tertsiya va seksta.

<sup>21</sup> *Konsonans* – (lotincha *consonantia*) – uyg`un sado.

<sup>22</sup> *Dissonans* – (lotincha *dissonantia*) – uyg`unsiz sado

## 5-§. Intervalning aylanishi

**Intervalning aylanishi** – bu uning asosi bilan cho‘qqisi joylarini almashtirish maqsadida pastki tovushini yuqoriga, yuqorigisini pastka bir yoki bir necha oktavaga ko‘chirishdir (ikkala harakat bir vaqtda bajarilishi ham mumkin). Natijada dastlabki *intervalning aylanmasi* deb aytildigan yangi interval hosil bo‘ladi.



Oddiy intervallar aylanishi quyidagi qonuniyatlargaga bo‘ysunadi:

- 1) oddiy interval bilan aylanmasining umumiy hajmi oktavaga teng;
- 2) ikkala intervalning tonlar miqdori yig‘indisi otkvaning 6 toniga barobar:  
2,5 ton + 3,5 ton = 6 ton; 6 ton - 4,5 ton = 1,5 ton;
- 3) ikkala intervalning pog‘onalar miqdori yig‘indisi 9 ga barobar;

$$prima \ 1 + 8 \ oktava = 9; \ sekunda \ 2 + 7 \ septima = 9$$

$$tersiya \ 3 + 6 \ seksta = 9; \ kvarta \ 4 + 5 \ kvinta = 9$$

- 4) sof interval sof intervalga aylanadi, katta interval kichikka, kichik – kattaga, orttirilgan – kamaytirilganga, kamaytirilgan orttirilganga.

49

Sof. ↔ sof. kich. ↔ kat. Kam. ↔ ort.
--

Musical staff with a treble clef and three measures. The first measure shows two notes with a gap of 3.5 followed by a plus sign and 2.5, labeled '6 ton'. The second measure shows two notes with a gap of 4.5 followed by a plus sign and 1.5, labeled '6 ton'. The third measure shows two notes with a gap of 1.5 followed by a plus sign and 4.5, labeled '6 ton'. Below the staff, double-headed arrows connect the pairs: s.5 ↔ s.4 . kat.6 ↔ kich.3 ↔ ort.2 ↔ kam.7. This illustrates how smaller intervals are combined into larger intervals of 6 tons.

**Asosiy tushunchalar:** *Interval, pog‘onalar miqdori, tonlar miqdori, oddiy va tarkibli intervallar, diatonik va xromatik intervallar, intervallar engarmonizmi, konsonans va dissonans intervallari, intervalning aylanishi.*

### Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Asosiy tushunchalarga ta’rif bering.

2. Berilgan tovushlardan hamma oddiy diatonik intervallarni aylanmalari bilan tuzing. Har bir intervalning ton miqdori, belgilanishi va konsonans-dissonansligini ko'rsating.

3. Diatonik intervallardan xromatik intervallarni hosil qilib, ularni aylantirib chiqing.

4. Bir necha intervallarga 6-8 tagacha engarmonik teng intervallarni topib, uni atab yozing.

## 6- mavzu. LAD VA TONALLIK

### 1-§. Turg'unlik va noturg'unlik.

Musiqiy tovushlarning turli xususiyatlari (balandlik, cho'zim, qattiqlik, tembr) faqat kuyning jonli harakatida va ularning o'zaro ta'siridagina namoyon baladi. Shuning uchun, tovushlarning birlashishgan holda tartibga solinishi, bir biri bilan «chiqisha olishi» muqarrar. Faqatgina ularning uyushqoqligi musiqaning mazmunini, fikrini ifoda qila olishga yo'l qo'yadi. Musiqiy fikrning rivojlanishida tovushlar o'zining ahamiyati darjasini bilan ajraladi. Kuy yangrashida odam qulog'i ilgari intiladigan, kelgusi harakatga undaydigan, **noturg'unlik** holatini yaratadigan tovushlarni va o'ziga tortib turadigan, harakatni to'xtatadigan, tayanchsimon, **turg'unlik** holatni yuzaga keltiradigan tovushlarni farqlab oladi.

50 O'zdek  
xalq qo'shig'i  
"Qora sochim"

*Moderato*  $\frac{8}{4}$

*O'zbek xalq qo'shig'i "Qora sochim"*

Qu-ra so-chim, o-si, b(ley);  
Be-lim - ga, tush-di-(ey);  
do si, yo-ray!;  
Ne say-do-lu, me-nin-gi, bo-shim-ga,  
tush-di-(ay), do'si, yo-ray!

Misol qilib keltirilgan «Qora sochim» qo’shig‘ida re (*d*) tovush tinchlanish, harakatsizlik tuyg‘usini yaratadi. Kuyning qolgan tovushlari, aksincha, harakatni talab qiladi, buning ustiga, *re* tovush tomoniga intilgan harakatni talab qiladi. Shunday qilib, *re* tovush boshqa tovushlarni o‘ziga tortib turadigan bo‘lib, *turg ‘un tovush* deb ataladi. Unga intiluvchi tovushlar esa *noturg ‘un tovushlardir*. Noturg‘un tovushlarning intiluvchan harakati turg‘un tovushga, ya’ni asos «rol»ini o‘ynaydigan tonga kelib to‘xtaydi. Bu asosiy tonga ***tonika*** deyiladi.

Tovushlarning bunday har xil «rol»lari, albatta, ularning kuy shaklidagi joylashuvi (musiqiy iboraning boshida, yoki o‘rtasida, yoki yakunida o‘rnashishi), metrik holati (kuchli yoki kuchsiz hissaga to‘g‘ri kelishi) bilan ham chambarchas bog‘liq. Biroq, eng muhim – buni musiqaning zaruriy xususiyati o‘rnida ko‘rishi lozim, tovushlarning o‘zaro munosabatlardir.

## 2-§. Lad. Lad tovushqatori.

Tovushlarning tonikaga nisbatan munosabatlari orqali aniqlanadigan o‘zaro aloqalari tizimiga **lad**<sup>23</sup> deyiladi. Laddagi har bir tovushning roli va harakatining xarakteri uning ***laddagi funktsiya***<sup>24</sup> sini aniqlaydi. Tovushlarning munosabatlari esa lad munosabatlari yoki funktsional munosabatlar deyiladi. Laddagi tovushlarning soni, o‘rasidagi tonlar miqdori, funktsional munosabatlari turli xil shaklda ifodalanish mumkinligi musiqa taraqqiyoti tarixida turli tizim (soz)larning vujudga kelishiga asos bo‘ladi (masalan, pentatonika, diatonika, qadim yunoniston ladrari tizimi, geksaxordlar tizimi, major-minor tizimi va boshqalar).

Muayyan lad tizimiga tegishli tovushlar ***pog‘ona***, pog‘onalarning balandlik bo‘yicha izchil joylashuvi ***ladning tovushqatori*** deb aytildi. Ladning birinchi pog‘onasi, tonika – I raqam bilan belgilanadi, ikkinchisi – II, keyingilari – III, IV, V va hokazo.

<sup>23</sup> *Lad* – (lotincha *modus*, frants. va ingl. *mode*) – totuvlik, inoqlik, hamjihatlik, ittifoq; rus tildagi «lad» so‘zining ma’nosisi grekcha δύοντα so‘zi ma’nosiga teng keladi (musiqiy estetik ma’noda garmoniya ni bildiradi); qulqoqa yoqimli eshitiladigan tovushlarning balandlik bo‘yicha uyg‘unlashuvi.

<sup>24</sup> *Funktsiya* – (lotincha *functio*) – bajarish, amalga oshirish; munosabatlar tizimidagi birorta narsa (kimsa) ning faoliyati, vazifasi, roli.

Misollarda «Qora sochim» va «Mog‘ulcha» xalq qo‘shiqlarining tovushqatolari keltirilgan. Ularning tarkibi bir xil.

51

The image shows two musical staves. The left staff is labeled "Qora sochim" tovushqatori and the right staff is labeled "Mog‘ulcha" tovushqatori. Both staves are in common time with a treble clef. The "Qora sochim" staff has notes: a white circle (T), a black dot, and a black dot. The "Mog‘ulcha" staff has notes: a black dot, a black dot, a white circle (T), a black dot, a black dot, and a black dot. The note heads are small circles, and the stems extend downwards.

Lekin, «Qora sochim» dagi tonika – *re* tovush, «Mog‘ulcha»ning tonikasi – *sol*. «Qora sochim»da *re* tovush – turg‘un funktsiya, «Mog‘ulcha»da esa noturg‘un. Birinchi misolda *mi-bemol* tovush II- pog‘ona, ikkinchi misolda u VI- pog‘ona roliga ega; VI- pog‘onaning *sol* tonikaga tortilishidan ko‘ra II- pog‘onaning *re* tonikaga intilishi kuchliroqdir. Chunki, noturg‘un tovushdan turg‘un tovushgacha orasi kanchalik kam (tor, kichik) bo‘lsa, shunchalik uning tortilish kuchi ham oshadi. *Mi-bemol* dan *sol* gacha orliq 2 ton, *re* gacha esa – 0,5 tonga teng. Demak, ladning ta’rifidan qelib chiqan holda, tovushqatorning qaysi bir pog‘onasi tonika qilib olinganligiga qarab, noturg‘un tovushlarning roli, vazifasi, harakati, boshqacha aytganda funktsiyasi hamda o‘zaro munosabatlari o‘zgaradi, va boshqa xil lad hosil bo‘ladi.

Lad tovushqatorini pog‘onalari orasidagi ton va yarim tonlarning muayyan ketma-ketligi *tovushqatorning tuzilishi (strukturasi)* deb ataladi. Tovushqatorning tuzilishi kuy ohangining turli emotsiyaligida ta’sir qiladi. Ladning u yoki bu emotsiyaligida rangi (yorug‘, osoyishta yoki mayus, qayg‘uli) avvalom tonika bilan III- pog‘ona orasidagi tonlar miqdori bilan aniqlanadi. Shunga muvofiq holda, ladlarning xilma-xilligi ikkita asosiy turga turkumlanadi: 1) tonikadan III- pog‘onagacha 2ton bo‘lsa ***majorli ladlar***, 2) tonikadan III- pog‘onagacha 1,5 ton bo‘lsa ***minorli ladlar***.

Harfiy belgilash tizimida major "***dur***" – qattiq, minor "***moll***" – yumshoq so‘zlar bilan belgilanadi.

### 3-§. Major va minor ladlar garmonik tizimi.

Bu xildagi ladlar oktava hajmida bo‘lib, yettita pog‘onadan iborat. Ularda tonika rolini quloqqa yokimli eshitiladigan uch tovushdan iborat ohangdoshlik (garmoniya) bajaradi. Turg‘un tonika ohangdoshligini tashkil qiladigan ***I, III va V***

*pog‘onalar turg‘un pog‘onalar* deb hisoblanadi. Major ladida turg‘un pog‘onalar – majorli, minorda – minorli ohangdoshlikni hosil qiladi. Qolgan pog‘onalar – **II, IV, VI** va **VII** - **noturg‘undir**. Ular ham, o‘z navbatida, noturg‘un ohangdoshlikka yig‘iladi:

52

Ushbu garmonik tizim ohangdoshlikning ichidagi tovushlar munosabatlarini hamda ohangdoshliklarning o‘zaro alokalarini uyushtirilgan holga keltiradi. Shuning uchun, noturg‘un tovushlar nafaqat tonikaga, balki uning ohangdoshligini tashkil qiluvchi tovushlar (III, V pog‘onalar) ga ham intiladigan bo‘ldi. *Noturg‘un tovushning turg‘un tovushga intilishi tovushning tortilishi deb aytiladi. Noturg‘un tovushning intilishi bo‘yicha turg‘un tovushga o‘tishi tovushning yechilishi deb aytiladi.*

53

VII → I ← II → III ← IV → V ← VI

Ladning noturg‘un pog‘onalari tovushlar tortilishi tizimiga bo‘ysunib, ko‘yidagicha yechiladi:

VII- pog‘ona faqat yuqoriga tortilib, I- pog‘ona, Tonikaga yechiladi.

VI- pog‘ona faqat pastga tortilib, V- pog‘onaga yechiladi.

II- va IV- pog‘onalar ikki tomonga qo‘shti turg‘un tovushlarga echilishi mumkin. Biroq, II- pog‘onaning tonikaga echilishi, IV- pog‘onaning III- pog‘onaga echilishi tabiiyroqdir. Chunki, avvalom turg‘un pog‘onaning turg‘unlik darajasi (III- pog‘onaga qaraganda I- pog‘onaning turg‘unlik darajasi yuksakroq), so‘ng noturg‘un pog‘onadan turg‘un pog‘onagacha uzoq-yaqinligi e’tiborga olinadi.

#### 4-§. Lad pog‘onalari funktsiyalari.

Major va minor ladlarning tovushqatori va pog‘onalarining funktsiyalari barcha oktavalarda saqlanadi. Shuning ushun tovushqatorning VIII- pog‘onasini ham tonika deb bilish lozim. Lad tovushqatorining pog‘onalari maxsus nom va tartib raqamga egadir:

- I. pog‘ona – ***tonika ( T; t )***
- II. pog‘ona – ***pasayuvchi ( yoki yuqorigi ) yetakchi tovush***
- III. pog‘ona – ***yuqorigi medianta*<sup>25</sup>**
- IV. pog‘ona – ***subdominanta*<sup>26</sup> ( S; s )**
- V. pog‘ona – ***dominanta*<sup>27</sup> ( D )**
- VI. pog‘ona – ***pastki medianta***
- VII. pog‘ona – ***ko ‘tariluvchi(yoki pastki) yetakchi tovush***

Lad funktsiyalarini aniqlashda tovushlarning Tonikaga nisbatan kvarta-kvintali aloqalari eng muhim deb hisoblanadi. Bunday akustik qardoshlikka asoslangan aloqalar faqat Tonika bilan Subdominantalar va Tonika bilan Dominantalar orasida hosil bo‘ladi. Shuning uchun, **T, S va D asosiy (bosh) pog‘onalar** deb yuritiladi.

54

**Mediantalar** – III- pog‘ona tonika va dominanta o‘rtasida, VI- pog‘ona tonika va subdominantalar o‘rtasida joylashgan pog‘onalar.

55

<sup>25</sup> Medianta – (lotincha *medians*) – o`rtada turadigan.

<sup>26</sup> Subdominant – (lotincha *sub* – ostida, va *dominanta*) – pastki dominanta

<sup>27</sup> Dominanta – ( lotincha *dominans* ) – h`ukumronlik (ustunlik) qiluvchi.

*Yetakchi pog‘onalar* – Tonikaning yon qo‘shi pog‘onalar: VII- pog‘ona yuqoriga tomon, II- pog‘ona pastga tomon tonikaga intiluvchi va unga yetklab boshlo‘vchi pog‘onalar.

### 5-§. Major va minor turlari. Gamma.TetraXord. Tonallik.

Major va minor ladlarning tarixiy rivojlanishi ularning doimiy o‘zaro ta’sirida, bir biriga yaqinlashish harakatida o‘tgan. Natijada, musiqa amaliyotida asta-sekin ladlarning uch xili shakllanib chiqdi. Bular *tabiiy, garmonik va melodik turlaridir*. (Bundan buyon ladlarga tabiiy major, garmonik major, melodik major, tabiiy minor, garmonik minor, melodik minor deb aytiladi.). Ushbu turlarning bir biridan farqi pog‘onalar orasidagi masofalarga bog‘liq.

**Tabiiy major va minor** tovushqatorlarining tuzilishi diatonik ton va yarim tonliklar izchil joylashuvi bilan farqlanadi.

**Tabiiy major gammasi**, ya’ni tovushqatorning tonikadan boshqa oktavadagi tonikagacha tuzilishi, qo‘yidagi struktura (tuzilish)ga ega:

**1ton – 1ton – 0,5ton – 1ton – 1ton – 1ton – 0,5ton.**

56



Major gammasi ikkita bir xil tuzilgan – **1ton – 1ton – 0,5ton**, – tetraxord<sup>28</sup>dan iborat. **TetraXord** – kvarta xajmidagi 4 ta pog‘onali tovushqatordir. Pastki tetraxord I- pog‘onadan, yuqoridagi tetraxord V- pog‘onadan boshlab tuziladi. Tetraxordlar orasidagi masofa – 1ton.

**Tabiiy minor gammasing** strukturasi (tuzilishi) qo‘yidagicha ko‘rinishga ega bo‘ladi: **1ton – 0,5ton – 1ton – 1ton – 0,5ton – 1ton – 1ton.**

<sup>28</sup> Tetraxord – (grekcha τετρά –to`rt, χορδή - tor)



Minorning tetraxordlari har xilcha tuziladi:

pastki tetraxord – **1ton – 0,5ton – 1ton**,

yuqoridagi tetraxord – **0,5ton – 1ton – 1ton**.

Lad – abstrakt tushunchadir. U muayyan balandlikda mustahkamlanib, faqat musiqa yangrashida gavdalanadi. Lad tonikasi 12 ta pog‘onali musiqiy tizimning birorta tovushida joylashsa, o‘sha tovush *ladning balandligi*, ya’ni *tonalligini* aniqlaydi. Musiqiy tizimning har bir tovushidan bitta major va bitta minor ladni tuzish mumkin, shunda tonalliklarning soni kamida 24 ta bo‘ladi. (I.S.Baxning «Yaxshi temperatsiyalangan klaviri»ni eslang). Bunga qo‘shilib, tovushlar engarmonizmi tamoyili ham tatbiq etilsa, tonalliklar soni yanada ortib boradi.

Masalan, lad majorli bo‘lsa, tonikasi – *lya-bemol* tovushga joylashgan bo‘lsa – izlangan tonallik *lya-bemol major (As-dur)* bo‘ladi; lad – minor, tonikasi – mi, izlangan tonallik – *mi-minor (e-moll)*. Harfiy belgilash tizimi bo‘yicha major tonalliklari katta harf bilan, minor tonalliklari kichik harf bilan yoziladi.

**Asosiy tushunchalar:** *turg‘unlik va noturg‘unlik holati, lad, ladning tovushqatori, lad funktsiyasi, major va minor ladi, turg‘un va noturg‘un pog‘onalar, tovushning tortilishi va yechilishi, tabiiy major va minor, gamma, tetraxord, tonallik.*

### Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Asosiy tushunchalarga ta’rif bering.
2. Har xil tovushlardan major va minor gammalarini, turg‘un va noturg‘un pog‘onalarini ajratib, tortilishlarini ko‘rsatib yozing, so‘ng ularni butunligicha va tetraxordlar bo‘yicha chalib chiqing.
3. 4-5 ta ohangdor ibora bastalab, ularni tabiiy major va minor ladlarda chaling.

4. Tanish kuylarni har xil tonalliklarda chaling.

## 7- mavzu. MAJOR LADI VA TONALLIKLARI

### 1-§. Majorning garmonik va melodik turlari.

Major va minorning garmonik bilan melodik turlari tabiiy turlaridagi ayrim noturg'un pog'onalar xromatik yarim tonga o'zgarishi natijasida hosil bo'ladi. Alteratsiyalangan pog'onalar ladning asosiy pog'onalarini o'rniga variant sifatida ishlatiladi. Ammo ular bajaradigan lad funktsiyasini hech ham o'zgartirmaydi. Faqatgina mazkur pog'onalarining tortilish darajasi kuchayadi, xalos. Shuning uchun, major va minorning garmonik bilan melodik turlari diatonik ladlar deb hisoblanadi.

**Garmonik majorda VI- pog'ona yarim tonga pasayadi.** Uning yaqqol belgisi – xromatik yarim tonga pasaygan VI- pog'onasidan VII- pog'onasigacha hosil bo'lgan oraliqning 1,5 tonga teng kelishidir.

*garmonik majording tuzilishi*

58

Uning yuqorigi tetraxordi –  
0,5ton–1,5ton–0,5ton izchiligidagi  
ifodalanadi:

**Melodik major** gammasining faqat *pasayuvchi harakatida VII- va VI- pog'onalar yarim tonga pasayadi.* Gammaning *ko'tariluvchi harakati* esa *tabiiy major* gammasining o'zidir.

Uning yuqorigi tetraxordining **pastga tomon tuzilishi** – 1ton – 1ton – 0,5ton – tabiiy minorning yuqorigi tetraxordi tuzilishi bilan bir xil.

*melodik majording tuzilishi*

59

### 2-§. Major tonalliklari.

Temperatsiyalangan musiqiy tovushqatorning har bir asosiy pog'onasidan *major lad* tuzilsa tonalliklar o'rtasida faqat **Do-major (C-dur)** tonalligi asosiy pog'onalarini o'z ichiga qamrab oladi. Qolgan tonalliklar tovushqatorning hosila

pog‘onalarisiz to‘g‘ri bo‘lib tuzilmaydi. *Re-majorga* 2 ta hosila pog‘ona qo‘shiladi – *fa-diez*, *do-diez*, *Mi-majorga* 4 ta diez – *fa, do, sol, re*, *Fa-majorga* – 1 ta bemol – *si*, *Sol-majorga* – 1 ta diez, *Lya-majorga* – 3 ta diez, *Si-majorga* – 5 ta diez.

Asosiy pog‘onalar	c	d	e	f	g	a	h
Tonalliklar	C-dur	D-dur	E-dur	F-dur	G-dur	A-dur	H-dur
Kalit belgilari	0	2 #	4 #	1 ½	1 #	3 #	5 #

Hosila pog‘onalarga tegishli alteratsiya belgilari asarning har bir nota yo‘lida kalitdan so‘ng yoziladi. Ularga ***kalit belgilari*** deyiladi.

Kalit belgilari 7 tadan ortiq yozilmaydi. Kalit yonida hamisha bir turdag'i belgilar – yoki faqat diezlar, yoki faqat bemollar yoziladi. Bu jihat bo‘yicha tonalliklar diezli va bemolli tonalliklarga ajratiladi.

Kalit belgilari har doim qat’iy o‘rnatilgan tartibda yoziladi.

*Diezlar qatori – fa, do, sol, re, lya, mi, si.* (bemollar qatorining teskarsi).

*Bemollar qatori – si, mi, lya, re, sol, do, fa.* (diezlar qatorining teskarisi).

61



Diyezli major tonalliklari. Har bir diezli major tonallikda ohirgi kalit belgisi tovushqatorining VII- pog‘onasiga muvofiqdir.

62



Bemolli major tonalliklarda ohirgi kalit belgisi tovushqatorining IV-pog‘onasiga to‘g‘ri keladi.

63



Ladlarning garmonik va melodik turlarida yoki boshqa bir sabab bilan ro'y beradigan o'zgarishlar ***tasodifiy alteratsiya belgilari*** yordamida ko'rsatiladi. Bu xildagi belgilar o'zgaradigan pog'onaning notasi yoniga, ya'ni undan oldin (notaning chap tomonidan) yozilishi lozim. Aytgancha, kalit belgilari diezlar bo'lsa, tasodifiy belgilar bemol, bekar ham bo'lishi mumkin va aksincha.

**Asosiy tushunchalar:** *majorning garmonik va melodik turlari, major tonalliklari, kalit belgilari qatori.*

### Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Majorning garmonik va melodik turlari farqi nimada?
2. Major tonalliklar garmonik va melodik turlari gammalarini turg'un va noturg'un pog'onalarini ajratib, tortilishlarini ko'rsatib yozing, so'ng ularni butunligicha va tetraxordlar bo'yicha chalib chiqing.
3. Berilgan kuy iborasiga majorning hamma turlarida davomini qo'shib yozing.
4. 4-5 ta ohangdor ibora bastalab, ularni majorning garmonik va melodik turlarida chaling.

## 8- mavzu. MINOR LADI VA TONALLIKLARI

### 1-§. Minorning garmonik va melodik turlari

***Garmonik minorda VII- pog'ona yarim tonga ko'tariladi.*** Uning yaqqol belgisi – VI- pog'onasidan xromatik yarim tonga ko'tarilgan VII- pog'onasigacha hosil bo'lgan oraliqning 1,5 tonga teng kelishidir.

64

*garmonik minorning tuzilishi*

Uning yuqorigi tetraxordi  
**0,5ton – 1,5ton – 0,5ton** lar  
izchiligidagi ifodalananadi:

Shunday qilib, garmonik major va garmonik minordagi yuqorigi tetraxordlarning tuzilishi va ohanggi bir xildir.

**Melodik minor** gammasining faqat *ko'tariluvchi harakatida VI- va VII-pog'onalar yarim tonga ko'tariladi.* Gammaning *pasayyuvchi harakati* esa *tabiiy minor* gammasining o'zidir.

Uning yuqoridagi tetraxordining **yuqoriga tomon tuzilishi – 1ton – 1ton – 0,5ton** – tabiiy majorning yuqorigi tetraxordi tuzilishi bilan bir xil.

*melodik minorming tuzilishi*

65

Misollardan ko'rinaradiki, melodik major va minordagi yuqorigi tetraxordlarining tuzilishi va ohanggi bir xil bo'ladi.

## 2-§. Minor tonalliklari.

**Minor ladi strukturasi (1ton–0,5ton–1ton–1ton–0,5ton–1ton–1ton)**


asosiy pog'onalaridan tuzilishi natijasida quyidagi tonalliklar va kalit belgilari hosil bo'ladi:

66	Asosiy pog'onalar	c	d	e	f	g	a	h
	Tonalliklar	c-moll	d-moll	e-moll	f-moll	g-moll	a-moll	h-moll
	Kalit belgilari	3 ♭	1 ♭	1 #	4 ♭	2 ♭	0	2 #

Har bir diyezli minor tonallikda ohirgi kalit belgisi tovushqatorining II - pog'onasiga muvofiqdir.

67

Bemolli minor tonalliklarda ohirgi kalit belgisi tovushqatorining VI-pog'onasiga to'g'ri keladi.




Major va minor tonalliklar kalit belgilari ko‘payishi bo‘yicha (*do-major* dan o‘ng tomonga diezli tonalliklar, chap tomonga bemolli tonalliklar) tartibga solinsa, tonalliklarning kvinta bo‘yicha joylashuvi tamoyili namoyon bo‘ladi: *fa* dan *do* gacha masofa kvintaga teng, *do* dan *sol* gacha – kvinta, *sol* dan *re* gacha – kvinta va hokazo.

E’tibor bering (!), tonalliklar ketma-ketligi va kalit belgilari tartibi bir xil.

Kvinta bo‘yicha joylashgan tonalliklar qatori ettita kalit belgigacha davom etilsa, musiqa amaliyotida qo‘llaniladigan barcha tonalliklarning «kvinta qatori» hosil qilinadi.

**Tonalliklarning kvinta bo‘yicha joylashuvi** davra shaklida ham tasvirlanadi. Bunga «*kvinta davrasi*» deb nom berildi.

69



Kvinta davrasidagi qo'shni tonalliklar eng yaqin qardosh tonalliklar deb hisoblanadi. Negaki, ular 6 ta umumiyl tovushga egalik qiladi.

### 3-§. Parallel, nomdosh va engarmonik teng tonalliklar

Kvinta davrasi jadvalidan shunisi ko'rish mumkinki, muayyan kalit belgilar soniga bitta major va bitta minor tonalliklar muvofiq keladi. Masalan, *Fa-major* tonallikka *re-minor* tonallik, *Re-majorga si-minor* muvofiqdir. Kalit belgilari bir xil bo'lgan tonalliklarning tovushqatorlari ham bir xil bo'ladi. Lekin, ularning tonika tovushlari boshqa-boshqa pog'onalarga joylashgan. Majorning tonikasi minorning III- pog'onasiga, minorning tonikasi majorning VI-pog'onasiga to'g'ri keladi. Binobarin, tonikalarning orasi uchta pog'ona va 1,5 tonga baravar. Xullas, bunday tonalliklarning tovushqatorlari bir biriga nisbatan xuddi parallel tarzda joylashgandek bo'ladi.

70

The musical example consists of two staves. The top staff is in C-dur, indicated by a treble clef and a key signature of one sharp. It has three notes: a quarter note on the first line labeled 'T', a quarter note on the fifth line labeled 'VI', and a quarter note on the first line labeled 'T'. The bottom staff is in a-moll, indicated by a treble clef and a key signature of one flat. It has three notes: a quarter note on the first line labeled 't', a quarter note on the third line labeled 'III', and a quarter note on the first line labeled 't'.

Bitta tovushqator va bir xil kalit belgilariga ega major va minor tonalliklar **parallel tonalliklar** deb aytiladi.

**Nomdosh tonalliklar** deb umumiyl tonika tovushiga ega bo'lgan major va minor tonalliklarga aytiladi

71

The musical example consists of two staves. The top staff is in C-dur, indicated by a treble clef and a key signature of one sharp. It has three notes: a quarter note on the first line labeled 'T'. The bottom staff is in c-moll, indicated by a treble clef and a key signature of one flat. It has three notes: a quarter note on the first line labeled 't'.

Nomdosh tonalliklar bir biridan uchta kalit belgiga farq qiladi: major belgilarini bilish uchun minor tonallikdan diezlar ko'payishi tomoniga ("kvinta davrasida" o'ngga) uchta belgi sanaladi, yoki minor belgilarini topish uchun major tonallikdan bemollar ko'payishi tomoniga (chapga) uchta belgi sanab o'tiladi (69-misolga qarang). Masalan, *Do-majorda* – 0 belgi, undan chap tomonga uchta belgi sanab o'tilgandan so'ng, **do-minor** 3 ta bemoli bilan kelib chiqadi:

*Re-majorda* – 2 ta diez, *re-minorda* – 1 ta bemol;

*Fa-majorda* – 1 ta bemol, *fa-minor* – 4 ta bemol.

**Engarmonik teng tonalliklar** deb balandligi bir xil, ammo yozilishi va nomi turlichha bo‘lgan bitta ladga tegishli tonalliklarga aytildi.

Tonalliklarning engarmonik tengligida diezli tonallik bemolli tonallika almashinadi va aksincha, bemolli tonallik diezli tonallikka aylanadi. Engarmonik teng tonalliklarning kalit belgilari hammasi bo‘lib ↳ 12 ta belgiga baravar bo‘lib chiqadi: 6 bemol + 6 diyez = 12ta belgi, 5 # + 7 = 12 ta belgi.

Musiqada tatbiq etilgan engarmonik teng tonalliklardan 6 ta major va 6 ta minor tonalliklardir:

H-dur = Ces-dur; Fis-dur = Ges-dur; Cis-dur = Des-dur

gis-moll = as-moll; dis-moll = es-moll; ais-moll = b-moll.

**Asosiy tushunchalar:** *minorning garmonik va melodik turlari, minor tonalliklari, «kvinta davrasi», parallel tonalliklar, nomdosh tonalliklar, engarmonik teng tonalliklar.*

### **Nazorat savollari va topshiriqlar:**

1. Minorning garmonik va melodik turlari farqi nimada?
2. Minor tonalliklar garmonik va melodik turlari gammalarini turg‘un va noturg‘un pog‘onalarini ajratib, tortilishlarini ko‘rsatib yozing, so‘ng ularni butunligicha va tetraxordlar bo‘yicha chalib chiqing.
3. Berilgan kuy iborasiga minorning hamma turlarida davomini qo‘shib yozing.
4. Parallel, nomdosh va engarmonik teng tonalliklar xususiyatlarini aytib, ularni cholg‘u asbobda chalib ko‘rsating.
5. 4-5 ta ohangdor ibora bastalab, ularni minorning garmonik va melodik turlarida chaling.

## **9- mavzu. TABIIY MAJOR VA MINOR INTERVALLARI**

### **1-§. Tabiiy major va minor intervallari.**

Tabiiy major va tabiiy minor pog‘onalarida faqat diatonik intervallar, ya’ni sof, katta, kichik va uchtonliklar (ort.4, kam.5) hosil bo‘ladi. Yettita pog‘onaning har birida oddiy intervallarni tuzish mumkin. Biroq, har xil pog‘nalardan tuzilgan bir turdag'i interval (masalan, tertsiya)larning sifati (katta, kichik) turlicha bo‘ladi.

*Tabiiy majorda sof prima bilan sof oktava barcha pog‘onalarda tuziladi.*

*Sekundalar – 2 ta kichik – III- va VII- pog‘onalarda tuziladi,*

5 ta katta – qolgan pog‘onalarda tuziladi.

*Tertsiyalar – 3 ta katta – I-, IV-, V- ladning asosiy pog‘onalarida,*

4 ta kichik – qolgan pog‘onalarda tuziladi.

*Kvartalar – 1 ta orttirilgan – IV- pog‘onada,*

6 ta sof – qolagan pog‘onalarda tuziladi.

*Kvintalar – 1 ta kamaytirilgan – VII- pogonada,*

6 ta sof – qolagan pog‘onalarda tuziladi.

*Sekstalar – 3 ta kichik – III-, VI-, VII- pog‘onalarda,*

4 ta kata – qolgan pog‘onalarda tuziladi.

*Septimalar – 2 ta katta – I-, IV- pog‘onada,*

5 ta kichik – qolgan pog‘onalarida tuziladi.

Ushbu intervallarning pog‘onalar bo‘yicha taqsimoti quyidagi jadvalda ko‘rsatilgan (intervalning nomi raqam bilan ifodalangan):

**72**

Major	Intervallar sifati					
	pog‘ona	katta	kichik	sof	orttirilgan	kamaytirilgan
I	2, 3, 6, 7	-		4, 5		
II	2, 6	3, 7	4, 5			
III	-	2, 3, 6, 7	4, 5			
IV	2, 3, 6, 7	-	5	4		
V	2, 3, 6		7	4, 5		
VI	2	3, 6, 7	4, 5			
VII	-	2, 3, 6, 7	4		5	

## 72a

pog'onalalar	sekunda	tersiya	kvarta	kvinta	seksta	septima	pog'onalalar
C-dur							a-moll
I							III
II							IV
III							V
IV							VI
V							VII
VI							I
VII							II

**Tabiiy minorda** mazkur intervallar ikki pog'ona yuqoriroq joylashadi.

Masalan, orttirilgan kvarta majorning IV- pog'onasida joylashgan, minorda esa u VI- pog'onada tuziladi.

**Tabiiy minorda** *sof prima* bilan *sof oktava* barcha pog'onalarda tuziladi.

**Sekundalar – 2 ta kichik – V- va II- pog'onalarda tuziladi,**

5 ta katta – qolgan pog'onalarda tuziladi .

**Tertsiyalar – 3 ta katta – III-, VI-, VII- ladning asosiy pog'onalalarida,**

4 ta kichik – qolgan pog'onalarda tuziladi.

**Kvartalar – 1 ta orttirilgan – VI- pog'onada,**

6 ta sof – qolagan pog'onalarda tuziladi.

**Kvintalar – 1 ta kamaytirilgan – II- pogonada,**

6 ta sof - qolagan pog'onalarda tuziladi.

*Sekstalar – 3 ta kichik* – V-, I-, II- pog‘onalarda,  
4 ta kata – qolgan pog‘onalarda tuziladi.

*Septimalar – 2 ta katta* – III-, VI- pog‘onada,  
5 ta kichik – qolgan pog‘onalarida tuziladi.

Ushbu intervallarning pog‘onalar bo‘yicha taqsimoti quyidagi jadvalda ko‘rsatilgan (intervalning nomi raqam bilan ifodalangan):

**73**

Minor		Intervallar sifati			
Pog‘ona	katta	kichik	sof	orttirilgan	kamaytirilgan
I	2	3, 6, 7	4, 5		
II		2, 3, 6, 7	4		5
III	2, 3, 6, 7	-	4, 5		
IV	2, 6	3, 7	4, 5		
V	-	2, 3, 6, 7	4, 5		
VI	2, 3, 6, 7		5	4	
VII	2, 3, 6	7	4, 5		

### Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Har bir oddiy diatonik interval ladning qaysi pog‘onasida tuzilishini aytib, uni taklif etilgan tonallikkarda tuzing va chaling.
2. Berilgan tonallikkarda hamma oddiy va tarkibli diatonik intervallarni ladning har pog‘onasida tuzing.
3. Taklif etilgan kuylarni intervallarini aniqlab chaling.

## 10- mavzu. XARAKTERLI INTERVALLAR

### 1-§. Xarakterli intervallarning tuzilishi.

*Garmonik major va garmonik minor* pog‘onalarida hosil bo‘ladigan intervallar ham diatonik intervallardir. Ladlarning ushbu turida alteratsiyalangan pog‘onalar bilan bog‘liq intervallar sifati orttirilgan yoki kamaytirilgan bo‘ladi. Alteratsiyalangan pog‘ona shu intervallarning asosi yoki cho‘qqisi bo‘lib xizmat qiladi.

*Garmonik majorda* yarim tonga pasaytirilgan VI- pog‘onadan tuzilgan intervallar **orttirilgandır**. Bular 3 ta – *orttirilgan sekunda, orttirilgan kvinta, orttirilgan kvarta (ort.2, ort.5, ort.4)*. Mazkur intervallarning aylanmalari *kamaytirilgan septima, kamaytirilgan kvarta, kamaytirilgan kvinta (kam.7, kam.4, kam 5)*. Ushbu kamaytirilgan intervallarning cho‘qqisi yarim tonga pasaytirilgan VI-pog‘onadir.

*Garmonik minorda* yarim tonga ko‘tarilgan VII- pog‘onadan tuzilgan intervallar **kamaytirilgandır**. Bular ham 3 ta – *kamaytirilgan kvarta, kamaytirilgan septima, kamaytirilgan kvinta (kam 4, kam7, kam.5)*. Ularning aylanmalari *orttirilgan kvinta, orttirilgan sekunda, orttirilgan kvarta (ort.5, ort.2, ort.4)*. Ushbu orttirilgan intervallarning cho‘qqisi yarim tonga ko‘tarilgan VII- pog‘onadir.

Garmonik Majorda pasaytirilgan VI, garmonik minorda ko‘tarilgan VII pog‘onani o‘z ichiga oladigan orttirilgan va kamaytirilgan intervallar **xarakterli intervallar** deb aytiladi.

Garmonik minor va garmonik major pog‘onalarida tuzilgan intervallar taqqoslama jadvali:

74	garmonik C-dur							garmonik c-moll						
	sekunda	tersiya	kvarta	kvinta	seksta	septima	pog‘	sekunda	tersiya	kvarta	kvinta	seksta	septima	
I							I							
							II							
							III							
							IV							
							V							
							VI							
							VII							

Garmonik major va minorda ***uchtonliklarning*** yana bittadan juftligi paydo bo'ladi. Endi ortirilgan kvarta (ort.4) IV- va VI- pog'onalar, kamaytirilgan kvinta (kam.5) VII- va II- pog'onalar orasida tuziladigan bo'ldi.

***Ortirilgan sekunda*** (ort.2) garmonik majorda ham, garmonik minorda ham VI-bilan VII-pog'onalar orasida, uning aylanmasi ***kamaytirilgan septima*** (kam.7) VII-bilan VI- pog'onalar orasida hosil bo'ladi.

***Orttirilgan kvinta*** (ort.5) va uning aylanmasi ***kamaytirilgan kvarta*** (kam.4) garmonik major va garmonik minorning III- pog'onasini bilan alteratsiyalangan pog'ona orasida thosil bo'ladi:

*majorda* – III- pog'ona va pasaytirilgan VI- pog'ona,

*minorda* – III- va ko'tirilgan VII- pogonalar oralig'i.

## 2-§. Intervallarning yechilishi.

Lad pog'onalarini turg'un va noturg'un pog'onalarga ajraladi. Intervallar ham turg'un va noturg'un bo'ladi. Intervalning turg'un yoki noturg'unligi uning lad xususiyatini aniqlaydi.

Turg'un intervalning tovushlari ladning turg'un pog'onalariadir. Yangrashi bo'yicha ular faqat konsonans ohangini vujudga keltiradi.

Noturg'un intervalning bitta yoki ikkala tovushi ladning noturg'un pog'onasiga joylashadi. Noturgun interval yangrashi bo'yicha ham konsonans, ham dissonans bo'lishi mumkin. Masalan: *re-minorda* interval *mi* – *lya* - sof kvarta, eshitilishi bo'yicha – konsonans, lad xususiyati bo'yicha – noturg'un interval, negaki *mi* tovush II- noturg'un pog'onadir. Dissonans intervallarga sekunda, septima, uchtonliklar va

xromatik intervallar kiradi. Ba'zi orttirilgan va kamaytirilgan intervallar o'zining akustik yangrashi bilan konsonansdek eshitiladi. Ammo lad jihatidan ularga dissonans intervali tarzida qaraladi.

Lad pog'onalariga o'xshab noturg'un intervallar ham turg'unlarga intiladi. **Noturg'un intervalning yechilishi** – uning turg'un intervalga o'tishidir.

**Dissonans intervalning yechilishi** deb uning konsonansga o'tishiga aytildi.

Intervalning **yechilish jarayonida** noturg'un pog'ona o'z tortilishi bo'yicha qo'shni turg'un pog'onaga o'tadi, turg'uni esa o'z joyida qoladi.

Shunga ko'ra, biror intervalni to'g'ri yechish uchun dastavval lad (major yoki minor) tanlanadi. So'ng, mazkur interval ladning qaysi pog'onalarida tuzilishi mumkinligi aniqlanadi. O'sha pog'onalardan biri intervalning asosi bo'ladi, cho'qqi pog'onasi esa hisoblab chiqiladi. Pog'onalar turg'un-noturg'unligi bilingandan keyin intervalning yechilishi amalga oshiriladi va turg'un pog'onalar bo'yicha uning tonalligi topiladi.

**Orttirilgan intervallar yechilganda** o'zidan keng intervalga (o'zidan *tashqariga* – pastki tovush pastga, yuqorigisi yuqoriga) o'tadi. **Kamaytirilgan intervallar** esa o'zidan tor intervalga (*ichkariga* – pastki tovush yuqoriga, yuqorigisi - pastga) o'tadi.

**Xarakterli intervallarning yechilishi:** orttirilgan sekunda har doim sof kvartaga, kamaytirilgan septima – sof kvintaga, orttirilgan kvinta – katta sekstaga, kamaytirilgan kvarta – kichik tertsiyaga yechiladi.

76 C-dur garmonik 1,5 t 2,5 t 4,5 t 3,5 t 2 t 1,5 t 4 t 4,5 t  
  
 ort.2 VI kam.7 VII kam.4 III kich.3 ort.5 VI kat.6

c-moll garmonik 1,5 t 2,5 t 4,5 t 3,5 t 2 t 1,5 t 4 t 4,5 t  
  
 ort.2 VI kam.7 VII kam.4 VII kich.3 ort.5 III kat.6

**Asosiy tushunchalar:** *xarakterli intervallar, turg‘un va noturg‘un interval, konsonans va dissonans interval, intervallarning yechlishi.*

**Nazorat savollari va topshiriqlar:**

1. Qaysi intervallarga xarakterli intervallar deyiladi?
2. Xarakterli intervallar tuzilishi va yechilishini aytинг.
3. Tonalliklarda xarakterli intervallarni yechilishi bilan tuzing va chaling.
4. Berilgan tovushdan xarakterli intervallarni yechilishi bilan tuzing, tonalligini aniqlang va chaling.
5. Tonallikda intervallarni tuzib, yechilishi bilan yozing, so‘ng chalib bering.
6. Biror xarakterli interval qollanilgan holda kuychalarni yaratib chaling.

## **11- mavzu. AKKORDLAR. UCHTOVUSHLIKLER**

### **1-§. Akkord. Akkord turlari**

Ikkita va undan ortiq tovushning bir vaktida uyg‘unlashishi *ohangdoshlikni* hosil qiladi. Bu tariqada, garmonik interaval ham ohangdoshlik sifatida hisoblanishi tayin. Ko‘p ovozlik musiqasida turli xil ohangdoshliklarning hosil bo‘lishi samimiydir. Bunday yo‘l bilan yuzaga kelgan *ohangdoshliklar turlich raqishiga ega bo‘lishi* mumkin.

*Akkord*<sup>29</sup> deb hisoblanadigan ohangdoshlik muayyan tuzilishga ega bo‘lib, mustaqil yaxlit tovushlar birligi sifatida qabul qilinadi. Akkordning tuzilishi uni tashkil qiladigan tovushlar soni va ular orasidagi intervallarga bog‘liq. Bu holda tertsiya, kvarta intervali bo‘yicha joylashgan ikki-, uch-, to‘rtta va hokazo tovushdan iborat akkordlar haqida gapiriladi.


Klasik musiqa amaliyoti tovushlari tertsiya bo‘yicha joylashgan akkordni ohangdoshliklar orasida eng barqaror shakl sifatda ajratib oldi. Buning ustiga akustika fani akkordning tertsiya bo‘yicha tuzilishi (strukturasi) sababini obertonlar qatoridagi dastlabki 6 ta – 7 ta ton izchilligida ko‘radi.

<sup>29</sup> Akkord – (lotinchcha *accordae*) – moslashtiryapman, kelishtiryapman.

**Akkord** – bu tertsiya bo‘yicha joylashgan yoki joylashishi mumkin bo‘lgan uchta va undan ortiq tovushdan iborat ohangdoshlik.

Akkordni tashkil qiladigan har bir tovush o‘z nomiga ega. Akkordning pastki tovushi uning *asosiy toni* yoki **primasi**, unga nisbatan tertsiya intervalini tashkil

77



qiladigan tovush – *tertsiyasi*, asosiy tondan kvintani tashkil kiladigan tovush – **kvintasi**, septima intervalini esa – **septimasi** deb ataladi. Ushbuakkord

tovushlari o‘z nomiga muvofiq arab raqamlar bilan belgilanadi: akkordning asosiy toni – 1, tertsiyasi – 3, kvintasi – 5, septimasi – 7.

Akkord tuzilishida uning eng pastki tovushi sifatida asosiy toni bo‘lsa, unga **akkordning asosiy ko‘rinishi** deyiladi. Agar eng pastki tovush sifatida boshqa biror akkord toni bo‘lsa, akkordning aylanmasi hosil bo‘ladi.

Akkordlar o‘z tarkibidagi tertsiyalar (tertsiya intrvali nazarda tutiladi) soni va chekka tovushlari hajmiga qarab ajratiladi. Masalan, *chekka tovushlari orasi kvinta bo‘lgan ikkita tertsiyadan iboratakkord uchtovushlik* deyiladi. *Chekka tovushlari orasi septima bo‘lgan uchta tertsiyadan iboratakkord septakkord* deyiladi. *Chekka tovushlari orasi nona bo‘lgan to‘rtta tertsiyadan iboratakkord nonakkord* deyiladi.

78



Har bir akkord turi o‘z navbatida uni tashkil qiladigan tertsiyalar sifati bo‘yicha yana bir necha xilga ajratiladi.

## 2-§. Uchtovushlik. Uning turlari va aylanmalari

**Uchtovushlik** – tertsiya bo‘yicha joylashgan uchta tovushdan iborat akkorddir. Uchtovushlikning chekka tovushlari kvintani hosil qiladi.

Belgilanishi –  $\frac{5}{3}$ .

Katta va kichik tertsiyalar yordamida uchtovushlikning to‘rtta xili tuziladi.

Ulardan ikkitasi *konsonans* ohangiga ega bo‘lib, *har xil tertsiyalardan* iborat va chekka tovushlari *sof kvintani* hosil qiladi.

1) **major** yoki *katta* uchtovushlik pastki tertsiyasi katta (2 ton), yuqorigi tertsiyasi kichik (1,5 ton) bo‘ladi. Belgilanishi - **Dur<sup>5</sup><sub>3</sub>** = **kat.3 + kich.3**;

2) **minor** yoki *kichik* uchtovushlikning pastki tertsiyasi kichik (1,5 ton), yuqorigi katta (2 ton) bo‘ladi. Belgilanishi - **moll<sup>5</sup><sub>3</sub>** = **kich.3 + kat.3**.

Uchtovushlikning yana ikkita xili *dissonans* ohangiga ega bo‘lib, *ikkita bir xil tertsiyalardan* iborat va chekka tovushlari brinchisida *orttirilgan kvinta*, ikkinchisida *kamaytirilgan kvintani* hosil qiladi.

1) **Orttirilgan** utovushlik ikkita katta tertsiyadan iborat. Chekka tovushlari orasi orttirilgan kvinta (ort.5 = 4 ton) ga teng. Belgilanishi - **Ort.<sup>5</sup><sub>3</sub>** = **kat.3 + kat.3**.

2) **Kamaytirilgan** uchtovushlik ikkita kichik tertsiyadan tuziadi. Chekka tovushlar orasi kamaytirilgan kvinta (kam.5 = 3 ton) ga teng. Belgilanishi – **Kam.<sup>5</sup><sub>3</sub>** = **kich.3 + kich.3**.

79

Uchtovushlik *ikkita aylanmaga* ega.

Birinchi aylanmasi **sekstakkord** deyiladi. U uchtovushlikning prima tovushi bir oktava yuqoriga quchirilishi natijasida hosil bo‘lib, tertsiya tovushidan boshlab tuziladi. Tertsiyasidan primasigacha hosil bo‘lgan seksta intervali unga nom beradi. Belgilanishi – **6**.

Uni tashkil qiladigan intervallar – pastda tertsiya, yuqorida kvarta joylashadi. Major va minor sekstakordning kvartasi sof, orttirilgan sekstakordning kvartasi kamaytirilgan, kamaytirilgan sekstakordning kvartasi orttirilgan bo‘ladi.

**Dur<sub>6</sub>** = **kich.3 + sof.4**;

**Moll<sub>6</sub>** = **kat.3 + sof.4**;

**Ort.<sub>6</sub>** = **kat.3 + kam.4**;

**Kam.<sub>6</sub>** = **kich.3 + ort.4**.

80

Ikkinchchi aylanmasi ***kvartsekstakkord*** deyiladi. U primasi bilan tertsiyasi bir oktava yuqoriga ko‘chirilishi natijasida hosil bo‘lib, kvinta tovushidan boshlab tuziladi. Kvintasidan primasigacha va kvintasidan tertsiyasigacha hosil bo‘lgan kvarta va seksta intervallari unga nom beradi. Belgilanishi –  $\text{6}_4$ .

Uni tashkil qiladigan intervallar – pastda kvarta, yuqorida tertsiya joylashadi.

**Dur $\text{6}_4$  = sof.4 + kat.3;**

**Moll $\text{6}_4$  = sof.4 + kich.3;**

**Ort. $\text{6}_4$  = kam.4 + kat.3;**

**Kam. $\text{6}_4$  = ort.4 + kich. 3.**

81

Kat $\text{6}_4$       Kich $\text{6}_4$       Ort $\text{6}_4$       Kam $\text{6}_4$

	<i>Uchtovushlik-</i> $\text{5}_3$	<i>Sekstakkord - 6</i>	<i>Kwartsekstakkord-</i> $\text{6}_4$
<b>Pastki tovushi</b>	Prima(1)	Tertsiya(3)	Kvinta(5)
<b>Intervalli tarkibi</b>	Tertsiya +tertsiya	Tertsiya + kvarta	Kvarta + tertsiya

**Asosiy tushunchalar:** *ohangdoshlik,akkord, uchtovushlik, septakkord, nonakkord,*

*sekstakkord, kvartsekstakkord.*

#### **Nazorat savollari va topshiriqlar:**

1. Asosiy tushunchalarni ta’riflab bering.
2. Uchtovushlik turlari farqini ayting.
3. Uchtovushlik aylanmalarining intervalli tarkibini aytib o‘ting.
4. Berilgan tovushlardan uchtovushlik to‘rt xilini va aylanmalarini tuzing, so‘ng chalib bering.

## **12- mavzu. ASOSIY UCHTOVUSHLIKlar**

### **1-§. Major va minor uchtovushliklari. Asosiy uchtovushliklar.**

Major va minor pog‘onalarida uchtovushliklar tuzish mumkin.

Tabiiy major pog‘onalarida tuzilgan uchtovushliklar orasida **uchta majorli** ( I,

dur      moll      moll      dur      dur      moll      kam  
I      II      III      IV      V      VI      VII  
T      S      D

IV-, V- pogonalar uchtovushliklari), **uchta minorli** (II-, III-, VI-) va **bitta kamaytirilgan** (VII-) uchtovushlik mavjud:

**82**

Tabiiy minor pog‘onalarida quyidagi uchtovushliklar joylashadi:

82a

I      II      III      IV      V      VI      VII

t      s      d

Tabiiy minor ladi **uchta minorli** ( I-, IV-, V- pogonalar uchtovushliklari), **uchta majorli** (III-, VI-, VII-) va **bitta kamaytirilgan** (II-) uchtovushlikka ega.

I-, IV-, V- pogonalar uchtovushliklari, ya’ni *tonika*, *subdominanta* va *dominanta* ladning xususiyati (major yoki minorligi)ni ta’kidlashishi sababli **asosiy uchtovushliklar** deb yuritiladi. Ushbu uchtovushliklar laddagi asosiy funksiyalarning garmonik ifodasi bo‘lib, ladning garmonik asosini yaratadi.

Asosiy uchtovushliklar sekstakkord va kvartsekstakkord aylanmalariga egadir.

83

C-dur

T      T<sub>6</sub>      T<sub>64</sub>      S      S<sub>6</sub>      S<sub>64</sub>      D      D<sub>6</sub>      D<sub>64</sub>

## 2-§. Yondosh uchtovushliklar


Ladning II-, III-, VI-, VII- pog‘ona uchtovushliklari **yondosh uchtovushliklar** deyiladi. Ular ladda ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo‘lib, har bittasi birorta asosiy uchtovushlikka umumiyl tovushlar orqali tegishlidir.

Yondosh uchtovushliklarning funksional mansubligi ularning asosiy uchtovushliklar bilan umumiyl tovushlar bo‘yicha o‘xshashligidan kelib chiqadi. Yondosh va asosiy uchtovushliklar o‘rtasida ikkitadan umumiyl tovush borligi tufayli II- va VI- pog‘onaakkordlari subdominanta, III- va VII- pog‘onaakkordlari esa dominanta, VI- va III- pog‘onaakkordlari tonika funksional guruhlarini tashkil

etadi. VI- va III- pog‘onaakkordlari ikkita asosiy funksiyaga mansub bo‘lishi uchun **bifunksionalakkordlar** deb hisoblanadi.

III- va VI- pog‘onaakkordlari *yuqori va pastki medianta* uchtovushliklari, II- va VII- pog‘onaakkordlari *yuqori va pastki yetakchi* uchtovushliklari deb ataladi.

Yondosh uchtovushliklar ham ikkita aylanma – sekstakkord va kvartsekstakkordga ega.




### 3-§. Garmonik major va garmonik minor uchtovushliklari.

*Garmonik majorda* pasaytirilgan VI- pog‘ona subdominanta guruhidagiakkordlariga ta’sir qiladi: VI- pog‘onada orttirilgan uchtovushlik, IV pog‘ona- da minorly subdominanta uchtovushligi, II- pog‘onada kamaytirilgan uchtovushlik tuziladi. Minorli subdominanta uchtovushligi garmonik majorga yumshoqroq xarakter bag‘ishlaydi.

*Garmonik minorda* ko‘tarilgan VII- pog‘ona dominanta guruhidagiakkordlariga ta’sir qiladi: III- pog‘onada orttirilgan uchtovushlik, V- pog‘onada majorly D uchtovushligi, VII- pog‘onada kamaytirilgan uchtovushlik tuziladi. Majorli D uchtovushligi minor ladiga major ladning ayrim jihatlarini olib kiradi.

84



Klassik major-minor garmonik tizimida minorning asosan garmonik turidan foydalaniladi. Shuning uchun, minordagi dominantaakkordlari hamisha majorli ohanggida eshitiladi, VII- pog‘ona kamaytirilgan uchtovushligi o‘rniga uning sekstakkordi ishlatiladi, III- pog‘onadagi orttirilgan uchtovushlik deyarli uchramaydi.

Kamaytirilgan va orttirilgan uchtovushliklar dissonansdir. Tonikadan tashqari boshqaakkordlar noturg‘undir. Yechilishning umumiyoqidasiga bo‘ysunib, *dissonansakkord konsonansga, noturg‘unakkord turg‘unga yechiladi*, ya’ni turg‘un pog‘onalar o‘z joida qolib, noturg‘unlar tortilishi bo‘yicha qo‘shni turg‘un pog‘onalarga o‘tadi.

85

The musical score example 85 shows a G-dur scale. The key signature is G-dur (no sharps or flats). The scale consists of six notes: S (G), S<sub>6</sub> (A), S<sub>7</sub> (B), D (D), D<sub>6</sub> (E), and D<sub>7</sub> (F#). The notes are arranged in a sequence of eighth-note pairs, with each note being sustained for one beat. The first two pairs (S and S<sub>6</sub>) are separated by a vertical bar line. The third pair (S<sub>7</sub>) is followed by another vertical bar line. The fourth pair (D) is followed by another vertical bar line. The fifth pair (D<sub>6</sub>) is followed by another vertical bar line. The sixth pair (D<sub>7</sub>) concludes the scale.

**Asosiy tushunchalar:** *asosiy uchtovushliklar, tonika, subdominanta va dominanta uchtovushliklari, yondosh uchtovushliklar, bifunksionalakkordlar, dissonansning yechilishi, noturg‘unakkordning yechilishi.*

### Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Asosiy tushunchalarni ta’riflab bering.
2. Taklif qilingan tonallikkarda asosiy uchtovushliklar bilan aylanmalarini tuzib, S va Dakkordlarini yechib chaling.
3. Tonallikning yondosh uchtovushliklari bilan aylanmalarini tuzib, har birini yechilishini qilib chaling.
4. Turli tonallikkarda quyidagiakkordlar ketma-ketliklarini tuzib chaling:
  - a) T-S<sub>4</sub><sup>6</sup>-D<sub>6</sub>-T;
  - b) T<sub>6</sub>-S-D<sub>4</sub><sup>6</sup>-T<sub>6</sub>;
  - c) T<sub>4</sub><sup>6</sup>-S<sub>6</sub>-D-T<sub>4</sub><sup>6</sup>;
  - d) T-VI<sub>6</sub>-S<sub>4</sub><sup>6</sup>-D<sub>6</sub>-T;
  - e) T<sub>6</sub>-III-S<sub>4</sub><sup>6</sup>-VII<sub>6</sub>-T<sub>6</sub>;
  - f) T<sub>4</sub><sup>6</sup>-II<sub>6</sub>-D-VI<sub>4</sub><sup>6</sup>-S-VII<sub>6</sub>-D<sub>4</sub><sup>6</sup>-T<sub>6</sub>.
5. Taklif etilgan yoki tanish kuylarga uchtovushliklar bilan aylanmalaridan foydalanib, garmonik jo‘rlikni yarsting va chalib bering

## 13- mavzu. DOMINANTSEPTAKKORD

### 1-§. Septakkord. Uning turlari va aylanmalari

**Septakkord** - tertsiya bo'yicha joylashgan to'rtta tovushdan iborat akkorddir.

Septakkordning chekka tovushlari septima intervalini hosil qiladi. Shuning uchun barcha septakkordlar dissonans akkord deb hisoblanadi. Belgilanishi – 7.

Septakkordlar ham tarkibiy intervallari bo'yicha farqlanadi. Chekka tovushlardagi septimasining sifatiga qarab **katta**, **kichik**, **orttirilgan** va **kamaytirilgan** *septakkord turlari* ajratiladi. Septakkordlarning aniq nomi ular asosida joylashgan uchtovushlik turi va chekka tovushlar orasidagi septimasi sifatidan hosil bo'ladi. Masalan, majorli uchtovushlik va katta septimadan tuzilgan akkord *katta majorli septakkord* deyiladi; minorli uchtovushlik bilan katta septima – *katta minorli septakkordni* tashkil etadi; majorli uchtovushlik va kichik septima – *kichik majorli septakkordni* tashkil etadi va hokazo.

Klassik musiqada keng tarqalgan va ko'p qo'llaniladigan septakkordlar bu – kichik majorli, kichik minorli, kichik hamda kamaytirilgan septakkordlardir.

**Kichik majorli septakkord** majorli uchtovushlik va chekka tovushlari hosil qiladigan kichik septimadan iborat.

86

majorli  
uchtovushlik + septima

kich dur<sub>7</sub>

**Kichik minorli septakkord** minorli uchtovushlik va kichik septimadan iborat.

87

kich moll<sub>7</sub>

**Kichik septakkord** kamaytirilgan uchtovushlik va kichik septimadan iborat.

88

kich 7

**Kamaytirilgan septakkord** kamaytirilgan uchtovushlik va kamaytirilgan septimadan iborat.



Septakkord uchta aylanmaga ega. Har aylanmaning nomi pastki tovushidan primasigacha va septimasigacha hosil bo‘lagan intervallardan kelib chiqadi.

Birinchi aylanmasi **kvintsekstakkord**: pastki tovushi – tertsiyasi, intervallarining ustma-ust joylashish tartibi – tertsiya+tertsiya+sekunda;

Ikkinci aylanmasi **terskvartakkord**: pastki tovushi – kvintasi, intervalli tarkibi – tertsiya+sekunda+tertsiya;

Uchinchi aylanmasi **sekundakkord**: pastki tovushi – septima, intervalli tarkibi – sekunda+tertsiya+tertsiya.



	<i>Septakkord</i>	<i>Kvintsekstakkord</i>	<i>Terskvartakkord</i>	<i>Sekundakkord</i>
<i>Pastki tovushi</i>	Prima (1)	Tertsiya (3)	Kvinta (5)	Septima (7)
Interval tarkibi (pastdan yuqriga qarab o‘qiladi)	tersiya + tersiya + tersiya	sekunda + tersiya + tersiya	tersiya + sekunda+ tersiya	tersiya + tersiya+ sekunda

## 2-§. Dominantseptakkord

Musikada juda keng tarqalgan kichik minorli septakkord *tabiiy major* va *garmonik minorning V-* pog‘onasida tuziladi. Bu akkord **dominantseptakkord** deyiladi. Dominantseptakkord laddagi dominanta funktsiyasining asosiy ifodalovchisidir. Belgilanishi – **D<sub>7</sub>**, uni tashkil qiladigan pog‘onalar – V-, VII-, II-, IV-, intervalli tarkibi – **kat.3+kich.3+kich.3**.

Dominantseptakkordning struktkrasi obertonlar qatorining 4-, 5-, 6-, 7-tovushlariga mos bo'lib, o'zining yangrashi bilan musiqiy tovushlarning akustik xususiyatlarini aks etadi.

91

Dominantseptakkord dissonansakkorddir. Uning pastki tovushi – ladning V-

92

pog'onasi, ya'ni Dominanta tovushning o'zi tonikaga intiladi, II- va VII- pogonalari ham tonika bilan tortilib turadi, IV- pog'onasi

kamaytirilgan kvintaning cho'qqisi sifatida yechilish qoidasiga rioya qilib, pastga III-pog'ona (tonikaning tertsiya tovushi) ga o'tishni talab qiladi.

Shuning uchun, dominantseptakkord bevosita tonikaakkordiga yechilishi

93

lozim: **V-,VII-, II- pog'onalar I-pogonaga, IV- pog'ona esa III-pog'onaga yechiladi.**

Natijada prima tovushi uch marta kelgan, kvintasiz, ya'ni to'liqsiz tonika uchtovushligi hosil bo'ladi.

Dominantseptakkord uchta aylanmaga ega.

1) **Dominatkintsekstakkord** – ( $D^6_5$ ) - akkordning tertsiyasidan (VII-) tuziladi, interval tarkibi – **kich.3+kich.3+kat.2**, primasi juftlantirilgan to'liq tonika uchtovushligiga yechiladi.

2) **Dominatterskvartakkord** - ( $D^4_3$ ) - akkordning kvintasidan (II-) tuziladi, interval tarkibi – **kich.3+kat.2+kat.3**, yoyilgan to'liq tonika uchtovushligiga yechiladi.

3) **Dominatsekundakkord** - ( $D_2$ ) - akkordning septimasidan (IV-) tuziladi, interval tarkibi – **kat.2+kat.3+kich.3**, primasi juftlantirilgan tonika sekstakkordiga yechiladi.

Dominantseptakkord aylanmalari tonikaga yechilganda prima tovushi, ya'ni laddagi V- pog'ona o'z o'mida qoladi, VII-, II-, IV- pog'onalar qoida bo'yicha yechiladi.

94

**Asosiy tushunchalar:** *septakkord, septakkord turlari, kvintsekstakkord, terskvartakkord, sekundakkord, dominantseptakkord, dominatkvintsekstakkord, dominatterskvartakkord, dominatsekundakkord.*

#### Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Asosiy tushunchalarni ta'riflab, har bir akkord haqida to'liq malumot bering (tuzilishi, yechilishi).
2. Berilgan tovushdan septakkordning to'rt xilini aylanmalari bilan tuzing va chaling.
3. Berilgan tonallikkarda dominantseptakkordni aylanmalari bilan tuzib, yechilishlarini ko'rsatib yozing, song chalib chiqing.
4. Berilgan tovushdan dominantseptakkordni aylanmalari bilan tuzing, ularni yechib, tonalliklarini aniqlang.

## 14- mavzu. YETAKCHI SEPTAKKORD

### 1-§. Yetakchi septakkord turlari.

Ladning **VII**, ya'ni pastki yetakchi pog'onasida tuziladigan septakkord *yetakchi septakkord* deyiladi. Yetakchi septakkord ladning dominanta guruhiga mansubdir. Belgilanishi – **DVII**<sub>7</sub>. Uni tashkil qiladigan pog'onalar – **VII, II, IV, VI**. **Tabiiy majorda** yetakchi septakkordning chekka tovushlari kichik septimani hosil qiladi, uning asosida esa kamaytirilgan uchtovushlik joylashadi. Shuning uchun unga

kichik kamaytirilgan yetakchi septakkord, qisqarog‘i ***kichik yetakchi septakkord*** deyiladi. Kichik yetakchi septakkordning intervalli tarkibi – **kich.3+kich.3.+kat.3.** Tabiiy minorda yetakchi septakkordning tuzilishi D<sub>7</sub> tuzilishiga o‘xshaydi. Shu sababdan tabiiy minorda yetakchi septakkord qo‘llanilmaydi.

### Garmonik major va garmonik minorda esa yetakchi septakkordning chekka

95

C-dur tabiiy      garmonik      a-moll garmonik  
 kichVII<sub>7</sub>      kamVII<sub>7</sub>      kamVII<sub>7</sub>

tovushlari      kamaytirilgan  
 septimani hosil qilishi uchun  
 unga ***kamaytirilgan yetakchi***  
***septakkord*** deb nom berildi.

U **kamVII<sub>7</sub>** belgilanib, **uchta kich.3** dan tashkil topadi.

### 2-§. Yetakchi septakkordning yechilishi.

Yetakchi septakkordlar tertsiyasi juftlantirilgan tonika uchtovushligiga yechiladi.

96

C-dur tabiiy      garmonik      a-moll garmonik  
 kichVII<sub>7</sub>      T      kamVII<sub>7</sub>      T      kamVII<sub>7</sub>      t

Yetakchi septakkordning bunday tarzda yechilishi ovozlarning parallel kvintalar bo‘yicha harakatiga yo‘l qo‘ymaydigan klassik garmoniya qoidasiga asoslangan. Buakkord tarkibiga kirgan kvinta intervallari ichkariga yechilishi lozim.

97

C-dur tabiiy      garmonik      a-moll garmonik  
 kam.5      sof.5      kam.5      kam.5      kam.5      kam.5

Yetakchi septakkordlarning ham uchta aylanmasi bor.

- 1) ***Yetakchi kvintsekstakkord*** – VII<sub>5</sub><sup>6</sup> - akkordning tertsiyasidan (II-) tuziladi, tertsiyasi juftlantirilgan tonika sekstakkordiga (**T<sub>6</sub>**) yechiladi.

2) *Yetakchi tertskvartakkord* –  $\text{VII}^4_3$  - akkordning kvintasidan (IV-) tuziladi, tertsiyasi juftlantirilgan tonika sekstakkordiga ( $T_6$ ) yechiladi.

3) *Yetakchi sekundakkord* –  $\text{VII}_2$  - akkordning septimasidan (VI-) tuziladi, tertsiyasi juftlantirilgan tonika kvartsekstakkordiga ( $T_6^4$ ) yechiladi.

98 C-dur garmonik

kamVII<sub>7</sub> T kamVII<sub>65</sub> T<sub>6</sub>

kamVII<sub>43</sub> T<sub>6</sub> kamVII<sub>2</sub> T<sub>64</sub>

Yetakchi septakkordlar dominantseptakkord va uning aylanmalari orqali ham tonikaga yechilishi mumkin.  $\text{VII}_7$  va  $D_7$  uchta umumiy tovushga ega. Bu tovushlar VII-, II-, IV- pog‘onalarda joylashadi. Akkordlarning qo‘shilish jarayonida umumiy tovushlar o‘z o‘rnida qoladi,  $\text{VII}_7$  ning septima tovushi (laddagi IV-pog‘ona)  $D_7$  ning primasi (laddagi III-pog‘ona) ga o‘tadi. Natijada  $\text{VII}_7 \rightarrow D_6^4$  ga,  $\text{VII}^6_5 \rightarrow D_4^4$ ,  $\text{VII}^4_3 \rightarrow D_2$ ,  $\text{VII}_2 \rightarrow D_7$  ga o‘tadi.

99 a-moll garmonik

kamVII<sub>7</sub> D<sub>65</sub> kamVII<sub>65</sub> D<sub>43</sub> kamVII<sub>43</sub> D<sub>2</sub> kamVII<sub>2</sub> D<sub>7</sub>

### 3-§. Subdominantseptakkord

Ladning yuqorigi yetakchi pog‘onasida (II-) tuziladigan septakkord subdominantiga guruhiga kiradi va ushbu funksiyasining asosiy septakkordi hisoblanganligi sababidan *subdominantseptakkord* deyiladi. Belgilanishi–  $\text{SII}_7$ , uni tashkil qiladigan pog‘onalar – **II-, IV-, VI-, I-**.

**Tabiiy majorda** tuzilgan subdominantseptakkordning intervalli tarkibi – **kich.3+kat.3+kich.3**. Uning chekka tovushlari kichik septimani hosil qiladi, asosida esa minorli uchtovushlik joylashadi. Shuning uchun, uni **kichik minorli subdominantseptakkord** deb ataydi.

**Gamonik major va tabiiy minorning II-pog‘onasida kichik subdominantseptakkord** (asosida kamaytirilgan uchtovushlik) tuziladi. Uning intervalli tarkibi – **kich.3+kich.3+kat.3.**

Subdominantseptakkord ham uchta aylanmaga ega. Ulardan **SII<sup>6</sup><sub>5</sub>** ko‘proq qo‘llaniladi. **SII<sup>6</sup><sub>5</sub>** - IV-pog‘onadan, **SII<sup>4</sup><sub>3</sub>** - VI-pog‘onadan, **SII<sub>2</sub>** - I- pog‘onadan tuziladi.

Subdominantseptakkordning yechilishi:

- 1) Dominanta uchtovushligiga o‘tishi xuddi **D<sub>7</sub>**→Tonikaga yechilgandek bajariladi.

100 a-moll

II<sub>7</sub> D II<sub>65</sub> D II<sub>43</sub> D II<sub>2</sub> D<sub>6</sub>

- 2) Tonika uchtovushligiga yechilishi – **VII<sub>7</sub>** →Tonikaga yechilish qoidasiga asoslanadi. Buakkordning yechilishida ham Tonikaakkordlari juftlanrilgan tertsiya tovushi bilan keladi.

101 a-moll

II<sub>7</sub> t<sub>6</sub> II<sub>65</sub> t<sub>6</sub> II<sub>43</sub> t<sub>64</sub> II<sub>2</sub> t

- 3) **D<sub>7</sub>**akkordlari orqali tonikaga yechilishi: **SII<sub>7</sub>** bilan **D<sub>7</sub>** ikkita umumiy tovushga egadir. Akkordlar bog‘lanishida ular o‘z o‘rnida qoladi, qolgan ikkita tovush (VI- va I- pog‘onalar) bir pog‘ona pastga tushadi.

102

a-moll

II<sub>7</sub> D<sub>43</sub> t II<sub>65</sub> D<sub>2</sub> t<sub>6</sub> II<sub>43</sub> D<sub>7</sub> t II<sub>2</sub> D<sub>65</sub> t

**D<sub>7</sub>, VII<sub>7</sub>** va **SII<sub>7</sub>** akkordlar ladning *bosh septakkordlari* deb hisoblanadi. Ular ladning noturg‘n funktsiyalari yaqqol vakillari bo‘lib, bosh septakkordlar sifatida asarlarda tez-tez qo‘llanilaniladi.

**Asosiy tushunchalar:** *yetakchi septakkord, kichik yetakchi septakkord, kamaytirilgan yetakchi septakkord, subdominantseptakkord, kichik minorli subdominantseptakkord, kichik subdominantseptakkord.*

**Nazorat savollari va topshiriqlar:**

1. Asosiy tushunchalarni ta’riflab, har bir akkordning farkli xususiyatini aytib o‘ting.
2. Berilgan tonallikkarda yetakchi septakkordni aylanmalari bilan tuzib, yechilishlarini ko‘rsatib yozing, song chalib chiqing.
3. Berilgan tovushdan yetakchi septakkordni aylanmalari bilan tuzing, ularni bevosita tonikaga va D<sub>7</sub> akkordlari orqali tonikaga yechib, tonalliklarini aniqlang.
4. Berilgan tonallikkarda subdominantseptakkordni aylanmalari bilan tuzib, yechilishlarini ko‘rsatib yozing, song chalib chiqing.
5. Berilgan tovushdan subdominantseptakkordni aylanmalari bilan tuzing, ularni bevosita tonikaga va D<sub>7</sub> akkordlari orqali tonikaga yechib, tonalliklarini aniqlang.
6. Taklif etilgan kuya septakkordlarni qollab, garmonik jo‘rlilik yaratishing va chalib bering.

## **15- mavzu. XALQ MUSIKASI LADLARI**

### **1-§. Melodik ladlar. Tabiiy ladlar.**

Azaldan xalq musiqasi hamda ilk kasbiy musiqa bir ovozlik shaklida rivojlangan. Bir ovozlik san’ati asosida melodik (monodik<sup>30</sup>) ladlar yotadi. Ular tarixan kechroq shakllangan ko‘p ovozlik musiqasida ham o‘z mohiyatini yo‘qatmay, xozirgacha ulardan ayrimlari folklor va kompozitorlik ijodida keng qo‘llaniladi.


---

<sup>30</sup> Monodiya – (grekcha μονωδία – bittaning qo‘shig‘i, μόνο – bir, ονδή – qo‘shiq) – bir ovozli kuylash (solo).

Turli melodik ladlar orasida barqaror strukturaga ega bo‘lgan va musiqa amaliyotida keng tarqalgan *diatonika* va *pentatonika* lad tizimlari ajralib turadi. – Diatonika ladlari *gemitonli*, ya’ni tovushqatorda yarim tonliklar mavjud, pentatonika ladlari esa *angemitonli*<sup>31</sup>, ya’ni tovushqatorda yarim tonliklar yo‘q bo‘ladigan ladlar tizimiga kiradi.

**Diatonika** – sof kvinta (3,5 ton) bo‘yicha joylashishi mumkin oktava hajmidagi yetta pog‘onali tizimdir.

103



Bu tamoyilga asoslangan ladlar guruhi diatonik yoki **tabiiy ladlar** tizimi deb yurtiladi. Bular – grekcha nomlari saqlanib kelgan – *ioniy*, *doriy*, *frigiy*, *lidiy*, *miksolidiy*, *eoliy* va *lokriy* ladlardir. Ushbu ladlarning hammasi diatonik ladlarga qo‘ylgan talablarga javob beradi:

- Oktavalik tamoyili, ya’ni har bir pog‘ona o‘z funksiyasini barcha oktavalarda saqlaydi;
- Oktava xajmida yetta turli pog‘onaning mavjudligi;
- Balandlik bo‘yicha qo‘shni pog‘onalar oralig‘i butun ton yoki yarim tonga baravar bo‘lishi. Tovushqatori 5 ta butun ton va 2 ta yarim tonlikdan iborat bo‘lishi;
- Yarim tonliklarning o‘rtasidagi oraliq kvartadan kam yoki kvintadan keng bo‘lmasligi.

Tabiiy ladlar bitta umumiyy tovushqator zamirida tuziladi. Ammo har bir lad unga kat’iy biriktirilgan tovushqator strukturasiga ega.

---

<sup>31</sup> *Angemitonika* – (grekcha *an* – -siz, *hemi* – yarim, *tonos* – ton) yarim tonliklardan holi tovushqator.

104

doriy      lidiy      eoliy

ioniy      frigiy      miksolidiy      lokriy

Ionyi lad strukturasi – 1 – 1 – 0,5 – 1 – 1 – 1 – 0,5.

Doriy lad -----//----- 1 – 0,5 – 1 – 1 – 1 – 0,5 - 1

Frigiy lad -----//----- - 0,5 – 1 – 1 – 1 – 0,5 – 1 – 1

Lidiy lad -----//----- - 1 – 1 – 1 – 0,5 – 1 – 1 – 0,5

Mixolidiy lad ---//-- - 1 – 1 – 0,5 – 1 – 1 – 0,5 – 1

Eoliy lad -----//----- - 1 – 0,5 – 1 – 1 – 0,5 – 1 – 1

Lokriy lad ---- // ----- - 0,5 – 1 – 1 – 0,5 – 1 – 1 – 1

Ionyi ladning strukturasi tabiiy major strukturasiga, eoliy lad esa tabiiy minor strukturasiga o‘xshaydi. Lekin, ularni farqlaydigan muhim narsa shundaki, ushbu ladlar pog‘onalarining o‘zaro aloqalari va tonikaga nisbatan munosabatlari turlicha namoyon bo‘ladi.

Tabiiy ladlar ohangi bo‘yicha majorli va minorli ladlarga ajratiladi. Ulardan uchtasi major va to‘rtasi minorli ohangga ega.

105

ioniy      eoliy

lidiy kvarta      doriy seksta

miksolidiy septima      frigiy sekunda

II      V

IV      VI

VII

Majorli tabiiy ladlar bitta tonikadan tuzilsa, ular bir birdan bittagina o‘zgargan pog‘onasi bilan farq qiladi: *lidiy lad* ioniy laddan *ko ‘tarilgan IV- pog‘onasi bilan, miksolidiy lad pasaytirilgan VII- pog‘onasi bilan* ajralib turadi.

Minorli tabiiy ladlar ham huddi shunday alomatga bo‘ysunadi: *doriy lad* eoliy laddan *ko‘tarilgan VI-* *pog‘onasi bilan*, *frigiy lad – pasytirilgan pog‘onasi bilan* farqlanadi. *Lokriy lad pasytirilgan II-* va *V-pog‘onalari bilan ajralib turadi*.

**107**

107

**Kaimqulbegi**

**Vokal pyesä "Kaimqulbegi"**

**120**

(E) men se - ni xo'b bi - - la-man,  
ko'ng - ling men - ga mo - yil e - mas  
(miksolidär länd)

109

*O'zbek xalq qo'shig'i "Gul uzay"*

*L=120-132*

Gul u - zay o'y - moq, o'y - moq.

Yosh - lik dan' - ri - miz, quy - moq.

Qan-day shi - rin shod - lik bu shod - lik bu - (yu)

Man - kin e - mas - dir woy - moq

(frigiy lad)

110

*O'zbek xalq qo'shig'i "Astagine"*

Jo - non - ga bor - dim shul ke - cha, bir - bir bo - sib as -

ta - gi - na, Jo - non yo - tur noz uy - qi - da, Sol -

dim qo' - lim as - ta - gi-na, Sol - dim qo' - lim as - ta - gi-na.

(lokriy lad)

## 2-§. Pentatonika.

Pentatonika musiqa tarixida ilk lad tizimlaridan biri bo'lib, dunyo bo'yicha keng tarqalgan. Pentatonika jaxonning turli-tuman xalqlar musikasi zamini sifatida hamongacha xizmat qilib kelmoqta. Xitoy, Vietnam, Shotlandiya, Rossiya'ning Povolje, Tatarstan, Bashqortostan, shimoliy Amerika va Afrika kuylari pentatonika ladlariga asoslangan. Bundan tashqari bu kompozitorlik ijodida ham ahamiyatli o'rinda turadi.

**Pentatonika** – pog'onalarini kvinta bo'yicha joylashishi mumkin besh pog'onali tizimdir.

111



Uning ladrari quyidagi talablarga javob beradi:

- Oktavalik tamoyili (diatonika bilan umumiyydir);

- Oktava hajmida beshta pog‘ona mavjudligi;
- Qo‘shni pog‘onalar oralig‘i bir ton va bir yarim tonga teng kelishi, tovushqatori 3 ta butun ton va 2 ta bir yarim tonlikdan iborat bo‘lishi;
- Bir yarim tonliklar o‘rtasida kvarta yoki kvinta intrvali bo‘lishi shart. Pentatonikaning beshta turidan major va minor ohangiga egalar amaliyotda ko‘proq tatbiq etiladi.

112

1                    2                    3  
I II III IV V      I II III IV V      I II III IV V  
4                    5  
I II III IV V      I II III IV V

Pentatonika birinchi turining strukturasi – 1 – 1 – 1,5 – 1 – 1,5 (majorli)

ikkinchini turining -----// ----- 1 – 1,5 – 1 – 1,5 – 1

uchinchini -----// ----- -----// ----- 1,5 – 1 – 1,5 – 1 – 1

to‘rtinchini -----//----- -----//----- 1 – 1,5 – 1 – 1 – 1,5

beshinchini -----//----- -----//----- 1,5 – 1 – 1 – 1,5 – 1 (minorli)

Majorli va minorli pentatonikaning birinchi pog‘onasida tabiiy major va minor tonikasiga muvofiq uchtovushliklar tuzilishi mumkin, lekin ularni majorli pentatonikada I-, III-, IV- pog‘onalar, minorli pentatonikada I-, II-, IV- pog‘onalar tashkil etadi.

113

*dur*

I III IV T V

*moll*

I II V t


### 3-§. Ikkilanma garmonik major va minor

Dunyoda keng tarqalgan xalq ladlari orasida yana bir o‘ziga xos lad mavjud. U tovushqatorining tetraxordlari tuzilishida *orttirilgan sekundasi* borligi uchun

*gemiolika*<sup>32</sup> deb ataladigan strukturaga tegishlidir. Bu xildagi lad vengr xalq musiqasiga hos bo‘lib, uni «*vengrcha gamma*» yoki *ikkilanma garmonik minor* ladi deb ataydi. Unga yaqin bo‘lgan, qardosh ladlar azarbayjon, arman, arab va boshqa sharq xalqlari musikasida uchraydi.

Minor ohangdagi «*Vengrcha lad*» ham oktava hajmidagi yetti

114



pog‘onali tovushqatorga ega. Ushbu ladda tabiiy minorga qaraganda **IV-** va **VII-** pog‘onalari xromatik yarim tonga ko‘tariladi. «*Vengrcha lad*» ikkita orttirilgan sekundaga egadir.

Minorning garmonik turi *major-minor ladlar garmonik tizimiga* tegishlidir. Va shu tizimning qoidalaridan kelib chiqib, garmonik minorda yozilgan asarlar kuy yo‘lida orttirilgan sekundaga harakat man etilardi. Chunki, ladning VII- pog‘onasi I-pog‘onaga, VI- pog‘onasi V- pog‘onaga yechilishi shartli talab edi.

«*Vengrcha lad*» va undan hosil qilingan *majorli turi* (**II-** va **VI-** pog‘onalari pasaytirilgan holda keladi), yevropa va rus kompozitorlari sharqiy obrazlarni tasvirlashda ushbu ladlardan foydalanganligi tufayli, musiqa nazariyasida *ikkilanma*

115



*garmonik major va minor* deb ataladigan bo‘ldi.

#### 4-§. Sun’iy ladlar

Bir tekis temperatsiyalangan soz ilgari na xalq musiqasida, na kompozitorlar ijodida uchramagan yangi lad tizimlari paydo bo‘lishiga imkoniyat yaratdi. Ba’zi

<sup>32</sup> Gemiolika – (grekcha η μιόλιος) - bir yarimli.

o‘ziga xos badiiy masalalrn xal qilish uchun maxsus ladlar o‘ylab chikarilgan edi. Ularga *sun’iy ladlar* deyiladi.

Sun’iy lad tuzish umumiy tamoyili oktava hajmidagi 12 pog‘onali tovushqatorni 2 ta, 3 ta, 4 ta, 6 ta teng qismga bo‘lishga asoslangan. So‘ng har bir qismdan saralab olingan muayyan tovushlar bitta tovushqatorga yig‘iladi. Masalan, 12 pog‘onali tovushqator 6 ta teng qismga bo‘lindi. Har bir qismdan pastki tovush ajratib olindi. Hosil bo‘lgan tovushqator butun tonlardan iborat bo‘lganligi uchun ***butun tonli gamma*** deb nomlangan.

115

Ushbu gammani M.I.Glinka «Ruslan va Lyudmila» operasida pakana Chernomor obrazini yaratish uchun birinchi bo‘lib ishlab chiqargan. Keyinroq butun tonli gamma P.I.Chaykovskiy («Piki xonumi» operadagi grafinya sharpasi), N.A.Rimskiy-Korsakov («Qor qiz» operadagi Leshiy obrazi, «Sadko» operasi), A.Dargomo‘jskiy («Tosh mehmon» operasi) tomonidan qullanilgan.

N.A.Rimskiy-Korsakov yoqtirgan dengiz manzaralarini tasvirlashda ko‘pincha ***kamaytirilgan gammadan*** foydalangan. Bu gamma quyidagicha hosil qilingan: 12 pog‘onali tovushqator 4 ta teng qismga bo‘lingandan so‘ng, har bir qismning birinchi va uchinchi tovushi saralab olindi. Natijada ton-yarim tonli gamma hosil qilindi.

116

Fransuz kompozitor Olive Messian yana bir necha shunday «lad»lar nazariy jihatdan ishlab chiqargan va o‘z kompozitorlik amaliyotida ulardan keng foydalangan.

**Asosiy tushunchalar:** *diatonika va pentatonika, ioniy, doriy, frigiy, lidiy, miksolidiy, eoliy, lokriy ladlar, «vengrcha gamma», ikkilanma garmonik major va minor ladlar, sun’iy ladlar.*

**Nazorat savollari va topshiriqlar:**

1. Diatonika va pentatonika ladlari qaysi talablarga javob berishi kerak?
2. Tabiiy ladlar har birining tuzilishi (strukturasi)ni aytib, turli tovushlardan tuzib chaling.
3. Major va minorli pentatonika ladlari tuzilishini aytib, turli tovushlardan tuzib chaling.
4. Har xil tovushlardan ikkilanma garmonik major va minor gammalarini tuzib chaling.
5. Musiqiy adabiyotda xalq musiqasi ladlaridan foydalanilgan misollar topib ko‘rsating.
6. Taklif etilgan kuyni har xil ladlarda chalib ko‘ring.
7. Har xil ladlarda bir necha qisqa kuy badiha (improvizatsiya) qilib chalib ko‘ring.

## **16- mavzu. XROMATIZM. MODULYATSIYA.**

### **1-§. Alteratsiya va xromatizm.**

*Alter* – boshqa, ikkitadan biri. *Alteratsiya* keng ma’noda tovushqatorning asosiy pog‘onalar balandligini har qanday o‘zgartirilishi – yarim ton yoki bir tonga ko‘tarilishi yohud pasayishiga aytildi.

Alteratsiya tushunchasini o‘ziga xos ma’noda *lad alteratsiyasi* (yoki *laddagi alteratsiya*) va *modulyatsion alteratsiya* haqida gap ketayotganda qo‘llaniladi. *Lad alteratsiyasi* laddagi noturg‘un pog‘onalarning o‘zgartirilishiga deyiladi. Alteratsiya noturg‘un pog‘onalarning lad funksiyasini o‘zgartirmay, turg‘un (I-, III-, V-) pog‘onalar tomon yarim tonga “yaqinlashib”, ularga nisbatan tortilishni yanada kuchaytiradi va so‘ngra albatta tonika tovushlariga yechiladi.

Har holda lad alteratsiyasi noturg‘un pog‘onaning yana bitta balandligini qo‘llab, ladning tovushqatorini emas, tovushli tarkibini kengaytiradi.

Lad alteatsiyasi natijasida major va minor ladlarda bir qator xromatik intervallar hosil bo‘ldi. Ulardan ko‘proq uchraydigan kamaytirilgan tersiya va orttirilgan sekstalar. Kamaytirilgan tersiyalar ichkari tomon bitta turg‘un pog‘onaga – unisonga, orttirilgan sekstalar esa tashqari tomon oktavaga yechiladi. Turg‘un pog‘onagalar soniga qarab, ladda uchta kamaytirilgan tersiya va uchta orttirilgan seksta hosil bo‘ladi.

**Modulyatsion alteratsiyada** ladning har bir pog‘ona balandligi o‘zgartirilishi mumkin. Alteratsiyalangan pog‘ona qo‘shni pog‘onasi ahamiyatini o‘zgartiradigan yetakchi tovush funksiyasini bajarib, unga nisbatan yangi tortilishni vujudga keltiradi. Alteratsiyalangan tovushni o‘ziga tortib turuvchi lad pog‘onasi esa vaqtincha turg‘unlik, ya’ni vaqtinchalik tonika vazifasini ijo etib, yangi tonallikka o‘tib ketilganlik hissiyotini barpo etadi. Ammo, u asosiy tonikaga boysunib qoladi.

*Xroma* – rang, bo‘yoq. Diatonik ladlarning istalgan asosiy pog‘onalarini yarim tonga ko‘tarish yoki pasaytirish yo‘li bilan o‘zgartirilishi **xromatizm** deyiladi. Mana shu xilda hosil bo‘lgan yangi xromatik pog‘ona hosila pog‘ona bo‘ladi. Xromatik tovushlar diatonik ladga qo‘shimcha begona tovush sifatida kiritiladiyu, ammo laddagi mustaqil funksiyaga ega bo‘lmaydi: *ular lad asosiy pog‘onalarining variantlari o‘rnida mayjuddir.*

Xromatik tovushlar o‘tkinchi yoki yordamchi tovushlar sifatida oshiriladi. *Xromatik o‘tkinchi tovush* ikkita asosiy pog‘onaning bir tonli orasini to‘ldiruvchi tovushdir. *Xromatik yordamchi tovush* birorta asosiy pog‘ona va unung takrori o‘rtasida paydo bo‘ladigan hosila pog‘onaga deyiladi.

## 2- §. Modulyatsiya. Tonalliklar qardoshligi.

Musiqiy asar qismining biror yangi tonallikka o‘tishi va shu tonallik bilan tugallanishi hollari **modulyatsiya** deyiladi. Ko‘p hollarda modulyatsiya musiqiy tuzilmaning ohirida yuz beradi va albatta u tasodifiy alteatsiya belgilari paydo bo‘lishi bilan hamroh bo‘ladi. Buning sababi, yangi tonallik o‘zining kalit belgilari (tovushqatori) orqali mustahkamlanadi.

Modulyatsiya musiqada juda keng qo'llaniladi. U ifoda vositasi sifatida chuqur badiiy ahamiyatga ega bo'ladi va musiqaning rang-barang ohanglarda eshitilishiga hamkorlik qiladi.

Musiqiy asar davomida biror yangi tonallikka qisqa muddatga o'tish va yana dastlabki tonallikka qaytish jarayoni **og'ishma** deyiladi.

Og'ishmalar odatda o'tkinchi xarakterga ega bo'ladi, ular musiqa tarkibida uchraydigan ayrimakkordlar funktsiyasini qisqa muddat ichida ajratib ko'rsatish vositasi hisoblanadi.

Hamma major va minor tonalliklar qardosh tonalliklar guruhlariga ajratiladi. Musiqiy asarning dastlabki tonalligi uning bosh, **asosiy tonalligidir**. Musiqaning rivojlanish jarayonida paydo bo'lgan tonalliklar esa **yondosh tonalliklar** deyiladi.

Agar asosiy tonallikning tabiiy va garmonik turlari pog'onalarida tuzilgan major va minorli uchtovushliklar yondosh tonalliklarning tonikalari bo'lib olinsa, shu holda bu tonalliklarning hammasi *diatonik qardosh tonalliklar guruhi*, ya'ni *tonalliklar qardoshligi birinchi darajasini* tashkil qiladi. Ushbu guruhga bitta kalit belgisi bilan farq qiladigan *beshta tonallik* va *bitta* ladning garmonik subdominantasi (majorda) yoki garmonik dominantasi (minorda) tonalligi kiradi. Maslan, *Sol-major* (G-dur) ga nisbatan diatonik pog'onadosh tonalliklar quyidagilar:

II- pog'ona, lya-minor – subdominanta tonalliginining parallel tonalligi

III- pog'ona, si-minor – dominanta tonalliginining parallel tonalligi

IV- pog'ona, Do-major – subdominanta tonalligi

V- pog'ona, Re-major – dominanta tonalligi

VI- pog'ona, mi-minor – o'zining parallel tonalligi

IV- pog'ona, do-minor – minorli subdominanta tonalligi

Majorning VII- pog'onasida va minorda II- pog'onasida hosil bo'lgan kamaytirilgan uchtovushliklar tonika sifatida qabul qilinmaydi.

Dominanta va uning parallel tonalligiga qilingan modulyatsiyalarni juda ko'p uchratish mumkin. Subdominanta va uning parallel tonalliklariga qilingan modulyatsiya, odatda, og'ishmaga o'xshagan bo'ladi.

Tonalliklar qardoshligi ikkinchi darjası ikkita kalit belgisiga, uchinchi darjası – uchta-beshta belgiga va to‘rtinchi darjası – olti-yetti belgiga farq qiladigan tonalliklarni qamrab oladi.

### 3- §. Xromatik gamma.

Xromatik gamma birin-ketin keladigan yarim tonliklardan tarkib topadi. Xromatik gamma mustaqil ladni hosil qila olmaydi. Uning negizi major yoki minor gammasi hisoblanadi. Xromatik gamma bularning murakkab xilidir. U tabiiy major yoki minor gammasidagi bir tonlik oraliqlarni xromatik tovushlar yordami bilan to‘ldirishidan hosil bo‘ladi.

Xromatik gammaning yozilish qoidasi tonalliklar *diatonik qardoshligiga* asoslangan. Bu degani, gammada xromatik tovushlar birinchi darajali qardosh tonalliklar guruhidagi tonalliklar tovushqatoriga taallukli bo‘lishi lozim.

Majorda bu qoidalar quyidagi tartibda amalgalashiriladi: gammaning barcha asosiy pog‘onalari o‘zgarmas holda yozilgandan so‘ng, uning katta sekundalari yuqoriga tomon I-, II-, IV- va V- pog‘onalarni yarim tonga ko‘tarih hamda VII- pog‘onaning yarim tonga pasaytirish yo‘li bilan to‘ldiriladi. Shunday qilib, beshta asosiy pog‘ona ikkita notadan, yani o‘zi va yoniga xromatik tarzda yoziladi, III- va VI- pog‘onalar esa bir martadan. Pastga tomon xarakat qilinganda, katta sekundalar VII-, VI-, III- va II- pog‘onalar yarim tonga pasaytirish va IV- pog‘onaning ko‘tarih yoli bilan to‘ldiriladi. I- va V- pog‘onalar bir martadan yoziladi.

117

C-dur

The musical notation consists of two staves. The top staff starts with a treble clef, a C-dur key signature, and a common time signature. It contains seven notes: a half note on the first line (I), a quarter note on the second space (II), a half note on the third line (III), a quarter note on the fourth space (IV), a half note on the fifth line (V), a quarter note on the sixth space (VI), a half note on the seventh line (VII), and a quarter note on the eighth space (I). The bottom staff also starts with a treble clef and a C-dur key signature. It contains seven notes: a quarter note on the first line (I), a half note on the second space (VII), a quarter note on the third line (VI), a half note on the fourth space (V), a half note on the fifth line (IV), a quarter note on the sixth space (III), a half note on the seventh line (II), and a quarter note on the eighth space (I).

Minor xromatik gammasining yuqoriga tomon harakatini yozish qoidasi parallel majorga o‘xshatib bajariladi. Shuni ham esda saqlash kerakki, minorning III- pog‘onasi unga parallel bo‘lgan majorda I- pog‘ona bo‘ladi. Shuning uchun minor xromatik gammasi III- pog‘onasidan boshlab, huddi major xromatik gammasi tuzilgandek yoziladi . Pastga tomon harakat vaqtida, minor xromatik gammasi nomdosh major gammasi singari yoziladi.

**Asosiy tushunchalar:** *xromatizm, alteratsiya, modulyatsiya, og‘ishma, diatonik qardosh tonalliklar, xromatik gamma.*

### **Nazorat savollari va topshiriqlar:**

1. Asosiy tushunchalarni ta’riflang.
2. Birorta tonallikka diatonik qardosh tonalliklar topib yozing.

118

a-moll

3. Qo‘llaniladigan barcha tonalliklarda major va minor xromatik gammalarni pastga va yuqoriga tomon yozing.
4. Xromatik harakatlardan foydalanib, 1-2 ta modulyatsiyali kuy bastalab yozing.

## **17- mavzu. MUSIQIY SINTAKSIS**

### **1-§. Musiqa asarida kuyning ahamiyati**

Tovushlarning bir ovozli shaklda ma’lum lad va metr hamda ritm jihatdan uyushib kelishiga **kuy** deyiladi.

Musiqiy mazmun jo‘rsiz, yakka kuy orqali ham ifodalanishi mumkin. Bir ovozli musiqa asarlari so‘z matni bilan (qo‘sish) va matnsiz (cholg‘u kuylari) holida bo‘lishi mumkin. Matnli kuy mazmuni ancha yorqin va tushunarli bo‘ladi. Bunga xalq qo‘sishlari va raqslari misol bo‘la oladi. Ularning mazmuni xilma-xildir.

Bunday asarlarda xalqning boshdan kechirganlari va orzu-niyatlari, hayoti, kishining ma’naviy dunyosi aks ettirilgan.

Xalq musiqasi ijodida ikki ovozli va ko‘p ovozli asarlar ham uchraydi. Lekin bunday asarlarda nechta ovoz (qo‘sishimcha ovoz) bo‘lishidan qat’inazar, asosiy kuy yo‘nalmasi barcha tovushlarning qo‘silib eshitilishidan ajralib turadi.

Turli xil millatlar xalq qo‘sishilarida kuyning ttuzilishi ularning xilma-xil mazmuniga nihoyat mosdir. Ular hamda raqs kuylari o‘zlariga xos kuy tuzilmalariga ega bo‘lishi bilan bir-biridan farq qiladi. Boshqacha qilib aytganda, har bir xalq qo‘sishiga o‘ziga xos milliy kolorit bo‘ladi.

## 2-§. Kuy harakati.

Kuy harakati o‘zining rivojlanish jarayonida xilma-xil shakllarga kiradi. Kuy harakatining shakli turli yo‘nalmalardan tashkil topadi. Ulardan eng asosiyлари:

- a) *ko‘tarilib boruvchi* harakat;
- b) *quyilashib boruvchi* harakat;
- c) kotariluvchi va quyilashuvchi harakatning bir tekisda almashib turishidan hosil bo‘ladigan *to‘lqinsimon* harakat;
- d) tovushning takrorlanishidan hosil bo‘ladigan *horizontal* harakat.

Kuy harakati pog‘onama-pog‘ona, intervalma-interval (sakrama) yoki aralash bo‘lishi mumkin.

Kuyning rivojlanishi o‘xshashlik va o‘xshamaslik (kontrast) tamoyilarga asoslanadi. O‘xshashlik ostida aniq yoki o‘zgartirilgan takror nazarda tutiladi.

Variatsion takror kuya uncha ahamiyatli bo‘lmagan, asosan “bezaklashtiruvchi” o‘zgarishlarni olib kiradi.

F.Shopen. Nokturn (op. 32, № 1)

Andante sostenuto

119

Variantli takror kuyning tashqi ko‘rinishini saqlab turib, unga sifatli o‘zgarishlar bag‘ishlaydi.

«Сказали, не придет», *rus falq qo'shig'i*

Sekventsiya – kuy harakati va ritm shakli saqlab qolingan holda biror melodik davraning boshqa balandlik (tovush)dagi takroriga aytildi.

Allegretto

*N.Myaskovskiy. "Qadimgi uslubda"  
(fuga) op.43, № 2*

O‘xshamaslik (kontrast) tamoyili har xil materialga ega bo‘lgan tuzilmalarning qo‘shilishida ko‘rinadi.

Kuy rivojlanib o‘zining eng yuqori nuqtasiga – ***kulminatsiya***<sup>33</sup> siga ko‘tariladi. Kulminatsiya, ya’ni kuyning emostional keskinlik payti, asta-sekin ko‘tarilish yo‘li bilan tayyorlanishi yoki keng intervalga sakrab chiqish orqali amalga oshirilishi mumkin. Kulminatsion tovush kuyning eng baland tovushlaridan biri bo‘lib, ko‘pincha kuchli hissaga to‘g‘ri keladigan nisbatan katta cho‘zimli tovush bilan ifadalanadi. Kulminatsiyadan so‘ng emostional keskinlik darajasi pasayib, tez orada kuyning yakuniga olib keladi. Shuning uchun, kulminatsiya asosan kuyning oxiriga yaqin joyda sodir bo‘ladi.

Ko‘p hollarda kuy eng baland tovushidan boshlanib, song quyilashuvchi harakat bilan rivojlanadi. Bunday baland boshlang‘ich tovush *choqqi-manba* degan nom oldi.

### 3-§. Kuyning tarkiblarga bo‘linishi.

Kuy nutq kabi tinimsiz davom etavermay, tarkiblarga bo‘linadi. Kuy yoki musiqiy asarning tarkiblari ***tuzilma*** deyiladi; ularning cho‘zimi ham turlicha bo‘ladi. Tuzilmalar chegarasi oralig‘iga ***sezura*** deyiladi. Tsezura “V” belgisi bilan yoziladi. Bu belgi, odatda, darsliklarda qo‘llaniladi.

<sup>33</sup> *Kulminatsiya* – (lotincha *kulmen* – choqqi) – musiqa rivojlanishida eng yuqorigi nuqta.

Tuzilmalar musiqiy fikrning tugallanish darajasi bilan bir-biridan farq qiladi. Tugallangan musiqiy fikrni ifodalovchi musiqiy tuzilmaga ***davriya*** deyiladi. Oddiy davriya sakkiz yoki o'n oltita taktdan iborat bo'ladi.

Davriya ikki qismga bo'linadi, ular ***jumla*** deyiladi Musiqiy tuzilmaning tugallanishiga, ya'ni yakunlovchi qismi ***kadentsiya*** deyiladi. Kadensiyalar davriyada joylanishi bo'yicha ***o'rtaliq*** – birinchi jumlaning oxiri, va ***xotima*** – davriyaning yakunidagi ***kadensiyalarga*** ajratiladi.

Kuyda kadentsiya ikki va undan ortiq tovushlarning birin-ketin tugallanishi bilan ifodalanadi. Bu tovushlar tuzilmani turg'un yoki noturg'un holda tugallanishga olib keladi. Shuning uchun kadentsiya funksiya jihatidan quyidagi ko'rinishlarda uchraydi:

1) ***Mukammal*** (*to 'liq o 'rnashgan*) ***kadentsiya*** — kuyda tonika uchtovushligining prima tovushi bilan tugaydi (kuyning garmonik jo'rлигida yakunlovchiakkord – Tonika uchtovushligi).

2) ***Nomukammal*** (*to 'liq o 'rnashmagan*) ***kadentsiya*** — tonika uchtovushligining tertsiya yoki kvinta tovushi bilan tugaydi (kuyning garmonik jo'rлигida yakunlovchiakkord – Tonika uchtovushligi yoki sekstakkordi).

3) ***Yarim kadentsiya*** — noturg'un tovush bilan tugaydi. Bundan tashqari, dominanta uchtovushligi yoki dominantseptakkordning primasi bo'lgan V- pog'ona bilan ham tugashi mumkin (kuyning garmonik jo'rлигida yakunlovchiakkord – dominanta yoki subdominantaakkordlari).

Davriyaning birinchi jumlesi yarim kadentsiya yoki nomukammal kadentsiya bilan tugallanadi va u tugallanmagan asar taassurotini qoldiradi. Davriyaning ikkinchi jumlesi esa doim mukammal kadentsiya bilan tugaydi.

Agar davriya o'zining dastlabki tonalligi bilan tugasa, unga ***bir tonalli davriya*** deyiladi. Davriyaning tugallanish vaqtida modulyatsiya hosil bo'lsa, ***modulyatsiyali davriya*** deyiladi.

Jumla ***ibora*** deb ataladigan ikkita kichik tuzilmaga bo'linadi. Musiqada shunday jumlalar uchraydiki, ularda iboralar tsezura bilan ajralgan bo'ladi, yana boshqa jumlalar uchraydiki, ularda iboralar butun bir kuyaqlanib ketadi.

Ikki taktli ibora bir butun tuzilmadan iborat bo‘ladi yoki bir taktli motivlarga ajrab ketadi. Bitta asosiy metrik zARBni o‘z ichiga olgan tuzilma ***motiv*** deyiladi. Motivning kuchsiz davri bir yoki bir necha tovushlar bilan ifodalanishi mumkin. Motivning boshlanishi yoki tugallanishi birligina takt chegaralarida bo‘lishi shart emas, u takt oldidan boshlanishi va navbatdagi taktning yarmida tugallanishi ham mumkin. Bir taktdan kichik bo‘lgan motivlar ham uchraydi.

#### **4-§. Transpozitsiya usullari**

Kompozitor musiqiy asar yaratmoqchi bo‘lar ekan, bu asar mazmuniga mos keladigan tonallikni tanlaydi. Lekin shu bilan birga, barcha musiqiy asarlarni dastlabki tonalligidan pastga yoki yuqoriga qarab istagan biror tonallikka kuchirish mumkin.

Musiqiy asar yoki kuyning biror tonallikdan boshqa bir tonallikka ko‘chirilishi ***transpozitsiya*** deyiladi.

Transpozitsiya vokal ijrochiligidan juda keng qo‘llaniladi. Ashulachilar asarlarni ovozlari diapazoniga qulay keladigan tonallikka ko‘chirib ijro etadilar. Ma’lumki, bitta qo‘sish yoki romans ovoz diapazonlariga moslanib hilma-xil tonalliklarda nashr qilinadi.

Transpozitsiya biror musiqiy asarning asl ko‘rinishidan boshqa bir asbobga, masalan, skripka uchun yozilgan pyesani alt yoki violonchelga moslab qaytadan yozishda ham qo‘llaniladi.

Transpozitsiya *uch usul*:

- 1) muayyan intervalga ko‘chirish;
- 2) kalit belgilarini o‘zgartirish
- 3) kalitning o‘zini o‘zgartirish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Biror intervalga transpozitsiya qilish lozim bo‘lganda, oldin transpozitsiya qilinadigan tonallik aniqlanadi. Masalan, *Re majordan* kichik tertsiya yuqoriga transpozitsiya qilsak, yangi tonallik *Fa major* bo‘ladi. Kalit yoniga *si-bemol* qo‘yiladi. Barcha notalar, original tonallikda qaysi pog‘ona vaakkordlarga mos kelishi oldindan aniqlanib, *Fa major* tonalligiga ko‘chiriladi.

*Ikkinchı usul* xromatik yarim ton yuqoriga yoki pastga qarab yarim tonga transpozitsiya qilishdan iborat. Bunday hollarda kalit yonidagi belgilar o‘zgaradi, notalar o‘z holicha qoladi, tasodifyi belgilar esa yangi kalit belgisining ko‘tarilishi yoki pasaytirilishiga qarab o‘zgarib turadi.

Masalan, Lya-bemol majordan *Lya majorga* transpozitsiya qilsak:

- a) kalit yonidagi to’rtta bemolni uchta diez belgisi bilan almashtiramiz;
- b) agar tasodifyi belgilar uchrasa, bekarlarni diezlar bilan, bemollarni esa bekarlar bilan almashtiramiz.

*Uchinchi usul* shundan iboratki, unda nota yo‘liga yangi kalit tanlanib, original tonallik tonikasi nota yo‘li qayeriga yozilgan bo‘lsa, yangi tonallik tonikasi ham o‘sha yerga yozilaveradi, ammo kalit yangilanadi. Bu usul yuqorida aytilgan ikki usulga nisbatan ancha kam qo‘llaniladi, chunki bunda notalarni barcha kalitlarda erkin o‘qiy olish malakasi talab qilinadi.

### **5-§. Tonalliklarni aniqlash**

*Kalit va tasodifyi alteratsiya belgilari*, kuyning tuzilishi, *uning tonikasi* (ko‘pincha kuyning oxirgi tovushi – I- pog‘onadir) va T uchtovushligini belgilovchi tayanch (kuchli hissadagi) tovushlar berilgan kuyning lad va tonalliklarini aniqlovchi asosiy vositalar hisoblanadi.

Kuyning so‘nggi tovushidan ham tonallikni aniqlash mumkin, lekin har doyim emas. Chunki, ba’zi asarlarda, ko‘proq xalq qo’shiqlarida kuy oxirida birinchi pog‘onadan tashqari boshqa pog‘onalar ham uchrab turadi.

Kuyning boshlang‘ich tovushi ham birinchi pog‘ona bo’lmasligi mumkin.

Agar kuy jo’r bo’luvchi ovozlarga ega bo‘lsa, uning ladi va tonalligini aniqlash yanada oson buladi. Buni aniqlashga jo’r bo’luvchiakkordlar katta yordam beradi. Oxirgiakkord ko‘pchilik hollarda tonika uchtovushlidan tuzilgan bo’ladi.

Ko’rsatilgan qoidalar xilma-xil uslubdagi musiqaga taalluqlidir.

**Asosiy tushunchalar:** *kuy, kuy harakatlari, sekventsiya, kulminatsiya, choqqi-manba, tuzilma , sezura, davriya , bir tonalli davriya, modulyatsiyali davriya, jumla, kadentsiya va uning turlari, ibora, motiv, transpozitsiya.*

**Nazorat savollari va topshiriqlar:**

1. Asosiy tushunchalarga ta’rif berib, musiqaiy adabiyotdan misol keltiring.
2. Qonun-qoidalarga asoslanib, davriya shaklida 1-2 ta kuy bastalab yozing.
3. Taklif etilgan kuylarni uch yo‘l bilan tanspozitsiya qiling.

## II QISM. GARMONIYA

### 1-mavzu. MUSIQIY ASAR RIVOJLANISHIDA GARMONIYANING AHAMIYATI.

#### 1-§. Garmoniya haqida tushuncha.

*Garmoniya* - yunoncha so‘z bo‘lib, “bog‘liqlik, muvofiqlik, mutanosiblik” degan ma’noni anglatadi.

Musiqada bir necha tovushlarning ohangdoshlikka birlashishi, ohangdoshliklarning mantiqiy bog‘lanib ketma-ket kelishiga *garmoniya deyiladi*.

Garmoniya musiqaning muhim badiiy-ifodaviy vositasi bo‘lib, *akkordlar haqidagi fandir*.

Garmoniyaning asosiy tushunchalari – *akkord, lad funksiyasi, ovoz yo‘nalishi* – butun kurs davomida ko‘rib chiqiladi.

Asrlar mobaynida ko‘p ovozli musiqada akkordning tersiyali tuzilishi ustunlik qilgan.

*Lad funksiyalari* akkordlar almashinuvdagи turg‘unlik bilan noturg‘unlikning o‘zaro munosabati yuzaga chiqadi. Turg‘unlik holatini tonika, noturg‘unlikning esa boshqa funksiyalar ifodalaydi.

Garmonik harakatda bir akkordning tovushlari keyingi akkord tovushlariga o‘tadi. Natijada akkord ovozlari, yani *ovoz yo‘nalishini* tashkil etadi. Ovoz yo‘nalishi muayyan qonuniyatlarga bo‘ysinib, musiqiy-ijodiy jarayoni qisman yangilanadi.

Musiqiy asarda garmoniya, kuy, metroritm, sur’at, faktura, dinamika bilan birgalikda bog‘lanib keladi. Musiqiy asar rivojlanishida garmoniya kuyni boyitadi. Musiqaning boshqa elementlariga hamohang kelib, garmoniya ularning yanada ta’sirli, maroqli bo‘lishiga xizmat qiladi. Fikrimizning isboti uchun kompozitor P.I.Chaykovskiyning “May” asarini tinglaymiz.

P.I.Chaykovskiy. “May”. Op.37.



Shu kuyni takroran garmonik jo'rlikda tinglab ko'rsak, biz garmoniya unga qanday "bo'yoqlar" bergenini, kuy nechog'liq boyiganini eshitamiz.

Чайковский, „Май“ оп. 37

**Andantino**



**Andante cantabile**

2

Garmoniya fan sifatida quyidagilarni o'rganadi:

- akkordlar va ularning tuzilishi, hamda to'rt ovozlik bayonida to'g'ri ifodalanishini;
- akkordlarning funksional bog'liqligi va ularning tez-tez uchrab turadigan ketma-ketligi;
- akkordlarning to'g'ri ovoz yo'nalishiga asoslangan bog'lanishlarini;
- turli turdag'i kadensiyalarni;
- akkordli va akkordsiz tovushlarni;
- asar rivojlanishida tonal rejasining asosiy qoidalarini.

## **2-§. Asosiy uchtovushliklar funksional tizimi.**

Lad – garmoniyaning asosi bo‘lib, tonika uchtovushligiga intilishi bilan birlashganakkordlarning o‘zaro munosabatlari tizimidir.

Laddagi biror tovush yokiakkordning ahamiyati **lad funksiyasi** deyiladi. Funksiyalar munosabatlariga xos keskinlik va sustliklar majmuasi **funktzionallik** deb ataladi. Uning asosi funksiyalarini, ayniqsa ladning tonikasi va tonika bo‘lmagan boshqa garmoniyalari o‘rtasidagi kontrastligidir.

Musiqiy tizimdaakkordlarning o‘zaro munosabatlari turlicha. Bunday o‘zaro munosabatlar tizimi **lad-garmonik tizim** deyiladi. Umum qo‘llanadigan major va minor ladlariga asoslangan lad-garmonik tizim **major-minor tizimi** deyiladi.

**Akkordlar funksiyasi.** Akkordning laddagi ahamiyati, garmonik rivojlanishdagi harakatiakkordning **garmonik funksiyasi** deb ataladi.

Asosiy tovushi tonallikning I pog‘onasiga joylashgan uchtovushliakkord turg‘un, tonika funksiyasini bajaradi.

Asosiy tovushi tonallikning IV pog‘onasiga joylashganakkord noturg‘un, subdominanta funksiyasini bajaradi.

Asosiy tovushi tonallikning V pog‘onasida joylashganakkord noturg‘un, dominanta funksiyasini bajaradi. Dominanta – eng noturg‘un funksiyadir.

Tabiiy majorda ushbu asosiy uchtovushliklar katta harflar, ya’ni T, S, D harflari bilan belgilanadi, tabiiy minorda kichik harflar t, s, d, garmonik minorda esa bu uchtovushliklar t, s, D harflari bilan belgilanadi.

Musiqada har qandayakkord o‘zidan oldin va keyin keladigan garmoniyalar bilan aloqasiz holda, shuningdek asar tonalligi va ladidan tashqari holatda alohida ko‘rib chiqilmaydi. Asar lad va tonalligidan kelib chiqibakkordning yangrash xarakteri, ya’ni funksiyasi o‘zgaradi. Masalan, major uchtovushligi (do- mi- sol) Do major tonalligida turg‘unakkord bo‘ladi. Chunki u tonallikning turg‘un pog‘onalaridan (I, III, V) tashkil topadi. Shuakkordning o‘zi Sol-major tonalligida IV pog‘ona uchtovushligi bo‘lib, uning tarkibiga ikkita noturg‘un IV, VI pog‘onalar kiradi. Fa major tonalligida buakkord V pog‘ona uchtovushligi bo‘lib, ladning eng noturg‘unakkordi hisoblanadi. Sababi unga tonallikning yetakchi VII va II pog‘onalr

kiradi. Demak, asarning lad va tonalligiga ko‘ra berilganakkord muayyan ohangga ega bo‘lib, aniq funksiyani bajaradi.

**Asosiy garmonik davralar.** Musiqiy asar garmoniyasi qator garmonik davralardan iborat. Bir necha davralarning o‘zaro bog‘liq ketma-ketligi garmonik izchillikni hosil qiladi. Oddiy ketma-ketliklar mantiqiy muvofiqligi shunga asoslanganki, tonika uchtovushligidan keyin bir yoki bir necha noturg‘un garmoniyalar kiritilib, ohangda keskinlik yaratiladi. So‘ngra tonikaning paydo bo‘lishi bilan tabiiy yechilish sodir bo‘ladi.

3

Garmonik davralar *avtentik, plagal va to‘liq davralarga* ajratiladi.

Plagal davralar tonika va subdominantaakkordlaridan tashkil topadi.

Avtentik davralar tonika va dominantaakkordlaridan tashkil topadi.

4

To‘liq davralar barcha funksiyalar: T - S – D – T ni o‘z ichiga oladi.

Plagal davralar: S - T , yarim plagal davralar: T – S.

Avtentik davralar: D –T, T- D- T, yarim avtentik davralar: T- D, S -D;

### 3-§. Major va minorning to‘liq funksional tizimi.

Funksional tizim butun muiqiy harakati mantig‘ida namoyon bo‘ladi. Garmonik harakat deganda mustaqil ohangdoshliklar izchiligi nazarda tutiladi. Garmonik harakat mantig‘i turg‘unlik va noturg‘unlik holatlarning almashinishiga asoslanadi. Turg‘unlik funksiyasini Tonika, noturg‘unlik funksiyasini boshqaakkordlar bajaradi.

Eng noturg‘unakkordlar qatorini ladning eng noturg‘un VII pog‘onasi kiradiganakkordlar tashkil qiladi. Bundayakkordlar D guruhiga taaluqli. VII pog‘onaakkordtarkibiga kirmaganakkordlarning noturg‘unligi kamroq bo‘lib, S guruhini tashkilqiladi.

Asosiy uchtovushliklar – T, S, D. Yondosh uchtovushliklar esa boshqapog‘onalarda tuziladi.

Asosiy uchtovushlik bilan ikkita umumiy tovushga ega bo‘lgan yondoshuchtovushliklar bitta funksionalakkordlar guruhini hosil qiladi. Har bir guruhdagi yondosh uchtovushliklar asosiy uchtovushlikdan tersiya yuqori va tersiyapastda joylashadi.

Bunday funksional guruh uchta - tonika, subdominanta, dominanta guruhlari.Uchta funksional guruhning markazida asosiy uchtovushlik turadi. Butun guruh shu asosiy uchtovushlik funksiyasi bo‘yicha nomlanadi.


<b>subdominanta guruhি</b>	<b>tonika guruhি</b>	<b>dominanta guruhি</b>
pog‘onalar II      V      VI	pog‘onalar VI      I      III	pog‘onalar III      V      VII
re-fa-lya, fa-lya-do, lya-do-mi	lya-do-mi, do-mi-sol, mi-sol-si	mi-sol-si, sol-si-re, si-re-fa

Minor ladiga majorli dominanta uchtovushligikiritilishi major va minor ladlarni yaqinlashtiradi.

Musiqa asarida umumiy garmonik xarakatning asosiy yo‘nalishi quyidagi formula bilan ifodalanadi:

T –S –D –T:

Bu formulaning istalgan funksiyasi guruhidagi yondoshakkordlarning birortasi bilan ham berilishi mumkin. Tabiiy major va tabiiy minorning barchaakkordlari to‘liq diatonik funksional tizimni vujudga keltiradi.



### Topshiriqlar.

1. F-dur, G-dur, B-dur, d-moll, e-moll tonalliklarda uch ovozli T, S, D uchtovushliklarini tuzing. Berilgan tonalliklarda o‘ng qo‘lda T, S, D

uchtovushliklarini, chap qo‘lda uchtovushlikning pastki tovushini fortepianoda baravar chaling.


## 2-mavzu. TO‘RT OVOZLIK TUZILMA

**1-§. Ladning asosiy uchtovushliklari** – tonika, subdominanta, dominanta uchta tovushdan iborat. Uch ovozli garmoniyani to‘rtovozlikda bayon etish uchun, bu garmoniyaning tovushlardan birini ikki marta olish, ya’ni juftlantirish lozim. Eshitilishda juftlantirish muhim rol o‘ynaydi. Asosiy uchtovushliklarda odatda asosiy (birinchi) tovush primasi juftlanadi. Shuningdek,akkord to‘liqsiz holda ham uchrab turadi. To‘liqsiz uchtovushliklarda kvinta tovushi tushirib qoldiriladi. Uning yo‘qligiakkord funksiyasi xarakteriga ta’sir qilmaydi. Biroqakkordning tersiya tovushi doimo saqlanib qolishi shart.

**2-§. To‘rtovozlik tuzilma.** Garmonik to‘rt ovozlik tuzilmasida ovozlar xordagi ovozlarga o‘xshab nomланади:

- yuqori ovoz – soprano, u kuy deb ham nomланади;
- pastroq ovoz – alt;
- undan pastroq ovoz – tenor;
- eng pastki ovoz – bas.

Ovozlar akkolada bilan birlashtirilgan ikkita notayolida yoziladi. Bas va tenor ovozлари bas kalitida, alt va soprano skripka kalitida yoziladi. To‘rtovozlik tuzilmada



bas va alt ovozларining nota tayoqchalari pastga, tenor va soprano ovozларining nota tayoqchalari esa yuqori tomonga qarab yoziladi.

### **3-§. Ovozlar yo‘nalishi.**

Akkordlar qo‘shilishining zamiri ovozlar yonalishidir. Bu yonalish ovozlarning birgalikdagi xilma-xil harakatlaridan kelib chiqadi. Har bir ayrim ovozning harakati **ravon** va **sakrama harakat** bo‘lishi mumkin. Ravon harakat prima, sekunda va tersiya oraligidagi harakat, sakrama harakat kvarta, kvinta, seksta, septima, oktava oraligidagi harakat bo‘ladi.

Ovoz yo‘nalishi **qarama-qarshi**, **qiya**, **to‘g‘ri** va **parallel** bo‘lishi mumkin. **To‘g‘ri harakat** – ovozlarning bir tomonga qilgan harakat. **Parallel harakat** – barcha ovozlar bir xil intervalga bir yo‘nalishda hapakat qiladi. **Qarama-qarshi harakat** – ovozlarning har xil tomonga qilgan harakat. **Qiya harakat** – ovozlardan bittasi o‘z ornida q‘oladi, boshqalari harakatlanadi.

### **4-§. Akkordlar tuzilishi.**

Asrlar davomidaakkordlarning klassik, qo‘shilishining qator qoidalari ishlab chiqarilgan. Ularga rioya qilgan holda chiroyli xor jaranglashishiga erishish mumkin.

Akkordlar tuzilishida quyidagilarga rioya qilinadi:

**1. Ovozlarda kesishuviga**, ya’ni basning tenordan yuqori bo‘lishi, tenorning altdan yuqori bo‘lishi, altning esa – sopranodan yuqori bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Ushbu misol noto‘g‘ri yozilgan, chunki alt ( kichik oktava “lya”) tenordan pastga tushib qolgan ( birinchi oktava “re”).



Musical staff with a treble clef, a key signature of one sharp, and three notes: an eighth note on the A line, a quarter note on the C line, and another eighth note on the A line.

Bu akkordning to‘g‘ri yozilishi:



Musical staff with a treble clef, a key signature of one sharp, and three notes: a quarter note on the A line, an eighth note on the C line, and another quarter note on the A line.

2.Uchta yuqori ovozlar oralig‘i oktavadan keng bo‘lmasligi lozim. Bas va tenor ovozlarning oralig‘i unisondan ikki oktavagacha bo‘lishi mumkin.

### **5-§. Akkordlar joylashuvi.**

T, S, D uchtovushliklarida akkorning basdagi asosiy tovushi juftlanadi.

The musical notation shows two staves: a treble staff and a bass staff. Above the staves, numbers 1 through 6 are placed, likely indicating different chords or measures. Below each note on both staves, there is a letter: 'T' for Treble (soprano/bass), 'S' for Soprano (soprano), and 'D' for Bass (bass). The notes are represented by vertical stems with small circles at the top, and the staff lines are horizontal lines with short vertical tick marks.

Misoldagi barcha akkordlarni tahlil qilamiz. Birinchi, ikkinchi va uchinchi akkordlardagi uchta yuqori ovozlarning orasi kvartadan keng emas, Bunday joylashuv **zich joylashuv** deyiladi.

4-,5- 6- akkordlarda uchta yuqori ovoz oralig‘i kvinta yoki seksta hosil qiladi. Bunday joylashuv **keng joylashuv** deyiladi.

Zich joylashgan akkordlarda soprano ovoziga uchtovushlikning tersiya, kvinta va prima tovushlari joylashgan. Keng joylashgan akkordlarda ham sopranoغا uchtovushlikning prima, tersiya, kvinta tovushlari yozildi.

Xulosa qilamiz: **uchtovushlik uchta kuy holatida (prima, tersiya, kvinta) hamda zich va keng joylashuvida kelishi mumkin.**

### **Savollar.**

1. To‘rtovozlik bayonida ovozlar kanday nomlanadi?
2. Ovozlarning kesishuvi nima?
3. Akkorddagи uchta yuqori ovoz qanday joylashishi kerak?
4. Bas va tenor qanday interval oralig‘ida bo‘lishi мумкин?

### **Topshiriqlar:**

1. G dur, B dur va e-moll, g-moll tonalliklarida T, S, D uchtovushliklarini zich va keng joylashuvda, barcha kuy holatlarida tuzing.

2. Fortepianoda G dur, B dur va e-moll, g-moll tonalliklarida T, S, D uchtovushliklarini zich joylashuvida, barcha melodik holatlarda chalib bering. Bas ovozi chap q o'lda, qolgan uch yuqori ovoz esa o'ng q o'lda baravar olinadi.

## **3-mavzu. ASOSIY UCHTOVUSHLIK LARNING QO'SHILISHI**

## **1-§. Uchtovushliklar nisbatlari.**

T-S, T-D akkordlari kvarta-kvinta nisbatida bo‘ladi, ular bitta umumiy tovushga ega: T-S davrasida ladning I pog‘onasi, T-D davrasida ladning V pog‘onasidir.

I-III, I-VI pog'onalar tersiya nisbatida bo'ladi, va ular ikkita umumiy tovushgiga ega.

S – D sekundali nisbatga ega, ularda umumiyl tovush yo‘q.

## **2-§. Kvarta-kvinta nisbatidagi uchtovushliklar qo'shilishi.**

T- S, T- D akkordlari ham garmonik, ham melodik tarzda qo'shilishi mumkin.

## *Garmonik qo‘shilishda:*

- 1) bas kvartaga yuqoriga yoki kvintaga pastga harakatlanadi;
  - 2) umumiy tovush o‘z o‘rnida qoladi;
  - 3) qolgan ikki ovozlari bitta pog‘onaga pastga (T-D) yoki yuqoriga (T-S) yo‘naladi.

**zich joylashuvi**                    **keng joylashuvi**

9

G dur

zich joylashuvi      keng joylashuvi

D dur

T-S, T-D akkordlarining ***melodik qo'shilishida***:

- 1) bas kvartaga yuqoriga yoki pastga yo'naladi;
- 2) yuqoridagi uch ovoz basga qarama-qarshi ravon harakat bilan yaqin tovushlarga o'tadi.

10

zich joylashuvi

keng joylashuvi

D dur

zich joylashuvi

keng joylashuvi

### 3-§. Sekunda nisbatidagi uchtovushliklar qo'shilishi.

S va D uchtovushliklari qo'shilishida bas septimaga pastga emas, balki sekundaga yuqoriga yuradi. Qolgan uch ovoz basga qarama-qarshi D ning eng yaqin tovushlariga harakat qiladi.

a moll

11

S D S D

### Savol va topshiriqlar.

- 1) Uchtovushliklarning qanday nisbatlarini bilasiz?
- 2) Tonika va subdominantaakkordlarida tonallikning qaysi pog‘onalarini umumiy?  
Tonika va dominantada-chi? Bu tovushlar har qaysiakkordda qanday  
tovush bo‘ladi?
- 3) T-D, T-Sakkordlarining garmonik qo‘shilishida ovozlarni yo‘naltirish  
qoidalari qanday?
- 4) T-D, T-Sakkordlarining melodik qo‘shilishida ovozlarni yo‘naltirish  
qoidalari qanday?
- 5) S – D q o‘shilishida ovozlarni yo‘naltirish qoidalari qanday?
- 6) 2 tagacha kalit belgisiga ega tonalliklarda quyidagiakkordlarning ketma  
ketligini chaling: T – S – D – T.
- 7) Berilgan namuna bo‘yicha 3 belgigacha tonalliklardaakkordalarni tuzib  
chaling:

zich joylashuvi

keng joylashuvi

12

S D S D S D S D S D

Barcha major va minor tonalliklarda T – D, T – S garmonik va melodik  
qo‘shilishini, S – D melodik qo‘shilishini yozing.

## **4-mavzu. KUYNI ASOSIY UCHTOVUSHLIKlar BILAN GARMONIYALASH.**

### **1-§. Umumiy ma'lumotlar.**

Berilgan kuyning o'zida uni garmoniyalashtirish imkoniyatining ko'p variantlari mujassamlashgan. Ammo, bu kuy har qanday akkordlar bilan garmoniyalashtirilsa bo'ladi, degani emas.

Kuyda ma'lum bir uslubiy belgilar mavjud bo'lib, ular ladtonallik, tarkibiy tuzilma, interval va ritmik xususiyatlarda ifodalanadi.

Garmoniya musiqada metr bilan uzviy bog'liqlik. Bu bir maromdag'i pulsatsiyada aksini topadi. Har taktning kuchli xissasi yangi garmoniya bilan ko'satiladi. Murakkab o'lchovli taktlarda nisbatan kuchli hissalarda ham garmoniyanig yangilanishi sodir bo'ladi. Garmonik pulsning tezlanishi ham mumkin. Bunda yangi akkord nafaqat kuchli va nisbatan kuchli hissalarda, balki kuchsiz hissalarda ham paydo bo'ladi.

### **2-§. Garmoniyalashtirish qoidalari.**

Kuyni garmoniyalashda quyidagi qoidalarga rioya qilish kerak:

1. Kuyni garmoniyalashdan oldin uni chalib ko'rish, tonalligini aniqlash, tuzilishini, ya'ni musiqiy davriyani tashkil qiluvchi jumlalar, motiv va iboralarni tahlil qilish lozim. Unda qaytariluvchi tuzilmalar uchrashish mumkin. Ba'zi hollarda bir xil tuzilmalar bir xil garmoniyalashtiriladi, boshqa hollarda boshlang'ich tuzilma murakkablashtiriladi. So'ng pog'ona holatidan kelib chiqqan holda akkordlar aniqlanadi va belgilanadi.

2. O'rta va past registrdagi kuyni zikh joylashuvda garmoniyalash ma'quldir. Keng joylashuv zaruriyati kuynining baland va nisbatan baland tovushlarini garmoniyalashtirishdan kelib chiqadi.

3. Akkordni kuchsiz hissadan kuchli hissaga ushlab turish yoki kuchsiz hissadan kuchli hissaga akkordni aynan qaytarish ma'qul emas, chunki bunda garmonik pulsatsiya maromi buziladi.

4. Odatda birinchiakkord, agar u kuchli hissaga kelsa, tonika uchtovushligi bo‘ladi. Ko‘pincha taktoldi tovushlari umuman garmoniyalashtirilmaydi yohud D yoki S bilan garmoniyalanadi. Oxirgiakkord tonika uchtovushligi bo‘lishi shart.

5. Kuydagitakrorlanganyokiuzoq davom etgan tovushni imkoniyat boricha har xil funksiyalar bilan garmoniyalash lozim.

6. Akkordlarnitanlashda va qo‘shilishda parallel kvinta, oktava va unisonlar bo‘lmasligiga e’tibor qaratish darkor.

7. T – S, T – D hoxlangan ketma-ketlikda qo‘llanishi mumkin, Sakkordi D dan oldin kelishi kerak, biroq shuakkordlarning teskari izchiligi man etiladi.

8. Bas ovozida ketma-ket keluvchi va bir tomonga harakat qiluvchi ikkita kvarta yoki kvintaga yo‘l qo‘ymaslik zarur.

### **3-§. Kuyni garmoniyalashtirish usullari.**

Tonalligi aniqlagandan so‘ng harbir tovushning qaysi uchtovushlikka kirishini ko‘rib chiqish lozim. Masalan, kuy Do major tonallikda yozilgan bo‘lsa, unda:

- I, III, V (do, mi, sol) pog‘onalarni tonika uchtovushligi bilan garmoniyalash mumkin;
- I, IV, VI (do, fa, lya) pog‘onalarni subdominanta uchtovushligi bilan garmoniyalash mumkin;
- II, V, VII (re, sol, si) pog‘onalarni dominanta uchtovushligi bilan garmoniyalash mumkin.

Ko‘rinib turibdiki, I pog‘ona tonika va subdominanta uchtovushligiga, V pog‘ona esa tonikaga va dominantaga tegishli.

Berilgan kuyni garmoniyalashning umumiy rejasi aniqlagandan so‘ng, turlicha talqin qilinishi mumkin bo‘lgan jihatlarga e’tibor qaratamiz. Har ikkitaakkordning to‘g‘ri qo‘shilishini kuzatib turish zarur. Birinchisini ikkinchisi bilan, ikkinchisini uchinchisi bilan va shukabi tartibda ohirgacha qo‘shilishlar kuzatib boriladi.

#### **4-§. Sopranoda tersiya sakramalari.**

Kvarta-kvinta nisbatidagi ikki uchtovushlikning (T-D, T-S) qo'shilishida sopranoda tersiya sakrashlari hosil bo'lishi mumkin, ya'ni birinchiakkord tersiyasi ikkinchiakkord tersiyasiga sakrash orqali o'tadi. Bunda garmonik qo'shilish ro'y beradi: umumiy tovush o'z o'rnida qoladi, yuqorilovchi sakramadaakkordning zinch joylashuvi keng joylashuviga o'tadi, pastlovchi sakramada keng joylashuvi zinchga o'tadi.

Sakramadan keyin odatda kuy teskari tomonga qarab harakatlanadi.

Minorda tonika tersiyasidan dominantatasiyasiga sakramasi faqatgina pastlovchi kamaytirilgan kvarta intervaliga qilinadi (do minorda – "mi bemol – si bekar").

Shuningdek, kvarta-kvinta nisbatidagi uchtovushliklar (T-D, T-S) qo'shilishida tenor va alt ovozlarida ham tersiya tonlarning sakramasi hosil bo'lishi mumkin.

#### **Topshiriqlar.**

13. Berilgan kuyni garmoniyalashtiring:

1



2



3



4



5



6



7



## **5-mavzu. AKKORDLARNING O'RIN ALMASHINUVI. BASNI GARMONIYALASH**

### **1-§. Akkordlarning o'rin almashinuvi turlari.**

Garmonik harakatlarni boyitish maqsadidaakkordlarning o'rin almashinuvini qo'llash mumkin.

O'rin almashuvi deb o'sha garmoniyaning kuy holati yoki joylashuvi, yoki ikkalovining ham bir paytda o'zgarishiga aytildi. O'rin almashuvi ovoz yo'nalishida sekstagacha bo'lgan sakramalarni qo'llash imkonini beradi.

Uchtovushliklar turli usullarda joy almashishi mumkin:

1. Kuy *tersiya* yoki *kvarta* intervaliga yonalsa,akkordlar qo'shilishida **to'g'ri harakat** qo'llanadi, unda uchta yuqori ovozlarakkordning eng yaqin tovushlariga o'tadi. Akkordlarning joylashuvi o'zgarmay, uning kuy holati o'zgaradi.

14

T T S S

2. Kuyning *tersiya* yoki *kvartaga* harakati ovozlarning **qarama-qarshi harakatini** ham vujudga keltiradi. Bunday holda ikkinchiakkordning joylashuvi va kuy holati o'zgaradi: alt o'z o'mida qoladi, tenor bilan soprano qarama-qarshi yo'naladi.

15

T T

3. Kuyning *kvinta* yoki *sekstaga* sakramasida **qiya harakat** qo'llanadi. Bunday holda tenor o'z o'mida qoladi, alt bilan soprano bir tomonga harakat qiladi.

16

*Tersiyaga* yuqoriga sakramada zich joylashuv keng joylashuvga o'tadi, va aksincha.

## 2-§. Basni garmoniyalash.

Basni garmoniyalashda kuyni garmoniyalashdagi qoidalar saqlanadi. Basni tovushlarining funksiyalarini aniqlash osondir.. Ammo soprano ovozda hissiyotli va chiroyli bir kuy bastalash ustida ishlashga to'g'ri keladi. Soprano ovozining bunday sifatlarga javob berishi uchun quyidagi shartlarni bajarish lozim:

1. Kuyning harakati to‘lqinsimon bo‘lishi lozim va u kuyning avjiga - eng baland tovushiga olib kelishi maqsadga muvofiq;
2. Kuyning ritmi bas ritmidan ajralib turishi istaladi;
3. Ma’lum bir tovushning qaytarilishi sharoitidaakkordning funksiyasi o‘zgarishi ma’qul;
4. Ahamiyatli kuyni yaratishda ko‘proqakkordlarning melodik bog‘lanishlaridan foydalanish samaralidir, shunda kuyning harakatchanligi ortadi.

- basning kvartaga harakatiakkordlarning ham garmonik, ham melodik bog‘lanishi mumkin ;
- basning kvintaga harakati esa faqat garmonik bog‘lanishni taqozo qiladi.

5. Shuningdek,akkordlarning o‘rin almashuvi (qachonki, bas qaytarilsa yoki uzunroq cho‘zimda kelgan bo‘lsa yoki oktavaga sakrasa ) - kuyning boyitilishi vositalaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.

### **Savollar.**

1. Basni garmoniyalash masalasini echishda kuyni qanday balandlikdagi tovushdan boshlash kerak?
2. Avj – kulminatsiya davriyaning qaerida ko‘proq uchraydi?
3. Bir yo‘nalishdagi qanday intervallarga yurishga yo‘l qo‘ymaslik lozim?

### **Topshiriqlar.**

Berilgan basni garmoniyalashtiring.

17



## **6-mavzu. DAVRIYA. JUMLA. KADENSIYALAR.**

### **KADANSKVARTSEKSTAKKORDI**

#### **1-§. Tuzilma qismlari.**

##### **Davriya.**

Davriya deb tugallangan musiqiy fikrni ifodalovchi shaklga aytildi. Davriya har qanday yirik musiqiy asar shklining tarkibiy qismidir (L.Betxoven. Sonata op.13 № 2, II qismning birinchi tuzilmasi 8 ta taktdan iborat takrorlanmaydigan tuzilmali davriya). Kichik ko‘lamli musiqiy asar davriya shaklida yozilgan bo‘lishi ham mumkin (F.Shopen. Prelyudiya № 7, A-dur).

Davriya odatda ikkita bir xil uzunlikka ega tuzilmalardan tarkib topadi. Ularga **jumla** deyiladi. Davriya kvadratli (jumlalari 4 ta taktdan tashkil qilgan) yoki nokvadratli tuzilishga ega bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga jumlalarga bo‘linmaydigan yagona tuzilmali davriyalar ham uchraydi.

O‘quv topshiriqlarda berilgan amaliy masalalar ko‘pincha tuzilishi kvadratli sakkiz taktdan iborat davriya shaklida keltiriladi.

##### **Kadensiyalar**

Odatda davriya jumlalari sezura (bir tuzilmaning oxiri va keyingi tuzilmaning boshlanishini ko‘rsatadigan payt) bilan chegaralanib, turli kadensiyalar bilan yakunlanadi.


**Kadensiya** deb alohida tuzilmalarni tugallaydigan garmonik davralarga aytildi.

Davriya o‘rnlashgan joyiga ko‘ra **o‘rta** va **xotima kadensiyalarga** ajratiladi. Birinchi jumlaning oxirida o‘rta kadensiya keladi. Odatda u noturg‘un bo‘lib, D yoki S akkordi bilan tugaydi. Ba’zilarda, o‘rta kadensiya nomukammal (tersiya yoki kvinta kuy holatidagi) T yoki T<sub>6</sub> bilan tugaydigan bo‘ladi.

Butun davriyani turg‘un xotima kadensiya yakunlaydi. Musiqiy fikrning to‘laqonli yakunini faqatgina kuchli hissaga keluvchi mukammal (prima kuy holatidagi)

tonika uchtovushligi bilan yakunlanadigan xotima kadensiya bildiradi. Masalan, Betxovenning op.2 №2 sonatasida II qismning birinch tuzilmasi 8 taktli davriyadir. Uning birinchi jumlesi noturg'un akkord - dominanta bilan tugagan. Ikkinci jumla esa – to'liq mukammal kadensiya bilan yakunlangan. Davriyaning xotima kadensiyasini  $SII_6$   $K^6_4$   $D_7$  T akkordlar tashkil qildi.


### KADENSIYA TURLARI



### 2-§. Kvartsekstakkordlar.

Kvartsekstakkord – uchtovushlikning ikkiichi aylanmasi. Tonika, subdominanta va dominanta kvartsekstakkordlari ( $T^6_4$ ,  $S^6_4$ ,  $D^6_4$ ) *o'tkinchi* yoki *yordamchi* sifatda qo'llanib, har doim kuchsiz metrik hissalarga to'g'ri keladi.

Har qanday kvartsekstakkordda kvinta tovushi bas ovoziga joylanadi va juftlanadi.



### Kadans kvartsekstakkordi.

Kadans kvartsekstakkordi polifunktionalli. Uni bas ovozida dominantaning asosiy tovushi va yuqori ovozlarda tonika tovushlari tashkil qiladi. Tonika tovushlari

huddi melodik to‘xtalma sifatida xizmat qilib, kelgusi dominanta tovushlariga o‘tadi. Shuning uchun, kadans kvartsekstakkordi undan keyin har doim keladigan dominantadan ko‘ra kuchliroq hissada joylashadi.

Kadans kvartsekstakkordining belgilanishi – K<sup>6</sup><sub>4</sub>. K<sup>6</sup><sub>4</sub> da bas tovushi, ya’ni *ladning V pog‘onasi juftlanadi*.

18

K 6<sub>4</sub>

Kadans kvartsekstakkordi faqat o‘rta va xotima kadensiyalarida paydo bo‘ladi. Oddiy taktlarda u kuchli hissaga, to‘rt va olti hissali murakkab taktlarda esa nisbatan kuchli hissalarda ham ishlataladi. Oddiy uch hissali taktda ikkinchi hissaga kelishi mumkin.

### 3-§. K<sup>6</sup><sub>4</sub> tayyorlanishi va yechilishi.

K<sup>6</sup><sub>4</sub> odatda subdominanta funksiyasi bilan tayyorlanib turadi. U tonika uchtovushligidan so‘ng ham kelishi mumkin. Bu ko‘proq o‘rta kadensiya uchun xosdir.

#### S ning K<sup>6</sup><sub>4</sub> bilan bog‘lanishida:

- bas sekundaga yuqoriga yo‘naladi;
- umumiyl tovush o‘z ornida qoladi;
- qolgan ikkita tovush sekundaga pastga tushadi.

19

S      K6<sub>4</sub>      D

O‘rta kadensiyada K<sup>6</sup><sub>4</sub> ning D ga o‘tishi ravon harakat bilan sodir bo‘ladi:

- ikkita umumiyl tovush o‘z o‘rnida qoladi;

- qolgan ikkita tovush pog‘onama-pog‘ona pastga tushadi.

Bunday bog‘lanish ko‘proq o‘rta kadensiya uchun xos.

Xotima kadensiyaga xos ovozlar yonalishi quyidagi misolda ko‘rsatilgan.

The musical example consists of two staves of music. The top staff starts with a bass note, followed by a half note, then a quarter note tied to another quarter note. This is followed by a half note, a quarter note, and another half note. The bottom staff starts with a bass note, followed by a half note, then a quarter note tied to another quarter note. This is followed by a half note, a quarter note, and another half note. Below each staff, the chords are labeled: S, K<sub>64</sub>, D, T, S, K<sub>64</sub>, D for the top staff, and T, S, K<sub>64</sub>, D, T for the bottom staff.

Keltirilgan misollarda K<sup>6</sup><sub>4</sub> bas ovozi o‘z o‘rnida qoladi, boshqa ovozlar ravon harakat bilan yuqoriga yo‘naladi.

Shu bilan birga xotima kadensiyalarda K<sup>6</sup><sub>4</sub> bilan D qoshilishida sakramalar ham qollaniladi.

### Savol va topshiriqlar.

1. Kadans kvartsekstakkordi qanday funksiyalarni o‘z ichiga oladi?
2. Kadans kvartsekstakkordning bas tovushi ladning qaysi pog‘onasi?
3. K<sup>6</sup><sub>4</sub> qandayakkordlar bilan tayyorlanadi?
4. K<sup>6</sup><sub>4</sub> qaysiakkordga yechiladi?
5. Bas va kuyni kadans kvartsekstakkordini qollab garmoniyalashtiring.





## **7-mavzu. ASOSIY UCHTOVUSHLIKlar SEKSTAKKORDLARI.**

### **IKKITA SEKSTAKKORDNING QO'SHILISHI**

#### **1-§. Sekstakkordda juftlanish.**

Uchtovushlikning ikkinchi aylanmasi sekstakkord deyiladi. Asosiy uchtovushliklar sekstakkordlarida prima yoki kvinta tovushi juftlanadi. Sekstakkordning bas ovozida tersiya tovushi joylashadi va ayrim hollardan tashqari u juftlanmaydi. Masalan, o'zining uchtovushligidan so'ng kuchsiz hissaga kelgan sekstakkordda tersiya tovushi juftlanishi mumkin.

21

C dur

T6      T6      T6      T6      T6      T6      T6      T6

Bundan kelib chiqadiki, ushbuakkord faqatgina ikkita – prima va kvinta kuy holatida olinadi. Ko'rib turganimizdek, sekstakkordlar zich, keng hamda aralash joylashuvlarda ifodalanishi mumkin.

Ikkita sekstakkord qo'shilishida har bir akkordning turli tovushlari juftlanishi lozim.

## **2-§. Ovoz yo‘nalishi.**

Uchtovushlik bilan sekstakkord yoki ikkita sekstakkordning qo‘shilishi ovoz yo‘nalishida rang-barang uslublarni vujudga keltiradi. Akkodlar ravon va sakramalar yordamida qo‘shilishi mumkin.

### **a) Uchtovushlik bilan sekstakkordning qo‘shilishi.**

Kvarta-kvinta nisbatdagi akkordlar garmonik hamda melodik tarzda, qo‘shiladi. Agar soprano ovozida primadan primaga, kvintadan kvintaga yuqori tomon sakramasi berilsa, birnchi tovush zich yoki keng joylashuvdagagi uchtovushlik, ikkinchi tovush sekstakkord bilan garmoniyalanadi. Bas ovozida esa harakat past tomonga yonaladi.

Sopranodagi pasayib boruvchi sakramaning birinchi tovushi faqat keng joylashuvdagagi uchtovushlik, ikkinchi tovushi sekstakkord bilan garmoniyalanadi. Bas ovozi ham pastga qarab yo‘naladi.

Shu bilan birga, pasyuvchi sakramalar birinchi akkord zich joylashuvdagagi sekstakkord, ikkinchisi aralash joylashuvdagagi uchtovushlik bo‘lib garmoniyalanishi mumkin. Bas ovozi esa sakramaga ko‘ra qarama-qarshi tomonga haraqatlanadi.

Ba’zi hollarda primadan primaga, kvintadan kvintaga sakramalar birgalikda ikkita ovozda uchraydi. Gohida aralash – primadan tersiyaga, kvintadan tersiyaga va boshqa sakramalar seksta, kamaytirilgan kvinta, septima intervaliga qilinadi.

*Sekunda nisbatdagi akkordlar* ( $S-D_6$ ,  $S_6-D$ ) faqat **melodik** tarzda ravon qo‘shiladi.  $S-D_6$  garmonik davrasining bas ovozi harakati past tomon kamaytirilgan kvintaga, garmonik minor va garmonik major ladlarida  $S_6-D$  davrasining bas ovozi harakati past tomon kamaytirilgan septimaga bo‘lishi shart.


### **Ikkita sekstakkordning qo‘shilishi.**

*Kvarta-kvinta nisbatdagi sekstakkordlar* qo‘shilishida bas ovozida tersiya tovushlar kvarta yoki kvinta intervaliga sakraydi. Akkordlarning umumiy tovushi bir yoki ikki ovozda o‘z o‘rnida qolib, **garmonik tarzda qo‘shladi**. Agar umumiy tovush bitta o‘rtalarda ovozda saqlanib qolsa, u holda ko‘pincha soprano ovozida **sakrama** hosil bo‘ladi.


*Sekunda nisbatdagi sekstakkordlarning S<sub>6</sub>-D<sub>6</sub> qo'shilishida birinchiakkord juftlangan primasi, ikkinchisi juftlangan kvintasi bilan keladi. Shunda S<sub>6</sub> prima kuy holatida berilib, yuqori uchta ovoz bir tomonga, bas qarama-qarshi tomonga harakatlanadi.*

### **3-§. Ovoz yo'nalishida ta'qiqilangan harakatlar:**

1. Barcha ovozlar yo'lida har qanday *orttirilgan intervallarga harakatlar* man etiladi. Orttirilgan interval o'rniqa qarama-qarshi yo'nalishdagi kamaytirilgan intervalga almashinadi.
2. Ovoz yo'lida *kamma cennuma* (kat.7)ga qilingan hapakat qilinmaydi. Uning o'rniqa teskari tomon kichik sekunda(kich.2)ga harakatlanadi.
3. Bir yo'nalishda *oldinma-ketin kvarta yoki kvinta intervaliga* yo'l qo'ymaslik kerak.
4. Bir juft ovozlar oralig'ida paydao bo'lgan *parallel kvinta, oktava va prima* harakati, shuningdek, ikki chekka ovozning to'g'ri harakati natijasida (bas ravon, soprano sakrama harakati bilan) hosil bo'lgan *yashirin kvinta va oktavalar* taqiqilanadi.



5. Yashirin kvinta va oktavalar ikki yonma-yondagi ovozlar orasida hosil bo'lsa, ularning qo'llanilishi ruxsat etiladi.



Shuni aytib o'tish joizki, kompozitorlar ijodida ko'pincha parallel oktava va unisonlarni uchratsa bo'ladi. Kompozitor klassik to'rtovozlik bayoniga qat'iy rioya qilmay, masalaga ijodiy yondashib, erkinlik kasb etadi. Ko'pgina

xalq musiqasida, xususan, o‘zbek musiqasida ikki ovozning parallel kvintali harakati juda keng qo‘llanilgan, busiz musiqadagi milliylik xususiyati sezilmay qoladi.

- Xromatik yarim tonliklarga harakat bir ovoz yolda qilinishi shart. Aks holda *ziðdiyat* deyiladigan yoqimsiz sado vujudga keladi. U xromatik o‘zgargan tovushning bir ovozdan boshqa ovozga o‘tishidan kelib chiqadi.

**Topshiriq.** Berilgan kuy va bas ovozlarini garmoniyalashtiring.

24

The musical score for exercise 24 consists of six staves of music. The first two staves are in 3/4 time with a key signature of one sharp. The next two staves are in 2/4 time with a key signature of one sharp. The last two staves are in 3/4 time with a key signature of three sharps. The music is composed of eighth and sixteenth notes, with various dynamics and rests.

## **8-mavzu. O'TKINCHI VA YORDAMCHI KVARTSEKSAKKORDLAR**

### **1-§. O'tkinchi kvartsekstakkordlar.**

#### **Tonikaning o'tkinchi kvartsekstakkordi**

O'tkinchi kvartsekstakkord uchtovushlik va uning sekstakkordi orasida joylashadi va kuchsiz hissada ishlatiladi. Bu davraning asosiy xususiyati bas ovozi yuqorilama yoki pastlama pog‘onama-pog‘ona harakatida namoyon bo‘ladi. Yuqori ushta ovoz esa ravon harakatga ega:

- S-T<sup>6</sup><sub>4</sub>-S<sub>6</sub> yoki S<sub>6</sub>-T<sup>6</sup><sub>4</sub>-S davrasida bas ovozi pastga yoki yuqoriga IV-V-VI pog‘onalar bo‘yicha harakatlanadi;
- yuqori ovozlardan biri basdagi tovushlar bo‘yicha teskarisiga harakatlanadi;
- yana bir ovoz o‘z o‘rnida qoladi;
- turtinchi tovush sekundaga pastga va yana dastlabki tovushiga qaytadi.

Ba’zida, S<sub>6</sub> kvintasi juftlanganda yuqoriga ovozlardan birida tersiyaga harakat vujudga keladi.

#### **Dominantaning o'tkinchi kvartsekstakkordi**

O'tkinchi D<sup>6</sup><sub>4</sub> tonikaning uchtovushligi va uning sekstakkordi orasida joylashadi. T-D<sup>6</sup><sub>4</sub>-T<sub>6</sub>, T<sub>6</sub>-D<sup>6</sup><sub>4</sub>-T davrasida ovoz yo‘nalishi quyidagicha bo‘ladi:

- bas yuqoriga va pastga I-II-III pog‘onalar bo‘yich harakatlanadi;
- yuqori ovozlardan biri basdagi tovushlar bo‘yicha teskarisiga harakatlanadi; joyida qoladi;
- yana bir ovoz o‘z o‘rnida qoladi;
- to‘rtinchi tovush sekundaga pastga va yana dastlabki tovushiga qaytadi.

C dur

26

T      D<sub>6</sub><sub>4</sub>      T<sub>6</sub>      T      D<sub>6</sub><sub>4</sub>      T<sub>6</sub>

T      D<sub>6</sub><sub>4</sub>      T<sub>6</sub>      T<sub>6</sub>      D<sub>6</sub><sub>4</sub>      T

## 2-§. Yordamchi kvartsekstakkordlar

Yordamchi kvartsekstakkordlar qollanilganda bas ovozi harakatsiz bo‘lib, davra akkordalari o‘sha-o‘sha pog‘onadan tuziladi.

Yordamchi subdominanta kvartsekstakkordi tonika va uning takrori orasida olinadi ( $T - S_4^6 - T$ ). Shunda bas ladning I pog‘nasida saqlanib turadi

Ovoz yo‘nalishi:

- ikkita umumiyl tovush joyida qoladi (bas va yuqori ovozlardan biri);
- qolgan ikkita ovoz  $T - S_4^6 - T$  davrasida sekundaga yuqoriga yuradi va yana joyiga qaytadi,  $D - T_4^6 - D$  davrasida esa sekundaga pastga yurib, yana joyiga qaytadi;

C dur

27

D      T<sub>6</sub><sub>4</sub>      D      D      T<sub>6</sub><sub>4</sub>      D

D      T<sub>6</sub><sub>4</sub>      D      D      T<sub>6</sub><sub>4</sub>      D

C dur

T      S64      T      T      S64      T

Kompozitorlar o‘z ijodida yordamchi  $S_4^6$  ni ko‘proq qo‘sishimcha plagal kadensiyada qo‘llaydilar.

“Mungli qo‘sishiq” **I.Akbarov**

28      Adagio

### Savol va topshiriqlar.

1. Yordamchi kvartsekstakkord va o‘tkinchi kvartseksakkord qanday farqlanadi?
2. Yordamchi va o‘tkinchi kvartsekstakkordlar taktning qaysi hissasida qo‘llaniladi?
3. Quyidagi davralarni chaling:  
T-D64-T<sub>6</sub>; T-S<sub>4</sub><sup>6</sup>-T; S-T<sub>4</sub><sup>6</sup>-S6; D-T<sub>4</sub><sup>6</sup>-D.
4. Berilgan kuy va baslarni garmoniyalashtiring.

29. 1

2

3

4

5


6

## 9-mavzu: SEPTAKKORDLAR

### 1-§. Septakkordning turlari.

Septakkordni ladning har bir pog‘onasidan tuzish mumkin. Umuman olganda, septakkord uchtovushlikdan, uning tarkibida akkord dissonansi – septimasi borligi bilan farq qiladi. Septakkordlarning ifodali xususiyatlari ularning tovush tarkibi va funksional ahamiyati bilan uzviy bog‘liq.

Har bir septakkordning funksiyasi uni tashkil qiladigan uchtovushliklar (asosdagi uchtovushliklar va cho‘qqidagi uchtovushliklar) funksiyalari bilan belgilanadi.



Septakkordlar quyidagilarga ajratiladi:

- a) bitta muayyan funksiyali septakkordlar;
- b) birorta funksiya elementlari ustunlik qiladigan septakkordlar;
- c) turli funksiyalar elementlarining bir xil miqdoridan iborat aralash septakkordlar.

Faqat V va II pog‘onalar septakkordlari bir xil funksiyali uchtovushliklardan tuzilgan. Bu septakkordlar qolganlariga qaraganda ko‘proq qo‘llaniladi.

## **2-§. Bosh septakkordlar.**

Dominantseptakkord ( $D_7$ ), ya’ni V pog‘ona septakkordi ( $V_7$ ) – eng kuchliakkord hamda funktsional jihatdan eng yorqin garmonik vositadir.

II pog‘ona septakkordi ( $II_7$ ) bitta muayyan subdominanta funksiyasiga ega.

VII pog‘ona septakkordi ( $VII_7$ ) ikkita funksiya – dominanta va subdominanta funksiyalar elementlarini uyg‘unlashtiruvchi yagona septakkord hisoblanadi. Unda dominanta elementlari biroz ko‘proq, chunki u ladning barcha noturg‘un pog‘onalaridan iborat. Bunday noturg‘unlik ko‘pincha garmonik majorda va garmonik minorda kamaytirilgan septakkordga aylanishi bilan kuchayadi.

$D_7$ ,  $II_7$ ,  $VII_7$  ladning bosh septakkordlari bo‘lib, asarlar ekspozitsion, rivojlov qismlarida keng foydalaniladigan, ohangga rang-baranglik va keskinlikni bag‘ishlaydigan vositadir.

Qolgan septakkordlar qandaydir bitta funksiya elementlari ustunlik qiladigan septakkordlarga tegishli. Bular:  $IV_7$ ,  $I_7$ ,  $VI_7$ ,  $III_7$  (ular bu erda funktsional kuchi tartibida keltirilgan). Bu akkordlar asosiy septakkordlarga qaraganda ancha kam ishlatiladi. Ular asosan sekvensiyalarda qollanilishi uchun “sekvensakkordlar” deb nom olgan.

**Adagio lamentoso**

31

### **3-§. Septakkordlar aylanmalari.**

Septakkordlar uchta aylanmaga ega: kvintsekstakkord, tertskvartakkord va sekundakkord.

Kvintsekstakkord septakkordning birinchi aylanmasi bo‘lib, uning bas ovozida tersiya tovushi joylashadi.

Tertskvartakkord septakkordning ikkinchi aylanmasi bo‘lib, uning bas ovozida kvinta tovushi joylashadi.

Sekundakkord septakkordning uchinchi aylanmasi bo‘lib, uning bas ovozida septima tovushi joylashadi.

#### **Topshiriq:**

1. Major va ularga nomdosh tonalliklarda bosh septakkordlarni tuzib, chalib bering.
2. Minor va ularga paralel tonalliklarda IV<sub>7</sub>, I<sub>7</sub>, VI<sub>7</sub>, III<sub>7</sub> septakkordlarni tuzib, chalib bering.
3. Musiqiy adabiyotda septakkordlar qollanilgan namunalarni topib, ulardag'i septakkordlar xilini aniqlang.
4. Re, mi tovushdan tuzilgan nomdosh tonalliklarda V pog‘ona septakkordini aylanmalari bulan tuzing.

## **10 mavzu: DOMINANTSEPTAKKORD VA UNING AYLANMALARI**

### **1-§. Akkordning tuzilishi. Uning qo‘sh funksionalligi.**

Dominantseptakkord - ladning V- pog‘onasida tuzilgan to‘rt tovushliakkorddir. Tersiya bo‘yicha joylashgan ushbuakkordning tuzilishi major va garmonik minorda bir xil. 32

A musical staff with two measures. The first measure shows a G clef (soprano) followed by a C major chord (three vertical stems) and a D<sub>7</sub> chord (two vertical stems). The second measure shows an F clef (bass) followed by a c minor chord (three vertical stems) and a D<sub>7</sub> chord (two vertical stems).

**D<sub>7</sub>** qo'shfunktional (bifunksional)akkord bo'lib, uning tarkibida dominanta uchtovushligining tovushlari va subdominantaning asosiy tovushi qo'shilgan (Domajorda: sol-si-re-fa). Uning noohangdoshligi akkordning dissonansli intervallari: kich.7 (sol-fa) va kam.5 (si-fa) ni tashkil etadi.

Akkordning har bir tovushi o‘z nomiga ega: pastki tovush asosiy yoki prima, ikkinchi- tersiya, uchinchi- kvinta, to‘rtinchi tovushi septima deyiladi.

Bu dissonansli akkord hamma kompozitorlar ijodida barcha uslubdagi asarlarda keng foydalanilgan.

33

Asosiy dominantseptakkord to‘liq yoki to‘liqsiz bo‘lishi mumkin. To‘liq septakkord tersiya, kvinta, septima kuy holatida zich, keng va aralash joylashuvda olinadi.

adi.  
34


G dur  
3  
5  
7

D<sub>7</sub> D<sub>7</sub> D<sub>7</sub>

Berilgan misolda birinchiakkord tertsiya kuy holati keng joylashuvda, ikkinchiakkord kvinta kuy holati zich joylashuvda, uchinchisi - septima kuy holatida keng joylashuvda berilgan.

To‘liqsiz dominantseptakkord ham to‘rt tovushdan iborat bo‘lib, uning kvintatovushi tushirib qoldirilgan va asosiy tovushi juftlangan holatda ishlataladi. Bundaakkordning yangrashi o‘zgarmaydi, chunki uning kich.7 va kam.5 dissonansintervallari saqlanib qoladi. To‘liqsiz dominantseptakkordning kuy holatida asosiytovush, tersiya va septima bo‘lishi mumkin.

35




## 2-§. Dominantseptakkordnini tayyorlanishi.

Dominantseptakkord quyidagiakkordlar bilan tayyorlanadi, bular qatoriga barcha funksiyaakkordlari kiradi: D, D<sub>6</sub>, T, T<sub>6</sub>, K<sub>64</sub>, VI, S , II<sub>6</sub>, II, S<sub>6</sub>.

D<sub>7</sub> ning D va, D<sub>6</sub> bilan bog‘lanishida septima tovushi pog‘onama- pog‘ona harakat bilan kiritiladi. D uchtovushligi primasidan keyin pastlama harakatida kiritiladigan D<sub>7</sub> ning septimasi o‘tkinchi septima deyiladi. Bu qo‘shilishda qolgan tovushlar joyida qoladi yoki aylanishadi.


36



Shuningdek D<sub>7</sub> ning septima tovushi kvarta va septima yuqoriga yoki pastga sakrama harakat bilan ham kiritilishi mumkin.

T, T<sub>6</sub>, K<sub>64</sub>, VIakkordlari D<sub>7</sub> bilan asosan ravon harakatda qo‘shiladi. Bunda hosil bo‘lgan sof va kamaytirilgan kvinta ketma-ketligini qo‘llash mumkin.


37



Shuningdek, septima kvarta va septimaga yuqori va pastki harakat yo‘li bilan ham kiritilishi mumkin. Bu sakrash teskari tarafga yechilish bilan mutanosiblashtiriladi.

Ladning IV pog‘onasi - subdominantaning asosiy tovushi bir vaqtning o‘zida dominantseptakkordning septimasidir. **Subdominanta**akkordlarining dominantseptakkord bilan bog‘lanishida umumiy tovush o‘z o‘rnida qoladi. Shuning uchun D<sub>7</sub>ning septimasi tayyorlangan septima deyiladi.

38



S - D<sub>7</sub> izchilligida to‘liqsiz D<sub>7</sub>ni qo‘llash zarur, chunki to‘liq D<sub>7</sub> bilan ravon ovoz yo‘nalishida garmonik bog‘lanishga erishish imkonи yo‘q.

### **3-§. Dominantseptakkordning yechilishi.**

Dominantseptakkorddan so‘ng odatda tonika keladi. Bu lad tortilishlarining va dominantadagi dissonansli noohangdosh intervallarning oqangdoshlikka tabiiy echilishidir. Yechilishda dissonans intervallar ohangdosh turg‘un intervallarga o‘tadi. D<sub>7</sub> yoki uning aylanmalarini yechish uchun, birinchi navbatda, uning septimasini to‘g‘ri yechish lozim. Qolgan ovozlar esa ovoz yo‘nalish qoidalariga mos holda ravon harakatlanadi.

D<sub>7</sub> ning tonikaga yechilishidagi tartibi:

1. Septima-bir pog‘ona pastga yo‘naladi.
2. Kvinta bir pog‘ona pastga yo‘naladi.
3. Tersiya bir pog‘ona yuqori, o‘rta ovozlarda tersiyaga ham pastlama yo‘nalishi mumkin.

4. Asosiy tovush tonikaning primasi dominanta primasiga kvarta yuqori yoki kvinta pastga o‘tadi.

Dominantseptakkordning tonikaga echilishida sakramalar ham asosan soprano da bo‘lishi mumkin; tersiya tersiyaga, prima tersiyaga, prima primaga, kvinta primaga.

To‘liq D<sub>7</sub> to‘liqsiz, kvintasi tushiririb qoldirilgan tonikaga yechiladi. To‘liqsiz D<sub>7</sub> (kvintasi tushirib qoldirilgan, primasi juftlangan) to‘liq tonikaga yechiladi.

39

Asosiy D<sub>7</sub> ba'zi hollarda o‘rtा va xotima kadensiyada qo‘llaniladi.

40

Ko‘pincha badiiy adabiyotda xotima kadensiyalarda to‘liqsiz dominantseptakkordning tonikaga qarama-qarshi yoki parallel oktavalar bilan yechilishini kuzatish mumkin.

#### **4-§. Dominantseptakkord aylanmalari**

Dominantseptakkord aylanmalari davriyaning rivojlanishida katta rol o‘ynaydi. Dominantseptakkord aylanmalarining qo‘llanishi bas ovozi yo‘nalishida xilmallikni yaratadi. Akkordning bas tovushi bo‘yicha D<sub>7</sub>ning aylanmalari ajratiladi.

Agarakkordning bas ovozida tersiya joylashgan bo'lsa, bundayakkord kvintsekstakkord deb ataladi. Bas ovozida kvinta tovushi joylashganda buakkord terskvartakkord deb nomlanadi; agar bas ovozida septima tovushi joylashgan bo'lsa, buakkord sekundakkord deb ataladi. Aylanmalarning nomlanishi bas bilan septima, bas bilan asosiy tovush orasidagi intervallardan kelib chiqadi. Dominantkvintsekstakkordning belgilanishi – D<sub>65</sub>. Bas ovozida VII pog'ona bo'lib,akkord prima, kvinta, septima kuy holatida bo'lishi mumkin.

41

G dur  
1            5            7  
D<sub>65</sub>       D<sub>65</sub>       D<sub>65</sub>

Terskvartakkordning qisqa belgilanishi – D<sub>43</sub><sup>4</sup>. Tonallikning bas ovozida II-pog'onasi bo'lib,akkord prima, tersiya, septima kuy holatida bo'lishi mumkin.

42

C dur  
1            3            7  
D<sub>43</sub>       D<sub>43</sub>       D<sub>43</sub>

Sekundakkordning belgilanishi – D<sub>2</sub>. Akkord septimadan boshqa barchatovushlar kuy holatida bo'lishi mumkin.

43

C dur  
1            5  
D<sub>2</sub>       D<sub>2</sub>       D<sub>2</sub>

Dominantseptakkord aylanmalari to'liqsiz holatda ham bo'lishi mumkin.

**Dominantseptakkord aylanmalarining yechilishi.** Dominantseptakkord aylanmalari tonika garmoniyasiga yechiladi. Bu lad tortilishlarining va dissonansli intervallarning tabiiy yechilishidir.

D<sub>5</sub><sup>6</sup> T ga hechiladi

D<sub>3</sub><sup>4</sup> T va o'tkinchi T<sub>64</sub> ga yechiladi

D<sub>2</sub> T<sub>6</sub> ga yechiladi

Yechilishlar ravon harakat bilan kechadi:

1. asosiy tovush o‘rnida qoladi;
2. kvinta va septima sekunda pastga tushadi;
3. tersiya bir pog‘ona yuqoriga yoki o‘rta ovozlarda tersiyaga pastlama harakatlanadi.

### 5-§. Akkordlarning qo‘shilishi.

**Kvintsekstakkord** quyidagi akkorlar bilan tayyorlanadi: D<sub>6</sub>, D, D<sub>7</sub>; T, T<sub>6</sub>; II, S, II<sub>6</sub>; IV<sub>6</sub>, V.

44

C dur

D<sub>6</sub> D<sub>65</sub> T      D D<sub>65</sub> T      T D<sub>65</sub> T      T<sub>6</sub> D<sub>65</sub> T

II D<sub>65</sub> T      II<sub>6</sub> D<sub>65</sub> T      S D<sub>65</sub> T      VI D<sub>65</sub> T

**Terskvartakkord** quyidagi akkordlar bilan tayyorlanadi; T, T<sub>6</sub>; S, II<sub>6</sub>, II.

45

D dur

T<sub>6</sub> D<sub>43</sub> T      S D<sub>43</sub> T

**Sekundakkord**dan oldin quyidagi akkordlar keladi. V, K<sub>64</sub>; S, II<sub>6</sub>; T<sub>6</sub>.

46

a moll

D D<sub>2</sub> t<sub>6</sub>      D D<sub>2</sub> t<sub>6</sub>      K<sub>64</sub> D<sub>2</sub> t<sub>6</sub>      S D<sub>2</sub> t<sub>6</sub>

Shuningdek D<sub>7</sub> va uning aylanmalari sakrama orqali tonikaga yechilishi mumkin. Bunda D<sub>7</sub> ning kvintasi tonika kvintasiga sakrash hollarida ham yo‘l qo‘yilishi mumkin. D<sub>2</sub> - T<sub>6</sub> izchilligida kvinta yoki asosiy tovush sakrashlari

ko‘pincha soprano da bo‘lishi mumkin. Soprano dagi sakramalar bas ovoziga qarama-qarshi harakatida olinadi.

47

D<sub>7</sub> T D<sub>7</sub> T D<sub>43</sub> T D<sub>7</sub> T D<sub>65</sub> T D<sub>43</sub> T D<sub>2</sub> T<sub>6</sub> D<sub>2</sub> T<sub>6</sub>

### O‘rin almashuvi.

Dominantseptakkord aylanmalarining o‘rin almashuvi dominantaning funksional keskinligini kuchaytiradi. Akkordlar aylanishida septima o‘z o‘rnida qoladi yoki kvinta bilan o‘zaro joy almashadi.

48

a moll

D<sub>7</sub> D<sub>65</sub> D<sub>43</sub> D<sub>7</sub>

### Savol va topshiriqlar.

1. D<sub>7</sub> qaysi poqonadan tuziladiq
2. D<sub>7</sub> ning interval tuzilishi qaqida gapirib bering
3. D<sub>7</sub> dissonans bo‘lmagan dominantadan nimasi bilan ajralib turadiq
4. D<sub>7</sub> ning tonikaga echilishining tartibi qandayq
5. Dominantseptakkordning barcha aylanmalarini aytинг.
6. D<sub>65</sub>, D<sub>43</sub>, D<sub>2</sub> qanday kuy holatlarida qo‘llanilishi mumkin?
7. Dominantseptakkord aylanmalarining yechilish tartibi qanday?
8. Ikki al’teratsiya belgisiga ega tonallikkarda quyidagi akkord izchilliklarini chaling: 2/4 T, D<sup>6</sup><sub>4</sub> / T<sub>6</sub>, S / D<sup>6</sup><sub>5</sub> D<sup>4</sup><sub>3</sub> / T //
9. Baslar va kuylarni garmoniyalashtiring.

49

## **11-Mavzu: II POG'ONA SEKSTAKKORDI VA UCHTOVUSHLIGI.**

### **VI-POG'ONA UCHTOVUSHLIGI. BO'LINGAN KADENSIYA.**

#### **1-§.Tuzilishi. Juftlanishi.**

II - pog'ona sekstakkordi keng tarqalganakkord va u funktsional jihatdan yorqin. Uning yorqinligini uchta noturg'un tovushlar (II, IV ,VI) va dominanta bilan umumiy bo'lgan (II) tovush yaratadi.

Buakkord musiqada, ayniqsa, Vena klassiklari ijodida boshqa subdominantaakkordlariga nisbatan keng qo'llanadi.

II pog'ona uchtovushligi va sekstakkordi subdominanta guruhiga kiradi. Tabiiy majorda II pog'ona uchtovushligi minorli ohangga ega bo'lib, asosiy ko'rinishda va sekstakkord holatida qo'llaniladi (Do majorda – re-fa-lya).

Garmonik major va garmonik minorda ikkinchi pog'ona uchtovushligi kamaytirilgan uchtovushlik bo'lganligi tufayli (do majorda va do minorda – re-fa-lya bemol), u faqat SII<sub>6</sub> holatda qo'llanadi.

**Largo appassionato**

The musical score consists of three staves, each with a treble clef and a key signature of two sharps. The first staff has a dynamic marking of *p*. The second staff begins with a sixteenth-note pattern. The third staff begins with a eighth-note pattern. The music is in 3/4 time.

*sf* *s*

II pog'ona sekstakkordida ko'pincha bas ovozida joylashgan tersiya tovushi, ya'ni tonallikning IV pog'onasi juftlanadi. Bu xolat ushbu akkordning subdominanta ahamiyatini yana bir bor ta'kidlaydi.

Ovoz yo‘nalishiga bog‘liq ba’zi paytlarda SII6 ning asosiy tovushi yoki kvintasi kamdan-kam juftlanтирилади.

## **2-§. II pog'ona sekstakkordining tayyorlanishi**

II pog'ona sekstakkordi tonika va subdominantaakkordlaridan so'ng keladi. Sekunda nisbatidagi I-II pog'ona uchtovushliklari melodik qo'shiladi, chunki ular o'rtasida umumiy tovush mavjud emas. Ovoz yo'nalishi: parakkel kvintalarga yo'l qo'ymaslik uchun ushta yuqori ovozlar basga qarama-qarshi yonaladi. Akkordlarning faqatgina zinch joylashuvi qo'shilishida barcha ovozlar bir tomonga yo'nalishi mumkin.

II pog'ona sekstakkordi taktning kuchsiz hissasida subdominantadan so'ng kelishi mumkin. Ular garmonik qo'shiladi.

### **3-§. II pog'ona sekstakkordining dominanta garmoniyalari kadans kvartsekstakordi bilan qo'shilishi.**

Ikkinci pog'ona uchtovushligi va dominanta yoki dominantseptakkord bilan kvarta-kvinta nisbatida bo'lib, ular ham garmonik, ham melodik qo'shilishga ega.

Dominanta akkordlari tersiyasi juftlangan SII6 bilan qo'shilishi S-D kabi melodik qo'shiladi. Bunda bas sekundaga yuqoriga, qolgan uchta ovoz pastga yuradi.

Shuningdek, SII6 ning dominanta garmoniyalari bilan qo'shilishida sakramalar bo'lishi mumkin.

$K^6_4$  dan oldin, odatda, II pog'ona sekstakkordi qollaniladi. Major ladida ikkinchi pog'ona uchtovushligi ham qo'llanilishi mumkin. Bu akkordlar qo'shilishi ravon harakat bilan amalga oshiriladi.

### **4-§. II pog'ona uchtovushligi va sekstakkordi qurshovidagi o'tkinchi tonika.**

Basda berilgan IV-V-VI pog'onalarni garmoniyalashda tonika o'tkinchi kvartsekstakkordni qo'llash mumkin. Bunda SII6-T64-S6 yoki S6-T64-SII6 ketma-ketligi hosil bo'ladi. Majorda II-pog'ona uchtovushligi va sekstakkordi o'rtasida tersiyasi juftlangan o'tkinchi tonika qo'llaniladi (II-III-IV): yuqori ovozlar basga arama-qarshi yo'naladi. Parallel kvintalardan saqlanish uchun akkorlar zich joylashuvda ishlatiladi.

### **5-§. VI pog'ona uchtovushligi.**

VI pog'ona uchtovushligi ikkita funksiyaga tegishli. Uning tarkibiga tonika va subdominantaning ikkitadan tovush kiradi. Shuning uchun u quyidagicha belgilanadi: TSVI, tsVI.

T va S orasida primasi juftlangan VI pog'ona uchtovushligi qo'llaniladi.

VI pog‘ona uchtovushligi D, D<sub>7</sub>, K<sup>6</sup><sub>4</sub> dan oldin kiritilsa, u subdominanta funksiyasini bajaradi. VI pog‘ona uchtovushligi K<sup>6</sup><sub>4</sub> bilan garmonik hamda melodik qo‘shilishi mumkin.

D, D<sub>7</sub> dan song ning kiritilishiga **bo‘lingan davra** deb aytiladi. D<sub>7</sub> ning VI-pog‘onaga yechilishi quyidagi ovoz yo‘nalishiga ega: D<sub>7</sub> ning kvinta va septimasi sekunda pastga, prima va tersiyasi sekunda yuqoriga harakatlanadi. Natijada VI-pog‘ona uchtovushligida tersiya juftlanadi.

51

I.S.Bas. XORAL

Shuningdek, D uchtovushligi bilan VI- pog‘ona qo‘shilishida ham TSVI ning tersiyasi juftlanadi.

### Bo‘lingan kadensiya

Bo‘lingan davrasi mavjud kadensiya **bo‘lingan kadensiya** deyiladi. Bo‘lingan kadensiyada kadanskvertsekstakkorddan keyin D yoki D<sub>7</sub> yakun turg‘un tonikaga o‘tmay, TSVI ga o‘tadi, xotima bo‘linib qoladi. TSVI dan keyin garmonik harakat davom etadi va to‘liq xotima kadensiyaga olib keladi.

### Savol va topshiriqlar.

1. SII6 akkordda qaysi tovush juftlanadi?
2. Qanday akkorlar SII va SII6 dan oldin qo‘yilishi mumkin?

3. T va SII6 qanday qo'shiladi?
4. SII6 dominantta akkorlari bilan qanday qo'shiladi?
5. A dur, F dur тоналларидагы T SII6 K64 D7 T кетма – кетлигини чалинг.

### **Topshiriq.**

Berilgan ko'ylarni garmonilashtiring:

1

Musical notation for exercise 1. It consists of two staves of music in common time (C). The first staff starts with a quarter note followed by three eighth notes. The second staff starts with a half note followed by a quarter note and a half note.

2

Musical notation for exercise 2. It consists of two staves of music in common time (C). The first staff starts with a half note followed by a quarter note and a half note. The second staff starts with a half note followed by a quarter note and a half note.

3

Musical notation for exercise 3. It consists of two staves of music in common time (C). The first staff starts with a quarter note followed by a half note and a quarter note. The second staff starts with a half note followed by a quarter note and a half note.

4

Musical notation for exercise 4. It consists of two staves of music in common time (C). The first staff starts with a half note followed by a quarter note and a half note. The second staff starts with a half note followed by a quarter note and a half note.

5

Musical notation for exercise 5. It consists of two staves of music in common time (C). The first staff starts with a half note followed by a quarter note and a half note. The second staff starts with a half note followed by a quarter note and a half note.



## 12- mavzu. SUBDOMINANTSEPTAKKORD (SII<sub>7</sub>).

### 1-§. Tuzilishi. Belgilanishi.

Subdominantseptakkord asosiy septakkordlardan biri bo‘lib, ladning II pog‘onasida tuziladi va majorda SII<sub>7</sub>, minorda sII<sub>7</sub> belgilanadi. SII<sub>7</sub> ning tuzilishi: tabiiy majorda – minor uchtovushligi va kichik tersiya, minorda – kamaytirilgan uchtovushlik va katta tersiya, chekka tovushlari kichik septimani tashkil qiladi.

SII<sub>7</sub> tovushlarining nomlari - prima, tersiya, kvinta, septima.

### 2-§. Subdominantseptakkordning aylanmalari.

SII<sub>7</sub> uchta aylanmaga ega.

- **subdominantkvintsekstakkord (SII<sup>6</sup><sub>5</sub>)** - ladning IV pog‘onasida tuzilgan, bas ovozidaakkordning tersiyasi joylashgan;
- **subdominanttertskvartakkordi (SII<sup>4</sup><sub>3</sub>)** - ladning VI pog‘onasida tuzilgan, bas ovozidaakkordning kvintasi joylashgan;
- **subdominantsekundakkord (SII<sub>2</sub>)** – ladning I pog‘onasida tuzilgan, basdaakkordning septimasi joylashgan

Horijiy va o‘zbek kompozitorlari ijodida SII<sub>7</sub> barchaakkordlari, ayniqsa, SII<sub>6</sub><sub>5</sub> keng qo‘llaniladi. Ular ko‘pincha shiaklning ekspozitsion qismlarida uchraydi.

**Piu mosso**

### **3-§. Subdominantseptakkord tayyorlanishi va yechilishi.**

SII<sub>7</sub> akkordlari tonika va subdominanta garmoniyalaridan keyin garmonik qo'shilish yoli bilan kiritiladi. Bular – T, T<sub>6</sub>, T<sup>6</sup><sub>4</sub>, S, S<sub>6</sub>, SII, SII<sub>6</sub>, VI akkordlar.

*a) SII<sub>7</sub> va uning aylanmalarining quyidagi **tonika akkordlariga yechilishi:***

- SII<sub>7</sub> – T<sub>6</sub>, K<sup>6</sup><sub>4</sub> ga yechiladi
- SII<sup>6</sup><sub>5</sub> – T, T<sub>6</sub>, K<sup>6</sup><sub>4</sub> ga;
- SII<sup>4</sup><sub>3</sub> – T, T<sub>6</sub>, K<sup>6</sup><sub>4</sub> va o'tkinchi T<sup>6</sup><sub>4</sub> ga;
- SII<sub>2</sub> – Tga yechiladi.

Bunda ovoz yonalishi:

- 1) Septima tovushi (тоналликнинг I пог'онаси) o'z o'rnida qoladi;
- 2) boshqa tovushlar ravon harakatlanadi;

*b) SII<sub>7</sub> ning D uchtovushligiga yechilishi* xuddi D<sub>7</sub> tonikaga yechilganidek quyidagi ovoz yonalishi bian amalga oshiriladi: SII<sub>7</sub> ning kvinta va septimasi bir pog'ona pastga, tersiyasi – bir pog'ona yuqoriga yoki

tersiya pastga yo‘naladi. Akkordning aylanmalarida o‘rta ovozlarda berilgan asosiy tovush o‘z o‘rnida qoladi, u bas ovozida berilgan bo‘lsa, tonika primasiga sakrash bilan o‘tadi.

- SII<sub>7</sub> – D ga yechiladi
- SII<sup>6</sup><sub>5</sub> – D ga yechiladi
- SII<sup>4</sup><sub>3</sub> – D ga yechiladi
- SII<sub>2</sub> – D<sub>6</sub> ga yechiladi

54

SII7 D      SII2 D6

Subdominantseptakkord kuyda dominanta uchtovushligi bilan qoshilisida kuy yo‘lida primalar yoki kvintalarning sakrashi vujudga kelishi mumkin. Mazkur akkordlar tersiyalari sakrashlari faqat past tomonga qilinadi.

55

SII2 D6    SII2 D6    SII43 D6    SII43 D    SII65 D    SII7 D

#### 4-§. Subdominantseptakkordning D7 bilan qo‘shilishi.

Subdominantseptakkord va uning aylanmalarini **D7 va uning aylanmalariga o‘tishi** mumkin. Ovoz yo‘nalishi ikkita umumiy tovush ( II va IV pog‘onalar) o‘z o‘rnida qoladi, qolgan ikkita tovush (VI va I pog‘onalar) bir pog‘onaga pastga tushadi.

- SII<sub>7</sub> – D<sup>4</sup><sub>3</sub> ga yechiladi
- SII<sup>6</sup><sub>5</sub> – D<sub>2</sub> ga yechiladi
- SII<sup>4</sup><sub>3</sub> – D<sub>7</sub> ga yechiladi
- SII<sub>2</sub> – D<sup>6</sup><sub>5</sub> ga yechiladi

56

C dur

SII7 D43    SII43 D7    SII65 D2    SII2 D65

*SII<sub>7</sub> ning to'liqsiz D<sub>7</sub> ga o'tishi* ham qo'llanishi mumkin. Bu qo'shilishdaakkordlar primalari bir biriga sakrab o'tadi.

### **5-§. O'tkinchiakkordli davralarda SII<sub>7</sub> ning qatnashishi.**

SII<sub>7</sub> hammaakkordlari qurshovida o'tkinchiakkordlar qatnashishi mumkin:

- SII<sub>7</sub> – T<sub>6</sub> – SII<sup>6</sup><sub>5</sub> ёки SII<sup>6</sup><sub>5</sub> – T<sub>6</sub> – SII<sub>7</sub> ;
- SII<sub>7</sub> – VI<sup>6</sup><sub>4</sub> – SII<sup>6</sup><sub>5</sub> ёки SII<sup>6</sup><sub>5</sub> – VI<sup>6</sup><sub>4</sub> – SII<sub>7</sub> ;
  
- SII<sup>6</sup><sub>5</sub> – T<sup>6</sup><sub>4</sub> – SII<sup>4</sup><sub>3</sub> ёки SII<sup>4</sup><sub>3</sub> - T<sup>6</sup><sub>4</sub>- SII<sup>6</sup><sub>5</sub>;
- SII<sup>4</sup><sub>3</sub> – VII – SII<sub>2</sub> ёки SII<sub>2</sub> – VII – II<sup>4</sup><sub>3</sub>;

Bu davralarning asosiy hasusiyati: bas ovozi pog'onama-pog'ona sekundaga yuqori yoki pastga harakatlanadi.

SII<sub>7</sub> ningakkordlari bir biri bilan ***almashinib kelishi*** ham mumkin.

### **6-§. Garmonik majorda subdominanta guruhiakkordlari.**

Garmonik majorda VI pog'ona pasayadi. Buning natijasida subdominantaakkordlarining ko'rinishi o'zgaradi. II pog'ona uchtovushligi kamaytirilgan uchtovushlikka, subdominanta uchtovushligi esa minor uchtovushligiga aylanadi.

Buakkordlar xuddi tabiiy majordagi funksional davralarda qo'llaniladi. Faqat VI pasaygan pog'onani kiritishga e'tibor qaratish lozim:

1) S va SIIakkordlarini to'g'ridan-to'g'ri VI pasaygan pog'ona bilan kiritish mumkin;

2) tabiiy majorning Sakkordlaridan so'ng VI pasaygan pog'ona pastga xromatik yarim ton bilan kiritiladi. Xromatik yarim ton bir ovozdan ikkinchisiga ko'chishi mumkin emas, sababi – ziddiyat hosil bo'lishi bilan keskin sado paydo bo'ladi.

### **Savol va topshiriqlar**

1. Subdominantseptakkor qaysi tovushdan tuziladi?
2. SII<sub>7</sub> necha tovushdan iborat?

3. SII7 nechta aylanmaga ega?
4. SII7 va uning aylanmalarini qanday akkorlar bilan tayyorlash mumkin?
5. SII7 va uning aylanmalari qaysi akkorlarga yechiladi? Yechilish qoidalarni aytib bering.
6. SII7 va D7 akkorlari nechta umumiy tovushlarga ega?
7. SII7 kadans kvartsekstakkordga yechilishi mumkinmi?

Kuy va basni garmoniyalashtiring

1



2



3



4



5



## 13- mavzu. YETAKCHI SEPTAKKORD

### 1-§. Yetakchi septakkordning tuzilishi va belgilanishi

Yetakchi tovushdan tuzilgan septakkordlar etakchi septakkordlar deyiladi. Uning belgisi DVII<sub>7</sub>. Bu dominanta funksiyasiga qarashliakkorddir.

Yetakchi septakkordlar *ikki xil: kichik va kamaytirilgan* bo‘ladi. Septakkordlarning tuzilishi: kichik septakkord kamaytirilgan uchtovushlik va katta tersiya iborat, kamaytirilgan septakkord uchta kichik tersiyadan iborat. Chekka tovushlari kichik septimani hosil qiladi.

*Kichik septakkord faqat tabiiy majorda, kamaytirilgan septakkord garmonik major va minor ladlarda tuziladi.*

Garmonik majorda VI pog‘onaning pasayisha natijasida kichik septakkord kamaytirilganga o‘tadi.

Kamaytirilgan septakkord ikkita triton o‘z ichiga oladi, shuning uchun u dissonansli, keskin ohangga ega. Buakkord musiqa amaliyotida keng qo‘llaniladi.

F.Shubert

58

Massig, erzählend, trauernd  
p

Yetakchi septakkord ladning to‘rtta noturg‘un tovushidan iborat. Unga dominanta va subdominanta tovushlari kiradi. Basda ladning VII pog‘onasi turishi sababidanakkord dominanta funksiyasiga tegishlidir.

Har qanday septakkord singari yetakchi septakkord ham 3 ta aylanmaga ega: DVII<sub>5</sub><sup>6</sup>, DVII<sub>3</sub><sup>4</sup>, DVII<sub>2</sub>.

## 2-§. Yetakchi Septakkordning tayyorlanishi.

Asosan DVII<sub>7</sub> septakkord garmonik qo'shilishda subdominanta garmoniyasi bilan tayyorlanadi. Akkord T, D, D<sub>7</sub>, VI bilan ham tayyorlanishi mumkin.

S, D<sub>7</sub>akkordlari bilan yaqin melodik bog'liqlikda yetakchi septakkord o'tkinchi sifatda ham qo'llanishi mumkin. Odatda DVII<sub>7</sub> taktning kuchli hissasiga keladi.

- SII<sub>2</sub> → DVII<sub>7</sub>→D<sub>5</sub><sup>6</sup>
- SII<sub>7</sub> → DVII<sub>5</sub><sup>6</sup>→D<sub>3</sub><sup>4</sup>, D<sub>7</sub>
- IV, SII<sub>6</sub>, II<sub>5</sub><sup>6</sup> → DVII<sub>3</sub><sup>4</sup>→D<sub>2</sub>
- IV<sub>6</sub>, SII<sub>3</sub><sup>4</sup> → DVII<sub>2</sub>→D<sub>7</sub>

## 3-§. Yetakchi septakkordning tonikaga yechilishi.

DVII<sub>7</sub> va uning aylanmalarining tonikaga echilishida septakkordning prima va tersiya bir pog'ona origa, kvinta va septima bir pog'ona pastga yuradi. Tonikaakkordida tersiya juftlanib, quyidagi davralar tashkil etiladi:

Asosiy yetakchi septakkor va aylanmalari	Yechimi	Ovoz yo'nalishi	Misollar Do majorda keltirilgan
DVII <sub>7</sub>	T	Yetakchi septakkordning kvinta va septsimasi pog'onama-pog'ona pastga boradi.	Si-re-fa-lya <i>Yechimi:</i> do-mi-mi-sol
DVII <sub>5</sub> <sup>6</sup>	T <sub>6</sub>	Asosiy tovush va tersiyasi pog'onama-pog'ona yuqoriga boradi.	Re-fa-ly-a-si <i>Yechimi:</i> mi-mi-sol-do
DVII <sub>3</sub> <sup>4</sup>	T <sub>6</sub>		Fa-ly-a-si-re <i>Yechimi:</i> mi-sol-do-mi
DVII <sub>2</sub>	T <sub>4</sub> <sup>6</sup>		Lya-si-re-fa <i>Yechimi:</i> sol-do-mi-mi

## Prestissimo


Musical score for two staves. The top staff is in common time (C), treble clef, dynamic f, and has six measures. The bottom staff is in common time (C), bass clef, and has five measures. Measures 1-3 of the top staff show a descending bass line from B to E. Measures 4-6 show a descending bass line from A to D. Measures 1-3 of the bottom staff show a descending bass line from G to C. Measures 4-5 show a descending bass line from F to B.

Ba'zida yetakchi septakkord tersiyasi bir pog'ona pastga yurishi mumkin, bunda tonika odatiy juftlanishda, ya'ni prima juftlanishida keladi. Ammo bu holda majorda parallel kvintalar hosil bo'lishi mumkin. Bunga esa yo'l qo'yish mumkin emas.

## **4-§. DVII<sub>7</sub>ning ichki funksional yechilishi**

Yetakchi septakkord va D<sub>7</sub> – dominanta funksiyasidagiakkordlardir.Ular uchta umumiy tovushga ega. Agar yetakchi septakkord taktning kuchli hissasiga olinsa, unda u D<sub>7</sub> ga kechikib keluvchi sifatda qabul qilinadi: uchta umumiy tovush joyida qoladi, yetakchi tovush septimasi bir pog‘ona pastga tushadi. Bunda kompozitorlar tomonidan keng qo‘llanadigan quyidagi davralar hosil bo‘ladi.

## DVII, нинг ички функционаллилик ечилиши.



## **5-§. O‘tkinchiakkordlar**

T, S, Dakkordlari va ularning aylanmalari yetakchi septakkordakkordlari o‘rtasida o‘tkinchi sifatda kelishi mumkin. Bu holda ovoz yo‘nalishi ravon, ayniqsa bas ovozi uchun bu asosiy shartdir.

Shuningdek, basning ravon harakatida yetakchi septakkordlar boshqa funksiyadagi turliakkordlarni qurshab olishda ishtirok etishlari mumkin. Masalan, quyidagi davralar bo‘lishi mumkin:

- DVII<sub>7</sub> – T – D<sup>4</sup><sub>3</sub>
- S<sub>6</sub> – T<sup>6</sup><sub>4</sub> – DVII<sup>4</sup><sub>3</sub>
- SII<sub>6</sub> – T<sub>6</sub> – DVII<sup>6</sup><sub>5</sub>
- DVII<sup>6</sup><sub>5</sub> - S<sup>6</sup><sub>4</sub> – D<sup>6</sup><sub>5</sub>

## **6-§. Subdominantseptakkordning yetakchi septakkordlarga o‘tishi.**

SII<sub>7</sub> ning DVII<sub>7</sub> ga o‘tishi D ga o‘tishidan ko‘ra kamroq uchraydi. Bu o‘tish barcha tersiya nisbatdagiakkordlar qo‘shilishi qoidasi bo‘icha amalga oshiriladi: uchta ovoz o‘z o‘rnida ushlab turiladi, to‘rtinchisi bir pog‘ona pastga tushadi. Natijada quyidagi izchliklar paydo bo‘ladi.

- ✓ SII<sub>7</sub> – DVII<sup>6</sup><sub>5</sub>
- ✓ SII<sup>6</sup><sub>5</sub> – DVII<sup>4</sup><sub>3</sub>
- ✓ SII<sup>4</sup><sub>3</sub> – DVII<sub>2</sub>
- ✓ SII<sub>2</sub> – DVII<sub>7</sub>


## **Savol va topshiriqlar**

1. Yetakchi septakkordning necha turi mavjud?
2. Yetakchi septakkord nechta aylanmalardan iborat?
3. Yetakchi septakkord tonika akkorlariga qansi qoida bo‘yicha yechiladi?
4. Yetakchi septakkord qaysi akkor bilan tayyorlanishi mumkin?
5. Qaysiakkordlar yetakchi septakkord o‘tkinchiakkord sifatida qo‘llaniladi?
6. Yetakchi septakkording tonikaga D7 orqali yechilishi qanday nomlanadi?

## 60.1



2



3



## 14- mavzu. KAM QO'LLANILADIGAN DOMINANTA GURUHI AKKORDLARI

### 1-§. O'tkinchi DVII<sub>6</sub>.

Major va garmonik minorda VII pog'onada kamaytirilgan uchtovushlik hosil bo'ladi. Ushbuakkord faqat sekstakkord ko'rinishida ishlataladi. DVII<sub>6</sub> da tersiya va kamdan-kam kvintasi juftlanadi, bas ovozidaakkordning tersiyasi joulashadi. Zich jolashuvda DVII<sub>6</sub> asosiy tovush va tersiya kuy holatida yoqimli sadoga ega. Akkord kvinta kuy holatida, zikh va keng joylashivda yanada chiroqli eshitiladi.

DVII<sub>6</sub> dominantaning asosiy tovushi yo‘qligi bilan farqlanib, D<sup>4</sup><sub>3</sub>akkordga o‘xshaydi. U D<sup>6</sup><sub>4</sub> bilan ham oxshash. DVII<sub>6</sub>, D<sup>4</sup><sub>3</sub>, D<sup>6</sup><sub>4</sub> larning yaqinligi tufayli ulr bir birini o‘rnini bosishi mumkin.

Soprano ovozida berilgan I-II-III yoki III-II-I melodik davrani garmoniyalashda DVII<sub>6</sub> o‘tkinchiakkord sifatida ishlatiladi: T-DVII<sub>6</sub>-T<sub>6</sub> va T<sub>6</sub>-DVII<sub>6</sub>-T.

Minor ladida DVII<sub>6</sub> oldidan odatda majorli S olinishi kerak. Bunga sabab, ladning VI bilan ko‘tarilgan VII pog‘onalarini orasidagi orttirilgan sekundaga harakat man etilganligi.

61

The musical score consists of two staves. The top staff is in common time (C) and the bottom staff is also in common time (C). Both staves feature a treble clef and a bass clef. The top staff has a key signature of one sharp (F#). The bottom staff has a key signature of one sharp (F#). The music includes various chords (e.g., D7, G7, C7) and bass notes (e.g., E, A, D).

## 2-§. TDIII pog‘ona uchtovushligi.

III pog‘ona uchtovushligi tabiiy major va minorda ko‘p qollaniladi. Buakkorda tonika bilan ikkita umumiyyetli tovush va dominantaning tersiyasi birlashtirish, noaniqlikni yaratadi. Barcha yondosh sekstakkordlardagidek III<sub>6</sub> ham istalgan tovush juftlanishi mumkin.

Tabiiy major va minorda soprano ovozida pasayib boruvchi I-VII-VI  
61a

The musical score consists of a single staff in common time (C). It features a key signature of one flat (B-flat). The staff includes a treble clef and a bass clef. The music shows chords (e.g., D7, G7, C7) and bass notes (e.g., E, A, D).

pog‘onalar melodik davrasini  
garmoniyalashda III pog‘ona  
uchtovushligidan foydalanish  
keng tarqalgan.

III pog'ona uchtovushligi har qandayakkorddan keyin kelishi mumkin, biroq T va TSVI dan so'ng u ko'proq qo'llaniladi. III pog'ona uchtovushligidan keyin Sakkordlari tez-tez ishlatiladi.

### **3-§. Sekstali dominanta.**

Dominanta uchtovushligida noturg'u kvinta tovushi uning sekstasi bilan almashishi mumkin (dominantaning asosiy tovushidan hisoblaganda – Do majorda: sol-si-mi). Dominantaning sekstasi ladning turg'un III pog'onasidir. Shu xususiyati bilan sekstali dominanta huddi III pog'ona sekstakkordidek qabul qilinadi.

$D_7$  da ham uning kvintasi sekstasi bilan almashishi mumkin. Buakkord  $D_7^6$  belgilabadi. Odatda seksta yuqori ovozda joylashadi.  $D_3^4$  dan tashqari  $D_7$ akkordlari ham sekstasi bilan tuziladi.

62



## **15- mavzu. SEKVENSIYALAR.**

### **1-§. Sekventsialarning turlari.**

Sekventsya – motiv deb ataladigan muayyan melodik-garmonik davraning boshqa balandliklarda bir necha marta ketma-ket takrolanishidir. Motiv bunday takrorlashlar zanjiridagi bo'g'in hisoblanadi. Motiv ikkita, uchta va undan ham ko'proqakkordlardan tashkil topishi mumkin. Motiv uchtovushliklar, yoki uchtovushlik va sekstakkord, yoki septakkord va h.k.lardan iborat bo'ladi.

Sekventsialarning turlari quyidagicha farqlanadi:

1. Sekventsianing yo'nalishi bo'yicha: pasayib borubchi va ko'tarilib boruvchi;
2. Motivakkordlari miqdori bo'yicha: ikki, uch, to'rtakkordli bo'g'in;
3. Sekventsya motivlarini biror intervalga ko'chirish bo'yicha: sekundali, tersiyali, kvartali, kvintali;
4. Motivlar tuzilishining saqlqnishi bo'yicha: aniq va aniqmas sekventsya;

5. Tonallik bo‘yicha: birtonalli va modulyatsiyalovchi sekventsiya.

## 2-§. Birtonalli sekventsiya.

Birtonalli (diatonik) sekventsiyada motiv bitta tonallikning boshqa-boshqa pog‘onalarida takrorlanadi.

Ushbu pasayib boruvchi sekvektsiya oktava diapazonini egallab, D-T motivdan iborat 8ta bo‘g‘indan tashkil topgan. Sekvektsiyaning ohirgi yakunlovchi bo‘g‘ini birinchisini aniq takrorlaydi.

Modulyatsiyalovchi sekventsianing bir xili – xromatik sekventsiya. Bu sekventsiya xilma-xil yondosh dominanta va yondosh subdominanta yordamida hosil qilinadi. Xromatik sekventsiya motivlari funksiya jihatidan asosiy tonallikka bo‘ysunadi va undan chetga chiqmaydi. Quyida motivlari sekunda intervali bo‘icha ko‘chirilgan xromatik sekventsiya misoli keltiriladi.

Diatonik qardosh tonalliklarga modulyatsiya qilinadigan секвекцияда модулюатсиyalовчи dominantalar yondosh dominantalar ahamiyatini касб этади. Ladning asosiy pog‘onalarida tuzilgan uchtovushliklar yondosh dominanta va subdominantalar uchun vaqtinchalik tonika vazifasini bajaradi.

63

The musical score consists of two staves. The top staff is in treble clef and the bottom staff is in bass clef. Both staves are in common time. The key signature is C major (no sharps or flats). The top staff starts with a dominant seventh chord (VII7), followed by a progression of chords including a half-diminished seventh chord (flat seven), a diminished chord, another half-diminished seventh chord, and finally the tonic chord (T). The bottom staff continues this sequence with a half-diminished seventh chord, a diminished chord, another half-diminished seventh chord, and ends with a single note (A). The notes are primarily eighth notes, with some quarter notes and sixteenth-note patterns.

Tipik modulyatsiyalovchi sekventsiyada yangi tonallikka o'tish sodir bo'ladi.

### **3-§. Sekventsialarning musiqiy asardagi ahamiyati.**

Asar rivojlanishi dinamikasida, ayniqsa avj nuqtasiga yaqinlashgan sari sekventsialar katta rol o'ynaydi. Sekventsianing bir nechta bo'g'inlaridan foydalanish keskinlikni yuzaga keltiradi. Aksincha, bo'g'lnarning juda ko'p miqdoridan foydalanish, bir xillikka olib keladi.

Sekventsialardan keng foydalanish misollarini I.S.Bax, P.I.Chaykovskiy hamda ozbek kompozitorlar ijodida ko'zatish mumkin:

64

P.I.Chayovskiyning "Yevgeniy Onegin" operasiga kirish

*Andante con moto*

### **Savollar va topshiriqlar**

7. Sekventsya nima degani?
8. Sekventsialarning qanday turlarini bilasiz?
9. D-T diatonik sekventsiyani Do majorda va lya minorda chaling.
10. D-T modulyatsiyalovchi sekventsiyani Do majorda va lya minorda tuzib chaling.

11.P.I.Chaykovskiyning “Evgeniy Onegin” operasini (Kirish qismi) tahlil qiling.

## **16- mavzu. QO‘SH DOMINANTA**

## **1-§. Qo'sh dominantaning tuzilishi va tayyorlanishi.**

Musiqada diatonikakkordlar qatorida yangi tortilishlarni olib kiradigan, ohangdoshlik sohasi vositalarini boyitadigan noturg'un xrommatikakkordlar ham keng tarqalgan.

Xrommatikakkordlar orasida ladining dominantasiga nisbatan dominanta garmoniyasi sifatida xizmat kiladiganakkordlar tez-tez qo'llaniladi. Ular qo'sh dominanta deb ataladi va DD ishorasi bilan belgilanadi. Qo'sh dominantagaakkordlari guruhiga lad domintasiga nisbatan yetakchi septakkord ham kiradi va DDVII ko'rinishda belgilanadi.

Qo'sh dominantaakkordlarning muhim xususiyati – major ladning *ko'tarilgan IV pog'onasi*dir. Minor ladida esa unga qo'shilib ladning VI pog'onasi ham ko'tarladi. Ladning ko'tarilgan IV pogonasi dominantaga nisbatan yetakchi tovush býlib, dominanta uchtovushligini vaqtinchalik tonikaga aylantiradi.

65

C dur

T              D              DD              DD7              DD9

DD9              DDVII              DDVII7              DDVII7

c moll

DD              DD7              DD9              DD9              DDVII              DDVII7

## **DDning tayyorlanishi.**

Qo'sh dominanta akkordlari T, S, D funksiyalari akkordlari bilan tayyorlanishi mumkin.

Subdominanta garmoniyasidan so‘ng qo‘sh dominantaakkordlari subdominanta asosiy tovushining dominanta yetakchi tovushiga yuqorilama yarim tonlik harakati orqali kiritiladi. Agar S garmoniyasida IV pog‘ona juftlangan bo‘lsa, ziddiyatdan saqlanish uchun bitta ovozdagi IV pog‘onani ko‘tarilishi bilan birga boshqa ovozdagi bu juftlangan tovushni pastga harakatlantirish lozim.

## 2-§. Tuzilmaning ichidagi qo‘sh dominanta.

Qo‘sh dominanta tuzilmaning orasida turli ko‘rinishlarida qo‘llanilib, D, o‘tkinchi T<sup>6</sup><sub>4</sub> ga yechiladi. Bunda ovoz yo‘nalishining asosiy sharti – ko‘tarilgan IV pog‘ona V pog‘onaga yechilishi kerak. Shuningdek, DD ning har birakkordi D guruhi dissonansakkordlari D<sub>7</sub>, D VII<sub>7</sub>, D<sub>9</sub> ga o‘tishi mumkin. Buning ovoz yo‘nalishiga asosiy talabi: ko‘tarilgan IV pog‘onasi xromatik yarim tonga pasaytiriladi, ya’ni dominantsepakkordni septimasi yoki yetakchi sepakkordning kvintasiga o‘tkaziladi.

## 3-§. Qo‘sh dominantaning subdominantseptakkord bilan qo‘shilishi.

Tuzilmaning o‘rta va xotima kadensiyasida qo‘sh dominantaakkordlari subdominanta dissonansakkordlariga va teskari, subdominantaakkordlari qo‘shdominantaakkordlariga o‘tishi mumkin. Ushbuakkordlarning garmonik qo‘shilishida xromatik o‘zgarishlar bir ovoz yo‘lida amalga oshirilishi shart. Major va minor garmonik turlarida DDakkordni **bas ovozida ko‘pincha VI pog‘ona joylanishi maqul.**

66

DD  
VI  
DD

e)  
f)

t6 SII65 DDII7 K64 D7 t tSVI DD43

D DVII7 D6 DVII7

Xotima va o'rta kadensiyada qo'sh dominanta  $K^6_4$  orqali D ga yechilishi uchraydi. Bunda DD akordning bas ovozida tonallikning ko'tarilgan IV pog'ona yoki VI pog'ona joylashtirilasdi. IV pog'ona sekunda yuqoriga o'tadi. Umumiy tovushlar o'z o'mnida qo'ladi, boshqalari ravon harakati bilan  $K^6_4$  tovushlariga o'tadi.

67

**Allegretto**

C dur

TSVI      DD43      K64      D      T

### **Savollar va topshiriqlar.**

1. Sol major va mi minor tonalliklarda barcha qo'sh dominantaakkordlarini aytib o'ting.
2. Qo'sh dominantaakkordlari qaysiakkordlar bilan tayyorlanadi?
3. DDakkordlari D ning dissonansliakkordlariga qanday o'tiladi?
4. DDakkordlari S ning dissonansliakkordlariga qanday o'tiladi?
5. DD $^6_5$   $K^6_4$  ga qanday yechladi?
6. Tonallikda quyidagiakkordlar ketma-kenligini tuzib, chlib bering:
  - a) T-VI-DD $^6_5$ -D $_2$ -T $_6$ ;
  - b) T-SII $^4_3$ -DD $^4_3$ -D $_7$ -T;
  - c) t-III-s-D-DD $^6_5$ -SII $^6_5$ -D;

## **17-mavzu. TONALLIK NISBAT TURLARI.**

### **OG'ISHMA**

#### **1-§. Tonalliklar o'zaro nisbatlari.**

Har bir musiqiy asar o'z tonallik rejasi asosida rivojlanadi, o'zi tonalliklar almashinuvining o'ziga xos tartibiga ega.

Tonallik nisbatining uch turi mavjud. Bular – modulyatsiya, og'ishma, taqqoslama. Ular bir-biridan yangi tonallikni oldingisidan keyin kiritish uslubi bilan farq qiladi.

**Modulyatsiya** – asar davomida bitta tonallikdan boshqasiga o‘tish va unda kadensiya orqali mustahkamlash. Qarang: F.Shopen. Mazurka op.7 № 3. Bu asarning birinchi tuzilmasi ikkita jumladan iborat davriyadir. Mazkur davriyaning ikkinchi jumlesi fa minordan do minorga modulyatsiya bilan tugaydi.

**Og‘ishma** deb yangi tonallikka unda kadensiya bilan mustahkamlanmay qisqa muddatdagi o‘tish va dastlabki tonallikka qaytish jarayoniga aytildi.

Tonalliklar **taqqoslamasi** tayyorgarliksiz yangi tonallikning paydo bo‘lishiga asoslangan. Ikkita tuzilma chegarasida yangi tonallik dastlabki tonallik tonikasidan keyin paydo bo‘ladi. Qarang: L.Betxoven. Sonata or. 53, I-qism.

Ikkita jumla, ikkita davriya va jumladan qismlari taqqoslanishi mumkin. Odatda bu qismlar tematik materialning umumiyligi bilan birlashadi. Agar yirik asar qismlari o‘zaro taqqoslansa, ular odatda tonallik bo‘yicha va mavzu mazmuni bo‘yicha kontrastli bo‘ladi.

## 2-§. Og‘ishmalar.

Og‘ishmada yangi tonallikning paydo bo‘lishi qisqa vaqt davom etadi. Og‘ishmalar tuzilma kadensiyasigacha uchraydi.

68

“Gulsara” operasi T.Sodiqov va R.Glier

**Allegretto**

Og‘ishmaga dominanta va subdominanta guruhining noturg‘unakkordlarini qo‘llash orqali, yondosh dominantalar va yondosh subdominantalar yordamida erishiladi. Yondosh dominanta yoki yondosh subdominanta vaqtinchali tonikaga olib keladi. Qo‘shimcha dominanta sifatida D, D<sub>7</sub>, DVII<sub>7</sub> va aylanmalari qo‘llanilishi mumkin.

69

C dur

D D7 DVII7 → II      D D7 DVII7 → III

D D7 DVII7 → IV      D D7 DVII7

V                         D D7 DVII7 → VI

Yondosh subdominanta sifatida S, SII, SII7 va ularning aylanmalari tadbiq etilishi mumkin.

70

C dur

S SII SII7 → II      S SII SII7 → III

S SII SII7 → S      S SII SII7 → D      S SII SII7 → S

Metrik jihatdan noturg‘un yondosh dominanta va subdominantalar vaqtinchalik tonikalarga qaraganda ancha engil takt xissalarida joylashadi.

Og‘ishmalarining paydo bo‘lish tartibi har xil bo‘lishi mumkin. Tez-tez uchraydigan og‘ishmalar tartibini ko‘rib chiqamiz. Og‘ishmalar ko‘pincha majorda D, TSVI, kamdan-kam DTIII pog‘onalar tomon, kadensiyada esa S, SII, TSVI pog‘onalar tomonga qilinadi. Minorda ko‘proq dtIII, d, D tomon, kadensiyalarda esa S, tsVI, pasaytirilgan II pog‘onalar tomonga og‘ishmalar qo‘llaniladi.

### **3-§. Ovoz harakati.**

Yondosh dominanta va subdominantalar ravon harakatlar bilan kiritiladi. Bunda:

- 1) umumiy tovushlar joyida qoladi;
- 2) diatonik pog‘ona va uning xromatik o‘zgarishi bitta ovoz yolda bo‘lishi shart, aks holda ziddiyat paydo bo‘ladi;

3) ovozning shu tarzdagi xromatik yarim tonlik harakatiga boshqa ovozdag'i uning juftlangan tovushini teskari tomonga bir yoki yarim tonga harakati mos keladi. Juftlashgan tovushning tersiyaga harakati ham bas va ayrim hollarda o'rta ovozda bo'lishi mumkin.

Soprano yoki basni garmoniyalashtirishda biz quyidagilarni ko'rib chiqamiz:

1) mazkur ovozning har bir tovushini yondosh tonikaning asosiy tovushi, tersiya yoki kvintasi sifatida anglab olamiz. Shunda yondosh majorli yoki minorli tonika ancha og'irroq hissada joylashishi kerak;

2) yondosh tonikadan oldin keladigan D yoki S sining kiritilishi imkoniyatlarini ko'rib chiqamiz. Shu bilan birga ularning tonikasiga to'g'ri yechilishini nazarda tutamiz;

3) yondosh D yoki S ning oldingiakkord bilan qanchalik to'g'ri bog'lanishini aniqlaymiz.

Shuday qilib, og'ishmaning anglash jarayoni uni amalga oshirish jarayoniga teskari keladi.

### **Topshiriqlar.**

Berilgan kuy va basni garmoniyalashtiring.

71

1

2

3

The image contains two sets of musical staves. The top set shows two staves in G minor (one with a bass clef, one with a treble clef) with various note heads and rests. The bottom set shows two staves in C major (one with a bass clef, one with a treble clef) with note heads and rests, and includes a measure number '4'.

## 18- mavzu. MODULYATSIYA

### 1-§. Modulyatsiya haqida umumiy ma'lumot.

Modulyatsiya og'ishmadan shu bilan farq qiladiki, yangi tonallik kadensiya bilan mustahkamlanad

72

*L.Betxoven*

The image shows a musical score for piano. It consists of three staves. The top staff is for the treble clef, the middle staff for the bass clef, and the bottom staff for the bass clef. The tempo is marked 'Andante'. The score includes dynamic markings such as 'cresc.', 'sf', and 'sf' (sforzando).

Modulyatsiyaga xos belgi – tovushning yoki bir nechta tovushlarning alteratsion o'zgarishi bo'lib, bu yangi tonallikka mos keladi. Odatda ular yangi

tonallik dominantasining tovushlaridir. Modulyatsiya, agar garmonik davra yangi tonallikni yorqin ifodalasa alteratsiyasiz ham anglanadi.

Modulyatsiya jarayonini boshlab beradiigan tonallik ***dastlabki tonallik*** deb ataladi. Modulyatsiya jarayoniga yakun soladigan tonallik ***yangi tonallik*** deb ataladi.

Dastlabki tonallikda ham, yangi tonallikda ham uchraydiganakkord ***umumiylakkord*** deb ataladi. Umumiylakkorddan so‘ng keladigan yangi tonallikning birinchiakkordi ***modulyatsiyalovchi***akkord deb ataladi.

## **2-§. Modulyatsiyalar turlari**

O‘tish usuliga qarab modulyatsiyalar quyidagilarga ajratiladi:

- a) funktsional modulyatsiya;
- b) engarmonik modulyatsiya;
- c) melodik modulyatsiya.

**Funksional modulyatsiyada** har ikki tonallikka tegishli umumiylakkord funksiyasining o‘zgarishi yuz beradi. Shu tufayli tonalliklarning funktsional aloqasi amalga oshadi.

**Engarmonik modulyatsiya** – bu shunday modulyatsiyaki, unda vositachiakkord uning tarkibiga kirgan tovushlarning bir qismining engarmonik almashinishi yo‘li bilan umumiylakkordga aylanadi.

**Melodik modulyatsiyada** bitta yoki ikkita ovozning melodik harakati yangi tonallikka olib keladi.

Tonallikning turg‘unlik darajasi bo‘yicha, ya’ni uning davomiyligiga va kadansli mustahkamligiga qarab modulyatsiyalar mukammal va nomukammal modulyatsiyalarga ajratiladi.

**Mukammal modulyatsiyada** yangi tonallik datlabkisidan turg‘onroq bo‘ladi, ya’ni yangi tonallikka o‘tish jarayoni mustahkamlash harakati bilan birga sodir bo‘ladi. **Nomukammal modulyatsiyada** yangi tonallik datlabkisidan sal kam turg‘un bo‘ladi. Nomukammal modulyatsiya og‘ishma va o‘tkinchi modulyatsiyaga bo‘linadi. Og‘ishma – bu yangi tonallikka o‘tish va oldingisiga qaytish bo‘lsa, o‘tkinchi modulyatsiya – bu yangi turg‘un tonallikka o‘tishda oraliq noturg‘un tonallikka

aytiladi. Funktsional modulyatsiyalar tonalliklarning garmonik o‘xshashligiga asoslanadi. Umumiyakkordlarga ega tonalliklar garmonik jihatdan qardosh bo‘ladi. Umumiyakkordlar qanchalik ko‘p bo‘lsa, tonalliklar shunchalik yaqindir.

### **3-§. Garmonik qardoshlikning darajalari.**

*Garmonik qardoshlikning uchta darajasini* ajratish mumkin.

Asosiy tonallik pog‘onalarida tuziladigan major va minor uchtovushliklar yondosh tonallik tonikasi bo‘lib, tonalliklar qardoshligining *birinchi darajasini* tashkil qiladi. Tonalliklarning tonikalari umumiyakkord bo‘lib hisoblanadi.

Qardoshlikning *ikkinci darajasiga* asosiy tonallik bilan hech bo‘lmasa bitta umumiy uchtovushlikka ega bo‘lgan tonalliklar kiradi. Ammo bu umumiy uchtovushlik tonika sifatida xizmat qilmaydi.

Qardoshlikning *uchinchi darajasiga* funktsional qardoshlikka ega bo‘lmagan, yani birorta ham umumiy uchtovushlikka ega bo‘lmagan tonalliklar kiradi.

### **Savollar**

1. Modulyatsiya deb nimaga aytiladi?
2. Moduluyatsiya turlarini ayting.
3. Taqqoslash deb nimaga aytiladi.
4. Og‘ishma deb nimaga aytiladi.
5. Yangi tonallikning paydo bo‘linishida qaysi belgi xal qiluvchi hisoblanadi.
6. Qaysi bosqich tonalliklar I darajali qardosh tonalliklar qarashli.
7. Qanday akkorlar modulyatsiyalovchi akkorlar bo‘lishi mumkin?

## **19-mavzu. BIRINCHI DARAJALI QARDOSH TONALLIKLARGA MODULYATSIYA**

### **1-§. Birinchi darajali tonalliklar qardoshligi.**

Tonalliklarning bevosita aloqadorligi ular tonikalarining funktsional munosabatlariga asoslanadi.

Laddagi har bir major va minor uchtovushligi vaqtinchalik tonika funksiyasini bajarishi mumkin, u vositachiakkord jihatini kasb etib, shu bilan bir vaqtida, yondosh tonikani asosiy tonallikka bo‘ysundiradi.

Qardoshlikning birinchi darajasiga oltita tonallik kiradi:

1. **Parallel tonallik**, uning kalit belgilari asosiy tonallik belgilari bilan bir xil. Majorda bu VI-pog‘onadagi, minorda esa – III- pog‘onadagi tonallik bo‘ladi.
2. **Dominanta va uning parallel tonalliklar** asosiusi bilan bitta belgiga farq qiladi. Majorda bu V va III pog‘onalardagi tonalliklar, minorda esa V va VII pog‘onalar tonalliklari bo‘ladi.
3. **Subdominanta va uning parallel tonalliklar** asosiusi bilan bitta belgiga farq qiladi. Majorda bu tonallik IV va II-pog‘onalar, minorda esa - IV va VI pog‘onalar tonalliklari bo‘ladi.
4. Ushbu tonalliklardan tashqari, birinchi darajadagi qardosh tonalliklarga quyidagilar kiradi: a) majorda to‘rtta belgiga farq qiluvchi **garmonik minorli subdominanta tonalligi**; b) minorda – to‘rtta belgiga farq qiluvchi **garmonik majorli dominanta tonalligi**. Masalan, Do majorga nisbatan yaqin qardosh tonalliklar: lya minor, Sol major, mi minor, Fa major, re minor, fa minor.

Lya minorga nisbatan yaqin turdosh tonalliklar: Do major, mi minor, Sol major, re minor, Fa major, Mi major.

Shunday qilib, major tonalligi o‘z dominanta guruhiga kiradigan ikkita birinchi darajli qardosh tonallikka ega (Do majorga Sol major va mi minor tonalliklari). Minor tonalligi o‘z dominanta guruhiga kiradigan to‘rtta birinchi darajli qardosh tonallikka ega (lya minorga Do major, mi minor, Sol major, Mi major).

Major tonalligi o‘z subdominanta guruhiga kiradigan to‘rtta birinchi darajli qardosh tonallikka ega (Do majorga lya minor, Fa major, re minor, fa minor

tonalliklari). Minor tonalligi o‘z subdominanta guruhiga kiradigan ikkita birinchi darajli qardosh tonallikka ega (lya minorga re minor, Fa major).

Birinchi darajali qardosh tonalliklarga **modulyatsiya qilish jarayoni to‘rtta bosqichdan iborat**:

1. Dastlabki tonallikni ko‘rsatish; u davomli garmonik rivoji bilan ko‘rsatiladi;
2. Vositachiakkordni topish (aniqlash);
3. Modulyatsiyalovchiakkordni aniqlash;
4. Yakunlovchi kadensiya Modulyatsiyalovchiakkord tarzida ikkinchi tonallikni ko‘rsatish.

## **2-§. Vositachi va modulyatsiyalovchiakkordlar.**

Modulyatsiya ikkita tonallikka tegishli **umumiyyakkord** yordamida yuz beradi. Umumiyyakkord, boshlang‘ich tonallikda muayyan funksiyani bajarar ekan, yangi tonallikda endi boshqa funktsional ahamiyat kasb etadi. Buakkord ikkita tonallik o‘rtasidagi umumiyyakkord bo‘lib, modulyatsiya jarayonida **vositachiakkord** deb hisoblanadi. Vositachiakkorddan keyin keladiganakkordlar **modulyatsiyalovchiakkord** daeyiladi. Modulyatsiyalovchiakkord sifatida noturg‘un ohangdoshlar kiritiladi: dissonansli subdominanta, qo‘shtominanta, D<sub>7</sub>, DVII<sub>7</sub> va aylanmalari.

Vositachiakkord sifatida har qandayakkordni olish mumkin, ko‘pincha bu oddiyakkord bo‘ladi. Tonika ham umumiyyakkord sifatida qaralashi mumkin. Lekin ikiknchi tonallik tonikasi sifatida olinishi nomaquldir.

**Dominanta tomoniga modulyatsiya qilishda** vositachiakkord yangi tonallikda S yoki SII bo‘lsa, undan keyin yangi tonallikning quyidagiakkordlarni olish mumkin:

- 1) SII<sub>7</sub>akkordlari,
- 2) DD<sub>7</sub> va DDVII<sub>7</sub>akkordlari,
- 3) K<sup>6</sup><sub>4</sub>,
- 4) D<sub>7</sub> va VII<sub>7</sub>akkordlari.

Vositachiakkord yangi tonallikning T guruhiga kiradigan bo‘lsa, undan keyin S, DD, Dakkordlari keladi.

**Subdominanta tomoniga modulyatsiya qilishda** vositachi akkord yangi tonallikda D, TDIII, T, T<sub>6</sub>, kamdan-kam S va DD akkordlari bol'sa, undan keyin yangi tonallikning namoyishi kengaytiriladi:

- 1) VI pog'onaga og'ishma qilish,
- 2) Bo'lingan davrani kiritish,
- 3) Kadensyaning o'zini kengaytirish.

Yangi tonallikning S funksiyasini mustahkamlash uchun vositachi аккордга og'ishma kiritlishi mumkin. Majorga modulyastsiya qilinishi SII, VI, S akkordlariga, minorga esa minorli subdominanta va ba'zida VI pog'ona akkordlariga og'ishmasi bilan kuzatiladi.

Modulyatsiyalar namunalari:

73

a

E

a

C

C



a

### Savollar va topshiriqlar.

1. Modulyatsiya nima?
2. Modulyatsiya nechta bosqichdan iborat?

3. Umumiyakkord nima?
4. Vositachiakkord nima?
5. Modulyatsiyalovchiakkord nima?
6. Re major, Si major tonalliklariga nisbatan birinchi darajali qardosh tonalliklarni aytib bering.
7. Berilgan kuy va basni garmoniyalashtiring.

74.1



2



3



4



5



I6 III6

6



7



8



9



## 20-mavzu. AKKORDSIZ TOVUSHLAR

### 1-§. Umumiy tushunchalar

Kuy, ya'ni bir ovoz bilan ifoda etilgan musiqiy fikr musiqaning eng muhim vositasidir. Garmoniya va kuy orasida munosabatlar paydo bo'ladi. Ayrim kuyning har bir tovushini garmoniyalash-tirib bo'lmaydi, ko'pincha kuyning bir necha tovushi bitta akkor-dga, bitta garmoniyaga to'g'ri keladi.

Ba'zi bir kuylar faqatakkordli tovushlar bo'yicha harakatlanshi mumkin. Kuy pog'onama-pog'ona harakatlanishida esa, akkord tartibiga kirmaydigan tovushlarni qamrab olishi mumkin. Bunday tovushlarakkordsiz tovushlar deb ataladi. Ularakkordni murakkablashtirib, yangrash boyligini oshiradi.

## 2-§. Akkordsiz tovushlarning xilma-xil turlari

- Kuchsiz hissada paydo bo'lgan tovushlar:
  - *yordamchi*,
  - *o'tkinchi*,
  - *predyom*.
- Kuchli hissada paydo bo'lgan to'xtalma tovushi:
  - tayyorlangan to'xtalma,
  - tayyorlanmagan to'xtalma.

Tayyorlangan va tayyorlanmagan to'xtalma yuqoriluvchi va pasayuvchi bo'ladi.

Yordamchi tovush pog'onama-pog'ona tovushlar harakatida paydo bo'ladi. Uakkordning tovushi va uning takrorlanishi o'rtasida joylashadi (yuqoridan yoki pastdan).

Misol uchun, F. Shuberting «Kechki serenada»da (40-misol) birinchi taktda tonika garmoniyasi yangraydi («re-fa-lya»). Keyin kuy «lya» tonika tovushi bilan boshlanib, darhol tonikaga kirmaydigan «si bemol» tovushni o'rabi olib, so'ng dastlabki «lya» tovushi qaytadi. Akkordsiz tovushlarning shunday turi ***yordamchi akkordsiz tovush*** deyiladi.

Shu asar ichida uchinchi takt oxirida triol yangraydi — «sol-fa-mi». «Sol» bilan «mi» tovushlar dominanta garmoniyaga tegishli. Ular orasidagi fa tovush dominanta garmoniyaga begonadir. U o'tkinchi tovushi hisoblanadi. O'tkinchi tovushlar kuyning ravon harakatida ikki xilakkordli tovush orasidan yuqoriga yoki pastga o'tadi.

## Nisholda

D.Omonullayeva

**Chaqqon**

**Xor**

D.Omonullayevaning "Nisholda" qo'shig'inining kirish qismida biz o'tkinchi va yordamchi tovulashlarga yorqin misol sifatida ko'rib turibmiz.

*Predyom* navbatdag'i akkordning tovushi o'rnida paydo bo'ladi.



Yana bitta akkordsiz tovushlardan biri kuchli yoki nisbatan kuchli hissada olinadi. Bu tovush *to'xtalma* deyiladi, u garmoniya bilan bir paytda paydo bo'lib, undan keyin akkordli tovushga o'tadi.

1 Largo Gaydn Simfoniya №16, 2 q

51-misol.

I. Gaydn 16-simfoniyasi ikkinchi qismidagi ikkinchi taktning kuchli hissasida re major tonalligi dominantterskvartakkordi yangraydi. Yuqori «do» tovushi o'rniga to'xtalma «re» tovushi berilgan. Undan keyin u akkordli tovushga yechiladi. To'rtinchi taktda tonika uchtovushligi (re-fa-lya) yangraydi. Yuqori «fa» tovush o'rniga kuchli hissada «sol» tovush beriladi, so'ngra u «fa» tovushga, ya'ni tonikaning tersiyasiga yechiladi. Oltinchi taktda subdominantning primasiga to'xtalma yana bir bor qo'llaniladi.

Barcha o'tkinchi va yordamchi tovushlar diatonik va xromatik bo'lishi mumkin. Ular to'xtalmadek bir yoki bir necha ovozlarda ishlatalishi mumkin.

#### Takrorlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Akkordsiz tovush — bu nima?
2. Akkordsiz tovushlarning qaysi turlarini bilasiz?
3. Har bir turini ta'riflab bering.
4. K. Abdullayevning «Oq paxta», I. Akbarovning «Salomat» asarlari tahlil qilib, akkordsiz tovushlarni toping.

## 21-mavzu. FAKTURA

Musiqa asarida garmoniya bilan birga kuy, metr-ritm, temp, faktura, dinamika yuzaga keladi. Musiqiy faktura musiqaning asosiy elementlari – kuy, garmoniya, tirmllarning birlashuvidan hosil qilinadi. Faktura ko‘p hollarda musiqiy parcha yoki butun asar davomida saqlanib qoladi. Odatda, fakturanining almashinishi yangi tuzilma boshlanishini belgilaydi.

**Senza metrum**

The musical score consists of two staves. The top staff is labeled "Solo" and has a 7/4 time signature. It features a treble clef, a key signature of one sharp, and dynamic markings "mf" and "v". The bottom staff is labeled "Ansambl" and has a 4/4 time signature. It features a treble clef and a key signature of one sharp.

Garmoniya ma'nodorligi va rangdorligi uchun nafaqat muayyanakkordlarning tanlab olinishi va ular orasida paydo bo'ladi gan munosabatlar, balki musiqiy fakturaning bayon turi va usuli muhim rolni o'ynaydi.

U yoki bu tamoyilga asoslangan bayonning tipik shakllari mavjud.

Musiqqa matnida faktura turlarining xilma-xilligi uchrab turadi. Ularni to'rtta asosiy turga taqsimlash mumkin:

- monodik (bir ovozli bayon);
- polifonik (ko'p ovozli bayon);
- akkordli (ko'p ovozli bayon);
- gomofonik-garmonik (ko'p ovozli bayon).

*Monodik tuzilma* garmonik jo'rligisiz bo'lgan bir ovozli kuy harakatdan iborat. Bu tuzilma ko'proq xalq musiqasiga, bir ovozli qo'shiqqa xosdir. Kuyning o'zi mustaqil tarzda, boshqa ifodaviy vositalardan farqli o'laroq, muayyan fikr, his-tuyg'u va kayfiyat-larni gavdalantirishga qodir.

*O'zbek xalq qo'shig'i "So'ramaysan"*

Moderato  $\text{J}=78$

Ne-chuk be - rah - ma zo - lim - san  
gi- rif - to - ring ni so'r - may - san.  
3-misol.

Cholg'u musiqasida monodik tuzilma yakka asbob uchun yozilgan asarlarga xos.

*Garmoniya ko'p ovozlilikning har qanday turida vujudga keladi.*

*Polifonik tuzilma* ko'p ovozlilik bo'lib, unda barcha ovozlar kuy jihatidan teng huquqli va mustaqil, individuallashtirilgan ifodaviy ahamiyatga ega bo'ladi. Asosan ovozlar soni asar davomida o'zgarmay, ohangning to'liqligini saqlab keladi.

# Diliman

B.Umidjonov

**Adagio**

The musical score for the piece "Diliman" begins with an "Adagio" section. The music is written for four voices or instruments, each in 3/4 time. The key signature is one sharp. The first three staves are in treble clef, and the fourth is in bass clef. The dynamics are marked with "p" (piano). Measure lines are connected by arcs above the staves.

**Akkordli tuzilma** faqatakkordlardan tashkil topadi. Odatda bu tuzilma bitta ritmga asoslangan: barcha ovozlar bir xil cho'zimlar bilan bayon etiladi. Ko'pincha ushbu tuzilmada xor asarlari yoziladi.

M.Ashrafiy

**Tempo di marcia**

The musical score for the piece "Diliman" continues with a section titled "Tempo di marcia". The music is written for two voices or instruments, each in common time. The key signature is one sharp. The top staff is in treble clef and the bottom in bass clef. Dynamics include "sf" (sforzando), "riten." (ritenuntion), and "sf ff" (sforzando fortissimo). Measure lines are connected by arcs above the staves.

**Gomofonik-garmonik bayon** xilma-xilligi bilan ajralib turadi.

Bu tuzilmada bir ovoz (yuqori, o'rta yoki pastki) yetakchi ahamiyatga ega bo'ladi. U boshqa ovozlardan aniq ajralib turadi, ya'ni kuy jo'rligi bilan bayon qilinadi. Mazkur tuzilmadan xilma-xil janrlarda foydalilanadi. Uning har birida kuyni jo'rlikdan ajratish usullar o'ziga xosdir.

S.Jalil

**Andante**

### III QISM. MUSIQA ASARLARI TAHLILI

#### 1-mavzu. MUSIQIY SHAKL VA UNING UMUMIY ASOSLARI

##### 1-§. Musiqiy shakl tushunchasi.

Musiqa asarining tuzilishi **musiqiy shakl** deb yuritiladi. Musiqa vaqt o'lchovli san'at bo'lib, ma'lum bir vaqt davomida yoritiladi, o'zlashtiriladi. Makonga (fazoga) oid san'at turlaridan farqli o'laroq, musiqiy yaxlitlik asarni oxirigacha eshitib bo'lgach, uni idrok etish jarayonida tug'iladi. Har qanday musiqiy asar mazmuni shaklni belgilaydi. Musiqiy shakl ma'lum belgilar – sezuralar bilan bir-biridan ajratilgan qismlardan tashkil topadi. Sezuraning asosiy belgilari: pauza (sukut), uzun notalarda to'xtash, kuy-ritmik figuralarning takrorlanishi, jumladan, sekvensiyali takrorlanish, sur'at, registr almashinishi, yangi mavzuning paydo bo'lishi, avval bayon qilingan mavzuning takrorlanishi hisoblanadi.

Musiqiy shaklni hosil qilishda **musiqa ifoda vositalari**: kuy, garmoniya va ritm katta ahamiyat kasb etadi.

Musiqiy asarda **kuy** yetakchi rol o'ynaydi. Kuyda u yoki bu musiqiy fikrning xarakterli qirralari ayniqsa yorqin namoyon bo'ladi.

Musiqiy asarning asosi yoki uning qismi bo'lib xizmat qiladigan musiqiy tuzilish **mavzu** deb yuritiladi.

Har qaysi kuyni yuqorilab yoki pasayib boruvchi tovushlar harakati ketma-ketligi tashkil qiladi va bu kuy to'lqini deb ataladi. Yuqorilab boradigan harakat ko'pincha keskinlikning ortishini ifoda etadi va **kreshendo** bilan kechadi. Pasayib boradigan harakat keskinlikning pasayib borishini ifoda etib, **diminuendo** bilan kechadi.

Ko'tarilishlar bilan erishiladigan eng yuqorigi nuqtalar **kulminatsiya** (avj) yoki cho'qqilar deb yuritiladi. Kulminatsiyaga erishish yo'llari turlicha:

1. Kulminatsiya tomon pog'onama – pog'ona harakatlanish;
2. keng sakramalarlar bilan kulminatsiyaga erishish;
3. kulminatsyaning pog'onama – pog'ona harakatlar hamda sakramalarlar birligidan hosil qilinishi.

Asosiy kulminatsiya tuzilishning «oltin kesishish nuqtasi» deb ataladigan uchinchi choragida hosil qilinadi.

**Kulminatsiya uchun nafaqat kuy, registrining balandligi, balki jaranglanish kuchi, garmonik fakturaning quyuqligi ham xosdir.**

**Garmoniya** (uyg‘unlik) kuy bilan bir qatorda musiqiy ifodaviylikning yana bir muhim vositasi sanaladi. Qadimgi yunon tilidan tarjima qilganda garmoniya *kelishuv*, *uyg‘unlik* ma’nolarini anglatadi. Garmoniya harakati funksionallik va kolorit nuqtai nazaridan olib qaraladi.

**Garmoniyaning funksional jihatni** tonika va boshqa ohangdoshliklarning bir- biriga qarama-qarshi qo‘yilishida namoyon bo‘ladi. Bu turg‘unlik va noturg‘unlikning o‘zaro nisbatidir. Asosiy tonallik tonika rolini bajaradi, u turg‘un va markazlashtiruvchi, bo‘ysundiruvchi asos (ibtido) vazifasini o‘taydi. Musiqiy asardagi boshqa har qanday tonallik noturg‘un bo‘liy, bo‘ysunuvchi(tobe) tonallik deb yuritiladi.

Bo‘ysunuvchi tonallikning kiritilishi keyingi rivojlanishni rag‘batlaydi. Bunda T—S—D—T formulasi asosiy tonallikning tiklanishi bilan hal qilinadigan funksional ziddiyat hosil qiluvchi tonalliklar tartibini belgilaydi. Tonikani mustahkamlashda subdominanta tonalliklarining ahamiyatini alohida e’tiborga olish kerak bo‘ladi. Tonalliklar almashinuvida variantlilik bo‘lishi mumkin:

1. Yangi tonallik ladli yoki tonal sakrash yo‘li bilan kiritiladi.
2. Yangi tonallik birdaniga modulyatsiyalash yo‘li bilan kiritiladi.
3. Yangi tonallik ravon tarzda kiritiladi.

Tonalliklarning tez-tez almashinuvi keskinlikning umumiy to‘planishiga ko‘maklashadi.

Garmoniyaning ifodaviy, koloristik jihatni musiqaga alohida yorug‘-soya koloritini baxsh etadigan hamda hissiy (emotsional) ifodaviylikni kuchaytiradigan major va minor ladlarning tafovutli(kontrast) taqqoslanishlarida namoyon bo‘ladi. Yorqin noohangdoshakkordlar, g‘ayriodatiy modulyatsiyalar, to‘liqsiz yechilishlar alohida go‘zallikka egadir.

Musiqada **ritmga** eng muhim rollardan biri ajratiladi. Bu atama *tartiblashtirilgan harakat* ma’nosini anglatadi.

Ritm turli tovush vaakkordlarni guruhlarga biriktirib mustahkamlaydiki, ular har qanday musiqiy asarning asosini tashkil etadigan tugallangan fikr – **mavzularni** hosil qiladi. Ritm - tovushlarning cho‘zimiga ko‘ra vaqtli tashkillanishidir. Maromiylik, davriylik metr tushunchasi bilan bog‘liq.

**Metr** – ritmni tashkil qilish tizimi bo‘lib, u kuchli va kuchsiz hissalarning almashinib kelish tartibiga asoslanadi. Raqs janrlari bilan bog‘liq qat’iy metrika, aksentli metrika hamda epik xarakterdagi xalq kuyi uchun xos bo‘lgan erkin metrika tushunchalari mavjud.

## **2-§. Qismlarning shakldagi vazifasi(funksiyasi).**

Musiqiy asarlaridagi har bir qism ma’lum vazifa bajaradi. Bunday vazifalar oltita:

1. Mavzuni bayon qilish, ya’ni uning boshlang‘ich o‘tkazilishi.
2. Mavzu o‘tkazilishlari o‘rtasida joylashuvchi yoki umuman shaklning asosiy qismlarini bog‘lovchi ( bog‘lanma) qism.
3. O‘rtaliq (yoki o‘rta qism) – ko‘pincha mavzu materialiga o‘xshash ikki qism o‘rtasida joylashgan tuzilma. O‘rtaliqning muhim ko‘rinishlaridan biri rivojlov sanaladi.
4. Repriza–avval bayon qilingan mavzuni yangi mavzu kiritilganidan keyin takrorlaydigan tuzilma. Reprizalilik – musiqiy shaklning eng muhim shakl hosil qiluvchi tamoyillaridan biri bo‘lib, asarning umumiyl tuzilishiga mutanosiblik va arxitektonik simmetriya baxsh etadi.
5. Muqaddima– asosiy shakl yoki uning qismiga kirish bo‘lib, u mavzuning keyingi bayoni bilan mavzuviy bog‘langan yoki bog‘lanmagan bo‘lishi mumkin.
6. Xotima (yoki qo‘srimcha) – asosiy shakl yoki uning kismiga yakun yasash (yoki qo‘srimcha qilish). Ko‘pincha muqaddima va xotima bitta mavzu materialiga tuzilib, o‘ziga xos ramka hosil qiladi.

### **3-§. Bayon turlari.**

Qismning har bir funksiyasiga bayonning ma'lum turi, ya'ni rivojloving o'ziga xos davra va usullari mos keladi. Bunday musiqiy bayon turi uchta:

1. Bayonning ekspozitsion ("ko'rsatuv") turi tonal turg'unlik, mavzuviy va strukturaviy birlik bilan ajralib turadi. Bayonning bu turi mavzu ekspozitsiyasiga mos keladi.

2. Bayonning o'rtaliq turi tonal va mavzuviy noturg'unlik, parchalash strukturasi, ohang ishlovi, og'ishmalar va modulyatsiyalar bilan ajralib turadi. Bayonning bu turi o'rtaliq, bog'lamlar, rivojlovlar uchun xos.

3. Bayonning yakuniy turi asosiy yoki bo'ysunuvchi tonallikda tonikaning erishilgan mustahkamlanishini hosil qiladi. Yakuniy bayon turining belgilari quyidagilar bo'lishi mumkin:

- a) kadansli qo'shimchalar, tonikani tutib turish yoki takrorlash;
- b) tonika organ punqt;
- v) subdominanta tomonga og'ishmalar;
- g) oldingi qismga o'sha tonallikdagi qo'shimcha tuzilmalarni qo'shish;
- d) fakturani yengillashtirish, ovozlar sonini qisqartirish.

Bayonning yakuniy turi reprizada, tugallanish qismida va kodada uchraydi.

### **4-§. Musiqa shaklida rivojlantirish tamoyillari.**

Musiqiy shakl vaqt davomida yoritilib ayon bo'ladi va jarayon, ya'ni rivojlanishdan iborat bo'ladi. Musiqiy shaklninng yoritilib berilishida rivojlantirishning beshta tamoyili katta o'rinn tutadi.

**Birinchi tamoyil – takrorlanish.** Bu bir xil kadensiyali yakun bilan aynan takrorlanish. Cholg'u musiqasida oddiy takrorlanish ko'pincha bir martagina qo'llanadi (Betxoven Sonata op 31, №3, 1 q).

**Ikkinchi tamoyil – o'zgartirilgan takrorlanish,** ko'pincha variantlash deb ataladi. Bunday takrorlanish tuzilma uzunligi va kadensiyasini saqlangan holda oddiy takrorlanishning o'rnini bosishi mumkin. Variantlangan repriza istalgan o'zgarishlari bilan hamisha alohida qism deb hisoblanadi: a+b+a<sub>1</sub>.

**Uchinchi tamoyil – rivojlov.** Rivojlovda mavzu qismlarining o'sha balandlikda, oddiy yoki o'zgartirilgan, ya'ni, yangi garmoniyada, yangi tonallikda, turli ovozlarda takrori ro'y beradi. Avval alohida-alohida jaranglagan elementlar endi ketma-ket yoki bir vaqtdagi bog'lanishda kelishi mumkin.

**To'rtinchi tamoyil – yasama kontrast.** U dastlabki mavzuning yangisiga aylantirlishini ko'zda tutadi.

**Beshinchi tamoyil – chog'ishtirma-kontrast-** – avval bayon qilingan mavzuga qarama-qarshi qo'yiladigan va, ba'zan hatto juda sezilarli tafovutga qaramay, u bilan badiiy bir butunlik hosil qiladigan yangi mavzuni kiritish bilan hosil qilinadi.

Qarama-qarshilik sakramalar bilan ta'kidlangan yoki izchil o'tish bilan yumshatilgan bo'lishi mumkin. Qarshi qo'yilgan mavzular o'rtasida katta tafovutlar bo'lmasa, bu kontrast **bir planli** bo'lishi mumkin. Sur'at o'zgarishi bilan kechadigan sezilarli kontrastni **turli planli** kontrast deb yuritiladi.

### **Nazorat savollari:**

1. Musiqiy shakl deb nimaga aytildi?
2. Sezura nima?
3. Musiqiy ifodaviylikning qanday vositalarini bilasiz?
4. Kuy nima?
5. Kulminatsiya nima va u musiqiy asarning qaysi qismiga to'g'ri keladi?
6. Garmonianing shakl hosil qiluvchi ahamiyati haqida nimalar bilasiz?
7. Shakl hosil qilishda ritmning roli nimadan iborat?
8. Qismlarning musiqiy shakldagi asosiy vazifalarini aytib bering.
9. Bayon qilishning qanday turlarini bilasiz?
10. Musiqiy shaklda rivojloving qanday tamoyillarini bilasiz?

## **2-mavzu. DAVRIYA VA UNING TURLARI**

### **1-§. Umumiy tavsif.**

Ma'lum darajada yakunlangan musiqiy fikrni ifodalovchi shakl **davriya** deb yuritiladi. Davriya uchun mavzuni namoyish etish (ekspozitsion) vazifasi xos. Shu bilan birga davriyaning rivojlanish va yakuniylik darajalari uni nafaqat tarkibiy qism, balki mustaqil asar shakli sifatida ham namoyon bo'lishini ta'minlaydi. Mazkur shakl fortepiano miniatyurasi janriga xos bo'lib, romantizm yo'nalishi kompozitorlari (Friderik Shopen, Robert Shuman) ijodida keng rivojlangan.

**Jumlalar** davriya shaklining tarkibiy qismidir. Davriyaning kadensiya bilan yakunlanadigan nisbatan yirik qismi jumla deb ataladi. Davriya asosan ikki jumladan tarkib topadi. Jumlalar, o'z navbatida, ikki: ochiq va yopiq turga bo'linadi. Davriyaning birinchi jumlesi ochiq, ikkinchi jumlesi esa yopiq bo'ladi. Ochiq jumlaning mustaqilligi yopiq jumlanikiga qaraganda nisbatan kamroq bo'ladi. Har bir jumla ikki yoki undan ortiq **iboradan** tarkib topadi. Kadans yakuniyligi, ritmik sezura (pauza yoki tovush jaranglashining uzaytirilishi) kabi omillar jumla mustaqilligini ta'minlaydi.

Sezuraning belgilari:

- a) musiqiy fikrning dastlabki yoki yangi tonallikda yakunlanishi;
- b) yangi musiqiy fikrning paydo bo'lishi;
- s) avval berilgan mavzuning o'zgarishsiz yoki biroz o'zgargan holda takrorlanishi.

Jumlalar **kadensiya** deb nomlanadigan garmonik davra bilan yakunlanadi. To'liq va to'liqsiz kadensiyalar farqlanadi. To'liq kadensiyalar: S-D-T. To'liqsiz kadensiyalar: S-T, D-T.

D-T – avtentik kadensiya deyiladi.

S-T – plagal kadensiya deyiladi.

Kadensiya davriya shakli ichida joylashishiga ko'ra o'rtaliq va yakunlovchi turga ajratiladi. O'rtaliq kadensiya dominantada (ba'zan subdominantada ham) yakunlanadigan birinchi jumla oxirida keladi. Yakunlovchi kadensiyalar davriyaning oxirida keladi. Ular quyidagi turlarga bo'linadi: agar tonika primasi kuy holatida

kelsa, bu turdag'i kadensiya mukammal, kuy holatida tonikaning tersiya yoki kvinta tovushi joylashtirilsa, bu kadensiya nomukammal kadensiya sanaladi.

**Davriyalar ichki tuzilishiga ko‘ra turlicha bo‘ladi.** Davriyalarning turlari va o‘ziga xos bo‘lgan qirralarini ko‘ra bilish, ajrata bilish ko‘nikmalarini hosil qilish uchun tahlil qilishda ma’lum tizimga tayanish tavsiya etiladi. Buning uchun, birinchi navbatda, klassik uslubga xos bo‘lgan, ayniqsa, ko‘proq ikki yoki uch qismli shakllarning tarkibiy qismi sifatida mavzuni ekspozitsion bayonida namoyish etish uchun qo‘llaniladigan davriyalarni tanlab olish zarur.

**Ekspozitsion davriya** quyidagi xususiyatlarga ega.

Tuzilishi – 8 takt (kichik davriya).

Davriya ikki jumлага ajratiladi. Ular, o‘z navbatida, ikki va undan ortiq iboradan tarkib topadi. Davriyaga birlashgan jumlalar tobe jumlalar deb yuritiladi. Birinchi jumla – boshlovchi, ikkinchi jumla – javob beruvchi deb ataladi. Davriya tonikada tugallanadigan kadensiya bilan yakunlanadi. Jumlalar dominantada yakunlanadigan (D yoki K64-D) o‘rtaliq kadensiyalar bilan ham ajratiladi, ham birlashtiriladi. Ayrim hollarda ikkinchi jumlaning boshida asosiy tonallikka qaytish uchun dominantaga modulyatsion og‘ishma hosil qilinadi.

Demak, o‘rtaliq kadensiya davriyani jumlalarga ajratib bersa, yakunlovchi kadensiya butun davriyani birlashtiradi. Shu tarzda kadanslar mutanosibligi, “aytishuvi” hosil qilinib, bunda noturg‘un – savol beruvchi kadansga ikkinchi – tasdiqlovchi kadans javob beradi. Bunday savol-javob munosabatidagi jumlalar klassik uslubdagi davriyalarga xosdir.

Davriyalar **bir tonalli** – asosiy tonallikda yakun topadigan va **modulyatsiyalovchi** – yangi tonallikda (asosan dominantada, minorda – parallel tonallikda) yakun topadigan turlarga bo‘linadi.

Agar bir tonalli davriyada yaqqol seziladigan og‘ishmalar hosil qilinsa, bunday davriya ham modulyatsion davriya deyiladi (modulyatsiyalovchi davriyadan farqli ravishda). Agar davriya yangi tonallikda yakunlansa, ammo davriyaning o‘rtalarida o‘ziga xos modulyatsiyalar yorqin namoyish etilsa, bunday davriyalar ham **modulyatsion** davriya deyiladi Modulyatsiyalash ko‘proq ikkinchi jumлага to‘g‘ri

keladi. Dominanta yo‘nalishidagi (V yoki III pog‘ona) tonalliklariga modulyatsiyalash ko‘proq xosdir.

Ko‘pgina davriyalarda ekspozitsiyaviylik qirralari tuzilmalarning kvadratliligida, ya’ni qismlarning to‘rt taktliligida namoyon bo‘ladi. Bunday davriyalar sakkiz, o‘n olti, o‘ttiz ikki taktdan iborat bo‘ladi.

Mavzu rivojiga ko‘ra davriyalar **takrorlanadigan va takrorlanmaydigan tuzilmali davriyalarga** ajratiladi.

**1. Takrorlanadigan tuzilmali** davriyada ikkinchi jumla materiali, uning rivijlanishi birinchi jumla bilan o‘zaro o‘xshashlik hosil qiladi. O‘xshashlik qirralari turli darajada bo‘ladi: ba’zan faqat umumiylar tarzda yoki alohida bo‘laklarda ko‘rinadi. Aksariyat hollarda jumlalarning boshlang‘ich bo‘laklari o‘xshash bo‘lib, jumlalarning yakunida ayrim o‘zgarishlar sodir bo‘ladi (L.Betxoven. №5 sonata, II qism).

**2. Takrorlanmaydigan tuzilmali** davriyalarda ikkinchi jumla birinchi jumladan sezilarli darajada farqlanadigan materialda quriladi. Odatda bunday davriyalarda ba’zi intonatsion qarindoshlik saqlanadi va bu ikki jumlanı birlashtiradigan omil sifatida xizmat qiladi. Mavzu rivojlanishiga ko‘ra murakkab bo‘lgan bunday davriyalar nisbatan kam uchraydi (R.Vagner. “Tangeyzer” operasiga uvertyura).

Kontrast tamoyiliga asoslangan uchta jumlali davriyalar ham uchraydi (E.Grig. Norvegiya raqsi op. №35, №2).

Jumlalarga ajratilmaydigan davriya **qo‘silib ketgan tuzilmali yoki yaxlit tuzilmali davriya** deyiladi. Bunday davriyalar yorqin avj nuqtasiga olib keluvchi yagona kuy - garmoniya rivojlanishi bilan ajralib turadi(Betxoven, Sonata op.10, №2, II qism).

Katta hajmli, 16 taktli davriyalar ham normal toifaga kiritiladi. Ular 8 taktli oddiy kadansli ikki jumladan iborat bo‘ladi.

## **2-§. O‘ziga xos xususiyatga ega va normativ bo‘lмаган даврийалар.**

Musiqiy nutqni to‘liq va har tomonlama o‘rganish uchun yuqorida keltirilgan “normal” даврийалар bilan chekhanish mumkin emas. Shu sababli boshqa turdagи даврийалар haqida ham tasavvurga ega bo‘lish lozim.

Davriyalarning ayrim turlari tez-tez, ba’zilari esa nisbatan kam uchraydi; ayrimlariga ekspozitsion bayon xos, boshqalari esa davomiy rivojlanish xususiyatiga ega. Aksariyat давриялarda umumiy qonun-qoidalardan tashqariga deyarli chiqilmaydi; lekin shunday даврийалар ham bor-ki, ularda chekinishlar yaqqol ko‘zga tashlanadi. Davriyaning umumiy qonun-qoidalardan chekinishlar даврияга normativ bo‘lмаган xarakter bag‘ishlaydi.

Ba’zi давриялarda mavzuning rivojlanishi o‘ziga xos ko‘rinishga ega va uni “davriya” tushunchasi qolipi doirasiga kiritib bo‘lmaydi. Bunday даврияларни **erkin tuzilmalar** qatoriga kiritish mumkin. Klassik даврия va erkin tuzilmali даврияларни farqlash uchun normal toifadagi даврияни asos qilib olish va unga nisbatan solishtirma tahlil qilish mumkin. Bunda, birinchi navbatda, bajariladigan ish klassik uslubdagi давриялarda uchraydigan o‘ziga xos, ammo umumiy belgilangan chegaralardan chiqmaydigan qirralarni topishdan iborat.

1.O‘rta qismi tonikada yakunlanadigan (dominanta o‘rniga) nomukammal kadensiyali даврийалар ko‘p uchraydi. Tonika tersiyasi kuy holatida joylashadi. Nisbatan kam hollarda kuy holatida kvinta ham uchraydi, u sekstakkord ko‘rinishida bo‘lishi mumkin yoki takning kuchsiz hissasiga to‘g‘ri keladi (M.I.Glinka. “Ivan Susanin”, Vanyaning qo‘shig‘i).

2. Davriyaning ikkinchi jumlesi ayrim hollarda bevosa parallel majorda boshlanadi (L.Betxoven, Sonata №1,3- qism). Ba’zan ikkinchi jumla bevosa subdominanta tonalligida kiritiladi (L.Betxoven, Kvartet, op.18 №4, 3- qism; A.Skryabin. Prelyudiya, op.11 №10).

3. Ba’zi hollarda даврия kichikroq hajmdagi kirish qismdan boshlanadi. Ushbu kirish qismi давриyaning asosiy strukturasiga kiritilmaydi, ammo umumiy holda uni kengaytiradi (L.Betxoven. Sonata №6, 2- qism).

4. Ichki qo'shimcha rivojlovli, kengaytirilgan, yakunlovchi xarakterga ega bo'lgan (ibora yoki uchinchi jumlali) davriyalar ko'p uchraydi. Bunday kengaytirish holati davriyada nomukammal yoki uzilgan kadensiyalardan (ko'picha qaytariladigan) so'ng kuzatiladi. Buning natijasida, davriya shakli nisbatan kengayadi (L.Betxoven. Sonata №8, 3- qism).

5. To'rtinchi punktda keltirilgan davriya turi bilan navbatdagisini adashtirmaslik lozim. Chunki davriyaning shunday turi ham uchraydiki, bunda davriyaga qo'shimcha tarzda mustaqil bitta (yoki bir necha) jumla kiritiladi. Mazkur qo'shimcha jumla yakunlovchi xarakterga ega bo'ladi. Bunday ko'rinishdagi yakunlovchi jumla davriya to'liq tonika kadansi bilan tamomlangandan so'ng qo'shiladi va nisbatan murakkab davriya hosil bo'lgunicha rivojlantirilishi mumkin (L.Betxoven. Sonata №3, 1- qism).

Davriya shakli ichidagi qo'shimcha ham, davriyadan so'ng kiritilgan yakunlovchi qo'shimcha ham, o'zidan avval kelgan mavzuiy rivojni ta'kidlaydi. Bunda klassik uslub uchun kadanslashning bir necha bor ta'kidlanishi xos, romantik kompozitorlar ijodida esa kulminatsiyaga olib boradigan sekvensiyali rivojlov uchraydi.

### **3-§. Davriya shaklining o'ziga xos xususiyatlari**

**Davriya shaklining o'ziga xos xususiyatlari turli-tuman bo'lib, ular quyidagi toifalar bo'yicha o'rganiladi:**

- 1) hajmiga ko'ra (taktlar soni);
- 2) davriya ichida taktlarnig metrik birlashuviga ko'ra;
- 3) kadans tuzilishiga ko'ra;
- 4) tarkibiga ko'ra;
- 5) modulyatsiyali rivojga ko'ra.

Shuni ham nazarda tutish kerakki, yuqorida keltirilgan turli tartibdagi xilma – xil xususiyatlar o'zaro zich bog'langan; masalan, davriyaning hajmi taktlarning metrik birlashuvi bilan, modulyatsiyali rivojlov kadanslash bilan bog'liq va h.k.

Shuning uchun ushbu tizimlashtirish ma'lum bir shartli-nazariy xarakterga ega, ya'ni musiqiy voqeliklarni ma'lum nuqtai nazardan ko'rib chiqish uchun asos bo'ladi.

**1.Hajm bilan bog'liq o'ziga xosliklar.** Normal holatdagi 8-16 taktli davriyalardan tashqari turli hajmdagi davriyalar, 8 taktdan kam bo'lgan hajmdagi mustaqil tuzilmalar ham uchraydi (V.A.Motsart. Kvartet №10, I qism).

Hajmi 8 taktdan kattaroq bo'lgan davriyalar uchinchi jumlaning qo'shilishi yoki ikki jumlaning bittasi kengaytirilishi natijasida yuzaga keladi. Eng ko'p uchraydigan variant sifatida 12 taktli davriyalarni ko'rib chiqish mumkin (4+4+4), 6 taktli ikki jumladan tarkib topgan davriya ham o'ziga xos qirralarga ega bo'lgan davriyalar qatoridan o'rinn oladi (L.Betxoven. Sonata №29, 1- qism).

Juft sonli davriyalar nisbatan tabiiy xarakterga ega, toq sonli davriyalar umumiylardan tashqariga chiqadi, chunki musiqani idrok qilish qonuniyatları taktlarning juftlikli (kvadratli) birlashuviga asoslanadi.

**2.Taktlarnig metrik birlashuvidagi o'ziga xosliklar.** Bunday o'ziga xosliklar ichki tuzilish bilan bog'liq, ammo ularni faqat taktlarning metrik birlashuvini nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi.

Hajmiga ko'ra normal 8 taktli davriya hajman nomutanosib bo'lgan 3+5 yoki 5+3 taktlardan iborat jumlalarga bo'linadi. Ayniqsa, katta hajmli davriyalarda normativ bo'limgan tuzilmalar turlicha bo'lishi mumkin. Demak, bunday katta hajmli davriyalarda normativlarga to'g'ri kelmaydigan variantlarning soni ham ko'p bo'lishi mumkin.

Bunda quyidagilarni farqlash lozim: 1) davriyaga qo'shimcha sifatida kiritiladigan ibora yoki jumlalarning taktlari va asosiy jumlalar taktlarining juft metrik birlashuvini, masalan:

$$4+4+2 \text{ (qo'shimcha)} = 10 \text{ (L.Betxoven. Sonata №3, 2- qism).}$$

### **3.Kadanslashlarning o'ziga xosliklari.**

1.Davriyalar o'ziga xos qirralarga ega bo'lgan o'rtaliq kadensiyali ham bo'lishi mumkin:

- a) turg‘un tonikada yakunlanadigan o‘rtaliq kadensiya (taktning kuchli hissasi va asosiy tonning kuy chizig‘ida joylashishi), bu kabi kadensiya birinchi jumlaga nisbatan yopiq xarakter baxsh etadi.
- b) subdominanta bilan yakunlanadigan o‘rta qism kadansiyasi.
- 2) normal, yopiq xarakterli davriyalardan tashqari, oxirida dominantadagi yarimtali kadans bilan yakunlanadigan ochiq davriyalar ham mavjud (L.Betxoven. Sonata №18, 3- qism).

#### **4.Davriyalarining tuzilishidagi o‘ziga xosliklar.**

1.Davriya tuzilishining o‘ziga xos qirralari jumlalar, taktlarining hajmi va metrik jihatdan bog‘lanishida namoyon bo‘ladi. Tuzilmaning kattalashishi ,asosan, aynan ikkinchi jumlaning kengaytirilishi hisobiga amalga oshiriladi (I.Gaydn. Kvartet №1, 3- qism).

Ikkinchi jumlesi qisqartirilgan davriyalar nisbatan kam uchraydi (F.Mendelson. “So‘zsiz qo‘shiq”, №30).

2. Ba’zan uch jumladan tarkib topgan davriyalar ham uchraydi, bunda uchinchi jumla o‘zidan oldin keladigan jumla uchun yakunlovchi vazifasini bajarmaydi (E.Grig. Norvegiya raqsi. №2). To‘rt jumladan iborat bo‘lgan davriyalar ham mavjud (F.Shopen. cis-moll prelyudiyasi).

3. Jumllalarga ajratilmaydigan davriyalar ham mavjud bo‘lib, ular yalpi rivojlovli davriyalar deyiladi. Bunday davriyalar ayrim hollarda jumlalar hosil qilmaydigan,ammo chegarasi aniq bo‘lgan iboralardan tarkib topadi (L.Betxoven. Trio, op.9. №1, 4 -qism).

4. Yana shunday davriyalar ham borki, ularda ayrim iboralar jumlalar hosil qilmaydi, ayrimlari esa davriyaning ikkinchi yarmida jumla hosil qilishi mumkin.

**5. Modulyatsion rivojiga ko‘ra o‘ziga xosliklar.** Umuman olganda, modulyatsiyalash davriyaning ikkinchi jumlesi uchun xos. Ikkinchi jumla bevosita yangi tonallikkda – parallel, II bosqich yoki subdominanta tonalliklaridan birida (solishtirma sifatida) ham boshlanishi mumkin. (L.Betxoven. Sonata №7, 1 -qism), subdominanta (L.Betxoven. Kvartet, op 18. №4, 3-qism) tonalliklarda boshlanishi mumkin. Birinchi jumlaning parallel major va dominanta tonalliklaridan tashqari

boshqa tonalliklarga modulyatsiyalanishini (albatta, tegishli o‘rtaliq kadensiyalari bilan) ham o‘ziga xosliklar qatoriga qo‘shish mumkin.

Uzoq tonallikka modulyatsiyalash noyob hodisa sifatida qabul qilinadi (L.Betxoven. Simfoniya №8, 1- qism).

Bir davriyada turli darajadagi bir qator o‘ziga xosliklar ham uchrashi mumkin. Aksariyat hollarda ular o‘zaro bog‘liqlikda bo‘lishi kuzatiladi.

#### **4-§. Bir qisqli shakl.**

Bir qisqli shakl yaqqol seziladigan mustaqil bo‘limlarga ajralmaydi va musiqiy materialning uzluksiz rivojiga asoslanishi bilan tavsiflanadi. Pauza va o‘zga ko‘rinishdagi sezuralar uning yaxlitligini buzmaydi.

Bir qisqli shakllar o‘zining hajmi, murakkabligi, rivojlanish xarakteri va ichki tuzilishiga ko‘ra turli-tumandir: bir necha taktdan iborat bo‘lgan eng sodda bir qisqli tuzilmalardan, to keng rivojlantirilgan turlarigacha kuzatish mumkin.

Bir qisqli shakl musiqiy asarlarda ham mustaqil ko‘rinishda, ham biror kattaroq shaklning tarkibiy qismi sifatida turli xil janrlarda qo‘llanadi.

**Eng oddiy bir qisqli shakl** turi sifatida biz mavzuviy materialning dastlabki rivojlovsiz bayonini nazarda tutamiz. Bu oddiy davriya yoki jumla bo‘lishi mumkin. Bunday tuzilmaning odatiy hajmi 8 taktni tashkil qiladi va rivojlanishi davomida murakkablashmaydi (F.Shopen. Preljudiya №7). Bunday shakl (oddiy ikki qisqli va uch qisqli shaklar qatorida) tobe bo‘lim sifatida nisbatan yirik shakllar tarkibiga kiritilishi mumkin. Bunday holat, birinchi navbatda, variatsiyalar mavzulariga tegishlidir. Qadimgi variatsiyalarda, passakaliyalar va chakonalarda mavzular doimiy ravishda bir qisqli shaklda bayon etilgan. Keyinchalik, gomofon-klassik uslub hukmronligi davrida variatsiyalar mavzulari asosan oddiy ikki qisqli bo‘lib, uch qisqli shakl nisbatan kam qo‘llangan.

Eng oddiy bir qisqli shakl yirik hajmli asarlarning kirish qismi sifatida qo‘llanishi mumkin.

Bir qisqli shakl mustaqil shakl sifatida ko‘proq vokal musiqasida – obraz rivojining asosi sifatida xizmat qiladigan, turli matn bilan takrorlanadigan kuplet

sifatida (ba'zan uncha katta bo'lmanan o'zgarishlar bilan) uchraydi. Bu shakl asosan **kuplet shakli** deyiladi. Kamer-vokal musiqasi va operalarda bu shaklga misollar ko'p. Variatsiyalanadigan jo'rlik bilan birgalikda **kuplet-variatsiya** shakli xosil bo'ladi.

Cholg'u musiqasida mustaqil ko'rinishdagi oddiy bir qismli shakl ko'proq musiqa sohasiga dastlabki qadamlarni qo'ygan o'quvchilar uchun mo'ljallangan yengil pyesalarda uchraydi. Fortepiano uchun yozilgan miniatyuralarni (prelyudiya va boshqa asarlarni) ham oddiy bir qismli asarlar qatoriga kiritish mumkin.

**Rivojlantirilgan bir qismli shakl** deganda hajmi oddiy bir qismli shaklga nisbatan kattarok bo'lган shakl tushuniladi. Bunday shaklga shunday tuzilmalar kiritiladiki, ular hajman oddiy davriya shaklidan tashqariga chiqadi, ularda material nisbatan erkin rivojlantiriladi.

Variatsiyalar mavzusi uchun rivojlantirilgan bir qismli shakl xos emas.

Yirik shakldagi asarlarning kirish qismlarida rivojlantirilgan bir qismli shakl oddiy bir qismli shaklga nisbatan ko'proq uchraydi. Bu tabiiy, chunki muqaddima qismlar uchun yalpi erkin rivojlov xosdir.

Mustaqil ko'rinishda mazkur shakl bezakli-garmonik yoki bezakli -melodik passajli yoki kuychan harakatlarga asoslangan asarlarda qo'llanadi.

Bunday shakl I.S.Bax prelyudiyalariga xosdir. Bunda davriyaga xos bo'lgan takrorlanadigan tuzilish kuzatilmasa-da, hajman katta bo'lmanan ushbu prelyudiyalarda keyingi rivojlantirish elementlari uchraydi.

### **Nazorat uchun savollar:**

- 1.Davriya nima?
- 2.Davriya uchun qanday vazifa xos?
- 3.Davriya mustaqil shakl sifatida namoyon bo'lgan qaysi asarlarni bilasiz?
- 4.Normal ekspozitsiyali davriya shaklini qaysi xususiyatlar belgilab beradi?
- 5.Og'ishmalar mavjud bo'lgan davriya qanday nomланади?
- 6.Mavzuviy rivojiga ko'ra davriyalar qanday ajratiladi?
- 7.Takroriy tuzilmali davriya deb nimaga aytiladi?

- 8.Takroriy bo‘lmaidan tuzilmali davriya deb nimaga aytildi?
- 9.Klassik uslubdagi davriyalarning qanday o‘ziga xosliklari bilasiz?
- 10.Davriyalarnig o‘ziga xosliklari nimalarga ko‘ra farqlanadi?
- 11.Bir qismli shaklning qanday turlarini bilasiz?
12. Oddiy bir qismli shakl nima?
- 13.Rivojlantirilgan bir qismli shakl nima bilan tavsiflanadi?

**Tahlil uchun material:**

- L.Betxoven, Sonata №1, 3- qism, №3, 1- qism, 2- qism, №6, 2- qism, №7,3-qism, №8, 3 qism, №18, 3 qism, №29, 1 qism
- L.Betxoven. Simfoniya №8, 1 qism
- M.I.Glinka. “Ivan Susanin”, Vanyaning qo‘shig‘i
- E.Grigr. Norvegiya raqsi op. №35, №2
- F.Mendelson. “So‘zsiz qo‘shiq”, №30
- G.Mushel. «Pushti sonatina»
- G. Mushel. «Maktub».
- K. Kenjayev. “Andantino”.
- H. Rahimov. “Quvlamachoq”.
- F.Shopen. Preljudiya №7

**3- mavzu: ODDIY IKKI QISMLI SHAKL, MURAKKAB IKKI QISMLI SHAKL, QADIMSONATA SHAKLI**

**1-§. Umumiyy tavsif.**

Oddiy ikki qismli shakl deb, har ikkisi ham tuzilishiga ko‘ra oddiy bo‘lgan ikki qismdan tashkil topgan shaklga aytildi.

Musiqaning asosiy fikr-mavzusini bayon etadigan birinchi qism ma’lum bir davriyani taqazo etadi. Ikkinci qism davriyadan murakkab bo‘lmagan tuzilishni talab etadi. Unda musiqiy fikrning keyingi rivojlanishi va yakunlanishi sodir bo‘ladi.

Ikki qismli shaklning har bir qismi takrorlanishi mumkin. Raqsona pyesalarda takrorlanadigan qism band (kolen) deb ataladi.

Oddiy ikki qisqli shakl tarkibiy qismlari qo'shilib ketgan yoki ajralib turgan tuzilishga ega bo'ladi. Shaklning qo'shilib ketganlik yoxud ajralib turganlik darajasi birinchi va ikkinchi qismlar orasidagi metrik chegaraning yaqqolligi, sezuraning aniqligi, birinchi davriyaga yakun soladigan kadensiyasining xarakteriga bog'liq.

Shaklning bo'linganligi har bir qismning takrorlanishi bilan ta'kidlanadi.

Bo'linganlik raqs xarakteriga ega musiqada ayniqsa, ko'proq uchraydi. Qo'shib yozilgan shakl sekin harakatli lirik pyesalar uchun xosdir, u odatda qismlar orasidagi kuy yoki fakturaviy o'tishlar, ikkinchi qismdan oldingi dominantali kadensiya orqali amalga oshiriladi.

Ikki qisqli shaklda **birinchi davriya** yorqinlik baxsh etib, esda qolarli mavzu va ekspozitsiyaviy xususiyatga ega. U bir tonalli yohud parallel yoki dominantali tonallikka modulatsiya qilgan davriya bo'lishi mumkin. Bu davriya kvadrat yoki nokvadrat tuzilishga ega.

**Ikkinchi davriya** albatta asosiy tonallikda tugaydi. Tonallik jihatidan *yopiqlik* oddiy ikki qisqli shaklning tugallanganligi va mustaqilligini ko'rsatib beruvchi asosiy belgi bo'lib hisoblanadi.

Oddiy ikki qisqli shaklda yozilgan vokal pyesalarda muqaddima (kirish) va xotima (yakun) qismlari mavjud, ular u qadar katta bo'lmay, takrorlanish xususiyatiga ega.

## 2-§. Oddiy ikki qisqli shakl turlari

Oddiy ikki qisqli shaklga nisbatan ko'proq xos bo'lgan tuzilish  $A + A_1$  xarfiy formula orqali ifodalanishi mumkin. Bu formula ikkinchi qismdagi musiqiy fikr rivoji birinchi qismning mavzuviy elementlaridan foydalangan holda amalga oshirilishini (birinchi qism ikkinchi jumlasining notama-nota yoki o'zgartirib takrorlanishi) nazarda tutadi.

Bunday shakl **repriza bilan kelgan oddiy ikki qisqli shakl** deb ataladi.

Uning sxemasi quyidagicha:

I

**a + a<sub>1</sub>**

II

**b + a<sub>1</sub>**

Oddiy ikki qisqli shaklning boshqa bir turi **reprizasiz oddiy ikki qisqli shakldir.**

Unda ikkinchi qism yangi mavzu materiali asosida tuziladi va kontrast kiritadigan yoki yaqqol ajralib turadigan xususiyatga ega. Uning sxemasi quyidagi ko‘rinishda:

<b>I</b>	<b>II</b>
<b>a +a<sub>1</sub></b>	<b>b +b<sub>1</sub></b>

**Reprizasiz oddiy ikki qisqli shakl** asosan vokal asarlarda uchraydi va naqoratli qo‘shiqlarda namoyon bo‘ladi. Ular orasida shunday misollar uchraydiki, bunda ikkinchi qism musiqasining xususiyati birinchisidan shu qadar farq qiladiki, A va B qismlari orasidagi farq kontrast (ziddiyat) darajasiga yetadi.

### **3-§. Oddiy ikki qisqli shaklning yaratilishi va qo‘llanilishi.**

Oddiy ikki qisqli shaklning yaratilishi va rivojlanishi birinchi navbatda maishiy raqlar va albatta turli qo‘shiq janrlar tarixiga bog‘liq.

XVII asrning ko‘pgina raqlari (allemanda, kuranta, menuet, gavot) oddiy ikki qisqli A +A<sub>1</sub> toifadagi **qadimiy ikki qisqli shaklda** yaratilgan, bunda ikkinchi qism birinchisiga nisbatan ikki yoki uch marotaba uzoqroq davom etiladi (I.S.Bax syuitalarining raqsi).

XVIII asrda oddiy ikki qisqli shakl lendler raqsi uchun , XIX asrda esa turkumli valslar uchun xos edi.

Shubert, Shuman, Glinka, Dargomijskiy, Varelas, Mushel, Yudakovlarning qo‘shiq va romanslarida, mustaqil pyesalar ko‘rinishidagi oddiy ikki qisqli shakllarga turli xil misollar mavjud.

Oddiy ikki qisqli shakl nisbatan murakkab musiqiy shakllarning tarkibiy qismi sifatida Motsart va Betxoven sonatalari o‘rtaliq qismida, shuningdek, Shubert, Shuman, Glinka, Chaykovskiylaring cholg‘u pyesa va romanslarida uchraydi.

Variatsiya shaklining mavzusi oddiy ikki qisqli shaklida bayon etilishi ,ayniqsa, odatiy xoldir.

#### **4-§. Rivojlantirilgan ikki qisqli shakl.**

Rivojlantirilgan ikki qisqli shakl deb ko‘lami va rivojlanishining murakkabligi bilan oddiy ikki qisqli shakldan kengayib ketgan shaklga aytamiladi. Rivojlantirilgan ikki qisqli shaklning eng farqli xususiyati shundaki, uning har bir qismi oddiy tuzilma emas, (davriya va jumla), balki yana ham kengroq rivojlanishga ega. Ayrim hollarda murakkab ikki qisqli shaklga yaqqol ifodalangan davriy tuzilishiga ega bo‘lgan, yetarli darajada murakkab asarlar kiritilishi mumkin. Ba’zida birinchi qismning oddiyligi saqlanishi bilan birga, ikkinchi qisdagi keng rivojlanish tufayli butun shakl *rivojlantirilgan ikki qisqli shakl* xarakteriga ega bo‘ladi.

Shunday qilib, oddiy va rivojlantirilgan ikki qisqli shakllar o‘rtasidagi farq nisbiydir, ammo o‘zining benihoya ifodasida yetarli darajada aniq, negaki, oddiy ikki qisqli shakl nihoyatda lo‘nda bo‘ladi, rivojlantirilgan ikki qisqli shakl esa ba’zan ancha keng ko‘lamga erishadi.

Qismlarning rivojlanishi strukturaviy (tuzilish ) jihatdan ham bo‘ladi. Bunda har bir asosiy bo‘lim aniq ifodalangan davriya va ikki yoki uch qisqli tuzilmalarni o‘z ichiga oladi. Bunday shaklni **murakkab yoki aniqrog‘i, tarkibiy** shakl deyish mumkin. Biroq, qismlarning rivojlanishi **nostrukturaviy, nodavriy, nisbatan erkin** ham bo‘lishi uchrab turadi (bu qadimi rivojlantirilgan ikki qisqli shakllar uchun, ayniqlsa, Bax prelyudiyalari uchun xosdir). Shunday qilib, rivojlantirilgan ikki qisqli shaklning ikki xilini, **ya’ni strukturaviy va nostrukturaviy (erkin) rivojlanishdagi shakllarni** ajrata bilish kerak.

**Asosiy qismlarning ajratilishi**, ayniqlsa, birinchi qismning takrorlash belgilari bilan qaytarilishida ta’kidlanadi. Shu bilan birga, ko‘pincha ikkinchi qism ham takrorlanadi. Birinchi qism takrorlanmagan hollarda, uning oxiri rivojlanishning vaqtinchalik yakuni bilan aniqlanadi. Uning belgilari: aniq ifodalangan kadensiyalash, sezura yoki harakatning to‘liq to‘xtatilishidir.

Qismlarining chegaralari aniq bo‘lmagan muttasilroq rivojlanish ham uchraydi. Biroq ikki qisqli shakl haqida faqatgina rivojlanishdagi birinchi bosqich yakuni aniq namoyon bo‘lib, keyin yangi ikkinchi bosqich boshlanishi kuzatilgandagina aytish mumkin.

**Rivojlantirilgan ikki qisqli shakl turlari** undagi ikkinchi qism mazmuni orqali aniqlanadi. Odatda unda birinchi qism mavzu materialining keyingi rivojlanishini kuzatish mumkin — A+A<sub>1</sub>. Ba’zida ikkinchi qismdagi rivojlov birinchi qism rivojiga nihoyatda o‘xhash bo‘ladi. Aynan shu fakturada, modulyatsion rejada ayrim o‘zgarishlarga ega bo‘lgan birinchi qismning takrori sifatida ko‘rish mumkin. Lekin, ko‘p hollarda ikkinchi qism rivojlanishiga sezilarli o‘zgartirishlar kiritiladi.

Ayniqsa, klassik uslubgacha bo‘lgan davr musiqasi uchun xos bo‘lgan **reprizasiz ikki qisqli shaklda** ikkinchi qism yangi mavzudan, ba’zida oldingi materialning sezilarli darajada o‘zgartiriligan (ko‘pincha rivojlov) rivojidan boshlanib, shaklning oxirida esa boshlang‘ich rivojga o‘xshaganligi bilan xarakterlanadi.

**Reprizali ikki qisqli shakl** — ikkinchi qism birinchi qism reprizasining takrorlanish (ko‘pincha kulminatsiyada) bilan boshlanishi orqali tavsiflanadi va keyin biroz boshqacha usulda murakkablashadi. Bunday shaklni Baxning ijodida, shuningdek, yangi, o‘ziga xos jihatlar aks etgan romantiklar asarlarida ko‘rish mumkin.

Kamdan-kam holatda, istisno tariqasida, rivojlantirilgan ikki qisqli shaklning boshqa turi — ikkinchi qismda ba’zida keskin kontrast (ziddiyat) hosil qiluvchi, **yangi mavzuviy materialni bayon etadigan shakl** uchraydi: A + B.

Shunday qilib, rivojlantirilgan ikki qisqli shaklning ikkita asosiy turini farqlay bilish lozim: 1) A + A (reprizasiz yoki reprizali), 2) A + B (kontrastli).

## **5-§. Qadimiylar rivojlantirilgan ikki qisqli shakl.**

Klassik uslubgacha bo‘lgan davr musiqa uslubi **cholg‘u musiqasida** murakkab ikki qisqli shakl oddiy ikki va bir qisqli shakllar bilan bir qatorda keng qo‘llaniladigan bo‘ldi.

Bax va uning zamondoshlari turkum asarlarining (syuita, partita, sonata) ayrim qismlari, shuningdek, fugalardan oldin ijro etiladigan prelyudiylar odatda rivojlantirilgan bir qisqli yoki ikki qisqli shakllarda yaratilgan. Masalan, ”Yaxshi

temperatsiyalangan klavir”da prelyudiyalar qatori tipik reprizasiz ikki qisqli shaklda yozilgan (birinchi jildda №24, ikkinchi jildda № 2, 8, 9, 10, 15, 20, 21). Ularning ayrimlarida qismlar bo‘linishi takrorlanish bilan ifodalangan.

Qadimiy ikki qisqli shaklning modulyatsion rejasи klassik sonata shaklidagi mavzuviy rivojlanishning modulyatsion rejasiga asos solgan omil hisoblanadi.

Birinchi qismning oxiri yoki o‘rtasida modulyatssion rivoj yaqin tonallikkardan biriga — dominanta tonalligi yoxud parallel majorga tomon harakatlanadi. Tonal muvozanat ikkinchi qismning o‘rtasida asosiy tonallikka sekin-astalik bilan qaytib kelishi orqali qayta tiklanadi va uning yakunida mustahkamlanadi.

Asosiy tonallikka bunday qaytish reprizani hosil qilmaydi va ikki qisqli shaklni uch qisqli shaklga aylantirmaydi, sababi, repriza —eng avvalo, dastlabki mavzuviy materialning ekspozitsion bayoni holatiga qaytishni nazarda tutadi.

## **6-§. Qadimiy sonata shakli.**

Rivojlantirilgan ikki qisqli shakl D.Skarlatti ijodida keng va turlicha qo‘llanilgan. Uning shu shaklda yozilgan “sonatalari” ularda ba’zan chinakam “sonatalilik” jihatlari yetarli darajada aniq namoyon bo‘lishi bilan alohida qiziqish uyg‘otadi.

Eng avvalo, birinchi qismda ikkinchi tonallikning (dominanta yoki parallel major) doirasi nafaqat kengaytiriladi, balki, mustahkamlanadi ham (qism yakunida), bu esa butun ekspozitsiyaga tonal beqarorlikni bag‘ishlaydi.

Sonatalilik ekspozitsiyada mustaqil mazmun-mohiyatni kasb etgan ikkinchi bo‘limning paydo bo‘lishi va uning yangi tonallikka asoslanishi shakllagandagina vujudga keladi. Bu yerda endi bosh partiyaga tonal jihatdangina qarama-qarshi qo‘yilgan yordamchi partiyani ko‘rish mumkin.

Ikkinchi qismning ustunligidagi ikki qisqli shaklning bunday tuzilishi butun ekspozitsiyaga alohida jo‘shqinlik baxsh etadi, bu esa yordamchi partiya mavzusining asosiy tonallikdagi bayoniga qaytish yo‘li orqali buzilgan muvozanatni tiklash lozimligini talab etadi. Xuddi shu narsa shaklning ikkinchi qismida yuz beradi. Yordamchi partiyaning reprizasi ekspozitsiyaning birinchi mavzu materiali

o‘zgartirilgan, qayta ishlangan holda (asosiy tonallikda emas, rivojlov qism elementlari bilan) bayon etilganidan so‘ng ijro etiladi.

Ikkinci qismda bosh partiya uning qayta ishlangan mayzui bilan almashtirilishi, yordamchi partiya esa asosiy tonallikda qaytarilishi bilan kechadigan ikki qisqli shakl **qadim sonata shakli** deb ataladi.

D.Skarlattining ijodida birinchi qismi hali tobe bo‘limlarga (partiyalarga) bo‘linmagan qadim reprizasiz ikki qisqli shakldan bunday shaklning yaratilishini kuzatish mumkin.

Uning umumiy tonal rejasi ilgarigi holatida qoladi: birinchi qismda T dan D ga tomon bo‘lgan harakat ikkinchi qismda sekin-asta D dan T ga qayta boshlaydi. Yordamchi partianing mavzu materiali bosh partiya mavzudan farq qilsagina bunday tuzilish aniqroq namoyon bo‘ladi.

### **Nazorat savollari**

1. Oddiy ikki qisqli shakl nima?
2. Oddiy ikki qisqli shaklning tuzilishi qanday?
3. Bo‘linish va qo‘shilish qayerda uchraydi?
4. Oddiy ikki qisqli shaklning qanday turlarini bilasiz?
5. A + B formulasi haqida nimani bilasiz?
6. Reprizali ikki qisqli shakl nima degani?
7. Oddiy ikki qisqli shaklning yaratilishi va qo‘llanilishi haqida nimani bilasiz?
8. Rivojlantirilgan ikki qisqli shakl haqida sizga nimalar ma’lum?
9. Qadimiy ikki qisqli shakl haqida nimani bilasiz?
10. Qadimiy sonata shakli haqida nimani bilasiz?

### ***TAHLIL UCHUN MATERIAL:***

Bax. «Y.T.K» 1-jild prelyudiyalar №1,21 № 24; 2-jild prelyudiyalar № 2,3, 4,9, 10, 12, 15, 18, 20, 21.

S.Varelas. «Vanka –vstanka»

F.Mendelson «So‘zsiz qo‘shiqlar» №12,16,37

D.Skarlatti. Sonatalar. № 1, 5,6,9,11.

D.Skarlatti. Sonatalar № 2, 4, 8

Z. Tuychiyeva «Eslaysanmi?»

Shopen. Prelyudiyalar: № 8, 11, 16,19 ;

Skryabin. Prelyudiyalar, asarlar. op11:№ 3,16, 21

#### **4-mavzu. ODDIY VA MURAKKAB UCH QISMLI SHAKL**

##### **1-§. Umumiy tavsif. Birinchi qism**

**Oddiy uch qismli shakl deb birinchi qism, o‘rtaliq va reprizadan iborat simmetrik shaklga aytildi.**

Birinchi qism ikki jumladan iborat bir tonalli yoki modulyatsiyalovchi davriyadir. Uchta jumladan iborat davriyalar ham uchraydi (Betxoven. Sonata op 2 №1, Menuet).

Shaklning o‘rta qismi (o‘rtaliq) chekka qismlariga qarama-qarshi qo‘yiladi. O‘rtaliq davriya yoki rivojlov xarakteridagi tuzilmalar qatorini hosil qiladi.

Uchinchi qism – repriza, birinchi qismning aynan yoki o‘zgartirilgan takroridan iborat.

Oddiy uch qismli shakl qismlarga bo‘laklangan yoki qismlari qo‘shilib ketgan bo‘lishi mumkin.

Qismlarga bo‘laklangan shaklda, odatda, birinchi qism, keyin esa o‘rtaliq va repriza birgalikda takrorlanadi. Qismlar aniq takrorlanganda repriza belgisi qo‘yiladi. Aniq takrorni harfiy ko‘rinishda quyidagicha ifodalash mumkin : ||:A:|| + ||:B + A:||

##### **2-§. O‘rtaliq qism.**

Oddiy uch qismli shakl o‘rtalig‘ining quyidagi turlarini farqlash mumkin.

**1. Rivojlantiruvchi toifadagi o‘rtaliq qismi.** Mazkur qism noturg‘un xarakterga ega bo‘lib, birinchi qism mavzusini rivojlantiradi. Rivojlantiruvchi o‘rtaliqli uch qismli shakl **bir mavzuli** deb yuritiladi.

Shaklning bu ko‘rinishining harfiy ifodasi quyidagicha: **A + A<sub>1</sub>+A**.

**2. O‘rtaliq qismda birinchi qism mavzuining rivojlovi** : bo‘laklash, parchalash, ta’kidlash, garmonik rivojlantirish kabi usullar yordamida ishlov beriladi (P.Chaykovskiy. «Yil fasllari», «Troykada» Allegro moderato). Harfiy ifodasi quyidagicha: **A + R + A.**

**3. Kontrastlovchi toifadagi, yangi musiqiy materialga tuzilgan o‘rtaliq** (L.Betxoven. Sonata №7 III q.). Harfiy ifodasi quyidagicha:

**A + B + A.**

Kontrastlovchi o‘rtaliqli uch qismli shakl **ikki mavzuli** deb yuritiladi.

**4. O‘rtaliq mavzusi aniq ifodalanmagan o‘tishdan iborat bo‘lishi mumkin** (L.Betxoven.Sonata №18, III q.). Harfiy ifodasi quyidagicha:

**A + o‘tish + A.**

### **3-§. O‘rtaliq qismdagi garmonik rivojlanish xususida.**

Oddiy uch qismli shakl o‘rtalig‘ida garmonik rivojlanish oddiy va murakkab bo‘lishi mumkin. O‘rtaliqdagi garmonik rivojlanish turi, eng avvalo, uning mavzu xarakteri bilan bog‘liq.

O‘rtaliq qismda yangi mavzuning mavjudligi (A + B + A) uzoq tonallikka (birinchi qismning asosiy tonalligiga nisbatan) ketish uchun ko‘proq asos beradi.

Oddiy uch qismli shakl qismlari o‘rtasidagi tonallik nisbatlarning uchta turini farqlash kerak:

1) o‘rtaliqda yangi tonallikka o‘tilmaydi va uning davomida asosiy tonallik tonika tovushidan uzoqlashiladi;

2) o‘rtaliqda parallel yoki boshqa yaqin tonallikka qisqa muddatli og‘ishma hosil qilinadi. Bunday holat, odatda, o‘rtaliqda birinchi davriyaning mavzuiy unsurlaridan foydalanilganda yuzaga keladi;

3) o‘rtaliqning avval boshidan yangi, ba’zan asosiysiga nisbatan uzoq tonallik paydo bo‘ladi. Asosiy tonallika qaytish yo reprizani bevosita tayyorlaydigan taktlarda, yoki butun o‘rtaliq davomida asta-sekin modulyatsion harakat bilan amalgalash oshiriladi.

Hajman katta bo‘limgan o‘rtaliqlarda tonalliklar qiyosi beriladi (Shopenning № 24 mazurkasi. C-dur). Anchagina davomli kechadigan o‘rtaliqda, odatda, qator oraliq tonalliklar orqali reprizaga asta-sekin o‘tiladi.

Xajmdan qat’iy nazar, ayrim namunlarda o‘rta qism reprizaning aniq his qilinadigan tayyorgarligi bilan yakunlanadi.

Reprizani tayyorlash uchun qo‘llanadigan keng tarqalgan usul – o‘rtaliqni asosiy tonallik dominantasida organ punkti bilan yakunlash.

O‘rtaliqdan reprizaga o‘tishda ba’zan mavzuiy va tonal reprizalar mos kelmasligi kuzatiladi. Masalan, Mendelson № 6 «So‘zsiz qo‘shiq» da tonal repriza tematik reprizadan 8 takt oldin keladi.

#### **4-§. Repriza.**

Oddiy uch qismli shaklning reprizasi uch xil bo‘ladi:

##### **1. Birinchi qismni aniq takrorlaydigan repriza.**

**2. Variatsiyalangan repriza** o‘zgartirilgan takrordan iborat. Yangi rivojlantirish elementlarining mavjudligi shaklning kengayishi yoki qisqarishiga olib keladi. Bu o‘zgarishlar bezakli, fakturali, tonal-garmonik, registrli bo‘lishi mumkin.

**3. Dinamik repriza** birinchi qism mavzusini takrorlashda ahamiyat kasb etadigan o‘zgarishlarni ko‘zda tutadi.

Dinamizatsiya usullari: lad-tonal o‘zgaruvchanlik (minor major bilan yo‘aksincha, almashtiriladi), asosiy kuyga yangi kuyning qarama-qarshi qo‘yilishi, yangi garmonik og‘ishmaning kiritilishi, harakat tezligining ortirishi, ritmik o‘zgarishlar, fakturada bayon zichligi kuchayishi kabilar sanaladi. Dinamik reprizali uch qismli shaklda umumiy kulminatsiya ko‘pincha uchinchi qismga to‘g‘ri keladi.

Repriza ichida ko‘pincha yangiakkordlar va subdominanta tomonga og‘ishmalar kiritiladi. Ular shaklni kengaytiradi va subdominanta garmoniyasi yordamida asosiy tonallik tonikasini mustahkamlaydi.

Ayrim hollarda reprizada birinchi va o‘rtaliq qismlar mavzu elementlarining birlashuvi ro‘y beradi. Bunday birlashuv, odatda, reprizaning asosiy tuzilmasiga qo‘shimchani hosil qiladi.

## **5-§. Kelib chiqishi va qo‘llanishi xususida.**

Oddiy uch qisqli shakl nihoyatda egiluvchan bo‘lib, turli mavzu-mazmunlarni gavdalantirishga moslashgan. Uning qo‘llanish sohasi nihoyatda keng. Bu shaklda kichik pyesalar, prelyudiyalar, ariyalar, romanslar, raqslar yoziladi.

Oddiy uch qisqli shakl murakkab uch qisqli shaklning tarkibiy qismi sifatida ham kelishi mumkin.

Oddiy uch qisqli shaklda yashirin imkoniyatlarning rang-barangligi tufayli u horij kompozitorlari uchun sevimli bo‘lib, ular mustaqil vokal va cholg‘u pyesalar yaratish, nisbatan murakkab shakllar tarkibiga kiritish uchun mazkur shaklga ko‘p bora murojaat qilishgan. Oddiy uch qisqli shakldan R. Abdullayev, M. Burhonov, B. Zeyzman, M. Leviyev, G. Mushel, K. Kenjayev kabi o‘zbek kompozitorlari ham o‘z ijodlarida keng va rang-barang tarzda foydalanishgan.

Asosiy tushunchalar:

Oddiy uch qisqli shakl deganda, albatta, birinchi qism, o‘rtaliq va reprizadan iborat simmetrik shakl tushuniladi.

### **Nazorat savollari:**

1. Oddiy uch qisqli shakl nima?
2. Birinchi qism nimadan iborat?
3. Oddiy uch qisqli shaklning qanday ko‘rinishlari bor?
4. Qismlarga ajratilgan shakl nima?
5. O‘rtaliqning qanday turlarini bilasiz?
6. O‘rtaliq ichida garmonik rivojlantirishning qanday usullari mavjud?
7. Uch qisqli shakl reprizalari qanday bo‘ladi?
8. Oddiy uch qisqli shakl qayerlarda qo‘llanadi?

### **Tahlil uchun badiiy namunalar:**

1. L.Betxoven. Sonata № 3, skerso, № 6, 2 q., № 7, III q., № 18, III q. op 2 № 1, Menuet).
2. M.Burxonov. «Go‘zal qizga».

- 3.M.Glinka. «Tungi zefir».
- 4.E. Grig. Syuita «Per Gyunt», «Anitra raqsi».
- 5.G. Mushel. «Musiqiy kundalik».
- 5.F.Shopen. Mazurka. №24.
6. P.Chaykovskiy. «Yil fasllari», «Troykada». Allegro moderato.

## **6-§. Murakkab uch qismli shakl. Umumiy tavsif**

Murakkab uch qismli shakl deb birinchi qismi oddiy ikki yoki uch qismli shakl, o‘rtaliq chekka qismlar bilan yorqin tafovutlanadigan (kontrast), repriza birinchi qismning aynan yoki o‘zgarishli takroridan iborat shaklga aytildi. Murakkab uch qismli shakl sxemasi oddiy uch qismli shakl sxemasini takrorlaydi, biroq har bir qismning qurilishi va ularning kontrast nisbatlanishi bilan farq qiladi:

A	S	A1
a+v	a+v	a+v
a+v+a	a+v+a	a+v+a

Murakkab uch qismli shakl asosida repriza( birinchi qism mavzusining qaytarilishi) bilan muvozanatlangan dastlabki ikki qismning kontrast taqqoslanishi yotadi. Qismlar contrastiga fakturani, registr, sur’atni , melodik-ritmik vositalarni almashtirish hisobiga erishiladi.

Murakkab uch qismli shaklning ikki turini farqlash lozim:

**1. Tarkibli uch qismli shakl**, unda chekka qismlar (ba’zan o‘rtaliq) sodda shakllarga aniq bo‘laklanadi. Bu shakl raqs janri asarlari: marsh, mazurka, vals, polonez va nisbatan kichik hajmdagi pyesalar uchun xarakterli.

Klassiklar uchun chekka qismlarni oddiy shaklda— ikki va uch qismli qurish tobora tipik sanaladi.

Shunday qilib, chekka qismlar oddiy uch qismli shaklda, o‘rtaliq esa oddiy ikki qismli shaklda yozilishi mumkin (Betxoven Sonata № 11, III q.).

_A_	S	A
a + b + a	a+b	a + b-+a

Hamma qismlar oddiy uch qisqli shaklda yozilgan bo‘lishi ham mumkin (Betxoven. Sonata № 1, III q. - menuet.)

A            S            A  
a-b-a    a-b-a    a-b-a

Kamdan-kam hamma qismlar ikki qisqli shaklda yoziladi (Shopen. Mazurka № 7).

A                    S                    A  
a + b                a+b                a + b

**2. Notarkibiy shakl** nodavriy tuzilishi bilan ajralib turadi. U qadimiy *ariya da capo* uchun xos bo‘lib, romantik- kompozitorlar va, ayniqsa, P.I.Chaykovskiyning keng rivojlantirilib simfoniyalashtirilgan shakllari uchun xos.

#### **7-§. Tarkibli uch qisqli shaklning tuzilishi.**

**Birinchi qism.** Klassik uslubdagi tarkibli uch qisqli shaklning birinchi qismi tuzilishida biz oddiy shakl - ikki va uch qismlilikni ko‘rishimiz mumkin. Oddiy uch qisqli shaklning birinchi bo‘limi (a) asosiy mavzuni o‘z ichiga oladi va davriya shaklida yoziladi. Bu to‘liq kandensiyali yopiq ko‘rilmadir.

Ikkinci bo‘lim (b) kamdan –kam mustaqil mavzuga quriladi. Ko‘pincha unda asosiy mavzu rivoji ro‘y beradi.

Birinchi qism ichidagi repriza(a1) repriza mahalliy repriza deb ataladi. Ushbu repriza birinchi qismga nisbatan jadalroq rivojlantirish hisobiga kengaytirilgan bo‘ladi. Ko‘pincha repriza butun qism kulminatsiyasini o‘z ichiga oladi, unga faol rivojlantirish (modulyatsiyali sekvensiya, bo‘laklash, parchalashlarni qo‘llash) bilan erishiladi. Keskin garmonik va tematik rivojlantirishdan keyin reprizada ko‘pincha qo‘sishimcha beriladi va uning roli asosiy tonallik tonikasini mustahkamlashdan iborat bo‘ladi.

Betxovendan keyingi davr asarlarida birinchi qism oddiy shakllar doirasidan chiqib ketdi. U sonata shaklida yozilishi mumkin (Betxoven. Simfoniya № 9, II q.).

Kam hollarda tarkibli uch qisqli shaklning birinchi qismi variatsiyali mavzudan iborat bo‘ladi (Betxoven. Simfoniya № 7, II q. - Allegretto).

**O‘rta qism.** Murakkab uch qismli shakl uchun o‘rta va chekqa qismlar kontrastning mavjudligi tipik sanaladi.

Murakkab uch qismli shaklda kontrast darajasi va chuqurligi u yoki bu asarning uslubi, janri va g‘oyasi bilan bog‘liq ravishda turlicha bo‘lishi mumkin.

Murakkab uch qismli shaklda kontrast qator ifoda vositalari yordamida hosil qilinadi. Tematik kontrastdan tashqari, faktura kontrasti, orkestr asarlarida esa registr va tembrlar kontrasti xarakterlidir. Tonal kontrast ham shu jumлага kiritiladi.

Murakkab uch qismli shakl o‘rtalig‘ining ikki turi uchraydi:

**a) trio** – tarkibli uch qismli shaklning aniq strukturaviy rivojlanishga ega o‘rta qismi. «Trio» atamasi shaklning ikkinchi qismi uch ovozga yozilgan paytdan mustahkamlanib qolgan.

Trio, birinchi qism kabi, oddiy ikki yo uch qismli shaklda quriladi (istisno tarzida bitta davriya ko‘rinishidagi trio ham uchraydi: (Betxoven. Sonata № 7, III q.).

Trio kontrast olib kiradi. U tematizmning keskin almashuvi, yangi tonallikning paydo bo‘lishi yoki lad maylining o‘zgarishi, bayon qilish xarakterining almashuvida o‘z ifodasini topadi. Trio ba’zan takrorlanadi.

Trio ko‘pincha birdaniga, tayyorgarliksiz keladigan yangi tonallikda o‘tkaziladi. Klassiklar asarlardagi trio va chekka qismlar o‘rtasidagi tonal munosabatlar, odatda, turdoshlikning birinchi darajasi doirasidan chiqmaydi.

Major asarlarda trioda subdominanta (S—F), shu nomdagi (S—s) yoki parallel minor (S—a) tonalliklaridan foydalanish tipik sanaladi.

Trio tonal yopiq, zero odatda, to‘liq kadans bilan tugaydi.

**b) epizod** – o‘rtaliq mustaqil shaklga ega emas, u erkin ketma-ketlikda keladigan qator tuzilmalardan iborat bo‘ladi.

Epizodning yana bir farqli xususiyati uning tonal noturg‘unligidir. Epizod uchun modulyatsiyalash, oquvchanlik, ba’zan repriza oldidan dominanta organ punktining paydo bo‘lishi tipik sanaladi. Epizodni triodan farqlab turadigan qator xususiyatlar (strukturaviy shakllanmaganlik, ishlanmalilik, tonal noturg‘unlik) bilan birga ular o‘rtasida umumiyl jihatlar ham mavjud: har ikkisi yangi, kontrastlovchi

materialga quriladi, har ikkisi, odatda, (asosiy emas) epizodik tonallikda bayon etiladi.

Triordan farqli o‘laroq, epizod takrorlaymaydi. Epizod uchun o‘ziga xos jihatlar (oquvchanlik, erkin rivojlanish, variatsiyalilik) esa uni sonata turkumlari yoki lirik pyesalarning sokin qismlari uchun yaroqli qilib qo‘yadi.

Epizodli murakkab uch qismli shakl klassiklarning turkumli asarlarining vazmin tempdagi qismlarida uchraydi (Betxoven. № 4 va 16 sonata).

Murakkab uch qismli shaklning **uchinchchi qismi – repriza** birinchi qism materialining asosiy tonallikda takrorlanishi bilan tavsiflanadi. Birinchi qism bilan o‘xhashlik tamoyiliga ko‘ra farqlanadigan reprizalarning uchta turi mavjud.

**a) Birinchi qism materiali o‘zgarishsiz takrorlansa, aniq repriza deb ataladi.** Matnda u yozilmaydi va Da Capo tarzida ifodalanadi, bu «boshidan» degan ma’no anglatadi.

Ammo ko‘pincha reprizaga u yoki bu darajada sezilarli o‘zgartirishlar kiritiladi. Bunday reprizada nafaqat uning hajmi, balki tematik materialning rivojlanish xarakteri ham o‘zgarishi mumkin.

Qisqartirilgan reprizalarda, odatda, sodda uch qismli shaklning faqat birinchi bo‘limi (a) mavjud bo‘ladi. Ikkinci (v) hamda uchinchi (a1) bo‘limlar mavjud emas.

Uning sxemasi quyidagicha ko‘rinishga ega:

$$\begin{array}{ccc} A & C & A \\ a + b + a & c & a \end{array}$$

Tematik materialning yangilanish darajasi va xarakteriga ko‘ra, o‘zgartirilgan rerizalar: variatsiyalangan va dinamik bo‘lishi mumkin.

**b) Variatsiyalangan reprizalarda** material bayoni asosiy mavzu xarakterini o‘zgartirmaydigan ayrim faktura o‘zgarishlari bilan beriladi.

Variatsiyalash kuyni noakkord ovozlar yordamida ornamentlash (bezaklashda), ritm o‘zgarishlarida va h.k. ifodalanishi mumkin.

Bu usullar mavzuning melodik to‘yinganligini kuchaytiradi, uni boyitadi va detallashtiradi. Ular murakkab uch qismli shaklda yozilgan turkumlarning ohista

qismlaridagi reprizalar uchun xos sanaladi (Betxoven. Sonata № 16, II q. Andante gratsiozo).

Aniq ifodalangan tasviriylardan ibtidoli dasturiy asarlarda variatsiyalangan reprizalar alohida shtrixlar bilan bo‘yoqdorlikni kuchaytirishi, asarning ma’lum qismlarini yanada ta’kidlashi mumkin (masalan: F. List. «Vallenshtadt ko‘li yonida»).

c) Romantiklarning **murakkab uch qismli shakllarida dinamik deb** yuritiladigan **reprizalarning** alohida turi uchraydi. Ular katta emotsiyal to‘yinganlik va dramatik kuchlanishning yuqori darajasi bilan xususiyatlantadi.

Dinamik reprizalarning o‘ziga xos xususiyati ularning kulminatsion xarakteri sanaladi. Ular hamma vaqt davomli rivojlanish, butun shaklda o‘tuvchan rivoj yakunida yangi qirralarning to‘planishi natijasida yuzaga keladi.

Repriza dinamiklashuvining eng muhim omillari - faktura, orkestrovka va dinamika sanaladi.

Dinamik repriza fakturasi ko‘pincha o‘rta qism fakturasi bilan bog‘liq. Shopenning № 13 c-moll noktyurnida dinamiklashuvining bunday vositasi o‘rta qismda triol harakatlanish sanaladi. Natijada, birinchi qismning motam- lirk mavzusi reprizada mutlaqo o‘zgacha xarakter kasb etadiki, uni patetik ibora bilan o‘xshatishadi.

## **8-§. Notarkibiy shakl.**

Uch qismli notarkibiy shakl uchun nostrukturaviy (erkin) rivojlanish xarakterli. Bu shakl tarixan cholg‘u musiqasida murakkab uch qismli shaklning o‘tmishdoshi bo‘lgan ariya da capoda shakllangan. Ariyalarning bu turi uch qismli shaklda yozilgan. Birinchi qism tugal bo‘lib, tonikada tugagan. Ikkinci qism birinchisidan kayfiyat (major va minorning almashinishi), faktura, sur’at bilan farq qiladi. Uchinchi qism, odatda, kompozitor tomonidan yozilmagan; unda muallif shunchaki ikkinchi qism oxirida «da capo» ko‘rsatmasini joylashtirganki, u italyanchadan “boshidan” deb tarjima qilinadi. ya’ni uchinchi qism melodik jihatdan birinchisini to‘liq takrorlagan.

Nodavriy tuzilish, keng, yaxlit rivojlanish notarkibiy shaklni tarkiblisidan ajratib turadi.

I.S.Bax kantatalaridagi da capo ariyalari notarkibiy shaklda yozilgan. Notarkibiy uch qisqli shakllarga romantik–kompozitorlarning keng, erkin simfonik rivojlanishga ega bo‘lgan ayrim yirik shakllari kiradi (Chaykovskiy. «Franchesko do Rimini», «Manfred»).

Murakkab uch qisqli shakl ba’zan kirish bilan ochilib, koda bilan tugaydi.

**Kirish** (muqaddima) materiali hamma vaqt ham asosiy mavzu bilan bog‘liq emas. Ba’zida kirish mavzuni tayyorlaydigan dominantadagi organ punkti bo‘lishi mumkin (Shopen. Mazurka. №20).

**Koda** uchun katta garmonik barqarorlik, asosiy tonallikning mustahkamlanishi, subdominanta tomon og‘ish, tez-tez kadanslash, tonikada organ punktini qo‘llash xos.

**Asosiy tushunchalar:**

Birinchi qismi oddiy ikki yoki uch qisqli shakl, o‘rtaliq chekka qismlar bilan yorqin kontrastlaydigan, repriza birinchi qismning aynan yoki o‘zgarishli takroridan iborat shaklga murakkab uch qisqli shakl deyiladi.

**Nazorat savollari:**

1. Murakkab uch qisqli shakl nima?
2. Murakkab uch qisqli shaklning birinchi qismlari qaysi shaklda yoziladi?
3. Birinchi qism ichidagi repriza qaysi shaklda yoziladi?
4. Murakkab uch qisqli shakl o‘rtalig‘ining qanday turlarini bilasiz?
5. Murakkab uch qisqli shaklda trio nimadan iborat?
6. Epizod qaysi materialga quriladi?
7. Betxovenning qaysi sonatasida trio davriya shaklida yozilgan?
8. Trio bilan epizod o‘rtasidagi umumiylilik nimada?
9. Repriza nima?
10. Dinamik repriza nima?

**Tahlil uchun material:**

M. Ashrafiy. «So‘zsiz qo‘shiq»

L.Betxoven. Sonata № 1, III q. - menuet., № 7, II ,III q.; № 11, III q.;

№ 16, II q. Andante grazioso

L.Betxoven. Simfoniya № 9, II q., № 7, II q. – Allegretto

G. Mushel. «Vokaliz»

Shopen. Mazurka № 7, 20, noktyurn № 13 c-moll

## 5-mavzu. VARIATSION SHAKL

### 1-§. Umumiy tavsifi.

Variatsiya (lotincha *variatio*) – mavzu bayoni va uning o‘zgartirilgan bir necha takroridan iborat shakl. Variatsion shakl sxemasi quyidagicha:

$$A+A_1+A_2+A_3+\dots$$

Variatsiyalash rivojlovning keng tarqalgan shakllaridan biri sanaladi, zero istalgan tuzilma variatsiyalangan bo‘lishi mumkin. Bunda, odatda, mavzuning asosiy strukturasi saqlanib qoladi. Sof ko‘rinishdagi variatsiyali rivojlov mavzu materialini boyitish, uning yangi tomonlarini jiddiy o‘zgartirishlarsiz ohib berish vositasi sanaladi.

Variatsiyalashni **rivojlantirish tamoyili sifatida** hamda **variatsiyani shakl sifatida** farqlash lozim.

Variatsiyalash **rivojlantirish tamoyili sifatida** istalgan janr va shaklda uchraydi. Masalan, davriyada ikkinchi jumla bиринчи jumlaning variatsion qayta bayoni bo‘lishi mumkin. Rondo shaklida takrorlarda refren variatsiyalanishi mumkin. Sonata shaklining o‘rtalig‘i – rivojlov qismida variatsionlik ko‘pincha jiddiy rol o‘ynaydi.

Variatsiyalar **asar shakli** sifatida ma’lum **tuzilishdan iborat**: tugal mavzu bayoni uning o‘zgargan takrorlari – shu mavzuga variatsiyalar bilan beriladi.

Variatsiya termini nafaqat shakl, balki janrni ham ifodalaydi. Bu holat uni boshqa shakllardan ajratib turadi. Variatsiyalar mustaqil asar (Brams. “Paganini mavzusiga variatsiyalar”), shuningdek, nisbatan yirik asarning qismi (Betxoven.

Sonatalar № 10, 23, 30, 32 (ohista qismlar); Shuman. Sonata *f-moll*, III q) bo‘lishi ham mumkin.

**Variatsiyalar mavzusi** oddiy tugal shaklda bayon qilinadi. Xudi shunday tugal shakl variatsiyalarning har birida saqlanib qoladi. Juda ko‘p hollarda qaysidir ommaviy asardan parcha, xalq qo‘shig‘i yoki raqsi variatsiya mavzusi bo‘lib xizmat qiladi.

Mavzu uchun oddiylik, esda oson oson qolishi, kuy, garmonik til va fakturaning soddaligi xarakterli. Bu sifatlar keyinchalik mavzuni murakkablashtirish va detallashtirish yo‘li bilan rivojlantirish imkonini beradi.

Mavzuni **variatsion o‘zgartirish** rang-barang bo‘lishi mumkin. Kuyning o‘zi yoki uning jo‘rligi, yo har ikkalasi variatsiyaga uchrashi mumkin. Mavzu tonalligi va ,hatto, strukturasi, faktura, ritm, metr, garmonik ketma-ketliklar (izchilliliklar), lad o‘zgarishi mumkin.

Variatsiyalar turkumi alohida mustaqil tuzilma sifatidagi koda yoki oxirgi variatsiyaning kengaytirilgan xotimasi bilan yakunlanishi mumkin.

## 2-§. Variatsiyaning turlari

Variatsiyalar mavzuning o‘zgarish xarakteriga ko‘ra farqlanadi.

Mavzuning asosiy komponentlari jiddiy o‘zgarishsiz qolgan variatsiyalar **qat’iy variatsiyalar** deb ataladi.

**Erkin variatsiyalarda** mavzuning istalgan komponentlari anchayin o‘zgarishi, hattoki unda mavzuning faqat alohida elementlarigina qo‘llangan bo‘lishi mumkin.

Mavzuni rivojlantirishning qat’iy va erkin usullari aynan bitta asarda ham qo‘llana oladi. Juda ko‘p hollarda rivojlantirilgan variatsion turkumda turli-xil erkin variatsiyalardan oldin bir necha qat’iy variatsiya keladi yoki oxirgilar erkin variatsiyalar o‘rtasiga kiritiladi.

**Variatsiyalarning alohida turi – ostinato** (lot. obstinatus - qaysar, qat’iy) variatsiyalari mavjud bo‘lib, o‘zgarmas kuy-mavzuning variatsiyalangan jo‘rlikda

doimiy takrorlanishi bilan xarakterlanadi. Ularning asosiy xillaridan biri – ostinatli bas ovoziga (basso ostinato) polifonik variatsiyalar sanaladi.

Shunday variatsiyalar ham uchraydiki, ularda *soprano ostinato* deb ataladigan yuqori ovozdagi kuy doimiy o‘zgarmas bo‘lib qaytariladi. qoladi.

### **3-§. Ostinato basga (basso ostinato) variatsiyalar.**

Basso ostinatoga polifonik variatsiyalar eng dastlabki variatsion shakllardan biri hisoblanadi. Ular XVI asrda paydo bo‘ladi ,XVII va XVIII asrlarda esa keng tarqaladi va o‘z rivoji cho‘qqisiga erishadi.

Basso ostinato atamasi aynan bitta kuy davrasining past ovozda uzluksiz takrorini ifodalaydi.

Variatsiyalarda mavzu vazifasini tonikadan dominantaga pasayib boradigan va keyin yana tonikaga qaytish bilan kechadigan bas ovozidagi kuy davrasi o‘taydi. Mavzuga jo‘r ovozlar ko‘proq **polifonik** tarzda ishlanadi; biroq ko‘p hollarda jo‘rovozlardagi garmonik rivojlantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Vazmin sur’at,minor ladi, barcha variatsiyalarda o‘zgarmas bo‘lib qoladigan basdagi pasayib boruvchi harakat – hammasi motamsaro -ulug‘vorlik xarakteridagi obrazni hosil qiladi. Variatsiyalar polifonik fakturaning tobora ortib boradigan murakablashuvi tamoyili bo‘yicha joylashtiriladi. Hamma variatsiyalarda shakl, tonallik va garmoniya saqlanib qoladi. Tutib turilgan basga variatsiyalar soni bir necha o‘ntaliklargacha yetadi. Variatsion turkum markazida bir yoki bir necha variatsiya nomdosh ladda yoziladi. Bu esa butun turkumga uch qismli shakl baxsh etadi.

Kulminatsiyalar taqsimoti shakl hosil qiluvchi katta ahamiyat kasb etadi. Yirik shaklda ular, odatda, bir nechta bo‘ladi. Bu kulminatsiyalar shaklni birlashtiradi, zero har bir keyingi kul’mnatsiya oldingisidan kuchliroq bo‘lib chiqadi va ularning hammasi asar oxirida joylashtiriladigan bitta eng yuqori kulminatsiya atrofida guruhlanadi.

#### **4-§. Qat'iy variatsiyalar.**

XVIII asrda gomofon uslub rivojlanishi bilan qat'iy variatsiyalar (klassik) tarqaldi, ularni ba'zida naqshinkor (bezakli) variatsiya deb ham atashadi. Y.Gaydn, V. Motsart, L. Betxoven ulardan o'z ijodida keng foydalanganlar.

Qat'iy variatsiyalar shunisi bilan xarakterlanadiki, ularda mavzuning qator shakllantiruvchi kompozitsion taraflari variatsiyalarning butun turkumi davomida albatta saqlanadi. Mavzuning o'zgarmas komponentlariga quyidagilar kiradi: mavzuning asosiy kuy chizgilari, mavzuning tuzilishi, asosiy garmonik reja, asosiy garmonik izchilliklar, asosiy kadans davralar, tonallik (faqat lad nomdoshiga o'zgarishi mumkin).

Shu elementlarning saqlanishi tufayli mavzu qiyofasi u qadar o'zgarmaydi.

**Qat'iy variatsiyalar mavzusi** sodda, oson esda qoladi, garmonik tili murakkab emas, shakli tugal va aniq. Ularning fakturasi ko'pincha gomofon yokiakkordli.

**Mavzu shakli**, odatda, ikki qisqli, ba'zan bir qisqli. Ba'zida reprizasi qisqartirilgan uch qisqli shakl ham uchraydi.

Ko'p hollarda mavzular aniq ifodalangan qo'shiq yo'raqs xarakterida bo'ladi.

Qat'iy variatsiyalarda mavzuni variatsiyalash imkoniyati ostinat variatsiyalarga nisbatan anchagina keng. Ostinat variatsiyalarda faqat jo'rovozlar variatsiyalansa, qat'iylarida ham jo'rlik, ham kuyning o'zi variatsiyalanadi, qolaversa, variatsiyalash usullari ham rang-barang.

**Asosiy variatsiyalash usuli** bo'lib mavzuni naqshinkor (ornamental) qayta ishlanishi sanaladi. Ornamentatsiya (naqshlash) kuyning asosiy tonlarini turli yordamchi tonlar bilan o'rash, keng intervallarni pog'onama-pog'ona harakat bilan to'ldirish bilan amalga oshiriladi. Shu tufayli kuyning asosiy tonlari atrofida go'yo naqsh hosil bo'ladi (naqshinkor degan nom ham shundan). Naqsh uchun mayda cho'zimlardan: forshlag, gruppetto, gammasimon tez passajlardan foydalanish xarakterli (V.A.Motsart. Sonata A-dur).

Alovida ohanglarni bir registrdan boshqasiga o'tkazishga yo'l qo'yiladi (L. Betxoven. Sonata № 12, 1 q).

Variatsiyalarda mavzuning garmonik asosi va shakli o‘zgarishsiz qoladi, variatsiyalash asosan fakturani rivojlantirish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Ko‘pincha murakkab figuralash polifonik usullarni kiritish bilan kechadi va bu fakturani yanada murakablashtiradi. Bunday variatsiyalarda garmoniya va faktura ko‘pincha kuyning oddiy jo‘rligi bo‘lmasdan, ifodaviylikning asosiy omillaridan biri sifatida ahamiyat kasb etadi.

**Variatsiyalarni** joylashtirishda ma’lum qoida kuzatiladi:

1. Variatsiyalar shunday joylashtiriladiki, har bir navbatdagisi (keyin keladigani) oldingisidan murakkabroq bo‘ladi.

2. Yirik variatsion turkumlarga guruhli joylashtirishlar xos, ya’ni mavzuning bir turda variatsiyalanishi belgilariga ko‘ra. Variatsiyalarning yonma-yon joylashgan har bir guruhi o‘xhash fakturada bayon qilinadi, shu tufayli butun asar yirik bo‘limlar tarzida idrok etiladi.

3. Variatsiyalarni birlashtirishda kulminatsiyalarni joylashtirish katta ahamiyat kasb etadi.

4. Kontrast tamoyili katta rol o‘ynaydi. Bunga ko‘p jihatdan ayrim variatsiyalar uchun nomdosh tonallikdan foydalanish major va minorni taqqoslash kontrastini berib, ko‘maklashadi. Variatsiyalar orasidagi kontrastga yonma-yon joylashgan variatsiyalarda turlicha fakturadan, masalan ,polifonik vaakkordli bayondan foydalanish yo‘li bilan ham erishiladi.

Variatsion turkum kompozitsiyasi uchun oxirgi ikki variatsiya tuzilishi va xususiyatlari katta ahamiyatga ega.

Oxiridan oldingi variatsiya, asarning tematik ibtidosini esga solib, mavzuning dastlabki yoki unga yaqin bayoniga qaytadi (Betxoven. «32 variatsiya»).

Oxirgi variatsiya esa turkumni tugallaydi va shu sababli tugallovchi va umumlashtiruvchi ahamiyat kasb etadi. Odatda, oxirgi variatsiyada yangi, yanada murakkab fakturadan foydalaniladi. Oldingi variatsiyalar bilan solishtirganda u kodaning qo‘silishi sababli kattalashadi (Motsart. Sonata A-dur, II q.; Betxoven. Sonata № 12, II q.).

## **5-§. Qo'sh variatsiyalar.**

Ikki mavzuga variatsiya qo'sh variatsiya deb ataladi. Odatda, bu bir-biri bilan tafovutlanadigan va bir-birini to'ldiradigan obrazlardir.

Qo'sh variatsiyalar Vena klassiklari ijodida uchraydi va mavzularni navbat bilan bayon qilish hamda izchil variatsiyalash ( $a+b+a_1+b_1+a_2+b_2$ ) tamoyili asosida tuziladi.

Gaydnning Es-dur (Paukenwirbel) simfoniyasidan variatsiyalar ikkilik variatsiyalarga tipik misol bo'la oladi. Bu holda avval boshida ikki mavzu (c-moll va C-dur), keyin mavuzalarning har biriga ikkitadan variatsiya bayon qilinadi.

Qo'sh variatsiyalar tamoyili boshqa kompozitsion tamoyillar bilan bog'langan holda qo'llanadi. Masalan, Betxovenning №5 simfoniyasidan Andanteda avval boshida izchillik bilan o'tkazilgan ikkilik variatsiya tamoyili oxirida erkin rivojlantirish bilan birlashtiriladi. Bu qismda lirik-falsafiy xarakterdag'i va qahramonlik-marsh xarakteridagi ikkita mavzu ( $A + B + A_1 + B_1+A_2+A_3$  rivojlantirish bilan +  $CV_2A_4 + o'tish+A_5+Koda$ ) taqqoslanadi.

## **6-§. Erkin variatsiyalar**

Erkin variatsiyalar XIX asr o'rtaida romantik– kompozitorlar ijodida yuzaga keldi.

Erkin variatsiyalarda mavzu strukturasi (shakli), garmoniyasi, tonalligi o'zgarishi mumkin. Ayrim variatsiyalarda mavzudan butunligicha foydalanilmaydi, balki uning alohida aylanmalaridan foydalaniladi, ular birinchi o'ringa chiqadi va maxsus rivojlantirish obyektiga aylanadi.

Variatsiyalar qaysi bir melodik aylanmalarning, hattoki mavzuda ham emas, balki oldingi variatsiyalardan birida paydo bo'lgan ohang rivojloviga qurilishi mumkin – bular «variatsiyaga variatsiya» deb nom olgan.

Mavzu ko'pi o'zi bilan u qadar bog'liq bo'limgan, turli xarakterdag'i miniyaturlar zanjirini yaratish uchun sabab bo'la oladi. Variatsiyalar bunda shu qadar individual xususiyatlarga ega bo'ladiki, ularni turli janrlarda –vals, mazurka, marsh ko'rinishida yozish mumkin bo'lib qoladi. Erkin variatsiyalarning alohida turi

– janrli variatsiyalar yuzaga keladi. Erkin variatsiyalarni yaxlit bir butunlikka jamlashda **kontrastlik tamoyili** katta rol o‘ynay boshlaydi, bu esa janr rangbarangligi va ayrim variatsiyalarning individuallashuvi bilan uyg‘unlashib, butun turkum xarakterini syuitaga yaqinlashtiradi.

**Erkin variatsiyalar mavzusi** xarakteriga ko‘ra qat’iy variatsiyalarnikidan ko‘p ham farq qilmaydi. U yarim kadansda tugallanishi bilan yoyiq bo‘lishi mumkin; shu tufayli ayrim variatsiya shakllari ham yoyiq bo‘lishi mumkin (Shuman. «Simfonik etyudlar»).

### **Erkin variatsiyalarda mavzuni rivojlantirish usullari:**

1. Erkin variatsiyalarning eng tipik qirrasi – ularda mavzuning yaxlit emas, balki fragment (parcha) ko‘rinishida qo‘llanishi; variatsiya asosini mavzuning alohida elementlari(unsurlari) tashkil qila oladi. Ohang-mavzuviy rivojlantirish yo‘li bilan o‘z tonal rejasiga, o‘zining mavzudan mutlaqo farq qiladigan garmoniya va shakliga va h.k. ega bo‘lgan mustaqil pyesa-miniatyura yaratiladi.

Bunday variatsiyalarda mavzu elementlarini ritmik o‘zgartirish katta rol o‘ynaydi, u tufayli qo‘sish intonatsiyalari raqs, skerso kabi jaranglashi mumkin (yoki aksincha), bu janrli variatsiyalarida muhim ahamiyatga ega.

2. Variatsiya asosini mavzu emas, balki mavzuning oldingi variatsiyalardan biridagi qayta ishlanmasidan olingan yangi mavzuviy komponentlardan biror bir element tashkil etadi («variatsiyaga variatsiya») (P. Shuman. Sonata f-moll, III q.).

3. Variatsiyalash asosan mavzu shaklini (strukturasini) kengaytirish yoki qisqartirish tomon o‘zgartirish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Masalan, Chaykovskiyning «Buyuk artist xotirasiga» triosi ikkinchi qismida ikki qismli shakl mavzu shaklining qo‘silishi bilan uchinchi qismda uch qismliga aylantirilgan. Chaykovskiyning № 3 syuitasi finalida mavzuning uch qismli shakli oltinchi va yettinchi variatsiyalarda bir qismliga o‘tadi.

4. Variatsiyalarning turkumda joylashuvi asosan kontrast tamoyiliga bo‘ysundiriladi. Yonma-yon joylashgan variatsiyalar, odatda, bir-biri bilan xarakteri, sur’ati, janrli variatsiyalarda esa janriga ko‘ra ham kontrast hosil qiladi. Qat’iy variatsiyalarda kuzatilmaydigan tonal kontrastning qo‘llanishini ta’kidlash juda

muhim. Erkin variatsion turkumdag'i variatsiyalar turli tonalliklarda, ba'zan mavzu tonalligidan juda uzoq tonalliklarda ham yoziladi.

**Turkum tuzilishida variatsiyalardagi mavzuning o'zgarish darajasi ham rol o'ynaydi.** Erkin variatsiyalar uchun oxiridan oldingi variatsiyada, odatda, vazmin sur'atdagi variatsiyada, mavzuni eslatish juda xos sanaladi, unday keyin keluvchi finalda mavzuga yaqinlik kam bo'ladi.

**Final** ko'pincha turkumni tugallovchi hamda asosiy tonallikka yoki mavzuga nomdosh tonallikka qaytaruvchi **mustaqil pyesa bo'lib**, murakkab shaklda yoziladi, to rondodan (masalan, Shuman. «Simfonik etyudlar», final) va hatto sonatagacha (masalan, P.Chaykovskiyning “Buyuk artist xotirasiga” Triosi, variatsiyalar finali).

### **7-§. Soprano ostinato variatsiyalari.**

Saqlanib turilgan kuylarga (Glinka) variatsiyalar XIX asr o'rtalarida rus xalq qo'shig'idagi kuplet variatsionlikni rivojlantirgan rus kompozitorlari ijodida paydo bo'ldi. Ular qator variatsion turkumlar yaratdilarki, ularda kuy mavzusi mutlaqo aniq takrorlanadi, garmoniya, tembr va orkestr jo'rligi esa variatsiyalanadi.

Soprano ostinato variatsiyalari erkin (garmoniyani variatsiyalash) va qat'iy (jo'rlik fakturasini qayta ishlash) usullarining o'ziga xos birikmasi sanaladi.

Soprano ostinato variatsiyalarning asosiy farqli xususiyati –mavzu qiyofasini belgilaydigan kuyning asosiy omil sifatidagi bosh rolidir. Boshqa barcha vositalar esa uni boyitadi xolos.

Bu variatsiyalar opera (jumladan, rus operasi) va, umuman, vokal ijoddaga keng tarqalgan. Ular aynan vokal musiqa uchun juda xos bo'lib, **variatsiyalangan bayt turlaridan** biridir (Glinkaning “Ruslan va Lyudmila” operasidan “Fors xori”; Musorgskiyning “Xovanshchina” operasidan Marfaning “Ixodila mladeshenka” qo'shig'i ).

Biroq bu kabi usuldan foydalanish cholg'u musiqasida ham uchraydi (Glinka “Ruslan va Lyudmila” operasidan “Turk raqsi”).

### **Asosiy tushunchalar:**

Variatsiya (lot variatio) – mavzu bayoni va uning o‘zgartirilgan bir necha takroridan iborat shakl.

Rivojlantirish tamoyili – variatsionlikni va shakl – variatsiyani farqlash kerak.

Ikki mavzuga variatsiyalar ikkilik variatsiyalar deb ataladi. Odatda, bu bir-biri bilan kontrastlovchi va bir-birini to‘ldiruvchi obrazlardir.

### **Nazorat savollari:**

1. Variatsiya deb nimaga aytildi?
2. Variatsion rivojlanish nima?
3. Rivojlantirish tamoyili sifatida variatsionlik qayerlarda uchraydi?
4. Shakl sifatida variatsiyaning konstruktiv tamoyili nimadan iborat?
5. Variatsiyalar mavzusi qanday bayon etiladi?
6. Variatsiyalarning qanday turlarini bilasiz?
7. Qat’iy variatsiya nima?
8. Erkin variatsiya nima?
9. Egn keng tarqalgan qanday ostinat variatsiyalarni bilasiz?
10. Basso ostinato atamasi nimani anglatadi?
11. Qat’iy variatsiyalarda mavzular qanday shaklda yoziladi?
12. Qat’iy variatsiyalarda kuy qanday yo‘llar bilan rivojlantiriladi?

### **Tahlil uchun material:**

L.Betxoven. Sonata № 10, II q.; sonata № 12, I q.; sonata № 23, II q.; sonata № 30, final; sonata № 32, final; Simfoniya № 5, II q.

B.Gienko. Variatsiyalar.

M.Glinka. Ruslan va Lyudmila: “Fors xori”, “Bosh qo‘shig‘i”, “Turk raqsi”.

B.Zeyzman. O‘zbek xalq qo‘shig‘i mavzusiga variatsiY.

V.Motsart. Sonata №11, 2 q.

M.Musorgskiy. Boris Godunov: Varlaamning “Kak vo gorode bilo” qo‘shig‘i; ”Xovanshchina”dan: Marfaning “Isxodila mladeshenka qo‘shig‘i”.

A. Xashimov. Passakaliy.

R.Shuman. “ABEGG mavzusiga variatsiyalar”, op.1; “Simfonik etyudlar”; sonata f-moll, op. 14, III q.

F.M.Yanov-Yanovskiy. Koncherto grosso №1, III q.

## **6- MAVZU . RONDO SHAKLI**

### **1-§. Umumiy tavsifi**

**Rondo** – *refren* deb yuritiladigan asosiy mavzu bilan *epizodlar* deb yuritiladigan boshqa mavzularning almashinuviga tuzilgan shakl. Rondoning asosiy sharti refrenning kamida uch marta o‘tkazilishi sanaladi.

**Rondo sxemasi quyidagicha ko‘rinishga ega:**

A+B+A+C+A+D+A...

**Refren** asarning umumiy xarakterini belgilaydi va ko‘pincha qo‘sinq-raqs xarakteriga ega bo‘ladi. Refren butun asar tonalligini ham belgilab beradigan aynan bitta tonallikda o‘tkaziladi. Garmonik jihatdan refren yopiq tuzilma bo‘lib, asosiy tonallikdagi to‘liq kadensiya bilan tugaydi. Refren strukturasi – ikki jumladan iborat davriY.

**Epizodlar** o‘zining refren tonalligidan farq qiladigan tonalligiga ega. Odatda, epizodlarda birozgina mavzuiy kontrast kiritadi. Epizodlar strukturasi rang-barang bo‘lishi mumkin.

**Rondo shaklining kelib chiqishi.** Rondo – eng qadimiy shakllardan biri. Uning ildizlari naqoratli xorovod (davra) qo‘sinqlari, raqlarga borib taqaladi.

«Rondo» italyanchadan tarjima qilganda, “davra” degan ma’no anglatadi. Rondo shakli nomining kelib chiqishi bilan bog‘liq ikkita taxmin (faraz) mavjud. Ayrim tadqiqotchilarining fikricha, rondo nomi aynan davra qo‘sinqlaridan (xorovod, davra) kelib chiqqan. Boshqa bir guruh tadqiqotchilar esa, rondo aynan bitta mavzu tinimsiz takrorlanadigan, go‘yo yopiq doira hosil qiladigan shakl xususiyatlarini aks ettiradi, degan fikr bildiradi.

Professional musiqada rondo shakli XVII asrda paydo bo‘ldi.

Tarixan rivojlanib, bu shakl turli uslublarda strukturaning ayniqsa katta rang-barangligiga ega bo‘ldi. Shu sababli rondoni boshqa shakllarga qaraganda aynan

ma'lum davr uchun xarakterli bo'lgan xususiyatlari va qirralarini hisobga olgan holda o'rghanish kerak bo'ladi.

## **2-§. Qadimiy rondo.**

XVII asr va XVIII asrning birinchi yarmida ijod qilgan kompozitorlarda rondo shakli asosan qo'shiq-raqs xarakteridagi musiqada yoki bevosita raqs janrida: gavot, menuet, jigalarda qo'llangan.

Ronda shakli ayniqsa fransuz klavesinchilari F.Kuperen, J.B.Lyulli, L.K.Daken, J. F.Dandrie, J.F.Ramo ijodida keng tarqalgan. Kompozitor-klavesinchilar cholg'u miniatyurasi janrini, qo'llaganlar va juda ko'p hollarda bu dasturli asar bo'lgan. Ushbu miniatyuralarning katta qismi rondo shaklida yozilgan.

Bu turdag'i rondolar uchun qator xislatlar xos:

- a) dasturlilik – har bir asar o'z nomiga ega;
- b) qo'shiq-raqs obrazli tuzilma;
- v) ko'p qismli shakl;
- g) epizodlar refrenga yaqin tonalliklarda yoziladi (birinchi epizodlarda dominanta, oxirgilarida subdominanta sohasidagi tonalliklarni qo'llash tendensiyasi ko'zga tashlanadi);
- d) mavzuiy jihatdan epizodlar refren bilan kam kontrast hosil qiladi. Ko'p hollarda epizodlar mavzu bilan intonatsion turdosh bo'ladi;
- e) refren va epizodlarning yopiqligi, ularning bir-biridan uzoqligi (refren, odatda, davriya shaklida yoziladi, epizodlar esa yo davriya, yo yanada erkin tuzilma, biroq albatta yopiq kadansli bo'ladi);
- j) gomofon bilan qatorda polifonik tuzilmadan keng foydalanish.

## **3-§. Klassitsizm davrida rondo.**

Klassik uslubda ronda yangi qirralarni kasb etdi. Oddiy rondolar nisbatan murakkablariga – bog'lamali, ko'pincha rivojlovililariga o'z o'mini bo'shatib berdi. Yangi, strukturasi belgilangan shakllar yuzaga keldi va ular cholg'u, shuningdek vokal musiqaning turli janrlarida tarqalgan

## **Asosiy turi besh qisqli rondo sanalib, u ikki ko‘rinishga bo‘linadi:**

1. Ikkita turlicha epizodli – ABACA.

2. Birinchi epizodning takrori, ammo o‘zga tonallikda –ABAB<sub>1</sub>A.

Bular bilan bir qatorda boshqa **alohida shakllar** ham uchraydi:

1. Ikkinci epizodda rivojlov bilan – ABARA (Betxoven. Sonata № 2, II q. Largo) o‘tadi.

2. Birinchi yoki ikkinchi epizod refren mavzusi materialida tuzilgan – AA<sub>1</sub>ACA yoki ABAA<sub>1</sub>A (Motsart. Sonata № 8, final; sonata № 15, final).

3. Kamdan-kam hollarda ko‘p qisqli «qadimiy» (ABACADA tipdagi), ammo o‘z rivojlanishida anchagina murakkablashtirilgan shakllardan ham foydalaniadi.

Klassik uslubda ABACA ronda juda keng tarqalgan. ABAB<sub>1</sub>A rondo sezilarli darajada kam uchraydi (u birinchi marta Motsart tomonidan kiritilgan).

Bu shakl ohista sur’atlardagi asarlarda ham qo‘llana boshladi (Motsart. Sonata № 14, Adagio; Betxoven. Sonata № 8, II q.).

Vena klassiklari ko‘pincha rondo shaklida raqs intonatsiyalari orqali ulkan insoniy quvonch, tantana, ko‘tarinkilik tuyg‘ularini umumlashma ifoda etadilar (masalan, Betxoven. Sonata № 21, final). Rondo – sonata- simfonik turkumining final qismi bo‘lib qoladi.

Klassik rondo bo‘limlari soni qisqarganda bo‘limlarning hajmi ortadi, yanada kengaytiriladi. Refren va epizodlar tuzilmasi ko‘pincha davriya emas, endi oddiy ikki-uch qisqli shakldan iborat bo‘ladi.

Refren bilan epizodlar orasida mavzuiy kontrast kuchaytiriladi. Ikki epizodli rondolarda, ayniqsa, ikkinchi epizod kontrastlanadi (Betxoven. Rondo C-dur, op. 51).

Rondo shaklining alohida bo‘limlari orasida kontrastning ortishi klassik kompozitorlar ijodida keng o‘tuvchan rivojlanishga intilish va shakl qismlari tarqoqligini bartaraf etishga urinish bilan birlashib ketadi. Bunga rondo bo‘limlari orasidagi **bog‘lov-o‘tishlar** ko‘maklashadi. Besh qisqli rondo uchun refrendan birinchi epizodga, undan refrenning ikkinchi o‘tkazilishiga, hamda ikkinchi epizoddan refrenning oxirgi o‘tkazilishga *bog‘lovlar* eng xarakterli xususiyatdir (L. Betxoven. Rondo, op. 51 №1).

Kontrast kuchaytirilgani va nisbatan murakkab rivojloving paydo bo‘lishi tufayli katta umumlashmaga, shaklning qo‘sishimcha tugallanishiga zarurat yuzaga keladi. Shundan klassik rondoda kodaning ahamiyati ortdi.

**Koda** – rondo mazmun xarakteri, shaklda kontrast va rivojlanish darajasiga bog‘liq tarzda turlicha: katta bo‘lmanan tugalmadan (Betxoven. Sonata № 20, final) rivojlov belgilarga ega kengaytirilgan tuzilmalargacha (Betxoven. Rondo C-dur, op. 51) bo‘lishi mumkin.

Koda – alohida bo‘lim, rondoning asosiy qismidan ajratilgan tarzida bo‘lishi mumkin, ba’zida unda, hatto, yangi mavzu materialidan foydalaniladi.

Shunday qilib, yetuk klassitsizm davrida rondo shaklining asosiy farqli xususiyatlari bo‘lib kontrastning kuchaytirilganligi, o‘tuvchan rivojlantirishning paydo bo‘lishi sanaladi, ular dinamizmning ortishi, shaklning birligi va yaxlitligi ortishiga olib keladi.

**Klassik rondoda** shakl hosil qilishning **turli tamoyillarining aralashma** qo‘llanishi ham kuzatiladi. Bu, eng avvalo, turli strukturalar: rondallik va uch qismlilikning birikishida ko‘zga tashlanadi. Shunda uch qisqli ekspozitsiyada va murakkab uch qisqli shakldagi qisqartirilgan reprizada ikkilamchi (bo‘ysundirilgan) struktura – rondo yuzaga keladi (Betxovenning № 10 sonatasidan skerso-final).

Bundan tashqari, besh qisqli rondoda umumiyligining yashirin uch qismliligi hamma vaqt o‘rin tutadi, bunda ikkinchi epizod birinchisidan ahamiyatliroq (kattaroq) bo‘ladi. Bu klassik uslub uchun xos bo‘lgan shakl bosiqligini (mutanosibligi) yuzaga keltiradi.

Shakl hosil qilish tamoyillarining aralashmasi rondo shakliga variatsion rivojlantirish tamoyilining kirib kelishida ham namoyon bo‘ladi. Bu jihatdan refrenni takrorlashda uni variatsiyalash asosiy xususiyat sanaladi (Betxoven. Andante *F-dur*).

#### **4-§. XIX—XX asrlarda rondo shaklining rivojlantirilishi**

Romantizm davri ham rondo shakliga yangi o‘zgarishlar kiritdi. Rondo oliy shakllarining soddalariga nisbatan ustuvorligi kuzatiladi. Bu Betxovendan keyingi davr uchun xos bo‘lgan murakkablashuvga va shakl hosil qiluvchi turli

tamoyillarining o‘zaro bir-biriga bir-biriga kirib borishiga bo‘lgan umumiy yo‘nalishda o‘z ifodasini topdi. Rondoning oddiy besh qismli shakli unga rivojloving kirib kelishi bilan yanada rivoj topdi.

Qadimiy musiqada kuzatilgan ko‘p qismlilikka intilish tendensiyasi paydo bo‘ldi.

Bu jihatdan Shuman ijodi eng tipik sanaladi. Masalan, “Vena karnaval”ning birinchi qismi o‘n bir qismidan iborat: ABACADAE(o‘tish)FAK. Bu ko‘p qismlilik bo‘limlarning har biri alohida yanada rivojlantirilganligi va hajmi ortgani holda bir-biriga nisbatan yorqin kontrastlangan mavzu va tonalliklarning biriktirilishiga asoslangan.

Rondo bo‘limlari ikki yoki uch qismli shaklda yoziladi (Shuman ijodi). Tonal reja rangbaranglik kasb etib, unga nafaqat yaqin, balki uzoq tonalliklar ham kiritiladi.

Refren bilan epizodlar, shuningdek, alohida epizodlarning ham o‘zaro kontrasti ayrimlarining ma’lum janr uslubida yozilganligi bilan kuchaytirilgan; qator epizodlar marsh, romans, bolero xarakterini kasb etadi (Shuman. «Vena karnaval» da B epizod romans xarakterida, E epizod esa Grosfater qadimiy nemis raqsida yozilgan).

Erkin talqin qilingan rondo shakli rus opera musiqasida keng qo‘llanadi. Rondolilik tamoyili Glinkaning «Ruslan va Lyudmila» operasiga Introduksiya tuzilmasini qurish asosini tashkil etadi. Bayan mavzusi «Dela davno minuvshix dney» (*B-dur*) refren vazifasini bajaradi, Bayanning ikki qo‘shig‘i (g-moll - D-dur) asosiy mavzu oraliqlarida epizodlar rolini bajaradi.

## **5-§. Rondo shaklining qo‘llanishi.**

Rondo alohida (cholg‘u, vokal) asar shakli sifatida ham, turkumli asarning (sonata, simfoniya) qismi sifatida ham, opera yoki balet sahnasi shakli sifatida ham, nihoyat, yirik shakl bo‘limi sifatida ham uchraydi.

Ko‘pincha simfoniyalar finalida rondo shaklidan ommaviy xalq bayrami manzarasini yaratish vositasi sifatida foydalaniladi (Glazunov. Simfoniya № 6, II q.).

Rondo shakli turkumli asarlarda – ohista qismlarida keng qo'llanadi (Motsart. Sonata № 14, IIq., Betxoven. Sonata № 8, IIq.), kamroq skersoda qo'llanadi. Rondo shakli ayniqsa finallar uchun xos (Betxoven. Sonatalar № 19 va 24, M.Tojiyevning “Navo” simfoniyasi, 4 q.).

Final turkumning, odatda, harakat va rivojlanish yetakchilik qiladigan emas, balki yakunlash, erishilganini ta'kidlash ustuvorlik qiladigan qismi sanaladi. Aynan shunday ta'kidlashning qarori imkonini aynan rondo shakli beradi.

Rondo shakli o'zbek kompozitorlari ijodida ham keng rivojlangan. U alohida fortepiano pyesalarida ham (G.Qodirov «Rondo»), vokal asarlarda ham (G.Mushelning Zulfiya she'riga “O'rik gullaganda” romansi) uchraydi. Rondo shakliga o'zbek kompozitorlari kamer-cholg'u asarlarida ham murojaat qilgan. F. Yanov-Yanovskiyning goboy va kamer orkestr uchun ikki qismli konserti finalida o'zgaradigan “xona” tuzilmasi va o'zgarmas “bozgo'y” tuzilmasi almashinishiga asoslangan “maqom” rondolilik keltirilgan. Bu kabi dramaturgik yechim Yevropa an'analari va o'zbek musiqa shakllari talablariga mos keladi. Rondallik tamoyili F. Yanov-Yanovskiyning orkestr uchun besh qismli konserti 1-qismida ham shakl hosil qilishning engmuhim omiliga aylangan.

### **Asosiy tushunchalar:**

**Rondo** – refren deb yuritiladigan asosiy mavzu bilan epizodlar deb yuritiladigan boshqa mavzularning almashinishiga qurilgan shakl. Rondoning asosiy sharti refrenning kamida uch marta o'tkazilishi sanaladi.

### **Nazorat savollari:**

1. Rondo shakli nima?
2. Rondoning birinchi, takrorlanadigan bo'limi qanday ataladi?
3. Oraliq bo'limlar qanday nomlanadi?
4. Refren qaysi tonallikda o'tkaziladi?
5. Epizodlar qaysi tonallikda o'tkaziladi?
6. Rondoda qismlarning eng kam soni nechtaga teng?
7. Sodda ronda uchun nimalar tipik sanaladi?

8. Murakkab rondo uchun nimalar tipik sanaladi?
9. Rondoning proobrazi nima?
10. XVII-XVIII asrlarda qaysi asarlarda rondo shaklidan foydalanilgan?
11. Rondo shakli qaysi kompozitorlar ijodida keng tarqalgan?
12. Refren qaysi shaklda yoziladi?
13. Epizodlar nimadan iborat?
14. Klassik uslubda rondo qaysi qirralarga ega bo‘ldi?
15. Yetuk klassitsizm davrida rondo qanday farqli xususiyatlarga ega bo‘ldi?
16. Shumanning «Karnaval»ida rondo necha qismidan iborat?

**Tahlil uchun material:**

Betxoven. Sonatalarning finali: op. 10. №3; op. 14. №2; op. 49, №2; op. 53; op. 79. Rondo C-dur, op. 51№1

Gaydn. *D-dur* sonatasi, Final.

Glinka. “Ruslan va Lyudmila” operasidan Farlaf Rondosi; «Ivan Susanin» operasidan Antonida kavatinasi va rondosi;

Daken. “Kakku”.

Dargomijskiy. “To‘y”, “Tungi zefir”, “Baliqcha qo‘shig‘i”.

G.Qodirov. Rondo

T. Qurbanov. Goboy va fortepiano uchun rondo.

F.Kuperen. Mahbubam (La Favorite); Xushbo‘y suv (La Bandoline);

Motsart. Sonata №8. Final, №10. Rondeau en Polonaise; №15. Final; Sonata № 18. Adagio; №14. II q

Ramo. Venetsiyalik ayol (Venitienne); Jiga, Nozik shikoyatlar (Les tendres plaintes).

M. Tadjiev. “Navo” Simfoniyasi, 4 q.

Shopen. Preljudiya, op. 28 № 17; Noktyurn, op. 37 № 2; Mazurka, op. 56, № 1.

F. Yanov-Yanovskiy. Orkestr uchun konsert (1973).

## **7-mavzu. SONATA SHAKLI**

### **1-§. Umumiy tavsif.**

**Sonata shakli deb** birinchi bo‘limida(ekspozitsiyada) tonallik va mavzu jihatidan qarshi qo‘yiladigan ikki mavzu; o‘rta bo‘limda (rivojlovda) ekspozitsiya mavzularidan birining rivojlantirilishi yoki yangi mavzu berilishi; uchinchi bo‘limda (reprizada) ikkala mavzu tonal jihatdan yaqinlashtiriladigan shaklga aytildi..

«**Sonata**» nomi mustaqil qismlarning yagona siklga(turkumga) birlashtirilishi bilan xarakterlanadigan asar janriga taalluqli.

Sonata shakli uning tuzilish tomonida namoyon bo‘ladigan alohida murakkabligi bilan ajralib turadi. Boshqa barcha shakllar orasida u mazmuniga ko‘ra ancha chuqur bo‘lgan qahramonlik va epik, otashin lirika, psixologik drama, tragik kolliziyalarni ifoda etish uchun eng ko‘p imkoniyat taqdim etadi.

Sonata shakli cholg‘u musiqasi uchun xos bo‘lib, vokal musiqasida istisno sifatida uchraydi. Bu shaklda sonata-simfonik sikllar: sonata, simfoniya, trio, kvartet, kvintet, konsertlarning birinchi qismlari (ba’zan finallari ham), shuningdek, opera uvertyuralari yoziladi.

### **2-§. Sonata shaklining tuzilishi.**

O‘zining to‘liq ko‘rinishida sonata shakli uchta asosiy bo‘lim: ekspozitsiya, o‘rtaliq (rivojlov) va reprizadan iborat. Ba’zida undan oldin kirish (muqaddima) kelishi, koda bilan tugashi mumkin.

Klassik sonata shakli ekspozitsiyasi, odatda, takrorlanadi.

Bundan tashqari, ba’zida rivojlov repriza bilan birga takrorlanadi (Gaydn va Motsart asarlarida).

Betxoven asarlarida ekspozitsiya hamma vaqt ham takrorlanmaydi, rivojloving repriza bilan birga takrori esa istisno tariqasidagina uchraydi (№ 6, 23 sonatalar).

**Ekspozitsiyaning tarkibiy qismlari:** bosh partiya (asosiy mavzu), bog‘lovchi partiya, yordamchi partiya (ikkinci mavzu), yakunlovchi partiya.

Ekspozitsiyada bu mavzular o‘zining dastlabki ko‘rinishida bayon qilinadi: bosh partiya asosiy tonallikda, yordamchi partiyada, albatta, boshqa tonallikda (majorda - dominanta tonalligida, minorda parallel tonallikda).

O‘rtaliqda (rivojlovda) ekspozitsiyaning mavzu materiali odatda rivojlantiriladi, ba’zan o‘ta murakkab rivojlantiriladi. Reprizada yana bu barcha mavzular asosiy tonallikda o‘tkaziladi.

Reprizada mavzu materiali rivojlanishi, ekspozitsiya bilan qiyoslaganda, hamma vaqt u yoki bu darajada o‘zgaradi, umuman shaklining tiklanishida yangi bosqich hosil qiladi.

### **3-§. Sonata shakli turlari.**

Sonata shakli to‘liq va to‘liqsiz bo‘lishi mumkin.

O‘rtaliq qanday ko‘rinishda ekanligiga ko‘ra to‘liq sonata shaklining uchta xili farqlanadi:

1) o‘rtaliqda rivojlovli sonata (R);

2) o‘rtaliqda yangi materiallli sonata (C) (Betxoven. Sonata № 1, final; sonata № 7, Largo e mesto; sonata № 9, I q.).

3) o‘rtaliqda bosh yoki yordamchi partiya materialidagi reprizaga o‘tish bilan keladigan sonata (Betxoven. Sonata № 5, final; sonata № 30, II q.).

To‘liqsiz sonata shaklida o‘rtaliq qismi mavjud emas, demak, u faqat ikkita asosiy bo‘lim: ekspozitsiya va reprizadan iborat.

To‘liqsiz sonata o‘z shaklining strukturasiga ko‘ra o‘xshash, ammo kompozitsion tamoyillariga ko‘ra jiddiy farq qiladigan ikki ko‘rinishda bo‘lishi mumkin:

1) eski sonata shakli;

2) qisqartirilgan sonata shakli.

Eski sonata shakli hali mustahkamlanib ulgurmagan sonata shakli qirralariga ega. Uning tonallik nisbatlari ikkinchi qism asosiy tonallikda boshlanmasligi bilan xarakterlanadi:

$$T — D \parallel D — T$$

Qisqartirilgan sonata shakli eskisidan to‘liq sonata shakliga o‘xshashligi bilan ajralib turadi: unda xuddi to‘liq sonatadagi kabi xuddi o‘sha tipik tonallik nisbatlaridagi ekspozitsiya va repriza mavjud:

T — D || T — T

Ekspozitsiya oxirida ko‘pincha reprizaga katta bo‘lmagan o‘tish hosil bo‘ladi (Betxoven. Sonata № 17, q. II). Boshqa hollarda esa o‘tish modulyatsiyalovchi birginaakkord bilan amalga oshirilishi mumkin (Betxoven. Sonata № 5 II q.).

Tamomila mustahkamlanib ulgurgan sonata shaklining qisqargan varianti (rivojlovsiz) ilk marta Motsart tomonidan qo‘llangan.

U ko‘proq sonata-simfonik sikllarning ohista qismida qo‘llanadi, shuningdek, tez sur’atli bir qisqli asarlarda, jumladan, opera uvertyuralarda uchraydi (Motsart. «Figaroning uylanishi», Uvertyura).

#### **4-§. Ekspozitsiyada tonallik munosabatlari.**

Bosh va yordamchi partiyalarning tipik tonallik nisbati quyidagicha: majorda T — D, minorda t-III. Biroq Betxoven asarlarining o‘zidayoq tonallikning boshqacha nisbatlarini ko‘rish mumkin: majorda— uzoq tersiyali (*C — E*, 21-sonatada); minorda — pastki medianta nisbati (*c — As*, 32-sonatada), minor, kamroq major dominantasi (*d — a*, № 17 sonatada; *a — E*, «Kreyser sonata»da). Kompozitor asarlarida sekundali nisbat ham o‘rin tutadi (*d — S*, 9-simfoniya skersosi).

**Bosh partiya.** Bosh partiya harakatchan, dramatik xarakteri bilan ajralib turadi. Uning uchun ichki beqarorlik, keskinlik, keyingi rivojlantirish uchun katta salohiyat xarakterlidir. Shakldagi o‘z roliga ko‘ra, u asosiy fikr bo‘lib, keyingi rivojlantirish natijasida keng va ko‘p tomonlama ochib beriladi.

Bosh partiya bir turli yoki kontrastli bo‘lishi mumkin. Shakliga ko‘ra, u davriya, oddiy ikki yo uch qisqli shakldan iborat. Ayrim hollarda u asosiy tonallikdagi to‘liq kadensiya bilan tugaydi, buning natijasida u yopiq sanaladi.

Boshqa hollarda asosiy qism yarim avtentik yoki bostirib kiradigan kadensiya bilan tugaydi, natijasida ochiq bo‘ladi. Betxoven davridan boshlab, ikkinchi turi ko‘p

tarqalgan. Romantik - kompozitorlar va rus klassikkleri, ayniqsa Chaykovskiy asarlarida ekspozitsiyada mavzuning keng rivojlanishi tufayli bosh partiya ko‘pincha uch qismli shaklda bo‘lib, ba’zan juda kengaytirilgandir.

**Bog‘lovchi partiya.** Bog‘lovchi qism yordamchi partiyaga o‘tishni ta’minlaydi, uning paydo bo‘lishini tayyorlaydi. Shu roliga muvofiq holda, u beqaror, yopiq tuzilmalarga ega emas, harakat xususiyatiga ko‘ra esa yordamchi partiya tomon yo‘naltirilgan.

Bog‘lovchi qismlar turlicha: bir necha taktdan katta tuzilmalargacha bo‘ladi.

Yordamchi partiyaga o‘tish dominanta tonalligiga modulyatsiya bilan amalga oshiriladi.

Bog‘lovchi partiya bosh partiya mavzusi rivojining yanada keskin bosqichi bo‘lishi mumkin (Betxoven. 9-Sonata).

Bog‘lovchi qism yangi mavzu materialida tuzilishi mumkin, bu, odatda, bosh partyaning asosiy qismi yopiq bo‘lganda kuzatiladi (Betxoven. 5 va 15- Sonatalar). Shunday bo‘ladiki, bog‘lovchi qismlar, mavzusiga ko‘ra ikki bosqichdan iborat: birinchisi —bosh mavzuning asosiy qismi materialiga tuziladi; ikkinchisi— yangi mavzu materialiga tuzilgan. YO aksincha, birinchisi— yangi mavzuga tuzilgan, ikkinchisi —bosh partyaning asosiy mavzusiga tuzilgan (masalan, Betxoven. 2, 8, 21- Sonatalari).

Uch qisqli bosh partiyada reprizaning o‘zi modulyatsiyalar natijasida yordamchi partiyaga olib keladigan, bu bilan bog‘lovchi partiya rolini bajaradigan holatlar tipik sanaladi (Shubert. Sonata *B-dur*; Chaykovskiy. 2, 3, 5-Simfoniyalari).

**Yordamchi partiya.** Yordamchi partiya bosh partiya bilan kontrast hosil qiladigan yangi obrazli sohani tashkil etadi. Odatda, u lirik qo‘sish yoki raqs xarakterida bo‘ladi. Bosh partiyadan farqli o‘laroq, u tonal jihatdan barqaror, rivojlanishida nisbatan tugal va, odatda, hajmiga ko‘ra kattaroq. Eng oddiy hollarda yordamchi partiya davriyadan iborat (Motsart. Sonata B-dur. Andante kantabile). Ayrim hollarda yordamchi partiya ikki yo uch qisqli shaklda yoziladi (Chaykovskning 6- simfoniysi 1- qismi – o‘rtaliq bilan kontrastlovchi oddiy uch qisqli shakl).

**Yakuniy partiya.** Yakuniy partiya – ekspozitsiyaning oxirgi, yordamchi partiya tonalligini ta’kidlaydigan mavzusi.

U yangi, ko‘pincha bosh partiya mavzusi bilan almashinadigan mavzuga (Betxoven.5,8- Sonatalari, 5-simfoniya), yoki yordamchi partiya mavzusiga tuzilishi mumkin (Chaykovskiy. 6- Simfoniya).

Yakuniy partiya bog‘lovchi partiya materialiga tuzilishi mumkin (Betxoven. Sonata op. 2 №2, 1 q.). ba’zida yakuniy qism ekspozitsiya mavzulari guruhidan tashkil topadi (Betxovenning 4 va 7- sonatalarida).

Yakuniy qism ekspozitsiya rivojini yakunlaydi va ko‘p hollarda umuman shaklning birinchi kulminatsiyasi sanaladi (Betxoven. 3, 8- Sonatalari, Chaykovskiy. 4,5-Simfoniyalari). Yakunlovchi qism uchun takror kadanslash, taktning kuchli hissasida tonikani ta’kidlash, tonikada organ punkti xarakterlidir.

### **5-§. Rivojlov.**

Rivojlov – sonata shaklining eng beqaror bo‘limi. U o‘tuvchan rivojlanish, mavzularni taqqoslash, ularni kontrapunkt jihatidan qo‘shish, motivli ish bilan ajralib turadi. Rivojlov uchun tonal beqarorlik (modulyatsionlik) xaraktrerli.

Rivojlov ko‘pincha kirish qismi bilan boshlanadi, unda mavzuning asosiy rivoji tayyorlanadi (L.Betxoven. 17- Sonata, I q.).

Ishlanmaning rivojlantirish jarayoni tuzilmalarning ochiqligi, mavzuning davriy strukturasi buzilishi, alohida motivlarning ajratilishi bilan tavsiflanadi. Rivojlovda polifonik rivojlantirish usullari: imitatsiya, kanon, fugato, mavzularni bir vaqtda yangratib o‘tkazish ham keng qo‘llanadi (Betxoven. Sonata, op. 22, 1 q.)

Ba’zan ishlanmada mavzularning oddiy o‘zgaarishiga, ularni tonal va tembr koloritlashga olib keladigan variatsion rivojlantirish ustunlik qiladi.

Rivojlov, odatda, harakati kuchli, rivojlanishga ichki salohiyati katta sanalgan bosh partiya mavzusiga tuziladi. Yordamchi partiya unda kamroq ishtirok etadi, zero unga xos bo‘lgan qirralar: lirik, qo‘shiq xarakteri, tugallanganlik va strukturaviy aniqlik ishlanmada qayta yaratish, o‘zgartirish imkoniyatini cheklaydi.

Shunday holatlar bo‘ladiki, ishlanmalda yangi mavzu – **lavha** paydo bo‘ladi(masalan, Betxoven. Simfoniya № 3). Ba’zida lavha katta mustaqil bo‘limni tashkil etadi va yaxlit shaklda alohida dramaturgik rol o‘ynaydi (Shostakovichning № 7 simfoniyasida «Bosqin mavzusi»).

Rivojlovning oxirgi bosqichi reprizaga o‘tishni hosil qiladi, unda, odatda, asosiy tonallik dominantasini u yoki bu darajada uzoq ishlash ro‘y beradi, bu yangi bo‘limnini boshlanishi keskinligini kutishni yaratadi. Klassik uslub uchun uzoq davom etgan dominanta organ punktida yaqinlashuvlar ancha xarakterli sanaladi.

Rivojlovda tonalliklar tanlovi va tartibi erkin bo‘lib, kompozitorning ijodiy fantaziyasiga havola qilinadi. Yagona shart shundan iboratki, unda bosh va yordamchi partiya tonalligining barqaror ko‘rinishidan qochiladi.

Klassik uslubdagi rivojlovning boshlanishi uchun xos bo‘lgan xususiyat: uning ekspozitsiya tugagan tonallikda (ko‘pincha ladning almashinishi bilan); asosiy tonallikka subdominanta bo‘lgan tonallikda; major asarlarda asosiy tonallika parallel; minor asarlarda asosiy tonallikka nomdosh tonalliklarda;ba’zida asosiy tonallikda ham boshlanishi(Betxoven. 16 Sonata).

Rivojlov uchun subdominanta sohasiga modulyatsion chuqurlashish xos (Betxoven. 21 -Sonata) bo‘lib, ekspozitsiyada unga tegilmaydi. Bunda ko‘pincha yuqoriga kvartalar bo‘yicha modulyatsiyalovchi sekvensiyalar katta ahamiyat kasb etadi. Bu kabi qator kvartali siljishlardan keyin tonallik harakati reprizaga olib keladigan asosiy tonallik dominantasi tomon keskin burilish hosil qiladi.

Ba’zida rivojlov oxirida **soxta repriza** deb nom olgan repriza uchraydi. Bunday repriza unda bosh partiya mavzusi o‘tkazilgani bois haqiqiydek idrok etiladi, ammo mavzu asosiy tonallikda o‘tkazilmaydi. Keyinroq rivojlov, shaklning o‘rta bo‘limiga xos qirralarini saqlagani holda, yana ishlanmali bo‘ladi (Betxoven 10-sonatasi ishlanmasi).

## 6-§. Repriza.

Repriza sonata shaklida ekspozitsiya takrori bo‘lib, birgina farqi hamma partiyalar asosiy tonallikda bayon qilinadi.

Ko‘p hollarda unda qator o‘zgarishlar mavjud bo‘ladi, asosan ular bosh partiyaga taalluqlidir. Ular quyidagilardan iborat:

1. Bosh partiya bir muncha qisqartiriladi. Agar ekspozitsiya kengaytirilgan uch qismli shaklda bo‘lsa, doim shunday bo‘ladi. Bu holda faqat uchinchi, repriza, ya’ni eng dinamik qism takrorlanadi (P.Chaykovskiy. 1-Konsert).
2. Bosh partiya bir muncha kengaytiriladi (Betxoven. 21-Sonata).
3. Bosh partiya asosiy bo‘lmagan tonallikda o‘tkaziladi. Klassik uslubda kam uchraydigan (Motsart. 15-Sonata, C-dur o‘rniga F-dur) bu kabi «normadan og‘ish» XIX asr kompozitorlari asarlarida keng tarqalgan (masalan, List. h-moll Sonatasi, h-moll o‘rniga b-moll).
4. Reprizada bosh partiya tushirib qoldirilgan holatlar ham uchraydi (Shopen. Sonata b-moll).

Betxoven davridan boshlab, yanada murakkab dramaturgiya tufayli **dinamik repriza** deb nom olgan repriza ham uchraydi. U asosiy kulminatsiya vaziyatida kelishi, oldingi butun ishlanmali rivojlov olib kelgan cho‘qqi sanalishi bilan tavsiflanadi (Betxoven. 9-Simfoniya).

Yordamchi partiyada reprizadagi asosiy o‘zgarish uning bosh partiyaga tonal bo‘ysundirilishi sanaladi. Ayrim hollarda yordamchi partiya dastlab boshqa, keyin asosiy tonallikda bayon qilinadi (Betxoven. 8-Sonata).

Reprizaning alohida turlari ham utschraydi.

1. Ko‘zguli repriza, unda bosh va yordamchi partiya o‘rin almashadi (Motsart. 9-Sonata ; Shopen. Ballada *g-moll*).
2. To‘liqsiz repriza, unda bosh partiya tushirib qoldiriladi (Shopen, *b-moll* va *h-moll* Sonatalari).

## 7-§. Koda va Muqaddima.

Koda deb repriza tugallanganidan keyin kiritiladigan qismga aytiladi.

Gaydna va Motsart sonatalarida koda mavjud emas. Betxoven tomonidan ilk marta tizimli ishlab chiqilgan yangilik—sonata shakliga rivojlantirilgan kodalarining kiritilishi bo‘ldi.

Ko‘pincha koda rivojlovli ishlanmadan boshlanadi, bu unga mustaqil ishlanmali bo‘lim xarakterini baxsh etadi. Bu hollarda koda **ishlanmali deb** ataladi (Betxoven. 21, 23-Sonatalar).

Ko‘pincha koda bosh partiya mavzusiga tuziladi. Ba’zida unda sonata shaklining ikkala asosiy mavzusi qatnashadi, ular vaqtga ko‘ra yaqinlashadi (Betxoven. 21-Sonata). Bunday koda **sintetik** deb yuritiladi.

Koda muqaddima mavzusiga asoslanishi mumkin (Shubert. Simfoniya *h-moll*). Unda ba’zida avval rivojlovda paydo bo‘lgan lavha ikkinchi marta o‘tkaziladi (Betxoven. 3-Simfoniya). Kam hollarda koda yangi mavzu materialiga tuziladi (Betxovenning «Egmont» uvertyurasidagi koda).

Kodaning yakunlovchi roli tufayli uning uchun asosiy tonallikning subdominanta sohasiga og‘ishmalar va yana keyin keluvchi tonikani ta’kidlash xos.

**Muqaddima (kirish).** Mustaqil muqaddima bilan ochiladigan sonata shakli asarlari uchrab turadi. Sonata shaklining, odatda, tez, kuchli sur’atiga nisbatan (sonata allegro), muqaddima sur’ati sekin, bosiq bo‘ladi.

Muqaddima, odatda, asosiy tonallikdan boshlanadi. Ayrim hollarda u butun muqaddima davomida saqlanib qoladi, boshqa hollarda esa, ekspozitsiya oldidan asosiy tonallikka qaytish bilan, xatto uzoq tonalliklarga ham modulyatsiya ro‘y beradi (Betxoven. 8- Sonata).

Ko‘pincha muqaddima boshlanishidan dominanta funksiyaci yoki dominanta organ punktida o‘tkaziladi (Betxoven. Leonora № 3).

Muqaddima oxirida sonata shakli boshlanishiga olib keladigan dominant garmoniya yoki dominantadagi organ punkti beriladi.

Muqaddima o‘lchamlari (hajmi) turlicha: bir necha taktdan (Shopen. *b-moll* Sonatasi) o‘lchamlariga ko‘ra ancha katta tuzilmagacha (Betxoven. 8- Sonata) bo‘ladi.

Muqaddimaning ahamiyati, uning sonata shakli bilan keyingi aloqasi turlicha bo‘lishi mumkin. Betxoven ijodida muqaddima mavzusi sonata shakli rivojining eng muhim bo‘g‘inli vaziyatlarida paydo bo‘lib, jiddiy dramaturgik rol o‘ynaydi.

Masalan, Betxovenning 8-sonatasi muqaddima mavzusi rivojlov va koda boshida paydo bo‘ladi, rivojloving o‘zida ishtirok etadi.

### **8-§. Sonata shakli dramaturgiyasi.**

Sonata shakli dramaturgiyasi yirik dramatik adabiy janrlari (drama, roman) dramaturgiyasiga o‘xshab ketadi. U, ayniqsa patetik xarakterdagи, tez sur’atlι asarlarda (sonatali allegro) yorqin namoyon bo‘ladi.

Sonata shaklining mohiyati undagi rivojlantiruvchilik (shakl hosil qilish) jarayonidan iborat. Bu jarayon butunlik va qismlar strukturasini, mavzu materiali ketma-ketligini, modulyatsion aloqalar va tonallik nisbatlarini belgilab beradi.

Sonata shakl hosil qilish tamoyili keyingi bo‘lim va mavzularning intensiv tayyorlashda ifodalanadigan dinamik keskinlik bilan tavsiflanadi.

**Sonata shaklining tarixan rivojlanishi.** Sonata shaklining kelib chiqishini XVII asr oxiri – XVIII asr boshlarida ro‘y beradi. Uning qirralari D.Skarlattining fortepiano asarlarida yaqqol namoyon bo‘ldi. O‘zining yanada to‘liq ifodasini ular F.E.Bax ijodida topdi. Sonata shakli klassik uslubda – Gaydn va Motsart asarlarida tamomila shakllandı.

Bu uslub cho‘qqisi bo‘lib o‘z asarlarida chuqur umuminsoniy g‘oyalarni namoyon eta bilgan Betxoven ijodi xizmat qildi. Kompozitorning sonata shaklidagi asarlari hajmining kattaligi, kompozitsion murakkabligi, yaxlit shakl rivojlanish dinamikasi bilan ajralib turadi.

Keyinchalik sonata shakli romantiklar: Shubert, Shuman, Shopen, List, Brams, shuningdek, Brukner, Maler ijodida keng rivojlantirildi. Rus kompozitori P.I.Chaykovskiy ijodida sonata yangi, yuqori darajaga ko‘tarildi, uning uchun yorqin emotsiyonallik va katta ta’sir kuchi xos bo‘ldi.

Sonata shakli rivojiga ,shuningdek, Borodin, Taneyev, Skryabin, Glazunov, Raxmaninovlar katta hissa qo‘shdilar.

O‘zbek kompozitorlari ham sonata shakliga murojaat qilganlar. S.Varelas, P.Xoliqov, V.Saparov sonatinalari, G.Mushelning «Pushti sonatina»si yaxshi ma’lum. N.Zokirovning sonatalari fortepiano sonatalarining yorqin namunalari

bo‘ldi. Muallif uchun sonata shakliga erkin munosabat xarakterli. N.Zokirov asarlarida sonataning ma’lum bir qonuniyatları – mavzu kontrasti (ham vertikal, ham gorizontal bo‘yicha), ko‘pincha hosila bo‘lgani saqlanib qoladi. Kompozitor asarlari uchun monointonatsiyalilik va variantli-variantlilik tamoyillari xos, bu esa simfonizmning, ayniqsa zamonaviy simfonizm hamda an'anaviy milliy musiqanинг xususiyati hisoblanadi.

### **Tahlil uchun material:**

L.Betxoven. № 1, 2, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 16, 17, 21, 23, 30, 32- Sonatalari; 3-Simfoniya ,”Egmont” Uvertyurasi.

S. Varelas. Sonatina.

F.List. Sonata h-moll.

V.Motsartning “Figaroning to‘yi” operasiga Uvertyura; Sonata B-dur Andante cantabile; 15- Sonata.

G. Mushel. «Pushti sonatina».

V. Saparov. Sonatina.

P.Xoliqov. Sonatina.

Chaykovskiy. 6- Simfoniya .

Shopen. *g-moll* Balladasi, *b-moll* va *h-moll* Sonatalari.

Shubert. *h-moll* Simfoniysi.

## **8-mavzu. RONDO - SONATA**

### **1-§. Umumiy tavsif.**

Klassik uslubdagи cholg‘u musiqasida turkumli(siklli) sonata janrining rivojlanishi bilan rondoning yangi, nisbatan kengaytirilgan va murakkab shakllari yuzaga keldi va keyinchalik keng qo‘llanadigan bo‘ldi. Bular sirasiga rondo-sonata shakli ham kiradi.

**Rondo-sonata** deb rondoning asosiy belgisi mavjud bo‘lgan – bosh partiya kamida uch marta o‘tkazilgan shaklga aytildi.Uning o‘tkazmalari orasida joylashgan

lavhalari orasida birinchi va uchinchisi mavzu jihatidan bir xil, ustiga ustak, birinchi lavha tobe, uchinschi lavha esa asosiy tonallikda keltiriladi.

Rondodan farqli o‘laroq, rondo-sonata uch qismli kompozitsiya ko‘rinishiga ega: ekspozitsiya + o‘rtaliq +repriza. Bu simmetriyalik va reprizalilikda uning murakkab uch qismlilik va sonata shakllari bilan o‘xshashligi namoyon bo‘ladi.

Rondo-sonata shakli sonata shaklidan shunisi bilan farq qiladiki, ekspozitsiya va repriza ikki asosiy bo‘limdan (bosh va qo‘s Shimcha partiyalardan) emas, balki uch bo‘limdan tashkil topib, uch qismli simmetrik shakl sanaladi.

Murakkab uch qismli shakldan u birinchi lavhaning(V) avval qo‘s Shimcha tonallikda bayon etilishi, takrorlanganda esa reprizada asosiy tonallikda (V) o‘tkazilishi bilan farqlanadi.

Ekspozitsiya va repriza uch qismli tuzilmaga ega bo‘lganda rondo- sonata yetti qismdan iborat bo‘ladi:

<b>Ekspozitsiya</b>	<b>O‘rtaliq</b>	<b>Repriza</b>
<b>Koda</b>		
	<b>Lavha</b>	
<b>A bog‘. p. V bog‘. p. A</b>	<b>S</b>	<b>A bog‘. p. V<sub>1</sub> bog‘ p. A</b>
Bosh r. YO. r	Bosh r.	Bosh r. YO. r
(1-lavha)	(2-lavha)	(3-lavha)

O‘rtaliqning markaziy lavhasida yo yangi material (S), yo ekspozitsiya materiali ishlanmasi (R) bo‘lishi mumkin. Shu tufayli yetti qismli rondoning ikki asosiy turi farqlanadi:

$$A + V + A + S + A + V_1 + A \quad \text{va}$$

$$A + V + A + R + A + V_1 + A$$

Rondo, odatda, ko‘p hollarda boshlanishida ishlanma bo‘lgan kengaytirilgan xotimadan iborat koda bilan tugaydi. Ba’zida koda oldingi qismlardan musiqiy

material kiritilgan tamomila mustaqil bo‘lim sifatida ajratiladi; yangi materialga tuzilgan koda ham uchraydi.

## **2-§. Tonallik nisbatlari.**

Klassik oliy rondoda, refren xuddi oddiy rondodagi kabi barcha takrorlarda asosiy tonallikda bayon qilinadi. Ekspozitsiyadagi birinchi lavha, odatda, dominanta tonalligida, rondoning asosiy tonalligi minor bo‘lganda esa parallel majorda bayon qilinadi.

Minor rondo juda kam uchraydi.

O‘rta lavha (S) ko‘proq subdominanta tonalligida yoki parallel minor tonalligida bayon etiladi.

## **3-§. Rondodagi sonatalilik.**

Rondo-sonata uchun xarakterli bo‘lgan ekspozitsiyada avtentik va parallel-major tonallik nisbatlari va ularning birinchi lavha reprizasida asosiy tonallikka qaytishi xususiyatlari klassik sonata shakli ta’sirida shakllangan. Biroq o‘z-o‘zicha ular hali «sonatalilik»ning zaruriy, jiddiy belgisi sanalmaydi.

«Sonatalilik» rivojlantirish jarayonining o‘zida namoyon bo‘ladi va shunda ifodalanadiki, ekspozitsiyada qo‘srimcha partiya oraliq bo‘g‘in sifatida ishtirok etmay, balki asosiysiga qarma-qarshi qo‘yiladi va undan ustuvorlik qiladi, muvozanatning u yoki bu darajada keskin buzilishini keltirib chiqaradi.

Bunda birinchi lavhaning (V) hajmi ortishi, uning partiya o‘lchamlariga qadar kattalashishi asosiy rol o‘ynaydi. Bunga, shuningdek, bog‘lovchi qism vositasida lavhani tayyorlash ham xizmat qiladi.

Shunday qilib, **rondo-sonata** shaklini rondali strukturaning sonata rivojlanishning o‘ziga xos tamoyili bilan birikishi sifatida tushunish lozim.

## **4-§. Refren tuzilishi.**

Butun shaklning birinchi yirik bo‘limi **ekspoziysiya** deb ataladi. Butun asar xarakterini belgilaydigan asosiy partiya rondo mavzulariga xos bo‘lgan qirralarni

saqlab qoladi. U turli shakllarda, ba’zida bir qisqli, davriya ko‘rinishida bayon qilinadi (Betxovenning 7, 8, 9, 11, 15- sonatalari finalida). Ikki qisqli shakldagi mavzu ham uchrab turadi (Betxovenning 12, 13- sonatalari finalida). Ko‘pincha mavzu uch qisqli shaklga ham ega bo‘la oladi, bu bilan u asosiy bo‘limi refreniga alohida bosiqlik baxsh etadi, sonata shakli uchun esa bu umuman xos emas (a + o‘tish + a; Betxovena 2, 4- sonatalari finalida); biroq ba’zida yanada mustaqil va kengaytirilgan shaklda bo‘lishi mumkin (Betxovenning 27- sonatasi finalida).

Rondo-sonata uchun bog‘lovchi partiya bilan birinchi lavhani tayyorlash xarakterli sanaladi. Uning (bog‘lovchi partiyaning) vazifasi – yangi mavzuga modulyatsion o‘tishni yaratish. Ba’zida bog‘lovchi partiya juda qisqa **bog‘lovchi-o‘tish** tarzida beriladi (Betxovenning 12-sonatasi finalida). Ko‘pincha bog‘lovchi partiya mavjud bo‘lmaydi va ikkinchi lavha refrenning asosiy qismi bilan bevosita taqqoslanadi (Betxovenning 11- sonatasi finalida).

## 5-§. Birinchi lavha

**Birinchi lavha – yordamchi partiya.** Birinchi lavha (B) o‘z xarakteri va hajmiga ko‘ra ancha rang-barang. Ayrim hollarda u faqatgina shakl bosiqligini buzmaydigan qisqa oraliq lavha sanaladi (masalan, Betxovenning 7, 9- sonatalari finalida). Boshqa hollarda u bir muncha yirik va refrenga qaytgunacha ma’lum rivojlanishni o‘z ichiga oladi (Betxovenning 4, 11, 15- sonatalari finalida). Ba’zida esa u refrenga qarma-qarshi qo‘yiladigan mustaqil yordamchi partiya darajasigacha yetadi (Betxovenning 2, 3, 8 -sonatalari finalida). Yordamchi partiya hamma vaqt bir mavzuli va ko‘p hollarda ikki jumladan iborat davriya ko‘rinishida bo‘ladi.

Biroq bunda birinchi lavha - yordamchi partiya ko‘proq sonata shaklidagi kabi yakunlovchi partiya bilan emas, balki refrenni takrorlashga o‘tish bilan tagallanadi (Betxovenning № 2, 4 sonatalari finalida).

**Refrenning takrori** (ekspozitsiyani tugallaydigan) ko‘pincha qisqartirishlar bilan, ba’zan xatto juda katta o‘zgarishlar bilan o‘tkaziladiki, bu ekspozitsiyaga, uning simmetrik uch qisqli tuzilishiga qaramay, beqarorlik baxsh etadi. Bosh

partiyaning ekspozitsiya oxiridagi takrori o‘zida mavzuviy va tonal reprizani birlashtiradi, shu tufayli ekspozitsiya asosiy tonallikda tugallanadi.

### **6-§. Markaziy lavha.**

O‘rtaliq lavha (S) kontrastlovchi qism sifatida ekspozitsiyaga eragashadi. U umumi kompozitsiyada joylashish o‘rniga ko‘ra markaziy sanaladi va hamma vaqt tobe tonallikda keladi. Lavha (S) juda ko‘p hollarda yirik hajmi bilan ajralib turadi (Betxovenning 2, 3, 4, 9- sonatalari finali). Biroq kichik hajmli lavhalar ham bo‘ladi (Betxovenning 8, 12, 15- sonatalari finali).

Rondo-sonatada o‘rta lavha (S) ko‘pincha ikki qismli yo uning ichki qismlari takrorlanadigan, bo‘laklangan uch qismli shaklda yoziladi (Betxovenning 2, 3, 4, 12- sonatalari finali).

Lavha (C) o‘z rivojlanishiga ko‘ra nisbatan erkin bo‘ladi (Betxovenning 7, 9, 15 -sonatalari finali).

Ba’zida o‘rtaliq lavha ishlanma rivojlov yangi materialni o‘tkazish bilan biriktiriladi (Betxovenning 1 -sonatasi finali). Bu hollarda lavhani RS yoki SR tarzida harfiy ifodalash mumkin.

Markaziy lavha (S yoki R), odatda, reprizani uzoq davom etadigan dinamik (ya’ni keskin kutishni keltirib chiqaradigan) tayyorlov bilan tugaydi.

### **7-§. Repriza va koda.**

Reprizada refren va lavhaning (V) takroriy rivoji ekspozitsiyaga nisbatan olganda katta o‘zgarishlarga duch keladi. Bu o‘zgarishlar nafaqat birinchi lavha ( $V_1$ ) tonalligi o‘zgarishi, balki badiiy shakl talablari: uning qat’iyligi, rang-barangligi, dinamikligi bilan bog‘liq.

Refrenning ko‘p marta takrorlanishi tufayli rondo shakli uchun mavzu materialini variatsion-bezakli rivojlantirish ayniqsa xosdir.

Ba’zida refren va lavhada ( $B_1$ ) qo‘sishimcha ishlanma rivojlov kiritiladi. Refrenning oxirgi marta o‘tkazilishda ko‘pincha shu darajada o‘zgartiriladiki, u kodaga aylanib qoladi (Betxovenning 3, 12- sonatalari finali). Ba’zida u, mustaqil

koda bilan almashtirilib, umuman tushirib qoldiriladi (masalan, Betxovenning 13-sonatasi finalida).

**Rondo-sonata shakli finalidagi koda** nafaqat shu qism, balki umuman turkumning yakuni sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Xuddi sonata shaklidagi kabi kodalar juda rang-barang bo‘ladi. Ko‘pincha ular qo‘sishimcha rivojlanuvchi ishlanmani o‘z ichiga oladi (Betxovenning 2, 3, 16- sonatalari finali). Ba’zan kodaga markaziy lavhadan material kiritiladi (Betxovenning 2 - sonatasi finalida). Anchagina yangilangan, hattoki yangi materialga tuzilgan kodalar ham bo‘ladi (Betxovenning 4, 13 -sonatalari finali)

### **8-§. Rivojlanish tarixi va qo‘llanish sohasi.**

Rondo-sonata shakli XVIII asr Vena klassiklari musiqasida yuzaga keldi va keng rivoj topdi. Bu shaklning texnik kashf etilishi shaxsan Gaydnga tegishli. Kompozitor ijodining so‘ngi bosqichi cholg‘u asarlarining ko‘pchiligi finali (97- do major simfoniya finali) rondo-sonataning ajoyib namunalari sanaladi. Bu usul bilan sonata shaklining ikki tezkor - birinchi va yakunlovchi - qismini aniq formal farqlashga erishildi.

Motsart bu shakldan juda keng va turlichay foydalangan. Uning rondosi ko‘pincha Betxovennikidan murakkabroq va tahlil uchun ancha qiyin.

Motsartning yigirmata sonatasida o‘n beshta rondo mavjud. Betxovenning o‘ttiz ikki sonatasida, ayniqsa final qismida, rondo-sonata juda ko‘p uchraydi. Yorqin ifodalangan sonata konflikt dramaturgiyadan xoli bo‘lgan «final» rondosi siklning birinchi, sonata qismiga o‘zining bosiqligi va rivojlanish hajmining kattaligi bilan qarshi qo‘yiladi.

O‘zining sikldagi(turkumdagisi) ishtirokidan tashqari rondo-sonata shakli mustaqil pyesalar sifatida ham keng qo‘llaniladi.

Rondo-sonata Shubert va XIX asrning boshqa kompozitorlari ijodida keyingi rivojini topgan.

Rondo-sonata shaklidan O‘zbekiston kompozitorlari ijodida ham keng foydalaniladi. Masalan, M.Tojiyevning 3-simfoniyasi finalida erkin talqin qilingan rondo-sonata shakli qonuniyatlari ko‘zga tashlanadi.

### **Asosiy tushunchalar:**

**Rondo-sonata** deb rondoning asosiy belgisi mavjud bo‘lgan – bosh partiya kamida uch marta o‘tkazilgan shaklga aytildi. Uning o‘tkazmalari orasida joylashgan lavhalar orasida birinchi va uchinchisi mavzu jihatidan bir xil, ustiga ustak, birinchi lavha bo‘ysundirilgan, uchinschi lavha esa asosiy tonallikda keltiriladi.

Rondo-sonata sonata shaklidan ekspozitsiya va reprizaning ikki asosiy bo‘limdan (bosh va qo‘sishimcha partiyalardan) emas, balki uch qisqli simmetrik shakl sifatida uch bo‘limdan tashkil topishi bilan farq qiladi.

### **Tahlil uchun material**

Betxoven. Fortepiano uchun sonatalarining finalari: op. 2 № 2; op. 2 № 3. op. 7 № 13; op. 14 № 1; op. 22; op. 26; op. 27 № 1; op. 28; op. 31 № 1; op. 90.

Glazunov. Fortepiano uchun b-moll sonatasining finali.

Skryabin. Fortepiano uchun sonata op. 24 va fortepiano uchun op. 20 konsertning finalari.

Motsart. Fortepiano uchun sonatalarining finalari: №№ 3, 4, 7, 13 va 17.

Prokofev. Fortepiano uchun 4- sonataning finali, op. 29.

M.Tojiyev. III simfonianing finali.

Chaykovskiy. Fortepiano uchun sonata, op. 37; fortepiano uchun konsert, op. 23; 3-simfonianing finali.

Shubert. Fortepiano uchun sonatalar finali: op. 42, A-dur (opussiz), B-dur (opussiz).

## **9-mavzu. TURKUMLI ( SIKLLI ) SHAKLLAR**

### **1-§. Umumiy tavslif.**

Yagona badiiy g‘oya bilan bog‘lanib, bir necha shaklan mustaqil qismlardan tashkil topgan musiqiy shakl **turkumli(siklli) shakl** deb yuritiladi (sikl

so‘zi grekcha bo‘lib doira, aylana degan ma’noni ifoda etadi). Turkumli shakl umumiyligi ostida birlashtirilgan u yoki bu doiradagi musiqiy obrazlarni (sur’atlar, janrlar) qamrab oladi. Siklning barcha qismlari yopiq (tugal) bo‘lib, reprizali ijro nazarda tutilmaydi.

Qismlarning mustaqilligi ularni alohida-alohida ijro etish mumkinligida o‘z ifodasini topadi (masalan, Yevropada dafn marosimlari paytida Shopenning “Dafn marshi” ijro etiladi, aslida esa u kompozitorning b-moll sonatasi uchinchi qismi sanaladi).

Turkumli shaklda qismlar mavzuga ko‘ra turlicha bo‘ladi. Butun turkum shaklni ijro etishda uning qismlari orasida tanaffuslar qilinadi, nota yozuvida qayd etilmasa-da, ularning davomiyligi ijrochi tomonidan belgilanadi.

Cholg‘u musiqasida ikkita asosiy turkumli shakl yuzaga kelgan: syuita va sonata-simfonik sikl.

## 2-§. Syuita.

“Syuita” so‘zi ketma-ketlik, izchillik degan ma’nolarni anglatadi. Odatda qadimiy va yangi syuita farqlanadi. Syuita shakli qismlari o‘zaro yagona g‘oya bilan birlashtirilgan bo‘ladi, ammo qismlar sonata tamoyiliga ko‘ra yaratilgan asarlar kabi izchil rivojlanish chizig‘i bilan birlashtirilmaydi.

*Qadimiy syuita* XVIII asrning birinchi yarmida ijod qilgan kompozitorlar, birinchi navbatda, I. S. Bax va F. Gendel ijodida to‘liq aks etgan. Uning o‘ziga xos xususiyati – qadimiy ikki qisqli shaklda yozilgan turli xarakterdagi raqlarning almashinib kelishi. Hamma qismlar tugal bo‘lib, raqs sur’ati, xarakteriga ko‘ra o‘zaro kontrast(tafovut) hosil qiladi.

Barokko davrning qadimgi tipik syuitasi asosini sur’ati va xarakteriga ko‘ra kontrast bo‘lgan, ma’lum ketma-ketlikda joylashtirilgan to‘rtta raqs tashkil etgan:

**1. Alemanda** (nemis raqsi.) – o‘rtacha sur’atda, to‘rt hissali, ko‘proq polifonik tuzilishdagi raqs-yurish. Bu ulug‘vor raqs xarakteri musiqada bosiq sur’atda, maxsus taktorti bilan, tinch va xirgoyi intonatsiyalarda aks etadi.

2. **Kuranta** – (ital. “Corrente” – “oquvchan” ma’nosini anglatadi) – nisbatan jonli, uch hissali solo raqsi, saroylardagi ballar davomida raqqoslar juftligi tomonidan ijro etilgan. Kuranta fakturasi ko‘pincha polifonik, musiqa xarakteri boshqacha. U nisbatan harakatchan, musiqiy iboralari nisbatan qisqa va stakkato shtrixlari bilan ta’kidlangan.

3. **Sarabanda** – kelib chiqishi ispancha raqs bo‘lib, XVI asrdan beri ma’lum. Bu motam-dafn yurishi. Sarabanda ko‘proq solo ijro etilib, kuy va akkompanement (jo‘rnavozlik) bilan kechgan. Uning uchun ko‘pincha gomofon fakturaga o‘tadiganakkord fakturasi xos.

4. **Jiga** – kelib chiqishi irladncha bo‘lgan juda tez, jamoaviy, bir muncha komik, dengizchilar raqsi. Bu raqs uchun triolli ritm va (aksariyat ko‘p hollarda) fugali bayon (ba’zan esa basso-ostinatoga variatsiya va fuga) xarakterli.

Hamma raqlar bitta tonallikda qadimiy ikki qismli shaklda yozilgan.

Asosiy raqlardan tashqari, syuitaga deyarli hamma vaqt qo‘sishimcha (kiritma) nomerlar: gavot, menuet, burre, paspe, lur va boshqalar qo‘shilgan. Bu raqlar ko‘proq sarabanda va jiga orasida joylashtirilgan. Bundan tashqari, syuitaga ba’zida raqs xarakterida bo‘lmagan nomerlar, masalan, ariya, rondo, skerso, shuningdek alemanda oldidan muqaddima pyesasi (prelyudiya, uvertyura) kiritilgan.

Qadimiy syuita shunisi bilan qiziqarlik, unda qator strukturalarning kompozitsion qirralari shakllangan, ular keyinroq mustaqil musiqiy shakllarga rivojlanib o’tgan.

Kiritma raqlar ketma-ketligida bo‘lg‘usi murakkab uch qismli shakl belgilangan. Syuitalardagi dubllar variatsiyali shaklga asos bo‘lgan. Qator nomerlarda tonal reja va mavzuviy materialning rivojlanish xarakteri kelgusida sonata shakliga asos solgan. Syuitada raqlarning joylashishi anchagina ravshan tarzda sonata-simfonik turkum qismlari joylashuvini ko‘zda tutadi.

Qadimiy syuita amalda XVIII va XIXasrlar kesishuvida yo‘qolib bordi. XIX asrning ikkinchi yarmi syuitasi sof ko‘rinishdagi raqsdan voz kechish, sonata-

simfonik turkumga yaqinlashish, sonatali allegrodan foydalanish, qismlarning ma'lum soni yo'qligi bilan xarakterlanadi.

### 3-§. Yangi syuita

XIXasrda **yangi syuita** yuzaga keldi, u o'zining mazmuni va kompozitsion qirralariga ko'ra qadimgisidan farqlanadi. Yangi syuitada dasturiylik tamoyili katta ahamiyat kasb etdi.

Yangi syuita asoschisi Robert Shuman bo'ldi. Uning «Karnaval», «Kapalaklar», «Fantastik pyesalar» fortepiano asarlarida nafaqat raqslar, balki turli xarakterdagi, o'zining qahramonlar kayfiyati, holati va kechinmalarini ifoda etadigan dasturiy kichik sarlavhalariga ega miniatyuralar keltirilgan. Bunday dasturiy syuita rus kompozitorlari ijodida rivojlantirildi: Musorgskiyning «Ko'rgazmadan lavhalar», Rimskiy-Korsakovning «Shahrizoda» asarlari, horijiy kompozitorlar ijodida esa: Bizingen «Bolalar o'yinlari», Debyussining «Bolalar burchagi» asarlari paydo bo'ldi.

Keyinchalik syuita janri keng rivojlandi. XIX –XXasr syuitasi qadimgi syuitadan – raqsonalikning ustuvorligi, Shuman syuitasidan –dasturiylik, turli janrlilik, sonata-simfonik turkumdan – qismlar hajmi, dramaturgik riovjlantirish usullari kabi qirralarni o'zlashtirdi.

Qandaydir yirik asar: balet, dramaga musiqaning alohida nomerlaridan tuzilgan asarlar syuitaning **yangi ko'rinishini** tashkil etdi. XIXasrda J.Bizingen A. Dodening “Arlezianka” dramasiga musiqasidan , E. Grigning Ibsenning «Per Gyunt» dramasiga musiqadan iborat syuitalari yuzaga keldi.

O'zbek kompozitorlari fortepiano ijodida syuita janri G.Mushelning – “Bolalar uchun syuita”, ikki fortepiano uchun “Samarqand syuitasi”, D.Saydaminovaning – “Qadim Buxoro devorlari” fortepiano turkumi, D.Omanullayevanig – “Samarqand manzaralari” sikli kabi asarlarida o'z ifodasini topdi.

O'zbekiston kompozitorlarining simfonik asarlari ma'lum. V.Deshevovning “Samarqand syuitasi”, M.Ippolitov-Ivanovning “O'zbekistonning musiqiy manzaralari”, A.Kozlovschiyning Farg'onacha “Lola” syuitasi, M.Ashrafiyning

«Tojikcha raqs syuitasi», B.Giyenkoning «O‘zbekistonning lirik manzaralari» syuitasi, G.Mushelning «Musiqiy vernisaj» syuitasi va boshqa asarlar yaxshi ma’lum.

#### **4-§. Sonata-simfonik sikl (turkum).**

**Sonata** janr sifatida ko‘p qisqli turkum asar bo‘lib, bir necha shaklan mustaqil, mazmuni va xarakteriga ko‘ra turlicha bo‘lgan qismlardan tashkil topadi.

Sonata **turkumi** mazmunining chuqurligi, rivojlanishi murakkabligi, qismlarining ichki aloqadorligi, olindan belgilangan umumiylig‘i g‘oyasi bilan xarakterlanadi.

«Sonata» nomi faqat bir yoki ikkita cholg‘u uchun (masalan, fortepiano uchun, skripka va fortepiano uchun) yozilgan asarlarga nisbatan ishlataladi.

Sonata turidagi nisbatan murakkab ansambllar cholg‘ular soniga ko‘ra – trio, kvartet, kvintet va h.k. – nomlanadi.

Orkestr uchun sonata turidagi asarlar **simfoniya** deb yuritiladi. Sonata turkumining umumiylig‘i **sonata-simfonik turkum** deb nomlanishi ham shu bilan bog‘liq.

Ko‘pgina sonata-simfonik turkumlarida qismlarning loaqlal bittasi (asosan birinchisi) sonata shaklida yozilgan bo‘ladi.

Klassik uslubdagi sonata-simfonik turkum ko‘proq uch yoki to‘rt qismlidir.

Uch qisqli turkumlar – Y.Gaydn, V.Motsart, L.Betxovenlarning fortepiano musiqasi uchun, to‘rt qisqli turkumlar – simfoniyalar uchun xarakterli.

**To‘rt qisqli** sonata-simfonik turkum uning alohida qismlari uchun xos bo‘lgan quyidagi janr va shakllarga ega:

**I qism – sonata allegro** eng ta’sirchan, dramatik, kontrast, ba’zida ziddiyatli xarakterga ega va sonata shaklida bayon etiladi.

**II qism – Andante yoki Adagio** – aksariyat ko‘p hollarda lirik (kishi hissiyotlari, fikrlari, ichki dunyosini; tabiat manzaralarini ifoda etadi); shakli – murakkab uch qisqli, rivojlovsiz sonata, variatsion, rondo bo‘ladi.

**III qism – menuet yoki skerso** ( skersoni birinchi bor Betxoven kiritgan) – janrli yoki maishiy xarakterga ega bo‘lib, harakatchan va quvnoq, trio – o‘rtaligida qism uch qismli shaklda yoziladi.

**IV qism – final** – xalq xursandchiligi manzarasi. Final mavzu doirasi umumlashma obrazlilik bilan ajralib turadi, ko‘pincha avvalgi qismlar bilan mavzuviy aloqadorlik ko‘zga tashlanadi. Bu hollarda finalning vazifasi sintezlashdan iborat bo‘ladi. Final asosiy tonallikda yoziladi. Final shakli – sonata, rondo-sonata.

Bunday turkumda chekka qismlar tezkor, ikkinchisi sekin, menuet yoki skerso (hazil) sur’ati bir muncha tez yoki tez.

Birinchi qismning sur’ati juda tez bo‘lmagan hollarda L.Betxoven skersoni turkumda ikkinchi o‘ringa qo‘ygan.

Bordi-yu, sikl uch qismli bo‘lsa, unda skerso mavjud bo‘lmaydi.

Ikki qismli turkumlar ham uchraydiki, ularda birinchi qism sonata shaklida, ikkinchisi variatsiya yoki rondo shaklida yoziladi (Betxoven. 19, 20,32-Sonatalari).

Agar sonata-simfonik turkumlar besh yoki undan ham ko‘p qismni o‘z ichiga olsa, bu holda siklda yo ikkita skerso, yo ikkita sekin qismdan foydalaniladi, yoki ularning ayrimlari go‘yoki turkumning asosiy «normativ» qismlariga muqaddima sifatida xizmat qiladi.

Cholg‘u **konserti** janri (Concerto – italyancha “musobaqa”) ham sonata-simfonik turkumga kiradi.

Klassik cholg‘u konserti, odatda, uch qismlidir (to‘rt qismli konsert keyinroq paydo bo‘lgan hamda xarakteriga ko‘ra solist va orkestr uchun yozilgan simfoniya janriga yaqin: I.Bramsning 2-Konserti, D.Shostakovichning Skripka uchun konserti).

Konsert asosida solo va orkestr partiyalari musobaqasi yotadi. Bu musobaqa hamda sonata shaklida ekspozitsiyani takrorlash an’anasini birinchi qismning «ikkilik ekspozitsiyasi» deb nom olgan hodisa bilan, ya’ni ekspozitsiyani cholg‘u solosi kirishidan oldin orkestrda o‘tkazish bilan bog‘liq.

Qator hollarda bu ekspozitsiyalar o‘zaro faqat fakturasi bilan farq qiladi.

Shu bilan birga, cholg‘u solosining ekspozitsiyasidagi asosiy, ba’zan esa yordamchi partiyada yangi mavzu o‘tkaziladi (V.Motsart, L.Betxoven). bu holda

ishlanmada har ikki ekspozitsiya mavzusi qoladi, reprizada esa yo cholg‘u solosining ikkinchi mavzu qoladi, yo orkestr ekspozitsiyasining mos mavzusi o‘tkaziladi.

Birinchi qism umuman mohirona (virtuozi)xarakter kasb etadi,) cholg‘u solosining an'anaviy **kadensiyasi** uning (cholg‘uning texnik imkoniyatlarini namoyon qilish bo‘lim) jamlangan joyi (konsentratsiyasi) bo‘lib, u kodadan oldin, ba’zan koda ichida yo reprizadan oldin joylashtiriladi.

L.Betxovengacha kadensiya yozilmagan (ijrochi birinchi qismning asosiya mavzularidan foydalanib, ijodiy badiha qilib chalgan). L.Betxovendan boshlab, kadensiyani kompozitor yozadigan bo‘ldi.

Konsertning ikkinchi qismi – vazmin, lirik bo‘lib, ko‘pincha oddiy uch qismli shaklda yoziladi.

Uchinchi qism – final – tez, faol, ko‘proq rondo shaklida bo‘ladi.

Sonata-simfonik turkumda yaxlitlikka yordam beruvchi qator qonuniyatlar shakllanib rivojlangan.

Chekka qismlar bitta tonallikda yoziladi (minor asarlarda finallar shu nomdagagi majorda yoziladi) va butun sikl tonalligi shu tonallik bilan nomlanadi.

Sekin sur’atdagi qism yaqin tonallikda (subdominanta, nomdosh, parallel), kam hollarda uzoq tonallikda yoziladi.

Sonata turkumining yaxlitligi uchun uning qismlari o‘rtasidagi mavzuviy (intonatsion) bog‘lanmalar juda muhim sanaladi, ular turli shakllarda namoyon bo‘la oladi. XIX – XX kompozitorlarida mavzuviy aloqalar alohida dramaturgik vazifa bajarib, asarning yaxlit fikri (konsepsiysi)ni belgilaydi (Chaykovskiyning 4 - simfoniyasi finalida kirish mavzusi ikki marta o‘tkazilgan, kompozitorning 5-simfoniyasida kirish mavzusi keyingi barcha qismlarda o‘tkazilgan).

Sonata-simfonik turkum o‘zining klassik uslubida Gaydn va Motsart ijodida o‘rnashdi. Rivojlanishning eng yuqori cho‘qqisiga esa Betxoven ijodida yetishdi. Kompozitorlar-romantiklar sikl tuzilishiga ko‘plab yangilik kiritdilar. Berlioz va List ijodida simfonik siklning yangi turi – biror adabiy asar bilan bog‘liq bo‘lgan yoki ma’lum dasturga ega bo‘lgan **dasturiy simfoniya** yuzaga keldi. List ijodida turkumni

bir qismlilikka zichlashni namoyon etadigan asarlar paydo bo‘ldi (sonata h-moll, simfonik poemalar).

Sonata-simfonik sikl rivojlanishida eng muhim bosqich – rus kompozitorlari va ,ayniqsa, P.I.Chaykovskiy ijodi bo‘ldi. Uning simfonik ijodi dunyo musiqiy madaniyati tarixida eng buyuk cho‘qqi bo‘ldi.

O‘zbek simfoniyasi yaralishida hamda monodik meros va shakl hosil qilishning tipik milliy usullari yordamida sonata-simfonik siklning yangi dramaturgik asoslari tug‘ilishida katta rol o‘ynagan kompozitorlar ijodini nazardan chetda qoldirib bo‘lmaydi. M.Ashrafiy, G.Mushel, I.Akbarov, B.Giyenko, M. Tojiyev, M.Maxmudov, N. Zokirov va boshqalar shular jumlasidandir.

### **Asosiy tushunchalar:**

**Sikl** – grekcha so‘z bo‘lib, doira, aylana degan ma’noni ifoda etadi. Siklli shakl umumiy g‘oya ostida birlashtirilgan u yoki bu doiradagi musiqiy obrazlar (sur’atlar, janrlar) ni qamrab oladi. Siklning barcha qismlari yopiq (tugal) bo‘lib, reprizali ijro nazarda tutilmaydi.

**Syuita** so‘zi ketma-ketlik, izchillik degan ma’noni anglatadi.

**Sonata** janr sifatidako‘p qisqli turkum asar bo‘lib, bir necha shaklan mustaqil, mazmuni va xarakteriga ko‘ra turlicha qismlardan tashkil topadi.

### **Nazorat savollari:**

1. Qanday shakl turkumli deb ataladi?
2. Qismlar mutaqilligi nimalarda o‘z ifodasini topadi?
3. Sikl so‘zi nimani anglatadi?
4. Cholg‘u musiqasida yuzaga kelgan turkumli shaklning ikki asosiy ko‘rinishi qaysi?
5. Syuita so‘zi nimani anglatadi?
6. Syuitaga qanday qo‘sishimcha raqlar kiritilgan?
7. XIX asrda qanday syuita yuzaga keldi?
8. Sonata haqida nimalarni bilasiz?
9. Simfoniya nima?

10. Sonata-simfoniksikl necha qismdan tarkib topadi?

11. Konsert janri haqida nimalar bilasiz?

## **10-mavzu. OPERA, ORATORIYA, KANTATA**

### **1-§. Umumiy tavsif.**

**Opera.** Musiqa, matn va sahna harakatlari bilan birlashtirilgan murakkab sintetik asar **opera** deb ataladi. Operada musiqa nafaqat she'riyat qoidalari, balki mazkur asarning sahna dramaturgiyasi xususiyatlari bilan bog'liq bo'ladi. Musiqa opera asosi sanaladi. Opera xarakteri musiqa dramaturgiyasi qonunlari bilan belgilanadi.

Opera – musiqaning barcha ko'rinishlari : solo, ansambl va xor bo'lib kuylash, raqs, harakatlarga cholg'u jo'rligi, mustaqil cholg'u musiqasi kabilar o'z ifodasini topgan musiqiy asarning yagona turidir.

Opera idrok etishning davomiyligiga ko'ra cholg'u musiqasining barcha turkumli shakllaridan ustunlik qiladi.

Opera matni **libretto** deb yuritiladi. Libretto – musiqa asari talablariga moslashtirilgan dramatik asarni qayta ishlash natijasida yaratiladi (Chaykovskiyning "Yevgeniy Onegin" operasi librettosi Pushkinning she'riy romani asosida yozilgan).

Opera, ma'lum syujetga asoslangan har qanday sahna asari kabi, akt (parda), kartina (ko'rinish), sahnalarga bo'linadi. Opera asari yaxlitligiga, avvalo, sof musiqiy vositalar hisobiga erishiladi. Yaxlitlikni yaratishda takrorlar va bir yoki bir necha asosiy musiqiy mavzuni rivojlantirishning turli usullari asos bo'lib xizmat qiladi.

Bunday mavzular hamma vaqt ishtirokchi shaxslar tavsifi bilan bog'liq va **leytmotiv, leytmavzu, leytxarakteristika** deb ataladi.

Opera ichidagi pardalar boshqa syujetli sahna shakllari pardalari bo'ysunadigan qonunlar bo'yicha o'zaro nisbatlanadi: syujetni, asosiy qatnashchilar xarakteri va ularning o'zaro munosabatlarini ekspozitsiyalash(ko'rsatish) birinchi aktda ro'y beradi, yechim oxirgi aktda, voqealar va xarakterlar rivoji o'rta pardada.

Musiqiy dramaturgiya asosida, odatda, ikki musiqiy obraz konflikti (ziddiyati) yoki ularni qarama-qarshi qo'yish yotadi, bu intonatsion dramaturgiyada – asarning asosiy elementlari to'qnashuvi va rivojlanishida o'z aksini topadi. Operaning ta'sir kuchi aynan musiqiy dramaturgiya keskinligi bilan belgilanadi.

Istalgan turkumli musiqiy asarda bo'lgani kabi operada ham ko'plab alohida kulminatsiya (mazkur sahna, vaziyat, nomer va h.k. uchun kulminatsiya) bo'lishi mumkin. Asarning umumiy kulminatsiyasi (avji) ko'p hollarda operaning so'nggi ko'rinishlaridan (kartina) biriga to'g'ri keladi.

## **2-§. Operaning kelib chiqishi va turlari.**

San'at asari sifatida opera birinchi bor XVII asr boshlarida Italiyada shakllangan. Operaning kelib chiqishi va rivojlanishi Yevropa musiqasida gomofon uslubning asta-sekin mustahkamlanishi bilan bog'liq. Unda kuyning jo'rlikdagi hissiy ifodaviyligi asosga aylandi.

XVII va XVIII asr opera musiqasida jiddiy opera (Italiyada – "opera-seria", Fransiyada – "grand-opera") va hajviy opera (Italiyada – "opera-buff", Fransiyada – "opera-komik") tarzida bo'linish mavjud.

**Opera turlari.** Opera asari tuzilishining ikki asosiy turi ma'lum:

- 1) yopiq nomerlar tizimiga asoslangan operalar;
- 2) uzluksiz o'tuvchan rivojlanishga asoslangan operalar.

Ko'pincha bu ikki tamoyilni birlashtirish hollari, ba'zida ulardan birining ustunligi bilan kuzatiladi.

Ko'pincha, nomerli strukturali operada alohida nomerlarning yakuniy lavhalari, ularning yakunlovchi xarakteriga qaramay, harakatning to'xtashiga olib kelmaydi, zero garmoniya va faktura vositalari bilan kompozitor go'yo kutilayotgan tanaffusni bartaraf etadi va harakatning bevosita davom etishiga erishadi.

Va aksincha, rechitativ tuzilishli operada va o'tuvchan rivojlanishli turdag'i operada yirik, mazmun va shakliga ko'ra mustaqil, operaning qolgan musiqasidan anchagina aniq ajratilgan nomerlar bo'lishi mumkin.

Opera – qurilgan mavzuiyligi xarakteriga va uni rivojlantirish usullariga ko‘ra ikki asosiy turga bo‘linadi:

- 1) bayonning qo‘sinq-kuyligi tuzilishi ustuvorlik qiladigan operalar (ko‘pincha nomerli struktura bilan bog‘liq);
- 2) bayonning rechitativ tuzilishi ustuvorlik qiladigan operalar (odatda, o‘tuvchan harakatli operaga mos keladi).

Rechitativning u yoki bu ko‘rinishi operaning u yoki bu turiga taalluqli emas. Bayonning rechitativ turi uchun kuy suratini yaratish va unda aksentlarni (urg‘ularni) matnning nutqiy talaffuz qonunlariga muvofiq joylashtirishga intilish xarakterli.

#### **Opera rechitativining asosiy turlari:**

- **Quruq rechitativ** – solo ovozining vokal yo‘liakkordlar bilan quvvatlanadi, vokal yo‘lining kuychan ifodaviylichi shartli va sezilarli emas. Amalda, rechitativning bu turi kuylab deklamatsiyalashga teng. Quruq rechitativ bog‘lov, ya’ni operaning bir nomeridan boshqasiga o‘tish vazifasini bajaradi.
- **Kuylashtirilgan rechitativ** – kuychan ifodaviylikka ega bo‘lib, mazkur ishtiroykchi shaxsning asosiy tavsiflariga yaqin alohida ohang va iboralarni o‘z ichiga oladi.

Kuylashtirilgan rechitativ deganda, odatda, rivojlangan orkestr jo‘rligi nazarda tutiladi, unda garmoniya va faktura vositalari qahramon xarakteri va xulqining turli detallarini ta’kidlaydi.

#### **3-§. Opera asarini tashkil etadigan shakl va janrlar.**

Opera tarkibiga kiradigan shakliga ko‘ra mustaqil musiqiy nomerlar orasida **ariya** yetakchi o‘rin tutadi.

Ariyada qatnashchi-shaxsning asosiy tavsifi va qahramonni xarakterlaydigan asosiy musiqiy mavzu materiali beriladi.

Ariya tuzilishi turlicha: ikki qismli, uch qismli, rondo bo‘lishi mumkin. Istisno tarzida sonata shaklidagi ariya ham uchrab turadi. Masalan, Glinkaning «Ruslan va Lyudmila» operasida Ruslan ariyasi.

**Ikkinchি darajali personajlar** boshqa shakllar (ariozo, romans, qo'shiq) yordamida xarakterlab berilishi mumkin.

**Ariozo** ariyadan mazmuni va hajmiga ko'ra farq qiladi. U qatnashchi-shaxsning qaysidir hodisa bilan bog'liq qisman tavsifini ifoda etadi.

Ariozoda qahramonning qaysidir personajga munosabati yoki uning ma'lum hodisaga reaksiyasi aks etadi. Ariozo hamma vaqt harakatning qaysidir sharoiti bilan bog'liq bo'ladi (Lenskiyning «Men Sizni sevaman, Olga» ariozosi). Ariozo ko'pincha uch qismli tuzilishga ega bo'ladi.

**Arietta**— kichik ariY. Ariyettalar uch qismli, ikki qismli va bir qismli shakllarda yoziladi.

Qahramonlarni xarakterlaydigan boshqa opera janrlari: kavatina, romans, ballada, serenada, kansonalar turlicha mazmun va vazifaga ega bo'lishi mumkin.

**Ballada** – bayon qilishning darak xarakteri bilan bog'liq bo'lib, unga kupletlilik xos.

Kavatina, romans, serenada mazmuni, odatda, qahramonning lirik kechinmalari bo'lib, ular ko'pincha uch qismlidir.

**Ansambllar.** Operada ishtirokchilar soniga ko'ra duet, trio, kvartet deb nomlanadigan solistlar ansambl uchun pyesalar muhim ahamiyatga ega.

«Rozilik» va «kelishmovchilik» duetlari farqlanadi.

«Rozilik duetida» ikkala qahramon biror hodisaga bir xilda reaksiya qiladi, bu ularning xarakteriga ko'ra o'xshash kuy – fikrlarida o'z ifodasini topadi.

«Kelishmovchilik duetida» qahramonlar aynan bir hodisaga turlicha munosabat bildiradi. Bu ularning vokal yo'llari turlicha bo'lgan kuy qiyofasida o'z ifodasini topadi. Bunday duetda rivojlanish mustaqil kontrast kuylarning navbatma-navbat almashinuvi va bir-biriga o'tishuviga asoslanadi.

**Murakkab ansambllar** (trio, kvartet, kvintet) hamma qatnashchilar uchun umumiyoq bo'lgan mavzu materialiga yoki har biri qahramonlardan birini tavsiflashga qaratilgan kontrastli qarama-qarshi qo'yilgan kuylarni rivojlantirilishiga asoslanishi mumkin.

**Operada xor** hamma vaqt ommaviy sahnalar bilan bog‘liq (istisno – Glinkaning «Ruslan va Lyudmila» operasidan «O‘lik bosh» xori).

Ba’zida xor mazkur hodisaga bir xildagi munosabat bilan birlashgan kishilar guruhiga xarakteristika beradi . Bu xalq ommasi, shaharliklar to‘dasi, harbiylar guruhi va sh.k. bo‘lishi mumkin.

Xor nomerlarining musiqiy mavzular materiali ko‘pincha maishiy janrlar bilan bog‘liq.

Qo‘sinq – ommaviy musiqaning eng ko‘p tarqalgan shakli ko‘rinishidagi xorlar ,ayniqsa, keng tarqalgan.

Operada **orkestr** nafaqat rang-barang jo‘rlik vazifasini bajaradi, balki ayrim vaziyatlarda yagona ifoda ibtidosiga aylanadi. Orkestr nomerlariga uvertyura va musiqiy antraktlar kiradi.

Ko‘plab operalarda orkestr butun asar davomida birinchi darajali rol o‘ynaydigan musiqiy dramaturgiyaning yetakchisiga aylanib qoladi.

**Uvertyura** – (fransuzcha **ouverture**, lot. apertura – ochilish, boshlanish, ibrido) opera, oratoriya, balet, drama oldidan keladigan orkestr pyesasi, shuningdek, sonata shaklidagi mustaqil orkestr asari.

**Uvertyura** mavzu jihatidan opera musiqasi bilan bog‘lanmasligi mumkin. Bu holda uvertyura kayfiyati opera xarakteriga mos keladi. Ko‘plab operalarda uvertyura, introduksiya va muqaddimalar spektaklning asosiy musiqiy mavzulariga tuziladi.

Opera uvertyularida sonata shakli, rivojlovsiz sonata shakli, qisqartirilgan reprizali sonata shakli ko‘p tarqalgan. So‘nggi holda repriza o‘rnida koda paydo bo‘ladi.

**Introduksiya va muqaddimalar tipidagi orkestr pyesalari** ko‘pincha kichik hajmi bilan ajralib turadi, biroq anchagina uzoq davom etilishi ham mumkin. Opera introduksiya va muqaddimalari uchun ko‘pincha uch qismli shakl tanlanadi.

**Orkestr antraktlari** – (tanaffuslari) operalarda keyingi pardalari (akt)harakatlarini tayyorlaydi. Ba’zan antraktlar keyingi harakatning asosiy hodisasiga mos kayfiyat yaratadi. Akt ichidagi orkestr lavhalarini harakat (o‘rmon,

dengiz sohili)yoki biror hodisa sharoitini (suv toshqini, jang, yong'in) tasvirlab berganida, ular haqida ham shuni aytish mumkin. Ba'zan akt ichidagi cholg'u nomeri uning xarakterini belgilaydigan nom (marsh, polonez) bilan ataladi.

Ko'rindiki, ko'p hollarda operadagi mustaqil orkestr lavhalari dasturiy musiqa sohasiga kiradi.

#### 4-§. Oratoriya

Oratoriya – solo ovozlari, xor va orkestr (organ) uchun musiqiy-dramatik asar bo'lib, operdan farqli o'laroq konsert sharoitida yoki cherkovda ijro etishga mo'ljallangandir (italyancha **oratorio** va kechki lotincha **Oratorium** – ibodat xonasi, lotincha **oro** - gapiraman, yolvoraman).

Oratoriya ko'plab qirralari (asar ichida tugal nomerlar: uvertyura, ariya, duet, xorlarning mavjudligi) bilan operaga o'xshash, ammo sahna emas, konsert ijrosi uchun mo'ljallangan.

Oratoriya taxminan opera bilan bir vaqtida yuzaga kelgan va cherkov musiqasini dramalashtirish natijasi sanaladi. O'tgan asrlarda ko'plab oratoriyalar uchun syujet asosi sifatida injil kitobidan ilohiy matnlar, diniy afsonalar tanlangan.

Xristos (Iso payg'ambar) azoblarini tasvirlaydigan *oratoriyalar* "Iztiroblar" (Passionlar) deb ataladi. Oratoriyani tashkil etadigan qism shakllari xudi opera shaklidagi kabi rang-barang bo'ladi.

Zamonaviy musiqada oratoriya janri ancha erkin talqin qilinadi. Biroq oratoriyaning majburiy belgilari – mavzuning ijtimoiy ahamiyatliligi, asar hajmining monumentalligi, xorning asosiy ifodaviy ibtido sifatidagi ishtiroki – saqlanib qoldi.

#### 5-§. Kantata

Kantata (italyancha cantare – kuylamoq so'zidan) – ko'p qismli tantanavor yoki hikoyali-epik xarakterdagi vokal-cholg'u asari. Kantata oratoriyadan kichik hajm bilan farq qiladi. Kantatada syujetning dramatik ishlovi mavjud emas. Mazmuniga ko'ra cherkov va dunyoviy kantatalar farqlanadi. Cherkov kantatalari ibodat chog'ida ijro etiladi. Dunyoviy kantatalar konsert ijrosi uchun mo'ljallangan.

Kantatalar bir-biridan ajratilgan yoki uzliksiz ketma-ketlikda keladigan bir necha qismdan iborat.

### **Asosiy tushunchalar:**

**Opera** – musiqa matn va sahna harakatlari bilan birlashtirilgan sintetik asar.

**Oratoriya** – solo ovozlari, xor va orkestr (organ) uchun musiqiy-dramatik asar bo‘lib, operdan farqli o‘laroq konsert sharoitida yoki cherkovda ijro etishga mo‘ljallangan.

**Kantata** – ko‘p qismli tantanavor yoki hikoyali-epik xarakterdagi vokal-cholg‘u asar.

### **Nazorat savollari:**

1. Opera nima?
2. Operada musiqaning qaysi turlaridan foydalilanadi?
3. Opera nimaga asoslanadi, opera asari yaxlitligiga qanday erishiladi?
4. Opera ichida aktlar qanday nisbatlanadi?
5. Har bir sahna xarakteri nima bilan belgilanadi?
6. Operadagi kulminatsiya haqida nimalar bilasiz?
7. Operaning kelib chiqishi va rivojlanishi haqida nimalar bilasiz?
8. Operaning qanday turlarini bilasiz?
9. Mavzu xarakterigako‘ra opera qanday turlarga bo‘linadi?
10. Opera rechitativining qaysi asosiy turlarini bilasiz?
11. Opera asarini qaysi shakl va janrlar tashkil etadi?

### **Badiiy namunalar**

#### **Opera:**

Motsart. “Don Juan”, “Figaroning to‘yi”.

J.Bize. “Karmen”.

A.Borodin. “Knyaz Igor”.

S.Varelas. “Aloviddinning sehrli chirog“i”.

M.Glinka. “Ivan Susanin”, “Ruslan va Lyudmila”.

P.I.Chaykovskiy. “Yevgeniy Onegin”.

### **Oratoriya va kantata:**

M.Ashrafiy. “Baxt haqida qo‘shiq” kantatasi.

I.S.Bax. “Kofe kantatasi”.

G.F.Gendel. «Samson» oratoriyasi.

M.Leviyev. “Oq oltin”, “Yorqin yo‘l” kantatalari.

Prokofyev. “Tinchlik himoyasida” oratoriyasi, “Aleksandr Nevskiy” kantatasi.

Raxmaninov. “Bahor”, “Qo‘ng‘iroqlar”.

P.Chaykovskiy. “Moskva” kantatasi.

D.Shostakovich. “O‘rmon haqida qo‘shiq” oratoriyasi.

## **ADABIYOT**

1. Абызова Е.А. Гармония. М., 2008.
2. Akbarov I.A. Musiqa lug‘ati. Maxsus muharrir G‘ofurbekov. T.B., 2- nashri, Т., 1997.
3. Алексеев Б. Задачи по гармониию. М., 1982.
4. Azimova O.N. Garmoniya. Nazariy kurs. Т., 2000.
5. Vaxromeyev. V.A. Musiqaning elementar nazariyasi. Т., 1983.
6. Дубовский И, Евсеев С, Способин И, Соколов. Гармония дарслиги. Т., 1987
7. Зелинский В. Курс гармонии в задачах. М., 1971.
8. Красинская Л., Уткин В. Элементарная теория музыки. М., 1983.
9. Курс теории музыки. Редактор А.Л.Островский. Л., 1978.
10. Можжевелов Б. Мелодии для гармонизации. Л., 1982.
11. Музикальный энциклопедический словарь. Главный редактор Г.А.Келдыши. М., 1990.
12. Мутли. А. Сборник задач по гармонии. М., 1986
13. Мясоедов А. Учебник гармонии М., 1980
14. Основы теоретического музыкознания. Редактор М.И.Ройтерштейн. М., 2003.
15. Островский Л.А. Методика теории музыки и солфеджио. Л., 1970.
16. Панова Н. Конспекты по элементарной теории музыки. М., 2003.
17. Парсегова. А.П. Музикальная форма. Т., 2007.
18. Потапова И.Ю. Учебник по гармонии. Свердловск, 2006.
19. Raximov Q. Musiqaning elementar nazariyasi. Ma'lumotnoma. Т., 2007.
20. Скребкова О., Скребков С. Хрестоматия по гармоническому анализу. М, 1978.
21. Sposobin I.V. Musiqa shakli. Т. 1985.
22. Способин И.В. Элементарная теория музыки. М., 1985.
23. Тюлин Ю.Н. Учебник гармонии. М., 1988.

# MUNDARIJA

<b>KIRISH.....</b>	<b>3</b>
<b>I QISM. MUSIQA NAZARIYASI ASOSLARI .....</b>	<b>6</b>
<b>1- mavzu. MUSIQIY TIZIM .....</b>	<b>6</b>
1-§. Musiqa san'ati va uning o'ziga xos xususiyatlari. Musiqaning asosiy ifodali vositalari. Badiiy obraz. ....	6
2-§. Musiqiy tovush va uning xususiyatlari. ....	7
3-§. Musiqiy tizim. Tovushqator.....	9
<b>2- mavzu. NOTA YO'ZUVI. ASOSIY CHO'ZIMLAR .....</b>	<b>12</b>
1-§. Nota yo'li. Akkolada. Nota belgisi. ....	12
2-§. Kalitlar tizimi. Tovushlar cho'zimlari. ....	13
3-§. Cho'zimlarni uzaytiruvchi qo'shimcha belgilar. Pauzalar .....	15
4-§. Nota yozuvini qisqartirish belgilar .....	16
<b>3- mavzu. TOVUSHLAR ENGARMONIZMI. TOVUSHLARNI BELGILASH HARFIY TIZIMI .....</b>	<b>18</b>
1-§. Temperatsiyalangan soz. Alteratsiya belgilari.....	18
2-§. Tovushlar engarmonizmi. Diatonik va xromatik ton va yarim tonliklar.....	20
3-§. Tovushlarni belgilash harfiy tizimi.....	20
<b>4- mavzu. METR VA RITM.....</b>	<b>22</b>
1-§. Metr. Takt. O'lchov. ....	22
2-§. Metr turlari. Oddiy metrlar. Oddiy taktlarda cho'zimlarning guruhanishi.....	24
3-§. Murakkab metrlar. Murakkab taktlarda cho'zimlarning guruhanishi .....	25
4-§. Ritm. Sinkopa. Cho'zimlarning erkin ravishda bo'linishi.....	27
<b>5- mavzu. INTERVALLAR.....</b>	<b>31</b>
1-§. Interval. Pog'onalar va tonlar miqdori.....	31
2-§. Diatonik intervallar .....	33
3-§. Xromatik intervallar. Intervallar engarmonizmi.....	34
5-§. Intervalning aylanishi .....	36
<b>6- mavzu. LAD VA TONALLIK .....</b>	<b>37</b>
1-§. Turg'unlik va noturg'unlik. ....	37
2-§. Lad. Lad tovushqatori. ....	38
3-§. Major va minor ladlar garmonik tizimi. ....	39
4-§. Lad pog'onalari funktsiyalari.....	41
5-§. Major va minor turlari. Gamma.Tetraxord. Tonallik. ....	42
<b>7- mavzu. MAJOR LADI VA TONALLIKLARI .....</b>	<b>44</b>
1-§. Majorning garmonik va melodik turlari. ....	44
2-§. Major tonalliklari. ....	44
<b>8- mavzu. MINOR LADI VA TONALLIKLARI.....</b>	<b>46</b>
1-§. Minorning garmonik va melodik turlari .....	46
2-§. Minor tonalliklari. ....	47
3-§. Parallel, nomdosh va engarmonik teng tonalliklar .....	49
<b>9- mavzu. TABIIY MAJOR VA MINOR INTERVALLARI.....</b>	<b>51</b>

1-§. Tabiiy major va minor intervallari.....	51
<b>10- mavzu. XARAKTERLI INTERVALLAR .....</b>	<b>53</b>
1-§. Xarakterli intervallarning tuzilishi.....	53
2-§. Intervallarning yechilishi. ....	55
<b>11- mavzu. AKKORDLAR. UCHTOVUSHLIKlar .....</b>	<b>57</b>
1-§. Akkord. Akkord turlari .....	57
2-§. Uchtovushlik. Uning turlari va aylanmalari .....	58
<b>12- mavzu. ASOSIY UCHTOVUSHLIKlar.....</b>	<b>60</b>
1-§. Major va minor uchtovushliklari. Asosiy uchtovushliklar.....	60
2-§. Yondosh uchtovushliklar .....	61
3-§. Garmonik major va garmonik minor uchtovushliklari. ....	62
<b>13- mavzu. DOMINANTSEPTAKKORD.....</b>	<b>64</b>
1-§. Septakkord. Uning turlari va aylanmalari.....	64
2-§. Dominantseptakkord .....	65
<b>14- mavzu. YETAKCHI SEPTAKKORD .....</b>	<b>67</b>
1-§. Yetakchi septakkord turlari.....	67
2-§. Yetakchi septakkordning yechilishi.....	68
3-§. Subdominantseptakkord.....	69
<b>15- mavzu. XALQ MUSIKASI LADLARI.....</b>	<b>71</b>
1-§. Melodik ladlar. Tabiiy ladlar. ....	71
2-§. Pentatonika.....	75
3-§. Ikkilanma garmonik major va minor .....	76
4-§. Sun’iy ladlar.....	77
<b>16- mavzu. XROMATIZM. MODULYATSIYA .....</b>	<b>79</b>
1-§. Alteratsiya va xromatizm.....	79
2- §. Modulyatsiya. Tonalliklar qardoshligi. ....	80
3- §. Xromatik gamma. ....	82
<b>17- mavzu. MUSIQIY SINTAKSIS.....</b>	<b>83</b>
1-§. Musiqa asarida kuyning ahamiyati .....	83
2-§. Kuy harakati .....	84
3-§. Kuyning tarkiblarga bo‘linishi.....	85
4-§. Transpozitsiya usullari .....	87
5-§. Tonalliklarni aniqlash .....	88
<b>II QISM. GARMONIYA .....</b>	<b>90</b>
<b>1-mavzu. MUSIQIY ASAR RIVOJLANISHIDAGARMONIYANING AHAMIYATI.....</b>	<b>90</b>
1-§. Garmoniya haqida tushuncha.....	90
2-§. Asosiy uchtovushliklar funksional tizimi. ....	92
3-§. Major va minorning to‘liq funksional tizimi. ....	93
<b>2-mavzu. TO‘RT OVOZLIK TUZILMA .....</b>	<b>95</b>
1-§. Ladning asosiy uchtovushliklari .....	95
2-§. To‘rtovozlik tuzilma. ....	95
3-§. Ovozlar yo‘nalishi.....	96

4-§. Akkordlar tuzilishi .....	96
5-§. Akkordlar joylashuvi .....	97
<b>3-mavzu. ASOSIY UCHTOVUSHLIK LARNING QO'SHILISHI .....</b>	<b>98</b>
1-§. Uchtovushliklar nisbatlari.....	98
2-§. Kvarta-kvinta nisbatidagi uchtovushliklar qo'shilishi.....	98
3-§. Sekunda nisbatidagi uchtovushliklar qo'shilishi. ....	99
<b>4-mavzu. KUYNI ASOSIY UCHTOVUSHLIK LAR BILAN GARMONIYALASH.....</b>	<b>101</b>
1-§. Umumiylar .....	101
2-§. Garmoniyalashtirish qoidalari.....	101
3-§. Kuyni garmoniyalashtirish usullari.....	102
4-§. Sopranoda tersiya sakramalari. ....	103
<b>5-mavzu. AKKORDLARNING O'RIN ALMASHINUVI. BASNI GARMONIYALASH.....</b>	<b>104</b>
1-§. Akkordlarning o'rin almashinuvi turlari.....	104
2-§. Basni garmoniyalash.....	105
<b>6-mavzu. DAVRIYA. JUMLA. KADENSIYALAR. KADANSKVARTSEKSTAKKORDI.....</b>	<b>107</b>
1-§. Tuzilma qismlari. ....	107
2-§. Kvartsekstakkordlar.....	108
3-§. K <sup>6</sup> <sub>4</sub> tayyorlanishi va yechilishi. ....	109
<b>7-mavzu. ASOSIY UCHTOVUSHLIK LAR SEKSTAKKORDLARI.....</b>	<b>111</b>
<b>IKKITA SEKSTAKKORDNING QO'SHILISHI .....</b>	<b>111</b>
1-§. Sekstakkordda juftlanish. ....	111
2-§. Ovoz yo'nalishi. ....	112
3-§. Ovoz yo'nalishida ta'qiqilangan harakatlar .....	113
<b>8-mavzu. O'TKINCHI VA YORDAMCHI KVARTSEKSACKORDLAR.</b>	<b>115</b>
1-§. O'tkinchi kvartsekstakkordlar.....	115
2-§. Yordamchi kvartsekstakkordlar.....	116
<b>9-mavzu: SEPTAKKORDLAR .....</b>	<b>118</b>
1-§. Septakkordning turlari. ....	118
2-§. Bosh septakkordlar.....	119
3-§. Septakkordlar aylanmalari. ....	120
<b>10 mavzu: DOMINANTSEPTAKKORD VA UNING AYLANMALARI .....</b>	<b>120</b>
1-§. Akkordning tuzilishi. Uning qo'sh funksionalligi.....	120
2-§. Dominantseptakkordnini tayyorlanishi.....	122
3-§. Dominantseptakkordning yechilishi. ....	123
4-§. Dominantseptakkord aylanmalari.....	124
5-§. Akkordlarning qo'shilishi. ....	126
<b>11-Mavzu: II POG'ONA SEKSTAKKORDI VA UCHTOVUSHLIGI .....</b>	<b>128</b>
<b>VI-POG'ONA UCHTOVUSHLIGI. BO'LINGAN KADENSIYA .....</b>	<b>128</b>
1-§. Tuzilishi. Juftlanishi.....	128
2-§. II pog'ona sekstakkordining tayyorlanishi .....	129

3-§. II pog'ona sekstakkordining dominanta garmoniyalari kadans kvartsekstakordi bilan qo'shilishi .....	130
4-§. II pog'ona uchtovushligi va sekstakkordi qurshovidagi o'tkinchi tonika ....	130
5-§. VI pog'ona uchtovushligi. ....	130
<b>12- mavzu. SUBDOMINANTSEPTAKKORD (SII<sub>7</sub>) .....</b>	<b>133</b>
1-§. Tuzilishi. Belgilanishi .....	133
2-§. Subdominantseptakkordning aylanmalari. ....	133
3-§. Subdominantseptakkord tayyorlanishi va yechilishi. ....	134
4-§. Subdominantseptakkordning D7 bilan qo'shilishi .....	135
6-§. Garmonik majorda subdominanta guruhiakkordlari.....	136
<b>13- mavzu. YETAKCHI SEPTAKKORD .....</b>	<b>138</b>
1-§. Yetakchi septakkordning tuzilishi va belgilanishi.....	138
2-§. Yetakchi Septakkordning tayyorlanishi.....	139
3-§. Yetakchi septakkordning tonikaga yechilishi.....	139
4-§. DVII <sub>7</sub> ning ichki funktsional yechilishi .....	140
5-§. O'tkinchiakkordlar .....	141
6-§. Subdominantseptakkordning yetakchi septakkordlarga o'tishi.....	141
<b>14- mavzu. KAM QO'LLANILADIGAN DOMINANTA GURUHI AKKORDLARI.....</b>	<b>142</b>
1-§. O'tkinchi DVII <sub>6</sub> .....	142
2-§. TDIII pog'ona uchtovushligi. ....	143
3-§. Sekstali dominanta.....	144
<b>15- mavzu. SEKVENSIYALAR.....</b>	<b>144</b>
1-§. Sekvensiyalarning turlari.....	144
2-§. Birtonalli sekvensiya. ....	145
3-§. Sekvensiyalarning musiqiy asardagi ahamiyati.....	146
<b>16- mavzu. QO'SH DOMINANTA.....</b>	<b>147</b>
1-§. Qo'sh dominantaning tuzilishi va tayyorlanishi.....	147
2-§. Tuzilmaning ichidagi qo'sh dominanta. ....	148
3-§. Qo'sh dominantaning subdominantseptakkord bilan qo'shilishi. ....	148
<b>17-mavzu. TONALLIK NISBAT TURLARI. ....</b>	<b>149</b>
<b>OG'ISHMA .....</b>	<b>149</b>
1-§. Tonalliklar o'zaro nisbatlari.....	149
2-§. Og'ishmalar.....	150
3-§. Ovoz harakati.....	151
<b>18- mavzu. MODULYATSIYA .....</b>	<b>153</b>
1-§. Modulyatsiya haqida umumiylumot.....	153
2-§. Modulyatsiyalar turlari .....	154
3-§. Garmonik qardoshlikning darajalari. ....	155
<b>19-mavzu. ....BIRINCHI DARAJALI QARDOSH TONALLIKLARGA MODULYATSIYA .....</b>	<b>156</b>
1-§. Birinchi darajali tonalliklar qardoshligi.....	156
2-§. Vositachi va modulyatsiyalovchiakkordlar. ....	157
<b>20-mavzu. AKKORDSIZ TOVUSHLAR .....</b>	<b>161</b>

**21-mavzu. FAKTURA..... 164**

<b>III QISM. MUSIQA ASARLARI TAHLILI.....</b>	<b>168</b>
<b>1-mavzu. MUSIQIY SHAKL VA UNING UMUMIY ASOSLARI.....</b>	<b>168</b>
1-§. Musiqiy shakl tushunchasi.....	168
2-§. Qismlarning shakldagi vazifasi(funksiyasi) .....	170
3-§. Bayon turlari .....	171
4-§. Musiqa shaklida rivojlantirish tamoyillari.....	171
<b>2-mavzu. DAVRIYA VA UNING TURLARI.....</b>	<b>173</b>
1-§. Umumi tavsif. ....	173
2-§. O‘ziga xos xususiyatga ega va normativ bo‘limgan davriyalar.....	176
3-§. Davriya shaklining o‘ziga xos xususiyatlari.....	177
4-§. Bir qismli shakl.....	180
<b>3- mavzu: ODDIY IKKI QISMLI SHAKL, MURAKKAB IKKI QISMLI SHAKL, QADIMSONATA SHAKLI.....</b>	<b>182</b>
1-§. Umumi tavsif. ....	182
2-§. Oddiy ikki qismli shakl turlari .....	183
3-§. Oddiy ikki qismli shaklining yaratilishi va qo‘llanilishi .....	184
4-§. Rivojlantirilgan ikki qismli shakl. ....	185
5-§. Qadimiy rivojlantirilgan ikki qismli shakl.....	186
6-§. Qadimiy sonata shakli.....	187
<b>4-mavzu. ODDIY VA MURAKKAB UCH QISMLI SHAKL.....</b>	<b>189</b>
1-§. Umumi tavsif. Birinchi qism .....	189
2-§. O‘rtaliq qism. ....	189
3-§. O‘rtaliq qismdagi garmonik rivojlanish xususida. ....	190
4-§. Repriza. ....	191
5-§. Kelib chiqishi va qo‘llanishi xususida.....	192
6-§. Murakkab uch qismli shakl. Umumi tavsif.....	193
7-§. Tarkibli uch qismli shaklining tuzilishi. ....	194
8-§. Notarkibiy shakl.....	197
<b>5-mavzu. VARIATSION SHAKL.....</b>	<b>199</b>
1-§. Umumi tavsifi. ....	199
2-§. Variatsyaning turlari .....	200
3-§. Ostinato basga (basso ostinato) variatsiyalar.....	201
4-§. Qat’iy variatsiyalar.....	202
5-§. Qo‘s sh variatsiyalar.....	204
6-§. Erkin variatsiyalar.....	204
7-§. Soprano ostinato variatsiyalari.....	206
<b>6- MAVZU . RONDO SHAKLI.....</b>	<b>208</b>
1-§. Umumi tavsifi .....	208
2-§. Qadimiy rondo. ....	209
3-§. Klassitsizm davrida rondo. ....	209
4-§. XIX—XX asrlarda rondo shaklining rivojlantirilishi.....	211
5-§. Rondo shaklining qo‘llanishi. ....	212

<b>7-mavzu. SONATA SHAKLI.....</b>	<b>215</b>
1-§. Umumiy tavsif .....	215
2-§. Sonata shaklining tuzilishi.....	215
3-§. Sonata shakli turlari .....	216
4-§. Ekspozitsiyada tonallik munosabatlari .....	217
5-§. Rivojlov.....	219
6-§. Repriza .....	220
<b>8-mavzu. RONDO - SONATA .....</b>	<b>224</b>
1-§. Umumiy tavsif .....	224
2-§. Tonallik nisbatlari.....	226
3-§. Rondodagi sonatalilik .....	226
4-§. Refren tuzilishi.....	226
5-§. Birinchi lavha.....	227
6-§. Markaziy lavha.....	228
7-§. Repriza va koda.....	228
8-§. Rivojlanish tarixi va qo‘llanish sohasi.....	229
<b>9-mavzu. TURKUMLI ( SIKLLI) SHAKLLAR.....</b>	<b>230</b>
1-§. Umumiy tavsif .....	230
2-§. Syuita .....	231
3-§. Yangi syuita .....	233
4-§. Sonata-simfonik sikl (turkum).....	234
<b>10-mavzu. OPERA,ORATORIYA, KANTATA .....</b>	<b>238</b>
1-§. Umumiy tavsif .....	238
2-§. Operaning kelib chiqishi va turlari .....	239
3-§. Opera asarini tashkil etadigan shakl va janrlar .....	240
4-§. Oratoriya .....	243
5-§. Kantata .....	243
<b>ADABIYOT.....</b>	<b>246</b>